

ERKIN A'ZAM

ERTAK BILAN XAYRLASHUV

Qissalar va hikoyalar



“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent

84(5U)6

A'zam Erkin.

A94 **Ertak bilan xayrlashuv:** qissalar va hikoyalar/Erkin A'zam. — T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 200 b.

Mazkur to'plamga adibning asosan beg'ubor bolalik, orzumand o'smirlik mavzuidagi qissa va hikoyalari jamlandi. Turli yillarda yozilgan bu asarlar hamon zo'r zavq va maroq bilan o'qilishiga shubha yo'q.

BBK 84(5U)6

E $\frac{4702620201}{358-2007}$

ISBN 978-9943-07-033-2

© “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”
Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

GAPNI O‘ZIMDAN BOSHLASAM...

Rahmatli bibim “Asad oyida, ayni qovun pishig‘ida tug‘il-gansan”, deb gapirardilar. Onamning eslashlaricha, poda qaytar mahali dunyoga kelgan ekanman. Qarang, ilmda shuning ham ahamiyati bor — kunning qay payti dunyoga kelishi keyinchalik insonning fe‘l-atvori, taqdiriga ta’sir etar emish. Bo‘lsa bordir, peshona. Qachon, qay mahal yoki qayerda tug‘ilish odamzod-ning qo‘lida emas. Lekin mening poda qaytar mahali tavallud topganim aniq — buni meni dunyoga keltirgan odam aytgan.

Bu voqea 1950-yilning 10-avgust kuni Surxondaryo viloya-tining Boysun tumanida sodir bo‘lgan. Men bundan aslo pushay-mon emasman: tug‘ilgan sanamdan ham, ko‘z ochgan joyimdan ham. Dunyoning Toshkent yoki, deylik, Parij degan manzillarida tug‘ilmoqni havas qilmaganman, buning iloji ham yo‘q...

Men go‘daklik chog‘imda otam Termizdagi pedtexnikumni bitirib, maktabda muallim bo‘lganlar. Esimni tanigach, ba’zilar u kishiga “domla, domla” deb murojaat qilganida, dastlab taaj-jublanganim shundan. Chunki otam keyinchalik Toshkentda o‘qib, tuman miqyosidagi katta-kichik lavozimlarda xizmat qildilar. Boysunning boobro‘ odamlaridan hisoblanib, keksalikda o‘zlari oqsoqollik qilgan yirik bir mahalla hozir u kishining nomi bilan yuritiladi.

Asli muallimlikdan chiqqan emasmi, otam kitobga rosa o‘ch edilar. Turli xo‘jalik va qurilish tashkilotlarida ishlagan kezlari-da ham kitobxonlikni kanda qilmagan, ishdan kech qaytib, yana tungi soat bir-ikkilargacha, qo‘llarida qalam, mutolaa bilan mashg‘ul bo‘lar edilar. Buni ta’kidlashimning sababi — odatda bunday sohalarga daxldor ko‘pchilik, ayniqsa, rahbarlik lavo-zimlariga o‘tgach, kitob-pitobni unutib yuboradi.

Biz, o‘n bir farzand, ana shunday muhitda tarbiya topgan-miz. O‘zim kitobxonlikni boshlaganimda, oilaviy kutubxonamiz-

da “Xamsa”dan tortib “Tom Soyerning boshidan kechirganlari”gacha bor edi. Ta’bir joiz ko’rilsa, xonadondagi ma’rifiy musobaqa tufayli, aka-uka va opa-singillar bari maktabda ham, oliy o’quv yurtlarida ham doim peshqadamlar qatorida bo’ldi.

Onamiz maktab ko’rmagan, lekin ko’p dono ayol. Maqol-matalsiz gapirmaydilar. Bularning aksariyatini o’zlari to’qiganlariga shubham yo’q. “Mening akademik enam”, deb hazillashib qo’yaman gohida. Kattakon ro’zg’orning asosiy tashvishi, “musofir o’g’illar” — bizni har soat duo qilish, alqashdan tortib, bir karvon nevara-chevaraning erkalig-u injiqliklari hali-hamon kampir onamizning zimmasida.

Men maktabda yaxshi o’qiganman. Hamma fandan ilg’or bo’lishga intilardim. Ammo o’lgudek ta’sirchan, xayolparast ham xiyla aks — qaysar edim. O’zimcha zo’r adolatparast edim. Kitob-u kitobxonlikdan boshqa mashg’ulotlardan qochganim rost.

Garchi, taxminan to’rtinchi-beshinchi sinflardan she’r-u hikoya yoza boshlagan, shu niyat ko’ngilga qattiq o’rnashgan bo’lsa-da, xayolimda uchuvchi ham bo’lib ko’rdim, tog’- u tosh kezdigan geologlikka ham qiziqib yurdim. Qani, ham yozuvchi bo’lsam-u ham uchuvchi-yu geolog bo’lsam! Bolalik orzulari-da. Musiqayu drama san’atiga ham ishtiyoqim zo’r edi. O’rgamchik dramalar yozib, maktab sahnasida namoyish etganlarim esimda. O’jarligimdanmi, ko’p pand ham eganman.

O’qiyimiz deb Toshkentga keldik: Usmon Azim, Muhammad Rahmon, Nodir Normat va men. Saraton, to’rtovimizning ham sochimiz tap-taqir qirilgan, universitet oldidagi maysazor xiyo-bonda uzala tushib, kirish imtihonlariga tayyorlanamiz. To’rtovimiz ham matbuotda uncha-muncha ko’rinib qolganmiz, shoirlikka da’vogarmiz, “shoirlik”ka kirmoqchimiz. Usmon ikkalamiz Beshog’ochdagi ijara uyimizdan shu yergacha qo’l ushlab ketamiz: tramvay-pramvayga chiqsak, boshqa yoqqa opqochib ketishi mumkin! Yo’lni durust bilmaymiz-da.

Universitetda o’qigan yillarim men ko’pchilikka aralashaver-masdim. Bir yoqlarda ijarada turar, o’zim bilan o’zim, tun-u kun qissa va hikoya mashq qilar, ammo xuddi nozik bir sirim fosh bo’lib qoladigandek, ularni hech kimga ko’rsatmas edim.

1972-yili jurnalistika fakultetini bitirib, respublika radiosida ishlay boshladim. Avval ozroq muddat “Vatandosh” tahririyatida diktorlik qildim, keyin adabiy-dramatik eshittirishlar bo‘limida muharrir bo‘ldim. Bu tahririyatda adabiy hayot rosa qizg‘in edi, yozilgan har bir yangi she‘r yo hikoya dastlab shu yerga kelardi.

1974-yili biryo‘la ikki jurnalda — “Guliston” va “Sharq yulduzi”da turkum hikoyalarim e‘lon qilindi. O‘sha davrlarda bu hol katta gap edi. Birdan yozuvchi bo‘ldim-qoldim. Tahririyatlar mendan hikoya so‘ragan, nashriyotlar kitobimni chiqarishga ishqiboz!

Mashhur “Guliston”da chiqqan “Shahardan odam keldi” hikoyam sababmi, meni jurnalga ishga oldilar. Bu ham hazilakam gap emas edi. Unutilmas ustoz Asqad Muxtor panohida besh yil shu dargohda ishladim, uncha-muncha narsaga aqlim yetadigan bo‘lib qoldi.

Bu orada — 1977-yili “Chiroqlar o‘chmagan kecha” nomli ilk hikoyalar to‘plamim nashr etildi. Shu yil yozilgan “Otoyining tug‘ilgan yili” degan qissam keyinroq “Guliston”da bosilib, bozorim yanada chaqqon bo‘lib ketdi. Shu nomdagi kitobim uchun (1981-yil) yoshlar mukofotining sovrindori ham bo‘ldim.

1981-yili “Yoshlik” jurnali tashkil etilib, bir necha yil unda nasr bo‘limini boshqardim. Undan keyin G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda kattakon bir tahririyatga mudir bo‘lib o‘tib, yetti yil shu yerda yurdim. Muharrirlikdan ortib, uncha-muncha kitob ham yozdim: “Olam yam-yashil”, “Javob”, “Bayramdan boshqa kunlar”, “Pakananing oshiq ko‘ngli”, “Mir v svetax” (rus tilida) va hokazo. Ko‘p narsalarim chet tillarga tarjima qilindi, ayrimlari (hammualliflikda) kitob sifatida nashr etildi. Chunonchi, 1991-yili chex tilida chiqqan “Shayxlar va jononlar” kitobimizni uch sherikdan hech birimiz ko‘rmagan bo‘lsak kerak...

1992-yilda O‘zbekiston Milliy axborot mahkamasiga ishga tayinlandim. Bu yerda ko‘p narsani yangilash, yangi zamon talabiga moslash zarur edi. Shunga ham ulushim qo‘shildi shekilli.

1994-yildan buyon “Tafakkur” jurnaliga bosh muharrirman. Jurnalni tashkil etishdan tortib, uni yo‘lga qo‘yishgacha ko‘p mehnat, ko‘p vaqt sarf bo‘ldi. Ammo bu sa‘y-harakatlar bekor

ketmadi — “Tafakkur” matbuot olamida o‘z o‘rnini topdi. Jurnalda o‘tgan umrimdan pushaymon emasman, xijolat ham emasman.

Keyingi yillarda kino san‘atiga qiziqib, shu soha ijodkorlari bilan hamkorlikda bir necha ssenariy yozdim. Ba’zilari ekranga ham ko‘chdi. Bu boradagi ishlarni yana davom ettirish niyatim bor.

2001-yilda, uzoq tanaffusdan so‘ng, biryo‘la ikki kitobim nashr etildi: “Pakananing oshiq ko‘ngli” va “Kechikayotgan odam”.

Ushbu bitiklar tarjimayi hol emas, shunchaki yo‘l-yo‘lakay qaydlar, siyrak chizgilar, xolos. Tarjimayi hol — rasmiy hujjat. Unda ko‘pincha raqamlar ustunlik qiladi. Yozuvchining chinakam tarjimayi holi esa uning asarlarida aks etadi. U qisman yozilgan, nasib etsa, yana davomi bo‘lar.

Muallif

SHAYTONCHALAR KO‘CHASI

—...Eh-he, bir rastalar bo‘lardiki, qator-qator! Osmonga yetadigan u teraklar-u tog‘day-tog‘day u chinorlarni ayting! G‘o‘lloqdan o‘tin orqalab kelar edik, piyoda. G‘o‘lloqdan-a! Ajoyib zamonlar ekan...

Bolta front

Ko‘chamiz torgina edi: Unda Shoimdan bo‘lak hech qaysimiz velosipedni iziga burib ololmasdik — na men, na Tillo.

Ko‘chamiz sershovqin edi: har dam, har daqiqa yashin chaqnagandek, u yerda biron bir antiqa yangilik-tasodif sodir bo‘lib turardi.

Ko‘chamiz hozir ham tor, burungidek: muyulishda bizning uyimiz, ro‘parada Shoimlarniki, ikki devorni tutashtirgan adoqdagi qo‘sh qanotli archa darvoza — Tillolarniki.

Ko‘chamiz sershovqin edi...

Ko‘cha boshidan pedalni uch-to‘rt marta shiddat bilan aylantirib, velosipedni o‘z holiga qo‘ysangiz kifoya — qo‘sh qanotli archa darvozaga borib uriladi... Velosiped bir qarich tuprog‘i ko‘pchib yotgan ko‘cha sahnida qator-qator jajji jo‘yakchalar ochgan; unda-bunda g‘ildirak tiyg‘ongan, suringan joylar, daraxtga otilgan turli-tuman tosh-u kesak, yong‘oqning yerga tushib, o‘z zarbidan archilib ketgan yashil qobiqlari... Devor osha ko‘chaga egilib turgan paxtaseblarning uch-uchlarida besanoq hujumlardan omon qolib, merganlarni entiktirgan yakkam-dukkam olmalar xira oqarib ko‘zga chalinadi.

...Sarhovuz tomondan o‘qdek uchib kelgan bola orqa-oldiga qaramay o‘zini darvozaga uradi, lippasidagi yong‘oqlar yo‘lda sochilib, tuproqqa botib-botib qoladi. U jonholatda darvozani zanjirlab, tirqishidan hozir boshlanajak manzara — mojaroni dilgir kutib turadi. Zum o‘tmay oyoqyalang, yoqavayron, burni qonagan o‘g‘lini yetaklagan ona ko‘rinadi; u darvozani musht-

lay-mushtlay ayyuhannos soladi, ko'chani boshiga ko'tarib qarg'anadi. Alamzada o'g'il esa... tuproqqa qorishib yotgan yong'oqlarni apil-tapil terib lippasiga uradi-da, bir lahza onasining avzoyiga hayron anqayib turadi, so'ng uning qo'ldan yulqinib chiqadi-yu tirjayganча, burnini torta-torta sarhovuz tomon yugurib ketadi.

...Muyulishdagi simyog'och uchiga o'rnatilgan qalpoqli chiroq kunda sinib yerga tushadi, kunda Nor amaki ishxonasidan cho'ntagiga bittadan lampochka solib keladi. U, ko'ziga ko'ringan churvaqani tirqiratib quvgach, oyog'ida o'roqsimon taqa, belida enli kamar, zanjirlarini shaqirlatib, simyog'ochga tirmashadi.

...Har oqshom ayni bir mahalda — poda qaytishidan sal oldin tor ko'chada hassasini podachiga o'xshab yelkasiga qo'ygan, boshini kashtali qiyiq bilan tang'igan, egnida kenja o'g'li harbiydan kiyib qaytgan nimdosh gimnastorka — Bolta front paydo bo'ladi. U darvozalarga bir-bir bosh suqib, arz-dodini to'kadi: “Kecha og'ilxonamning mo'risini ag'anatib ketishibdi”; “Hovlimning yuzi toshga to'lib ketdi, birodar! So'rasa, yo'q dermidim? Shuncha olma yer bilan bitta bo'lib yotibdi endi. Bozorga opchiqsang — uch pulga qimmat, molga bersang — og'rinib yeydi. Qanday zamon bo'ldi bu, a?”; “Usta Qahhor kelsa aytib qo'ying-a, kelin, bolaga bunday adab bermaydilar. Ko'rsam, o'zim bir yaxshilab gaplashaman”...

Derazasi Shoimlarning hovlisiga ochiladigan boloxonamdan archa darvozaga qarasam, Tillo ko'z oldimga keladi. U — sochini jayraning sixidek tikkaytirib taragan, yangi shimariq oq ko'ylak, raxi qiyshiq shimda; juftlab oldinga cho'zilgan tulkitumshuq lablarida, uchi sarg'ish kipriklari orasida pinhona bir quvlik — moped o'tirg'ichiga tirsaklab turibdi.

Ro'paradagi tomiga poxol g'aramlangan darvozaxona, undan imoratga qarab tortilgan tok so'risi, tomorqaning ko'cha devoriga yondosh qator o'sgan, kechga yaqin ayniqsa, ko'proq shovullaguvchi baland teraklar Shoimni esga soladi. U teraklariga o'xshaydi: shularday daroz, shularday kuyinchak... Yuzida nochor laqmalik, go'llik aksi, lablari chetida — gap uqtirish maqsadidami, zo'rma-zo'raki ishonch, keyin... dumaloq ko'zlarining tub-tubida Tillo ikkimizgina ko'ra oladigan, tushuna oladigan bir alam uchquni. So'ng yana — tepasi chapancha

orqaga sirib qo'yilgan quroqi qalpoq, uning girdidan ko'pirib chiqqan sochlar...

Teraklari hamon bir paytlardagidek kechga yaqin ayniqsa, qattiqroq shovullaydi, Shoim hamon ularga o'xshaydi, faqat u endi battar ingichka tortib, novchalikda teraklardan ham o'zay deb qolgan...

Ana o'zi, derazam tagida tirsaklarini tizzasiga tiragan ko'yi cho'nqayganча tamaki tutatib o'tiribdi. Egnida korjoma — ishdan kelyapti. Yengi shimarilgan bilaklariga qorakuya surkagandek, tizzasi oqarib to'zigan "jinsi" shimining pochalarida malla dog'-dug'. Xol bosgan, habashsimon qora ushoq yuziga ham qarab bo'lmaydi.

Nariroqda, ko'cha boshida bashang bir bola turibdi. Ko'zi bizning darvozada. Bir yonga taralgan sochlari yaltiraydi, chap qo'lini beliga tiragan. Devorga yonboshlatmoqchi bo'lgan velosipedining orqa g'ildiragi erinibgina aylanadi. Farhodning o'rtog'i. Kutyapti.

— Ha, qori aka, yana mullalikmi? — Meni ko'rgan Shoim quvnoq tortib o'rnidan turadi. — Derazangni shuncha chertaman — sado chiqsa-chi! Berilib ketibdilar-da, ke qo'y, diqqatlarini buzmayin endi deb, keyin Farhoddan aytib yubordim.

— Ha, shunday bir oz...

— O'zi to'rt-besh kunlik kanikulga kepti-yu, tag'in kitobga yopishib olganini! Yo, o'qishning o'rniga u yoqda, a?.. Rostini aytsam...

— Rostini ayt, rostini ayt, — deya Tilloga o'xshab uning jig'iga tegmoqchi bo'laman.

— Ha-a, cho'rt, bizdi ustimizdan kulyapsan-da endi, a? Mayli, mayli. Biz o'zi gapga usta emasmiz, shopir-da, shopir. Xo'-o'sh, dalniy reysdan kelyapman... — U sigaretini tovonida ezg'ilab, derazaga yaqin keladi. — Gap munday: oqshom uyga o'tsang. Tillogayam aytdim. Eski ulfatlar. Ko'k choy, qittak-qittak deganday, o'tgan-ketgandan gurunglashi-ib picha... A, xo'pmi? Rostini aytsam, sen bilan...

— Bo'pti-bo'pti.

— Bo'pti deb, tag'in kitobga sho'ng'ib... Bizning o'tirish ham bir kitob. Qiziqroq gap chiqib qolsa, yozarsan balki. Rayon gazetasida o'zim chiqartirib beraman. Muxbiri og'aynim

bo'ladi. Sayrobdan ikki marta kabinaga mindirib kelganman... Znachit, a?.. — Shoim pastak darchani tepib, hovlisiga kirib ketadi.

— Ho' aka, Farhodni chaqirib yuboring, bir gapim bor edi, — deya iltimos qiladi gapimiz tugashini kutib turgan ko'cha boshidagi bola.

Ayvonda onam javrayapti. Meni ko'rib u nolishga o'tadi:

— Buningni qara, Amirjon, bozorga chiqib ke, desam, ko'chaga — yugur-yugur sanqishga ketyapti. Kunda shu ahvol. Qayoqdan ham shu baloga yo'liqqur valasapedni olib berdi otang! Qo'y og'zidan cho'p olmas, tuppa-tuzuk bola edi — jin urdi-qo'ydi.

Tut tagida velosipediga suyanib turgan Farhodga qarayman. U mendan hamiyat kutib, iltijoli boqadi.

— Akang sendayligida...

— Qani-qani, ena, qandoq ekanmiz? — deya kulgimni tiyib sho'x pichirlayman... So'ng masalani teng ajrim qilaman: — Bozor ham bo'ladi, o'yin ham. A, Farhodjon?

— Bir-biringdi tilingni bilasan-a, shaytonlar! — deya suyib po'pisa qiladi onam. — O'zing ham bolaligingda shunaqa o'jar eding. Suv opkeb ber deb javrab yotardim...

Farhodga qarayman-u kitobning eng qiziq joyiga yetganda ayvondan onamning javrashlari eshilib ketgandek bo'ladi.

Hushtak tovushi keladi — Farhod velosipedini sudrab darvoza tomon yuradi.

... — Sanobar kelgan ekan... — deydi Tillo eshikdan kirarkan, hayallaganini izohlab.

Shoim betoqatroq bo'lganini sezaman. Xuddi kelishilgandek, oraga bir nafas noqulay jimlik cho'kadi.

— Mana shunday yig'ilishmaganimizgayam ancha bo'ptiya, uch yilmi, to'rt yil, — deydi nihoyat mezbonligiga borib Shoim. — Birimiz bo'lsak, birimiz... Men armiyaga ketdim, sen o'qishga. Keyin Tillo ketdi armiyaga...

— Xullas, uch og'ayni botirlar to'rt yil deganda arang uchrashdilar!

— Endi-i, sen shoir-da, taraf yo'q, gapga ustasan. Biz, rostini aytsam...

“Rostini aytish” maqsadida Shoim uzoq chaynaladi: uch ulfat bunday yig'ilishib o'tirolmaganimiz sabablarini qaytadan

tahlil qilishga tushadi; kelganiga aniq necha oy bo'lganini takror-takror so'rab, Tilloning ensasini qotiradi; so'ng o'zining moyga belanib arava tortib yurganidan gapiradi, o'qimaganiga afsus yeydi, o'qiganida, ehtimol, menga o'xshab "kanikul"larga kelardi, shoir bo'larmidi-yey, attang-attang, bilmagan ekan-da, o'shanda. Mana endi, rostini aytsa... U tag'in gapga no'noqligidan nolishga o'tib ketadi. "Rostini ayt, rostini ayt, bir martagina eshitaylik", deya Tillo luqma tashlab g'ashiga tegadi. Shoim o'qimay to'g'ri qilganini, o'qiganida ham baribir undan hech balo chiqmasligini, chunki miyasi yo'qligini ayta-di. Kulishamiz. Shoimning o'zi ham nochor qo'shiladi. So'ng Tillo mendan yaxshisi Toshkentdagi yangiliklardan gapirishni so'raydi. "Nimasini gapiray — Toshkent obod, go'zal". Qisqa qilganimdan ranjib u, kimlarningdir Toshkent haqidagi taassurotlari bilan gapga aralashishni ko'zlab turgan Shoimga: "Quy endi anoviningni!" deydi. Shoim quyadi...

Shoim quyadi, ammo uzoq ko'rishmaganimizdanmi, gu-rung baribir ilimaydi — gaplar bir-biriga qovushmaydi.

Ayvonda Shoimning onasi kimnidir qarg'ayapti:

— Yana qaysi eshoni shahid tortmoqchi seni, qorang o'chgur? Beri ke deyman!..

— Ziyodullani urishyaptilar, — deydi Shoim kulib. — Juda sho'x-da, azamat. Gapga kirmaydi sira.

Onasi "sho'x azamat"ni qo'ltig'idan sudragancha, orqasiga shapatilay-shapatilay zinapoya tagiga olib keladi.

— Shoimjon, bu juvonmargdi adabini o'zing bermasang... O'tgayam bormadi. Qiz hoida Mukar ketdi. Endi bo'lsa, dars qilishdi o'rniga — "Pul bering, kinoga boraman", emish! He, senday kinoga boradigandi!.. O'qishi o'zi... Muallimlari dod deydi. Tunov kungi ota-onalar majlisida yer yorilmadiki, kirib ket-sam buning kasridan!

"Kinoshinavanda" qo'rqa-pisa yer ostidan akasiga mo'ltirab turibdi. Ust-boshi tuproq.

— Sho'x, sho'x, — deydi chiqib ukasining "adabini berib" kelgan Shoim.

— O'zing go'r edingmi! Akasining ukasi-da, — deydi Tillo piqirlab. — Sakkizniyam eplayolmay...

— E, meni qo‘y endi, miyam ishlamas edi. Ammo-lekin biz... boshqacha edik, boshqacha! Nima deding, Amir? Bular-chi? To‘p tepgani tepgan. Ertadan oqshomgacha. Kechqurun — kino. Tamom! Biz... Esingdami, anovi oliftaning qanday adabini berganim...

Gurung o‘z-o‘zidan ulanib ketadi.

Shoim azaldan ham bironing adabini berishga usta edi.

Kechki payt. Ko‘chada haligina o‘tgan podaning changi. Shoim ikkovimiz muyulishdagi supachada Bolta frontdan urush xotiralarini tinglab o‘tirardik. Shoshilib allanechuk xo‘mraygan Tillo kelib qoldi. Shoimni chetga imlab, qo‘liga buklog‘liq qog‘oz tutqazdi. Shoim qog‘ozga tikildi-tikildi — durust o‘qiy olmadi shekilli, meni chaqirib, “O‘qi-chi buni”, dedi.

Maktub Sanobar opaga atalgan bo‘lib, unda “Kechqurun chorbog‘ning orqasida, simyog‘och tagida kutaman” degan mazmundagi gap bor edi.

Shoim ajablangan kabi oldin og‘zi ochilib turdi, so‘ng ko‘zlari ola-kula aylanib, suyaklari bo‘rtgan ushoq basharasi g‘azabnok tusga kirdi.

— Kim berdi buni senga? — U lovullab qog‘ozni parcha-burush qilib tashladi.

— Anovi... “tap-tapxona”ning yonidagi Samad cho‘loqdi o‘g‘li, — dedi Tillo yerga boqqancha tutilinqirab.

— E-e, Salim oliftami? Tumshug‘ini ezib qo‘yaman! Qani o‘zi?

— Ketdi, apangga berib qo‘y, deb.

— Kalla! Olaberibsan-da senam? Xat-pati bilan jag‘iga sol-maysanmi!

— Mopedga yangi fara beraman degan edi...

— Ahmoq!

Shoim turgan joyidan yulqingandek, shaxt bilan ko‘cha boshiga qarab otildi. Orqasidan chopdik. Yo‘lning yarmida Tillo negadir taqqa turib qoldi. Men ham to‘xtadim.

Shoim bamisoli uchib borarkan: “Ho‘-o‘, olifta-a, to‘xta-a, senda gapim bo-or”, deb hayqirardi. Kinixonaga yaqinlashib qolgan Salim ortiga qayrilib, Shoimni ko‘rdi. To‘xtadi.

Salimga o‘xshash — oq ko‘ylak, hafsala bilan dazmollangan qora shim kiyib, sochini yaltiratib taragan o‘spirin bolalar

ko'chamizda o'rmak qo'yganday, oqshomlari ayniqsa ko'p qatnab qolishardi. Aksariyati kinoxonaning naryog'idagi internatdan bo'lgan bu toifa bolalarga qarab Shoim mushtini tugar, tishlarini g'ijirlatib: "Bilama-an bularni, Sano uchun keladi. Birovining jag'ini ezishim bor-a bir kun", der edi. Salim sho'rlikning jag'i eziladigan bo'ldi endi.

Shoim borasolib uning bo'g'zidan oldi. Ko'z soqqalari o'ynoqlab ketib, tovonlari yerdan uzilgan Salim, betartib qo'l siltagancha, boshini sarak-sarak qilib, bo'ynini changaldan bo'shatishga urinardi. Shoim biz tomonni ko'rsatib nimadir dedi va bir qadamcha chekindi-yu, bexos uning gardaniga qulochkashlab tushirdi. Tasir-tusir boshlandi. Shoim qattiq-qattiq so'kinar, yuz-ko'zi demay raqibiga musht solar edi. Ustma-ust tushayotgan zarblardan o'zini yo'qotib qo'ygan Salim endi gandarlaganicha ikki bukilib qolgan edi.

Tillo ikkalamiz zavqdan yer tepib, chapak chalardik. Yonimizga Sanobar opa kelganini payqamabmiz ham. Hovuzga bor-yapti, qo'lida satil.

— Shoim emasmi anovi? — deb so'radi u.

— Shoim, — deya javob qildi Tillo jang maydonidan ko'z uzmay.

— Iye, Samadovni uryaptimi?! Ahmoq! E Shoim, Sho-im...

Bu paytda raqibi changalidan zo'rg'a qutulgan Samadov orqasiga qaray-qaray musht ko'rsatganicha kinoxona tomon qochib borardi. "Yana ko'rsam shu ko'chada, oyog'ingni urib sindiraman!" deb baqirdi Shoim va boshini egganicha g'olibona odimlab iziga qaytdi.

— Ey Shoim, nega urding uni? — dedi Sanobar chimirilib. Samadovga achinyaptimi?! — Ahmoq! — U satilini achchiq siltab, hovuzga jo'nadi.

Shoim unga qayrilib ham qaramadi — negadir xo'rsiniqli ovozda Tilloga: "Ahmoq, latta!" dedi-da, pastak darchasini bir tepib, uyiga kirib ketdi.

Qiziq, Sanobar opa Shoimni "ahmoq" dedi, Shoim — Til-loni.

Ahmoq kim?

...— Rostini aytsam, — deya gap boshlaydi Shoim kulimsiraganicha xotiralarga sho'ng'ib.

— Rostingni qo‘y, — deydi Tillo, — baribir aytmayсан. Yaxshisi, haligi, nimaydi... ha, beda, echki, bo‘rimi haqida topishmog‘ing bo‘lardi-ku, o‘shani eshitaylik. Biz hozirgacha javobini topolmaymiz.

Baravariga kulib yuboramiz.

— Topolmaysizlar ham-da! — deydi cho‘ziq qiqirlab Shoim. — Rostdan ham o‘sha o‘tirishlarimiz qayoqqa ketdi-ya, bolalar? Tillo, sizlarnikida. Qandoq o‘tirardik! Esingdami, a, Amir? ...Nor amaki “tap-tapxona” — elektrostansiyada ishlaydi. U tungi navbatchilikda qolgan kechalari Bolta frontning adoqsiz rivoyat-u hikoyatlarini eshitib, qorong‘i tushishi bilan Tillolarnikiga yig‘ilamiz. (Tillo va opasi Sanobar o‘qish vajidan amakilarinikida turishadi; ota-onalari qishda qishlovga, yozda toqqa ko‘chib yuruvchi chorvador.)

Shoim aksariyat yig‘inimizga kechikib, ammo qo‘li rulga tekkanidan shod, yer-u ko‘kka sig‘may keladi. (U sakkizinchini bitirolmay, maktabni tashlab shofyorlikka kirgan.)

— Yanga-a! — deya quvnoq hayqiradi dali-g‘uli Shoim Nor amakining xotiniga rahrovdanoq. — Mana, biz ham keldik sizlarni Bolta frontning Olaparidan qo‘riqlashga. Choy-poyning taraddudini ko‘ring qani.

— Keling, keling. Lekin bizni qo‘riqlashga emasdir-ov, gulni bahona qilib... a, Shoimjon? — deydi o‘smoqchilab quv yanga.

Shoim chakkasini qashigancha, qizaringan yuzini chetga burib, ko‘z ostidan ayvon oxiridagi ochiq derazaga bildirmay bir qarab oladi. So‘ng cho‘ntagidan moyga belangan, titilgan qartani chiqarib o‘rtaga tashlaydi. Nomiga, baribir o‘ynamaymiz: men bilmayman, Tillo “ahmoq” bo‘lib, Shoimning shilqim kulgusiga qolishdan bezor.

O‘rikka ilingan elektr chirog‘i yorug‘ida supada chordana quramiz.

So‘z Shoimga! U bugun har yoqdan qulog‘iga chalingan shov-shuvlarni aytib, avval hammani vahimaga soladi. Keyin, Bolta frontdan o‘zimiz ham takror-takror eshitaverib zerikkan urush lavhalarini xuddi shaxsan ishtirok etganday komil ishonch bilan hikoya qilishga tushadi.

— Og‘zing tinmas ekan-da, — deya ensasi qotib esnaydi Tillo. — Shu gapni u kechayam aytib eding.

— Gapga to'n kiygizasiz-a lekin, Shoimjon, — deydi bir chetda ish tikib o'tirgan yanga. So'ng bizga yuzlanib, tamomila jiddiy ohangda uqtiradi: — Og'zi charchamaydigan odam kerak buncha vaysashga. Shoimjon bir nimani biladilarki, gapiradilar-da. Rahmat sizga, Shoimjon-a, gapirabering!

— E-e, yanga, — deya, “nimkosa”ni fahmlamay, tanobi qochib iljayadi Shoim.

— Sizlarning ham hunarlaringni ko'raylik, qani, shunchalik ezmalay olasizlarmi? — degancha o'yib-o'yib davom etadi yanga. — Birovlaring kitobdagi yolg'on-yashiqdan boshqasini bilmaysizlar; birovlaring Majnun bo'lib, magazinching qiziga... oti nimaydi — kelinimizning ham otini unutibmiz — ha, Lola-xonga erta-yu kech “o'ldim-kuydim, yondim-tutadim”, deb xat yozasizlar...

Bu gap Tilloning qovog'iga go'yo tosh osadi.

— Aytaman deb esimdan chiqibdi, Tillojon, tog'da edingiz, kecha keluvdi, kitobmi kerak ekan... — Yanga endi bu yog'ini yumshatadi.

— Qachon? Qanaqa kitob? — deya talmovsirab so'roqqa tushadi Tillo.

— Qatiga xat solib qo'rgan kitobingiz bo'lsa kerak-da...

— Majnun, ha, Majnun! Yashasin! Do-od! — deya qiyqirib yuboradi Shoim. So'ng, xuddi sevib-sevilgan, ko'pni ko'rib ko'zi pishgan bilarmonlar kabi, o'git mazmunida: — Yoshlikda bo'ladi, Tillojon, g'am yema, o'zim bor, — deydi.

Tillo, tomdan tarasha tushgandek, butkul boshqa yoqdan keladi:

— Anovi topishmog'ing qanaqa edi, Shoim? — deb so'raydi — gapni burmoqchi. Bu qitmirlikni anglamagan laqma Shoim “topishmoq” so'zini eshitgach yayrab, jonlanib ketadi.

U shofyorlikdagi hangamago'y ustozidan uch-to'rtta g'alatig'alati chiston o'rgangan, shuni duch kelgan davrada o'rtaga tashlab, suhbatdoshlarini mot qilmoqchi bo'ladi.

Shoim kaftini tizzalari ko'ziga qo'yib, savlat bilan o'tirib oladi-da, jahonshumul bir gapni aytmoqchidek, hammani o'ziga qaratgancha salmoqlab boshlaydi:

— Daryo bo'yida bir bog' beda, bitta echki va bir bo'ri. Shularni narigi qirg'oqqa o'tkazish kerak. Bus-butun, beziyon!

Qayiq bo'lsa kichkina, barini birdan olib o'tishning iloji yo'q. Znachit — bittalab. Lekin, bo'rini oldin olib ketsak, echki bedani yeb qo'yadi, bedani o'tkzask, bo'ri — echkini... Qani, topinglar-chi!

O'yga tolamiz.

— Sen bilasan, Amir, — deydi Shoim menga, — kallang zo'r ishlaydi, ko'p kitob o'qigansan. Qani, Tilloboy, him!

— Avval echkini o'tkzask-chi? — deydi bosh qashib o'tirgan Tilloboy, ko'zlari chaqnaq.

— Xo'sh-e, keyin bedani yoki bo'rini o'tkazib ko'ring-chi!.. Do-od! — Shoim battar avj qiladi. — Ana, yanga, ko'rdingizmi bularingizni! Attang, attang, adabiyotdan miyam yo'q edi-da maktabda, bo'lmasam-ku algebradan zo'r edim-a! Bir kuni, rostini aytсам...

— Go'r eding, go'r eding! — Ayvon oxiridagi derazada imtihonga tayyorlanib o'tirgan Sanobar opaning boshi ko'rinadi. Zum o'tmay u zarda bilan uydан otilib chiqadi. — Tayyorlangani qo'yasizlarmi, yo'qmi?! Men nima gap, nima shovqin desam, lofchi kelgan ekanlar-da. Aha-a, "algebradan zo'r edim" dedimi shu? Zo'r emish! Ey bolalar, kelib-kelib shuning gapiga ishonib o'tiribsizlarmi? Bu qip-qizil yolg'onchi-ku — to'qson to'qqiz prosent gapi lof! Sen, Shoim, bularga yaxshisi, "Taras Bulba"ning avtorini bilmay qolganingni aytib ber!..

— Aftini men qayoqdan bilay, shunday bir kitobdir-da, — deya yerga qarab to'ng'illaydi Shoim.

— Afti emas, xomkalla, avtorini! Av-tor!

— Yanga, Nor akamning "Belomor"laridan bormi?.. — Shoim o'rnidan vazmin qo'zg'aladi.

Sanobar opa qo'llarini beliga qo'yganча hujumda davom etadi:

— Tag'in bu kishi papiros chekarmishlar, fi!..

— Iya, Shoimjon, o'tiring, — deydi yanga Sanobar opaga bir nazar tashlab olib. Sanobar opa chimirilgan labini burib darvozaga ishora qiladi: "ketsin".

— Yotish kerak, ertaga dalniy reys bor... — Shoim, kallasi xam, darvozaxona tomon yuradi.

— Shu ishingiz yaxshi emas-da, qizgina, — deydi yanga o'pkalab. — Yigit boyoqishning sazasinini o'ldirib...

— Fi, yigit emish! Aft bilan avtorning farqini bilmaydi-yu...

— Ha, uni bilmasayam... — Yanga gapini yutganicha qoladi, Sanobar opa muqom qilib xonasiga kirib ketadi. U yerda “aft” bilan “avtor”ning farqini o'rgansa kerak. Yana nimalarni o'rganar ekan?

... — Ajoyib davrlar! — deydi Tillo maroq bilan. — Esingdami, Amir, amakim bizni “shaytonchalar” der edi...

— Esimda, — deymen men. — Kechqurunlari mopedda stadionga borardik. Lolaxonning oldilariga, “konsultatsiya”ga. Bunisi ham esimda.

— Ha-a. Dugonasi... Salimamidi oti? Direktorning qizi-da, orqangdan o'lib yurardi-ku, Loladan xatlar berib. Sen kitobga berilgan, qaramas eding.

— Anovi, raykomsomoldagi Turdiyevga tekkan Salimami? Rostini aytsam, zo'r qiz edi! — deya gapga Shoim aralashadi.

— Erga tegdimi?

— Eh-he, davno! Bahorda bo'lgan edi to'yi.

Tillo Lola bilan jiydazorga kirib ketgach, mopedda stadionni aylanarkanman, orqamdan ma'yus termilib qoladigan yumaloq yuzli, bir tutam sochi manglayiga tushib turguvchi yoqimtoy qizni eslab, ko'nglim armonga to'ladi.

— O'zlarining to'ylari qachon endi? — deb so'raydi Shoim Tillodan. — Biznikiga-ku kelolmadi Amirboy, senikiga kelar.

— Kelin kim? — deya ko'z qisaman Tilloga.

— O'zing bilgan...

O'zim bilgan, o'zim bilganlarim... Nor amaki... “Shaytonchalar”... Bolta frontning po'pisalari... Yumaloq yuzli, bir tutam sochi manglayiga tushib turguvchi qiz... Kechalari mopedda sayr... Zanjirlangan darvoza... Kitobxonlik, qahramonlar... Tag'in o'sha qiz...

... — Ho'v, shaytonchalar, yo'l bo'lsin yana? — deydi ishdan qaytib, oldida “Belomor”i, ayvonda yonboshlab yotgan Nor amaki.

— Konsultatsiyaga, — deya xavfsirab javob qiladi Tillo.

— Konsultatsiyaga emish! Nima, senlarga har kuni konsultatsiyami? Bilmaydi, deb o'ylaysanlar-da, a? Ha, shaytonchalar-ey! Molga yem berishni bilmaymiz, o't o'rishni bilmaymiz

— konsultatsiyaga deb, magazinching qiziga, a... Sevgi-muhabbat-da endi, he-he, shaytonchalar. Bilami-iz, bilami-iz!

— E, bilsangiz bilabering! — deydi Tillo arazlagandek tumtayib.

— Bor, boraber sevganingga... Nimalar bo'lganini keyin kelib aytib berasan. Biz mana Shoimboy bilan gurung qili-ib o'tiramiz. Lekin, bizniyam ko'-o'p tushunmaydigan, jaydari bir montyor-da, deb o'ylama. Biz ham ul-bulning fahmiga boramiz. Ana, yangangdan so'ra, tog'dan qanday opqochib kelganman otga o'ngarib!..

— Qurib keting siz, odamni sharmanda qilib qancha gapga qoldirgansiz! — deya nozli o'pkalaydi o'choqqa o't qalayotgan yanga. — Boring, Tillojon-a, yoshlikda o'ynaganingiz qoladi. Bu kishi o'zlaricha valdirayveradilar, parvo qilmang. — So'ng eriga yuzlanib: — Yotishlarini! — deydi yasama zarda bilan. — Turing endi, ming qo'yli boyday uzala tushib yotmay! Mollar yem beruvsiz.

— Biz endi sevgi-mahabbatga yaramay qopmiz-da, a? Mayli-mayli, kunimiz mollarga yem berishga qolgan ekan, nachora? — Nor amaki erinchoqlik bilan joyidan qo'zg'aladi. — Yuring, Shoimboy, ikkovimiz bir eski dardlardan hasratlashi-ib...

Ular ishkom ustuniga sanchig'liq o'roqlarni olib yo'n-g'ichqapoyaga tushishadi. O't o'risharkan, Nor amaki to'xtab-to'xtab, o'rog'ini yerga qadaganicha Shoimga gap beradi. Shoim ham o'rog'ini yerga qadaganicha anqayib unga "quloq soladi". U dam-badam bir supadagi "Belomor"ga, bir Sanobar opa dars tayyorlab o'tirgan bog' tomonga o'g'rincha nazar tashlab qo'yadi.

Tillo ikkovlon mopedlarni safarga shaylarkanmiz, Nor amakining ayrim gaplari qulog'imizga uzuq-yuluq kirib turadi.

— Sizlar tengi edik, — deydi Nor amaki. — Urushning oxirgi yillari. Bir yoqda maktab, bir yoqda kolxozning ishi, bir yoqda tirikchilik: qish g'ami, non g'ami. Tinim ko'rgan kunim-ni bilmayman. O'yin qayoqda, kulgi qayoqda! Bolalik deb gapirsa, mening esimga dalada mashoq terganlarim-u qirda bug'doy o'rganlarim keladi. Hozirgilar, dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi. Ba'zilarining hatto o'qishga ham bo'yni yor bermaydi. (Nor amaki bu gapni shunchaki omadi kelganda aytayotgan bo'lsa-da, Shoim o'ziga olib, boshini egadi.) Yo'g'asam, mol-

ga yem berish ish ekanmi? Bula-ar biri biridan o'tadigan shayton! Ana, ikkovini qara, meni laqillatmoqchi! Bilaman qayoqqa borishayotganini, hammasini bilaman... Buramaqirga o'roqqa chiqar edik. Kechalari qir boshida yotamiz. Tepada deng — oy! Xuddi peshonangning ustida! Shunday qizlar bor edi, shunday qizlarki — eh, Shoimboy!.. Hozir hammasi to'rt-besh bolali... Bir kuni tog' tomondan bir to'dasi yordamga keldi. Bari suluv deng, biri biridan o'tadigan. Yangangni ham o'shanda topganman-da, o'zidan so'ra...

Biz Nor amakining “eski dardlari”ni qulog'iga gap kirmay, ikki ko'zi ikki yoqqa parishon jalanglab turgan Shoimboyga qoldirib, mopedlarni sudragancha jo'naymiz. Darvozadan chiqarkanmiz, orqadan Nor amakining quvnoq xitobi eshitiladi:

— Ammo-lekin bo'sh kelmaysan, shaytonchalar, ha! Hech bo'lmasa... Eh, senlarning yoshingda bo'lmadim-da!.. Senlar-dayligimda olov edim, olov! Yonib turgan olov-a, Shoimboy!..

Nor amakining olovligi ham Shoimboyga tortiq!

— Bizdan salomlar bo'lsin, Tillo-o! — deb baqiradi u.

Yo'limizda yana bir g'ov bor!

Mopedning shovqinini eshitib, muyulishdagi supachada o'tirgan Bolta front tayog'ini ko'cha o'rtasiga ko'ndalang qo'yadi.

U ertadan kechgacha shu yerdan jilmaydi. O'tgan-ketganni to'xtatib gapga oladi. Urushda ko'rgan-kechirganlarini — ne-ne falokatlardan omon qolgani-yu chap oyog'idan qanday o'q yegani, gospitaldagi (“ko'zlari ko'm-ko'k, jingalak sochlari yelkasini to'ldirgan, xipchabel, bir qultum suv bilan yutgudek jonon”) hamshiraning mehribonliklari-yu bir gal xuddi qulog'iga engashib “Ya tibe lublu” deganlarigacha — batafsil so'zlab beradi.

Alomat odam: umri urushda o'tganday, gapirgan gapi nuqul urush. Istalgan mavzudagi suhbatni osongina o'zining urush xotiralariga buradi: “Frontning oldingi marrasida edik...”, “Ulbul deysiz-u, birodar, lekin front — front. Berlinga yaqinlashgan paytimiz deng...”, “Gapingizni bo'ldim-u, bu yog'ini eshiting-da, frontda bir kapitanimiz bor edi...”, “Rasmana okopni ko'rmagansan, jiyan, nima qilasan gapirib! Frontda biz...”

Bir voqeaning o'zini har safar har maqomga solib aytadi. Goh qarasangiz — o'sha voqea markazidagi qahramon o'zi, goh qarasangiz — Guram degan gruzin oshnasi.

Bolta front necha yil kolxozda hosilotlik qilgan, keyin bog‘bon bo‘lgan. Ammo bular to‘g‘risida deyarli og‘iz ochmaydi. Faqat ba‘zan tomorqa-chorbog‘i bilan g‘ururlanib qo‘yadi. Rostdan ham, maqtasa maqtagulik g‘aroyib bog‘i bor. Ichi bamisoli o‘rmon, kunduzi tangadek ham oftob tushmaydi yerga — daraxti shunday tig‘iz. Aytishicha, O‘zbekistondagi jamiki meva turidan bormish, hatto urushdan keyingi yili quroldosh og‘aynisi Gruziyadan yuborgan ko‘chatga payvand qilingan antiqa nokkacha. Bog‘ini hech kim Bolta frontning o‘zichalik kelishtirib ta‘riflay olmaydi.

Darvoqe, uning tungi rejalarimizni barbod qiladigan bahaybat Olapari ham bor. Bu oqshom tek tursa, xalaqit bermasa edi...

— Drr!.. Shaytonaravangni to‘xtat lekin, tayog‘imni sindirasan. Sinsa, orqangdan otaman! — deydi Bolta front o‘dag‘aylab bizga. So‘ng tanbehga o‘tadi. — Qaroqchilar! — deb boshlaydi. — Gilosimni o‘g‘irladilaring — indamadim, kadi olmalarimni o‘g‘irladilaring — indamadim (ammo bunga egasi indamagan bo‘lsa-da, — ko‘rsatib qilarmidik! — Olapari qo‘ymadi), derazamni sindirdilaring tosh otib — indamadim, kecha kuni kampirinning yuragini chiqarib yuboribsizlar...

Ajabo, olmaga tosh otganimiz rost, lekin kampiriga...

— Ertaga maktablaringga borib, hammasini Haydar otboqarning o‘g‘liga aytib, bir ta‘zirlaringni berdirmasam, ko‘zlaring joyiga tushmaydi sen shumtakalarning!

(“Haydar otboqarning o‘g‘li” — jismoniy tarbiya muallimimiz Haydarov, darsdan keyin jamoatchilik asosida bolalar militsioneri; uning qarshisida zir titramaydigan o‘quvchi yo‘q.)

Bolta frontning menga allanechuk ixlos bilan qarashidan foydalanib, yalinishga tushaman:

— Jon amaki, tayog‘ingizni oling endi. Ikkinchi marta qilmaymiz, ishoning. Konsultasiyaga kech qolyapmiz...

— Ana bu boshqa ga-ap, — deydi amaki birdan yumshab. — Senga ishonsa bo‘ladi, sen o‘t, kitobni ko‘p o‘qiysan, maynang zo‘r seni. Lekin, menga qara, ey, “O‘tgan kunlar”ni o‘qiganmisan? Julqunboyniki. Ana kito-ob, mana kito-ob!..

Keyin, Bolta front bu kitobni tengqurlari bilan hozir Tillolarning hovlisi tushgan yalanglikda kechalari lampachiroq yoru-

g'ida davra qurib qayta-qayta o'qishganini zavqlanib hikoya qilishga kirishadi. Shu asno yoshligi-yu bog'lari ta'rifi o'tib ketadi.

— Bog'imizda bir olma, bir anorlar bo'lardiki, kalladay-kalladay! Otam ikkovimiz bozorga opchiqardik. Xaridorni ko'ring! Qodirboyning, — deya amaki Tilloga qarab oladi, — hovlilaringning bir chetida rastalar bor edi o'shanda. Eh-he, bir rastalarki, qator-qator! Osmonga yetadigan u teraklar-u tog'day-tog'day u chinorlarni ayting! (Hozir ham teraklar osmonga yetadi! Masalan, Shoimlarning teragi. Hozir ham chinorlar tog'day-tog'day! Bunga misol keltirolmayman: qishlog'imizdagi chinorlarning bari keksayib, tepa shoxlari qurib tushgan. Ular bugun pakanalashib yoki kichrayib qolmagandir?! Darvoqe, Bolta amakining o'zi... Boltacha bo'lgan unda!) G'o'ллоqdan o'tin orqalab kelar edik, piyoda. G'o'ллоqdan-a! Ajoyib zamonlar ekan... Endi ilgarigi fayz qayoqda! Hammayoqni senlarga o'xshagan shumtakalar bosib ketgan. Bir chaqalik ishining tayini yo'q, ertadan kechgacha tartaragini tarillatib...

Amakining urush xotiralari bizga nasib qilmaydi. U endi: "Frontga ketganimizda senlarday edik, miltig'imizning uchi yerga tegib turardi", deb boshlagan zahoti, Nor amakining "eski dardlari"dan zerikkan Shoim paydo bo'ladi.

Biz — hammayoqni bosgan shumtakalar Bolta amakining qator-qator rastalarini ham, garchi kechasi ishimiz tushishi mumkin bo'lgan kalladay-kalladay olmalarini ham, urush xotiralarini ham "usta Qahhorning o'g'li" — jafokash Shoimga hadya etib, o'zimiz stadionga juftakni rostlaymiz. Mopedlarimiz joyidan jilarkan, Bolta front tayoq o'qtalib po'pisa qiladi:

— Ho'v zumrashalar, lekin bu kecha chorboqqa tushaman deb xomtama bo'lib yurmanglar, Olaparni qo'yib yuborganman!..

Yam-yashil maydon... Koptok o'rtada sarson, koptokka qo'shilib baqiriq-chaqiriq ham goh maydonning u burchagiga, goh bu burchagiga ko'chadi.

Maydon chetidagi kattakon yong'oq tagida Lola bilan dugonasi gaplashib turgan bo'ladi. Suvga chiqishgan, oldilarida sa-tillari...

Lola — sinfkom va yana bir talay mas'ul komissiyalar, byuro-lar, redkollegiyalar a'zosi. Maktabda u namunali o'quvchi, faol

jamoatchi sifatida muallimlar tilidan tushmaydi. Uyda uni otanalar qizlariga o‘rnak qilib gapirishadi. Eng odobli, eng oqila, eng idrokli o‘quvchi kim — Lola. Shu yil bahordan beri g‘alati-g‘alati o‘ylar suradigan bo‘lib qolgan bo‘zbolalar ko‘ngillarida ardoqlab yuradigan qiz kim — Lola. Turli-tuman yig‘inlarni mohirona boshqarib boradigan kim — Lola. Adabiy kechalarda she‘r o‘qib hammani lol etadigan kim — Lola. Majlislarda tartibuzarlarning jonini oladigan kim — Lola. Mahmadona kim — Lola...

U go‘yo suvga chiqib dugonasini uchratgan-u go‘yo hozir dugonasi bilan bugungi darsda o‘tilgan murakkab tenglama ustida qizg‘in tortishyapti. Murakkab tenglama, muhabbat tenglamasi...

Keyin u go‘yo bizni tasodifan ko‘rib qoladi.

— Iya, Qodirov, nima qilib yuribsiz? Bugun nega darsga kelmadingiz? — deya bidirlab, go‘yo sirini dugonasi bilan mendan yashirmoqchidek, go‘yo sinfkom sifatida Tilloni tergashga tushadi. — Bu qanday tartibsizlik! Sinfimizga dog‘ tushiryapsiz...

Keyin u go‘yo sinfga dog‘ tushirayotgan intizomsiz o‘quvchini go‘yo tartibga chaqirmoq uchun hovuz bo‘yidan aylantirib jiydazorga olib kirib ketadi. Jiydazorga kirilgach, Qodirov mehr va noz bilan pichirlanadigan Tilloga aylanib qoladi.

Go‘yo... go‘yo...

Men, yong‘oq tagidagi yumaloq yuzli, bir tutam sochi manglayiga tushib turguvchi yoqimtoy qizning ma‘yus nigohini xayolan tuygancha, mopedda stadionni aylana boshlayman. Go‘yo unga mutlaqo e‘tibor bermayapman, go‘yo uni o‘ylamayapman, go‘yo faqat kitobga berilgan jiddiy, xayolchan bolaman...

“Go‘yo”lar nihoyasiga yetib, yana hamma narsa asl tartibiga keladi. Jiydazordan og‘zi qulog‘ida, yuziga jamoatchi qizning yonog‘idagi qizillikdan bir hovuch sepilgan Tillo iljayib chiqadi.

Mopedlarni yetaklab stadiondan piyoda qaytamiz. Lolaning otasi ishlaydigan navbatchi magazinga yetganda, “yorug‘da o‘qisin” deb, Tillo qo‘limga buklog‘liq qog‘oz va... chetlari chiroyli to‘qilgan ro‘molcha tutqazadi. Men qog‘ozni ochmayoq parcha-parcha qilib tashlayman, ro‘molchani esa balchig‘i chiqib yotgan ariqqa otaman.

— Eh, kallavaram! — deydi Tillo joni chiqib. — Kitobga berilgansa-da... Sevgi qanday, oh! Bir sevib ko'rgin, keyin bilasan...

— E-e! — deb qo'l siltayman men. Ammo nimadir ichimni tirnab o'tgandek bo'ladi.

Darvozalarimiz tambalangan. Tillo Shoimlarning devoriga, men baland ko'k darvozaga tirmashaman. U yoq-bu yog'imiz shilinadi, "konsultasiya"ga kiyib boriladigan xos ko'ylaklarning dabdalasi chiqadi. Lekin nachora...

So'ng — alla-pallagacha kitobxonlik; qahramonlar, sevgilar tarixi... So'ng — derazadan mag'rur qorayib turgan tog' cho'qqilariga, osmondagi tanish, sevimli yulduzga qarab "oh" tortishlar...

Keyin — yumaloq yuzli, bir tutam sochi manglayiga tushib turguvchi yoqimtoy qizning ma'yus nigohlari... Keyin — o'qilmasdan burdalangan qog'oz parchalari; to'tiyo qilishga arzigulik, biroq shu tobda balchiqqa qorishib yotgan, to'qigan odamining o'zidek chiroyli ro'molcha...

...Zinapoya eringandek g'ijirlaydi: kimdir ko'tarilyapti... Sanobar opa! O'sha voqeadan keyin endi ko'rishim. Tamoman o'zgaribdi: yo'g'on tortgan, yuzi ham to'lishib qoraygan — o'ynoqi ko'zlaridagina o'sha tantiqlik, shaddodlik izlari.

— Yaxshimisizlar, — deydi u eshik kesakisiga suyanib, al-lanechuk yarashmagan vazmin ohangda. Men bilan quyuqroq so'rashgan bo'ladi.

— Ke, Sano, kir, — deydi nima qilarini bilmay o'rnidan turib ketgan Shoim.

Sanobar opa eshitmagan kabi, u tomonga qaramaydi.

— Tillo, senga kelgan edim, — deydi tez gapirib. — Keta-yotuvdik, pochchangning ishi bor ekanmi...

Zinapoya shoshib g'ijirlaydi.

Tillo qo'zg'aladi.

— Borib kelay qani...

— Tezroq ke, osh tayyor, — deya to'ng'illab qo'yadi av-zoyi o'zgargan Shoim.

Tillo ketib, uzoq sukutga cho'mamiz. Shoim mung'ayib qolgan. Xayolini buzgim kelmaydi. Bir payt to'zg'iq sochlari orasida oqarib turgan chaqadek chandiqa ko'zim tushib, beixtiyor qiqirlab yuboraman. U xo'mrayib boshini ko'taradi.

— Hi?

— Haliyam soch chiqmabdi-ku!

— Ha-a... — deydi Shoim andak jonlanib. So‘ng, siniq jilmayganча chap qo‘lining chinchalog‘i bilan chandig‘ini silab qo‘yarkan, shahodat barmog‘ini ko‘rsatib hazilaki tahdid qiladi: — Bemazalar!..

...Ayron bahona, Nor amaki xotini bilan toqqa — Tillolarni-kiga ketgan oqshom edi.

Supada hazil-huzul aytishib o‘tiribmiz. Shoim ichib olgan, shirakayfroq. Kursni bitirganlar bugun kichik bir ziyofat uyushtirishgan ekan, ustozni qistab qo‘ymabdi, “shofyor odam ichib turmasa qiyin”, deganmish. To‘g‘ri aytibdi, ichib turmasa qanaqa qilib avtoinspektorning qo‘liga tushadi?

Davramizga imtihonlarini topshirib tugatgan Sanobar opa ham qo‘shilgan. U, odatdagidek, Shoimni mulzam qilish maqsadida har xil gaplar qidiradi.

— Ey bolalar, Bolta frontning bog‘iga o‘tmaysizlarmi bir? Paxtasebi kalladay-kalladay bo‘pti. Kecha o‘zi aytoyotuvdi. Bozorga chiqarmasidan bir tatib qolaylik. Olaparigayam birov igna berganmish...

Zerikib o‘tirmabmizmi, Shoimning bu ilhomlantiruvchi gapidan jon kiradi bizga.

— Hech qayoqqa jilmaydi bular! — deydi Sanobar opa chimirilib. — O‘zing-ku bir... Yana bularniyam...

Shoimning taklifi — amal!

Tillo opasiga “bor-e!” deb qo‘l siltaydi-da, somonxona biqinidagi tosh yo‘lkadan boqqa tushib ketadi. Shoim menga ham ko‘z qisadi. Tilloning orqasidan jo‘nayman.

— Olapar bir quvsaydi...

Sanobar opa bilib aytgan ekan. Quvdi. Tikan bostirilgan kemtikni chetlab, devordan oshishimiz bilan, xuddi kutib turganday, tashlandi bizga. Shoim aytgan ignani allaqachon hazm qilib yuborgan shekilli...

Zo‘rg‘a qochib devordan oshdik. Nechundir supadagilar ko‘rinmasdi. Darvoza tomondan Shoimning “Sano, Sano” degan bo‘g‘iq, yalinchoq ovozi eshitiladi. G‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir. “Za mnoy!” deydi “xavf”ni payqagan Tillo sirli qilib.

Oyoq uchida yurib, ustiga beda g‘aramlangan pastak darvozaxona yoniga kelamiz-da, qiyshiq narvondan sas chiqarmay

tepaga — tomga ko'tarilib, beda bog'lari orasidan asta ko'chaga razm solamiz.

Darvoza oldida ikki qora ko'rinadi. Biri devorga suyangan, qo'lidagi gulnimi aylantirib o'ynayapti; ikkinchisi unga ro'baro' — yaqin, juda yaqin bir masofada chayqalib turibdi. Devorga suyangani — Sanobar opa, chayqalayotgani — Shoim. U kuyib-pishib allanimalarni uqtirarkan, hadeb Sanobar opaning bilagidan ushlamoqchi bo'ladi. Sanobar opa qo'lidagi gul bilan urib-urib undan chetlanadi-da, befarq sovuqqon ohangda bidirlaydi:

— Shoim... Tushunsang-chi, Shoim, iloji yo'q. Qalbga buyurib bo'lmaydi-ku, axir!..

Derazani lang ochib qo'yib, imtihon bahonasida o'qigan kitoblaridagi gaplarni adashmay takrorlayapti.

Favqulodda Shoim uni mahkam quchoqlab, yuzlaridan cho'lpillatib o'pa ketdi. Sanobar opa jon-jahdi bilan tipirchilab, changaldan xalos bo'ldi-da, Shoimning basharasiga tars-turs shapaloqlab, darvozadan ichkari qochdi.

Shu payt... chakkasini ishqagancha g'aribona enkayib uyi tomon qadam bosgan Shoim birdan "ah!" dedi-yu boshini chagallab devor tagiga o'tirib qoldi.

Tillo jontalvasa qo'limdan sudrab, o'zini pastga — go'ng uyumi ustiga otdi. Joyimizdan turib, Bolta frontning bog'iga qarab yugurdik. Tikanni ham, Olaparni ham unutib, kemptikdan oshdig-u devor tagiga tappa tashladik. Tillo qo'rquvdan hansirardi, men esa hayron edim: "Nega bunaqa qildi? Axir... Toshni qayerdan topdi? Qo'lida hech narsa yo'q edi shekilli. Ko'rmay qolgan ekanman-da. Bechora Shoim! Bizga biror yomonlik qilmagan edi-ku? Eh!.. Olapar-chi, Olapar qani?.."

Oydinda shoxlarni egib turgan kalladay-kalladay olmalar xira bo'zarib ko'zga chalinar, ahyon-ahyon to'pillab yerga tushar, ammo biz ularga qayrilib ham qaramasdik — dardimiz-o'yimiz boshqa yoqda edi. Biz ayni damda Olaparni ham unutgan, chamas, u ham bizni esdan chiqargan edi. Balki, Shoim aytgan igna jonivorning biron joyiga ozor berayotgandir, balki...

Biz hozir Olaparni emas, Shoimni, ertaga u bilan qanday ro'baro' bo'lishni o'ylardik...

Shundan keyin ancha kun unga tutqich bermay, ko‘zidan nari yurdik. Ammo, orada bu tashvishimizdan ko‘ra jiddiyroq hodisa sodir bo‘ldi.

Ko‘chamizda duv-duv gap: “Sanobarni yaqinda askarlikdan qaytgan amakivachchasiga berishmoqchi ekan, kechalab Ashur novvoyning cho‘lda ishlab yurgan injener o‘g‘li bilan qochib ketibdi. Ilgaridan ahdi paymon qilib yurishgan ekan”.

“Cho‘lda ishlaydigan injener...” Men uni bu atrofda sira ko‘rmagan edim. Ilgaridan ahd-paymon qilib yurishgan ekan-da.

Xabar menga qiziq tuyulib, tandir osha sim “devor”dan Tillolarning hovlisiga mo‘ralayman.

Supa yonidagi, arqoni ham yechuvsiz, har erta tog‘dan rayonga sut keltiriladigan qo‘sh xumning birida qora chopon va latta etik kiygan bir kishi kallasini quyi solgancha munkayib o‘tiribdi. Tilloning otasi. Onasi esa, gardi ro‘molli boshini ayvon ustuniga suyagan, ko‘zlari yumuq. Nor amakining xotini va yana bir ayol uning tevaragida aylanib, dam-badam kosadan yuziga suv sepadi. Nor amaki, qo‘lini orqaga qilgan ko‘yi, papirosi labida, hovlining u chetidan-bu chetiga asabiy borib kelyapti, goho to‘xtab, akasiga — Tilloning otasiga nimalardir deb baqiradi. Darvozaxona tomidan chiqib turgan xariga boylog‘liq qizg‘ish ot, egasining g‘amidan bexabar, tumshug‘ini tepaga cho‘zib g‘arch-g‘urch beda kavshaydi...

“Sanobar qochib ketibdi!” Qochish qiziq bo‘larkan: ota boshini egib o‘tirarkan, ona hushdan ketarkan, amaki asabiy baqirarkan, kimdir tandir osha mo‘ralab tomosha qilarkan; ot esa, yolg‘izgina ot bamaylixotir bedasini kavshayverarkan.

...Tillo kelib, gurungimiz tag‘in jonlanadi.

“May sun, xumorman, may manga, ey soqiyi go‘zal”, deya sho‘xchan xirgoyi qilib kiradi u.

“Soqiyi go‘zal” — Shoim shishadagini piyolalarga taqsimlarkan:

— Oxirgi o‘tirishimiz eslaringdami, bolalar? — deydi. — Men xizmatga ketishim oldidan. Soyda...

— Ichgan edik, birinchi marta! — deydi Tillo xayolchan. — Amir o‘shandayam sipolik qiluvdi.

— Sen-chi? O‘zing-chi? Ichib eplaganmiding?..

Esimda, Tillo o'shanda ichishni eplamagan bo'lsa-da, har qalay, boshqa bir nimani eplagan, to'g'ri qilgan edi.

...Sanobar opa voqeasidan keyin ko'p o'tmay Shoim harbiy xizmatga ketadigan bo'ldi...

Kechga yaqin Tillo ikkovimiz darvoza tagida qayoqqadir otlanib turuvdik, ko'cha boshida Shoim ko'rindi. O'zimizni ichkariga urmoqchi edik, uning odatdagidan o'zgacha, osoyishta nigohiga tutilib, joyimizdan jilolmay qoldik.

Shoim jimgina yonimizga keldi, ko'rishdi, allanechuk quyuc ko'rishdi. Chamasi, ikkalamizning ham xayolimizdan bir zurning o'zida bir xil fikr o'tdi: "Hiyla qilayotgan bo'lsa-ya, shayton?"

Ammo "shayton" hiyla qilmoqchiga o'xshamasdi — tamakisini burqsitib, tutuniga boqqan ko'yi o'ychan turardi. Shu tobda uning istagan hiylani ishlatib, istagan yo'sinda bizdan o'ch olishiga rozi edik negadir.

— Ketdik, — dedi u quruqqina.

Indamay orqasidan ergashdik.

Qiyalik bo'ylab soyga enarkanmiz, Shoim qop-qora qo'llarini kiftimizga qo'yib ma'yus, armonli tovushda g'udrandi:

— Jo'ralar, biz armiyaga ketyapmiz...

U ko'krak cho'ntagidan ezg'ilangan, tamaki yuqlari yopishgan chaqiruv qog'ozini olib ko'rsatdi.

Sohildagi xarsanglarga yechindik. Shoim to'rvadek keng shimi kissalaridan to'rt-besh dona bodring va qog'ozga o'rog'liq shisha chiqardi. Shishani tol tagidagi, girdiga yapaloq toshlar yotqizilgan buloqqa tiqib, bodringlarni suvda chayib keldi. So'ng, bizga o'qraygandek bir nazar tashlab xarsangga, kiyimlari ustiga o'tirdi-da, ustozni sovg'a qilgan sopi sadaf bejama pakkisi bilan yirikroq bir bodringning ichini uzunasiga o'ya boshladi.

Shoim... Yelkalari oqshomgi shu'lada misday qizarib tovlanadi, qimirlaganida qo'l mushaklari o'ynoqlab ketadi. Harakatlari kattalarnikidek vazmin, salmoqdor, gaplari ham allaqanday sirli... Kechagina o'zimizga qo'shilib ko'cha changitib yurgan Shoim!..

Biz shularni xayoldan kechirib, uning azamat gavdasiga, chimirilgan qoshlariga taajjubda tikildik. U bizga deyarli beparvo, imillab bodring archiyapti.

Ko'nikilmagan o'yg'aysizlik — qimir etmay qovoq poylab o'tiraverishga ortiq chidamadi shekilli, Tillo bir mahal qo'rqa-pisa, tutilinqirab gap boshladi:

— Shoim... O'shanda biz... yo'q-yo'q, men...

— Bilaman, — deb to'ng'illadi Shoim boshini ko'tarmay.

— Borib buloqdagini opke!

U, shishani ochib, bodring kovagiga quydi-da, bir ho'plashda ichib yubordi. So'ng kichikroq bir bodringni o'rtasidan bo'lib, ikkovimizga tutqazdi. “Qadah”ni tag'in to'lg'izib, Tilloga uzatdi.

— Og'aynilar, biz endi ketyapmiz, — deya g'udrandi u yana.

— Qani, ichib yubor.

Tillo bir lahza bodring ichidagi narsaga hayron tikilib turdi-yu, keyin Shoimga o'xshatib bir qultum qildi. Afti burishib, ko'zlaridan yosh chiqib ketdi.

— Bodringdan, bodringdan! — deb qistadi Shoim.

Men ichmadim. Tillodan xulosa qilib qaytardim. Umuman, Shoimga ham, bu o'tirish-u bodring ichidagi “mo'jiza”ga ham hayron edim.

Menga quyganini Shoim o'zi ichdi. Ichganda uning afti burishmas, ko'zlari yoshlanmas, orqasidan bodring ham tishlamas edi.

U ikkinchi qatla uzatganida Tillo bosh chayqadi. Basharasi hozirgina ichgani vino tusini olgan edi.

Shoim oyoqlarini ikki yonga kerib, qaddini g'oz tutganicha, qolgan vinoni og'zidan qultillatib oxiriga qadar simirdi va bir zum chimirilib turdi-da, bo'shagan shishani qulochkashlab ro'paradagi bog'otga uloqtirdi. So'ng nari ketib, soy labidagi xarsangga, bizga orqa o'girib o'tirdi. O'mganini tizzalariga berib, boshini quyi tashlagan — oftobda kuyib po'sti ko'chgan kuraklarigina ko'rinadi.

Nimadandir hadiksirab unga yaqin borolmasdik.

Shu alfoz bir dunyo vaqt o'tdi. Yechinishga yechinganmizu, suvga kirish, cho'milish hech kimning o'y-xayoliga kelmaydi. Zerikkandan ko'lga tosh otishni ermak qilamiz.

Dara tomondan qo'zg'algan shabada tol va teraklar boshini muloyim silaydi, ko'l sathi titrab, jaji mavjlar bir-birini quv-lashadi. Salqin junjiktirdi shekilli, Tillo yalang yelkalariga ko'ylagini ildi.

Nihoyat, sekingina Shoimning qoshiga bordik. Tillo uning gardaniga kaftini qo'ygan edi, u boshini og'ir ko'tardi: ko'zlari qizargan, qovoqlari chetida qotgan yosh dog'lari.

— Sano ketib qoldi-ya! — dedi u kutilmaganda, xo'rsinib.

Tillo bir lahza merovsimon serrayib turdi-da, so'ng nogahon jazava tutgandek, xarsang ustidagi kiyimlarini yulqib olib, "Men uni topaman! Men uni!.." deganicha qiyalikka qarab yugura ketdi.

— Chop orqasidan! — dedi sergaklangan Shoim meni tutib.

Men joyimdan qo'zg'almadim.

O'sha daqiqa biz go'yo bir-bir yoshga ulg'aygan edik...

Keyin... Shoim ketdi xizmatga. Bolta frontning bog'iga boshqa tushmadik, u ham oldingi do'q-po'pisa-yu ta'na-dashnomlarini qo'ydi. Nor amaki ham endi bizni "shaytonchalar" demaydigan bo'ldi. Ko'chamizdan shovqin-suron arigandek, tinchib qoldi. Biroq, hamon Tillo ikkalamiz oqshomlari "konsultasiya"ni kanda qilmas edik.

....Baland ayvonchada turibmiz. Bu yerdan chor atrof kaftdagidek namoyon. Rayon markaziga olib tushadigan keng, ravon yo'l, tomorqalarni chegaralagan bir tekis g'ishtin devorlar, biqinida oynavand boloxonasi qaqqaygan serhasham imoratlari...

Bolta frontning chorbog'i yonidan o'tgan egri-bugri bog'ko'cha, chorbog'ning beri yog'idagi tollar soyasida xayol surib yotadigan sarhovuz... qani? Daraxtlarga ko'milgan loy tomli pastak-pastak uylar, yomg'ir yuvmasin uchun shuvoq bostirilgan paxsa devorlar... qani? O'shanda bizni ohanrabodek bag'riga imlab qo'ymagan g'aroyib chorbog', chorbog' girdini soqchi misol o'ragan sarv teraklar... qani? Uning hamon xotiralar bilan yashovchi, tanbeh berishni xush ko'radigan, lekin aslida ochiqq'ol, muruvvatli sohibkori-chi?..

Bog'ko'cha kengaytirilib, yangi yo'lga tutashgan; sarhovuz allaqachon ko'milib ketgan, atrofidagi qari tollar qirqilgan, ana, to'nkalari qorayib turibdi; bog' to'ridagi uy vayronalari tun chimmatida elas-elas ko'zga chalinib, ko'ngilni g'ussaga chulg'aydi; sarv teraklar endi yo'q; qurilish maydoniga aylana-

gan chorbog‘da tosh, shag‘al uyumlari, har xil yog‘och, belkurak va boshqa allaqanday uskunalar aralash-quralash to‘zib yotibdi.

Chorbog‘da kimdir birov darg‘azab kezib yurgandek... Hassasini podachi singari yelkasiga qo‘yib olgan, boshini kashtali qiyiq bilan tang‘igan, egnida kenja o‘g‘li harbiydan kiyib qaytgan nimdosh gimnastyorka bo‘lsa kerak... U har bir to‘nka qoshiga kelib hasratli bosh egadi...

— O‘zgarishlar qalay? Zo‘r-a? — deya xayolimni “tutib” so‘raydi Tillo.

Indamayman.

— Maktab quriladi bu yerga. To‘rt qavatli! Bosh rejaga ko‘ra, ko‘chaning naryog‘ida zamonaviy uslubdagi yangi kinoteatr bo‘ladi. Keyin...

Keyin — restoran, keyin — ertakdagidek maftunkor istirohat bog‘i, keyin...

Bosh rejaga ko‘ra, bolalar darsdan qochib kinoga kirishadi. Kinodan ta‘sir lanib chiqqach, restoranga o‘tishadi. Undan so‘ng ertakdagidek maftunkor istirohat bog‘ida juft-juft bo‘lib sayr etishadi. Bir paytlar shoirlikni orzu qilgan, ammo iste‘dodi yo‘qligi tufayli niyatiga yetolmagan adabiyot muallimi esa, bo‘sh partalarga qarab hayajon bilan Farhod va Shirinning bahor tonglaridek musaffo, buloq suvlaridek tiniq, tog‘ shalolasidek jo‘shqin muhabbatidan afsona o‘qiydi...

Bosh rejaga ko‘ra... shundan bo‘lak joy qurib qolgan ekan!

Bu yerlarning loaqal bir daqiqaga bo‘lsin burungi holatga qaytishini orzu qilaman. Behuda xayollar... Go‘yoki ichimda shoshqin bir daryo oqadi, u yuragimni qayoqqadir olib ketmoqchidek, siltab-siltab tortqilaydi. O‘sha kezlar sarv teraklar shovillashini eshitganimda ba‘zan shunday bo‘lardi...

— Bolta front...

— Ko‘chib ketdi. “Otamdan qolgan joy, otsang ham ketmayman. Kerak bo‘lsa frontovikman”, deb yurdi-yurdi-da, ko‘chib ketdi bir kun. Davlat uy berdi.

— Kalladay-kalladay olmalari-chi, olib ketmadimi ularni? — deya xayolchan kulib so‘rayman.

— Olmalari? He-he, bolalarga qoladi-da. O‘zimiz qandoq edik...

— Bolalik ekan-da...

Shoim bizni kuzatib chiqarkan, ko'chani shovqinga to'ldirib kinodan qaytayotganlar to'dasidan boya "adabini yegan" ukasi ajralib qoladi-yu qo'ltig'i tagidan lip etib uyga kirib ketadi.

— Bularning yurishini!..

Boloxonaga ko'tarilib, o'ringa cho'zilaman. Farhod ko'chadan qaytmabdi hali — karavoti bo'sh. Negadir uni ko'rgim kelayotganini sezaman.

Qo'llarimni yostiq qilib chalqancha yotibman. Xayolim bot-bot xotiralarga ko'chadi. Ko'zim yumuq, lekin uyqu yo'q. Bu yotishda uxlay olmasligim tayin. Oyna chertilishini, Tillo paydo bo'lishini, derazadan oshib tushishimni o'ylayman — shuni kutyapman. Oyna esa chertilmaydi. Demak, uxlay olmayman. Bezovta sukunat...

Oyna chertiladi! Jur'atsizgina. Yuragim beusul dukillab darazaga yaqinlashaman.

— Tillo!..

Ko'zlari iltijoli javdirab Farhod turibdi. Nariroqda — velosipediga suyangan olifta o'rtog'i.

— Ha, nima qilib yuribsan bemahalda?

— Akajon...

— Velosipeding qani? — deya tergayman atay: biror vaj topib tanbeh berib qo'yish kerak-da.

— Ichkarida. Boya keltirib qo'yuvdim. Darvoza zanjir ekan...

— Hm. Qo'lingni ber.

Uni derazadan tortib chiqaraman.

Yana ko'zlarim yumuq, yana bedorlik, yana intiq sukunat, yana nimadandir umidvorlik...

...Deraza sho'x chertiladi. Sapchib turib qarayman: Tillo!

— Hi? — deyman hovliqib.

— Hi? — deydi qiqirlab u.

Ajib bir ikkilanish, ajib bir hayajon ichida derazadan oshaman: "tap". Hech kim ko'rmadimikin? Hech kim eshitmadimikin? Shimimga gard yuqqanini o'ylab esa ta'bim birdan xiralashadi.

Beixtiyor borib Shoimning darchasini qoqamiz. Ikkalimizning ko'nglimizda ham xijolatlikka o'xshash xavotir: nima deymiz?

Darcha g'iyqillab, boloxonadan tushayotgan bir quchoq nurga peshvoz, choponini yelkasiga tashlagan Shoim ko'rinadi.

— Tinchlikmi? — deydi u ajablanib.

— Tinchlik, — qiqirlaydi Tillo.

— Hi?

— Hi?

Uchovlonning baravar qahqahamiz tungi sukunat qo'ynida mudrayotgan ko'chamizni seskantirib yuboradi.

— Nima qildik, xo'sh?

Nima qildik? Bolalikdagi kabi hovlima-hovli, devorma-devor osha suv bog'lashga boramizmi? Kran-chi?! Yo, Bolta frontning bog'iga tushamizmi... kesak terгани?! Stadionga jo'nasakchi?.. Darvoqe, jamoatchi qiz — endi kelin; chamasi, u hozir to'yga tayyorgarlik ko'ryapti, kashta tikyapti. Dugonasi... "raykom-somolda ishlaydigan Turdiyev"ning bolasini allalayotgandir. Nima qildik...

— Go'daklar! — Shoim suyib kiftimizni quchadi. — Boranglar, yotinglar. Dalniy reysim bor, saharlab turishim kerak.

— Men ham ertaga...

— To'g'ri, men ham...

...Kutganim "nimadir" sodir bo'ladi. Ko'chadan hushtak eshtiladi. Qo'shni karavot g'ijirlaydi, ko'rpasi ohista sas taratib bir yonga suriladi. Jonsarak sharpa deraza tomon jiladi. Shivir-shivir.

— Akam!.. Ketganimni bilib qolsa...

Boraver, ukajon, boraver. Senga, senlarga nima ham derdim, nima ham deya olardim? Sen meni birdan shundoq a k a bo'lib qolgan, deb o'ylaysan. Men ham qachonlardir birovlarini shunday deb o'ylardim... Qara, men tinchgina uxlayapman. Boraver, ukajon, boraver...

Tap etgan tovush: derazadan oshdi, shayton! Ko'cha sukunati buzildi — bir parcha cho'g' tushdi u yerga!

Xotirjam uyquga ketaman. Tush ko'raman.

Tushimda:

Ko'cha boshi. Nor amaki Tillo ikkalamizni ikki qo'lida quloqlarimizdan cho'zib yerdan uzgan, oyoqlarimiz havoda pitirlaydi. "Nega "Belomor"imni o'g'irladilaring, a, shaytonchalar?" deya tergayapti u. Supachada o'tirgan Bolta front tayog'ini

bizga o'qtaganCHA nimadir deb do'q uryapti. Qandaydir bolakay: "Ho' amaki, qo'yib yuboring-e! Nima, o'zingiz bola bo'lmaganmisiz?" deb baqirarmish. Nor amaki javob bermas, nuqul xo'rsinar ekan. Shoim esa, bizni qutqarish o'rniga, qo'sh qanotli archa darvozaga xayolchan suyanib turgan Sanobar opadan ko'z uzmas emish. Tomoshabinlar — Farhod, uning olifta o'rtog'i, Shoimning kinosevar ukasi va yana allakimlar bizni masxaralab hiring-hiring kulisharmish. Haligi bolakay ha-deb baqirarmish, ko'cha uning hayqirig'iga guvillab aks sado qaytararmish:

- "Nima, o'zingiz bola bo'lmaganmisiz?!"
- "Nima-a, o'zingi-iz, bola-a bo'lmaganmisi-iz..."
- "Nima, o'zingiz bola bo'lmaganmisiz?!"
- "Nima-a, o'zingi-iz, bola-a bo'lmaganmisi-iz..."

1971

KECHIRASIZ, O‘RTOQ MUALLIM!

(Sarkash bolaning kundaligidan sahifalar)

...— Xudo ursin agar, o‘pdi!

— Kim?

— Turobadze!

— Yo‘g‘-e, o‘qituvchi-ya?!

*(Faylasuf va “matematik”ning
maktab bog‘idagi suhbatidan)*

MUQADDIMA O‘RNIDA

Biz o‘quvchi — ular esa o‘qituvchi...

Ular o‘rgatadi — biz o‘rganamiz...

Ular hamisha bizni yomon odam emas, yaxshi odam bo‘lishga da‘vat qilishadi...

O‘qituvchilardan Turna piyon araq ichadi, Safarov sigaret chekadi, Turobadze kutubxonachi qiz bilan yuradi, Josus Hojiqulov “matematik”ni yigirma bir tarsaki urgan... va hokazo va hokazo...

Lekin baribir dars oxiridagi nasihat pallalarida ular qo‘llarini stol chetiga tirab, qo‘ng‘iroq chalinguncha “O‘qituvchining qilganini emas, aytganini qil!” deya o‘git berishadi.

Biz — men, faylasuf Umar, “matematik” Akbar esa ularning aytganini emas, qilganini qilamiz: ichamiz, chekamiz; men Risolat bilan, Umar Ozoda bilan, Akbar Malika bilan yuradi...

Shuni bilgan o‘qituvchilar bizlarga qarab norozi bosh chayqaydi: “Mana bularni ko‘ring: ichadi, chekadi, kinoga kiradi... Umuman, tartib-intizomga rioya qilmaydi. Eh, bizlar! Bizning davrimiz!.. O-o-o, bizlar o‘quvchiligimizda qandoq edigal..” deyishadi og‘iz ko‘pirtirib.

Rostdan ham ular qanday bo‘lgan ekan-a?.. Ehtimol, bo‘lgan bo‘lishsa — bordir. Axir, ular o‘qituvchi! Biz-chi? Biz — o‘quvchi...

K e c h i r a s i z, o ‘ r t o q m u a l l i m ! ..

Muallifning yoshlik ijodiga mansub ushbu o'rgamchik qissa ilk marotaba e'lon qilinayotir.

ADABIYOT DARSİ

...Qo'ng'iroq chalinadi — dars boshlanadi...

Baland ko'k eshikdan Safarovning “volno”sini eshitmagan-day qotib, sinf jurnalini go'yo birov tortib olishidan qo'rqqan kabi mahkam ko'kragiga bosgancha, mayda qadamlar bilan tez-tez yurib Josus Hojiqulov... e-e, Jasur Hojiqulov kirib keladi. Risolatning partasi yonida to'xtab, burnini jiyiradi:

— Bu qanday tartibsizlik? Sinf chang, havosi buzuq...

Borib derazani ochadi. Yuzimizga muzday shabada urilib jun-jikamiz, g'ijnamiz. Holbuki, sinfda hech qanday g'ubor, no-xush hid yo'q, bo'lmagan gap! Qildan qiyiq... Bu gal negadir Umar qo'l ko'tarib buni aytmaydi.

“Ertalab non yeganmidingiz o'zi? Qattiqroq “men” desangiz-chi!” degan tanbeh ostida yo'qlama o'tadi.

Hojiqulov sinfga takror ko'z yugurtirib chiqadi. Menga nigohi tushib, “shu yerdamisan?” degandek chimiriladi.

“Sen darsida bo'lmasang, “Ha-a, anovi kishi yo'qmilar? Yaxshi”, deb qora bloknotiga qalamining ko'k tomoni bilan yozib qo'yadi. Keyin og'ziga kelganini qaytarmay valdiraydi. Roman bilan povestning farqini so'rasam, nima deydi-ya: “Roman kattalar haqida bo'ladi, povest yoshlar haqida...” Bu gapni qara! Savodsiz! Josuslikni biladi-yu...”, deydi kulib Umar.

Maktabda Hojiqulovni tanimaydigan bola yo'q va bo'lishi ham mumkin emas! “Lazarevning generallari”, ya'ni bizdan tashqari deyarli hamma uning nomini eshitiboq, tarsaki yegandek chakkasini ushlaydi. O'z navbatida u ham barchani taniydi. Chunki biror bahonada familiyasi ko'k yoki qizil qalam bilan uning qora bloknotiga tushmagan bola yo'q va bo'lishi ham mumkin emas! Bo'lsa ham boshqa maktabdandir... Bloknotning qariyb yarmini ko'k rangda yozilgan bizning familiyalarimiz egallasa kerak. Negaki biz har kuni kinoga kiramiz...

Dastavval kinoteatr orqasidagi xiyobonga o'tamiz. Xayriyat, bugun Hojiqulov ko'rinmaydi. Bo'lmasam, osmondan tushgandek yonimizga kelib:

— Qani, sigaretni oling! — deydi.

— Chekasizmi, o‘rtoq muallim? Xo‘p, mana hozir... Marhamat! — deb Umar cho‘ntagidagi “Prima”ni olib uzatadi.

— Bezorilar! Lazarevning bezorilari! Senlarni hali... Familiyalarigizni aytinglar-chi! — deb to‘ng‘illaydi va qora bloknotini olish uchun yoniga qo‘l suqadi...

Bizdan uzoqlashayotib:

— Ertaga lineykaga!.. — deydi.

— Xarosh! — deydi Umar.

— Yomon bo‘ldi! — Bu Hojiqulovning tahdidi.

Umar chap yonini kavlab, ochilmagan “Prima” qutisini oladi. Akbar gugurt chaqadi. Chekamiz.

Kinoteatr maydoni simyog‘ochdagi qalamsimon chiroqlar nuridan oydin, munavvar. Eshik oldida, kontrolyor qarshisida ikkinchi tekshiruvchi kabi, qo‘lida qora bloknoti va bir tomoni ko‘k, bir tomoni qizil qalamini ushlagancha, yozishga mahtal bo‘lib olazarak Hojiqulov turadi. Bizni ko‘rib, quvnagandek qalamining ko‘k tomonini rostlaydi. Bu rang salbiy gapni, qizili esa ijobiy gapni yozishga xizmat qiladi. Darvoqe, qizili, Umarning tili bilan aytganda, “redko”, faqat daftar tekshirishda ishlatiladi...

Hojiqulov odaticha buzoq ko‘zlarini bizga olaytirib:

— Ha, atamanlar, kinogami? — deya bilaturib so‘raydi. — Bir kungina qolsalaring bo‘lmaydimi shu savildan?

— Bilet olgan edik-da, muallim...

Hojiqulov o‘zining otidan ham tanish bo‘lib ketgan familiyalarimizni yana so‘raydi:

— Qani, aytib yuboringlar-chi!

— Normatov, — deyman men.

— Islomov, — deydi Umar.

— Jalolov, — deydi Akbar.

— Ertalab non yeganmidingiz o‘zi? Qattiqroq gapirsangiz-chi!.. 10-”g”dan-a?

— Xuddi shunday! — javobimiz umumiy.

Bilet yirtiladi. Orqamizdan Hojiqulovning bo‘g‘iq tovushi eshitaladi:

— Ertaga lineykaga!..

— Xarosh! — deydi Umar.

— Yomon bo'ladi!

O'zim bo'lmasa adabiyotni qariyb Risolatchalik yaxshi ko'raman, ammo bu o'qituvchiga, uning darsiga sira tob-toqatim yo'q. Ikki yildirki, shu Hojiqulov dars beradi, lekin hanuzga qadar undan loaqal biror og'iz yaxshi gap, yangi gap, qiziqarli narsa eshitganim yo'q va eshitmasligimga ham aminman. Umar kulib, "Eski og'izga yangi gap qayoqda!" deb bejiz aytmaydi. Uning darsi — nuqul tanbeh, nuqul qora bloknot-u qalamning ko'k tomoni, keyin uzundan-uzoq, hatto tanaffusga chalingan qo'ng'iroq ham chek qo'yolmaydigan, ensani qotiruvchi quruq nasihat, maqtanish: "Bizlar undoq edik, bizlar bundoq edik, sizlar esa..." Shu boisdan mudom bu darsda yo yozilajak she'rimni kallamda pishitib, yoki Risolat haqidagi shirin xayollar og'ushida sarxush bo'lib o'tiraman.

Eshikdan Xolmatning boshi ko'rinadi.

— Mumkinmi, o'rtiq muallim?

— Dars vaqtida qayoqlarda daydib yuribsan? — deb baqiradi Hojiqulov.

— Saparov muallimimiz papirosga yuborgan edilar. Magazinchini kutib, kech qoldim...

— Boring o'sha muallimingizning oldiga! E-e, familiyanigizni aytib keting!.. — Hojiqulov yoniga qo'l suqadi...

Ana, endi tamom! Boshlanadi: "Sizlar undoq, sizlar bundoq... O-o-o, bizlar!.." Nasihat fani bo'lganida, ehtimol, bularni eshitgan hech kim, hatto ikkichi Qosimov ham "4" olmas edi...

"She'r... Risolat... She'r... Risolat..."

— Qani, Normatov, navbatdagi bandini siz aytib yuboring-chi!

Hojiqulovning ovozidan hushimga kelaman va ko'z oldimdan xayol pardasi ko'tarilib, doskadagi yozuvlarni o'qiyman:

"Saida obraziga xarakteristika" degan mavzudagi insho rejasi:

1. Saida — oddiy o'zbek qizi.

2. Saida — kolhoz komsomol tashkilotining sekretari.

3. ..."

Demak, uch raqami qarshisini men to'ldirishim kerak shekilli. Doskadagilarni, shubhasiz, Hojiqulov topgan — uning xati. Aftidan, navbatdaxisini hech kim, hatto Risolat ham bilma-

gan ko‘rinadi. Shuning uchun oxirgi, “hurmatli nomzod” — mendan so‘rayotir. Hamisha shunday: hech kim aytolmaganini mendan so‘raydi. Bolalarning aytishicha, ko‘p kitob o‘qiganlik jihatidan maktabda mening oldimga tushadigani yo‘q emish. Unisini bilmayman-u, ammo bu sohada goh-goh — ilojisiz qolgan kezlarida, albatta — Hojiqulov ham meni e‘tirof etishga majbur bo‘ladi va ba’zida adabiy kechalarni tashkil qilishni menga topshiradi. Quvonchli joyi shundaki, bunday vaqtlarda mudom ko‘kka bo‘yalib kelgan nomim qizil rangda qora bloknotga tushadi. Qani edi, shu bloknot ham qizil bo‘lsa!..

— Nimani? — deyman savolni tasdiqlatib olish uchun.

— Nimani bo‘lardi — rejaning navbatdagi bandini-da! Doskaga qarang! — Hojiqulov doskaga ishora qiladi. — Ko‘zingiz o‘tmayaptimi, yoki uxlab o‘tiribsizmi?

— Yo‘-o‘q, — deyman cho‘zib va doskaga qayta ko‘z yurgutirib, g‘ijinaman: “Shuyam reja bo‘ldi-yu!..”

— Saida... — deyman g‘o‘ldiranib va beixtiyor ichimdagi gapni baralla aytib yuborganimni bilmay qolaman: — Savod-siz!..

— Nima?! Kim? — Hojiqulovning rangi bo‘zday oqarib, buzoqnikidek ko‘zlari xonasidan chiqib ketguday kattalashadi — go‘yo faqat oqish pardaga aylanib qoladi.

— Kechirasiz, o‘rtoq muallim! Men... men bilmay boshqa gapni aytib yuboribman, — deyman uning vajohatidan qattiq chora kutganim uchun o‘zimni past olishga tirishib, lekin bari-bir tilimni tiyolmayman: — Lekin, o‘rtoq muallim... bu rejan-giz yaramaydi. Shuni aytmog‘chi edim...

— Kim aytdi?! Nega?! — Hojiqulov qichqirib yuboray deydi.

— Yaqinda jurnaldan o‘qidim...

— Qanaqa jurnal?

— “Til va adabiyot”...

— Men “Til va adabiyot”ingizni bilmayman! Bu — mening darsim! Chiqing, chiqib keting darsimdan! — deydi Hojiqulov negadir endi past, xasta tovushda, biroq qat‘iy.

Sinfdoshlarimning hayron nigohi menga qadalganini his etaman. “Boshingizga balo orttiryapsiz” degandek kuyinib turgan Risolatga boqaman. Lablari bo‘yalgandek gulobi: hoynahoy, tishlagan. Qayrilma kiprikli ko‘zlarida iltijo: “Qo‘ying, kerak emas!”

Shu — qimtilgan lablardan o'pgim keladi. Xayolan o'paman ham...

U yoqdan Hojiqulovning oldingidan ham balandroq to-vushda:

— Men sizga aytyapman, Normatov, sinfni bo'shating tez-roq! Menga sizdaqa o'zbilarmon, bezori o'quvchi kerak emas, bildingizmi! Jo'nang! — degani eshitiladi.

...Tarix darsi. Turobadzening dars o'tishga xushi kelmadi she-killi, "Sizda siyosiy til bor" deya, sinfni menga topshirib, o'zi jismoniy tarbiya o'qituvchisi Safarov bilan somsaxo'rlikka jo'naydi. Men uning tayinlagani bo'yicha, o'tilgan mavzuni takrorlay boshlayman.

Eshik chertiladi.

— Mumkinmi, domlajon? — Kimningdir tanish, lekin qo'rqinchli ovozi...

Ostonada Hojiqulovning Safarov "volno"sini eshitmagan-dek so'rraygan gavdasi paydo bo'ladi. Bolalar gurr etib o'rinlaridan turishadi. U qo'li bilan "o'tiringlar" ishorasini bildi-rib, menga yuzlanadi:

— Qani, o'rtiq Normatov, martabalar muborak bo'lsin! — deya kinoyali tirjayadi. — O'zingiz tengi o'quvchilarga dars berish uchun kim huquq berdi sizga?

— Dars emas, o'rtiq muallim, shunchaki... Turobov muallimimizning ishlari bor ekanmi, mendan iltimos qildil-ar...

— Shunday de-eng! Ho-o, Turobov muallimingizga kim iltimos qilgan ekan darsni qo'yib somsa yeyishni? — Hojiqulov nimanidir sinayotganga o'xshab qiya qaraydi.

— Bilmasam, — deyman yelkamni qisib.

— Bilmasangiz, chiqib keting bu yerdan! Bilmasangiz, nima qilasiz o'quvchilarni aldab, ularning qimmatli vaqtini olib?.. — u mehribonlik qilayotgan kabi ochiq chehra bilan bolalarga qaray-di: — Shunday emasmi, o'quvchilar?

"O'quvchilari" negadir miq etmaydi. Risolat oldida, sinf-doshlarim oldida izza bo'lganimdan og'zimni yopolmay qola-man:

— Siz keting! Nima qilasiz birovlarining darsiga poyloqchilik qilib? Darsi uchun kerak bo'lsa Turobovning o'zi javob beradi!

— Mah-ma-da-na! Ho‘ Turobovning tirranchasi-ey!

Ko‘zimdan yosh chiqib ketay deydi.

— Chiqing, chiqib keting!

— Xo‘p, domlajon, uzr! Siz aytasiz-u!.. — Hojiqulov shubhali tirjayib qo‘l qovushtiradi. Uning bu holati go‘yo xo‘jasi qarshisida qulluq qilayotgan qulni eslatadi. — Biz-ku chiqib ketamiz, ammo keyin siz ham qolmaysiz — maktabdan chiqib ketasiz o‘sha Turobovingiz bilan!..

— Bo‘pti, ko‘ramiz! Eshikni yoping!

— Mayli, eshikni yopaman-u, pedkengashga qo‘yaman masalangizni, masalalaringizni!..

— Qo‘ysangiz qo‘yavingiz!

Tavakkaliga tap tortmayman. Meni maktabdan haydamasa kerak: a‘lochiman, yana — maktab devoriy gazetasining muharririman-ku! Men ketsam, uni kim chiqaradi? Buning ustiga, “Lenin uchquni”da she‘rlarim chiqqan!.. Qaytaga, Hojiqulovning o‘ziga bir kor-hol bo‘ladi. O‘qituvchilarning bari, hatto direktor ham uni yomon ko‘rarmish, lekin chora topolmash. Umarning aytishicha, “podderjka”si zo‘r ekan-da...

Bir hafta burun bo‘lib o‘tgan bu mojaroni eslab, “baribir hech narsa qilolmaydi” degan o‘yda indamay turaverishga qaror qilaman. Lekin, “Eshityapsizmi, jo‘nang deyapman sizga! Ikinchi bor qorangizni ko‘rmayin!” degani sabr kosamni to‘ldirib yuboradi. Daftar-kitobimni yig‘ishtirib eshikka otilaman. Ammo ostonaga yetmasdan Hojiqulovning kutilmagan buyrug‘i meni to‘xtatadi:

— Qayting!

Bunday paytlarda uning “Ota-onangsiz maktabga kelma” deyishini eslab:

— Otamni opkelaymi, onamni? — deb so‘rayman.

— O‘tiring joyingizga! — deydi u gapimga e‘tibor bermay; avzoyidan boshqa narsani o‘ylayotganga o‘xshaydi. — Keyin gaplashamiz siz bilan. Bugun pedkengash bor... Esingizdan, eslaringizdan, — deya u Umar bilan Akbarga ham qarab oladi, — chiqmasin! Aks holda...

— Xaro-osh! — deb qo‘yadi Umar.

— Yomon bo‘ladi, o‘v bola!

Akbar o'rnidan turib, qo'llarini bir-biriga qovushtirgancha, atay qimtingan ko'yi xunuk bir tovushda shang'illaydi:

— Birr matta kechiring, o'ртоқ muallim!..

Hojiqulovdan boshqa hamma kulib yuboradi. Uning yapaloq peshonasi tirishgan. Bunday mahalda nasihatni qalashtirib, surasini surardi-ya, afsuski, hozir...

Soatim yo'q, Umarnikiga qarayman: mana, tanaffus...

— Kimda savol bor? — deb so'raydi Hojiqulov har gal-gidek. Umar qo'l ko'taradi.

— Xo'sh?

— O'ртоқ muallim, RAPP nima degani? — U menga ko'z qisib qo'yadi.

— Bu mavzudan o'tib ketganmiz-ku?..

— O'tgan bo'lsak ham-da, tushunmayapman shunga...

Hojiqulov buzoq ko'zlarini derazadan ko'rinib turgan yaltiroq tol barglariga tikadi.

— RAPP, — deydi birdan bosh burib, — bu — Rossiyskiy Adabiy Partiya degani.

— Oxirgi "P"si-chi?

— Padaringga la'nat degani!..

Hojiqulov Safarovning "smirno"sini eshitmaganday shalpayib, sinf jurnalini go'yo birov tortib olishidan qo'rqqan kabi mahkam ko'kragiga bosgancha, dars yakunlashning barcha rasm-rusumlarini unutib, katta-katta qadamlar bilan tez yurib baland ko'k eshikdan chiqib ketadi...

Qo'ng'iroq chalinguncha sinfda qahqaha tinmaydi.

Men bu dars tugashini she'riy maktublarimga Risolatning javobidan orziqib kutaman. Baxtinga...

Qo'ng'iroq chalinadi — dars tugaydi...

...Kechirasiz, o'ртоқ muallim!..

ALGEBRA DARSİ

Qo'ng'iroq chalinadi — dars boshlanadi...

— O'rtoglar, kvadratning kvadrati nima bo'ladi? Avval shuni aytinglar, keyin o'taman darsni!

Bu kishi — darsning muqaddimasini hamisha shunday boshlagani uchun "Kvadrat" laqabiga sazovor bo'lgan o'qituvchimiz

Asadov. U “i” unlisiga urg‘u berib, tojik talaffuzida gapiradi. Bundan tashqari, ikki gapining biriga “o‘rtoqlar”, “oshino” so‘zlarini qo‘shadi. Akbarning sanashicha, “o‘rtoqlar”ni bir soatda 148 marta ishlatganmish. “Hoy, matematik, bunchalik murakkab hisobni qandoq qilib chiqarding?” deb hazillashib qo‘yaman unga.

Asadovning biror masala yoki misolni to‘la-to‘kis yechganini eslayolmayman. Bolalar “Javobi chiqmadi-ku o‘rtoq muallim?” deb chug‘urlashishsa, qo‘l siltab, “E oshino, javobi shart emas”, deydi.

— Qoniy, o‘rtoqlar, uy vazifasini bi-ir ko‘raylik-chi, kim bajaribdi, kim bajarmabdi? — U qator oralab uy vazifalarini tekshira boshlaydi.

Men matematikaga ham qiziqsam-da, uy vazifalarini ko‘pincha bajarmay kelaman. Birinchidan, turli bahona bilan Asadovdan bemalol qutulishimni bilsam, ikkinchidan, bu sohada suyangan tog‘im — Risolat bor! U matematikadan doskaga chiqqudek bo‘lsa, menga o‘xshagan a‘lochilar yerga qarab o‘tiradi. Uning hamma ishi pishiq-puxta, biror marta bo‘lsin dars tayyorlamay kelganini hech kim bilmaydi. Qaysi dars demang qo‘l ko‘tarib turganini ko‘rasiz!

Boz ustiga mening ham bor tashvishlarim shu jafokashning bo‘ynida...

— Ibrohim, kechagi misolni yechdingizmi? — deydi u kuyinchaklik bilan, xuddi u turganda biror marta men yechib yurgandek.

— Yo‘q, — deyman o‘zimni beparvo ko‘rsatishga urinib.

— Daftaringizni bering bo‘lmasam, ko‘chirib qo‘yaman.

— Ana, so‘mkamdan oling!..

“Shuni xotinlikka olsang, maza qilasan-da lekin, — deydi kulib Umar, — qishda ko‘rpa, yozda ko‘rpacha...”

— Bu sizning xatingizga o‘xshamaydi-ku, Normatuf oshino? — deydi tepamda qaqqayib turgan Asadov.

— U o‘xshamasa, men unga o‘xsharman, muallim! — deya haddim sig‘ishidan sho‘xlik bilan javob qaytaraman.

Asadov devoriy gazetadagi matematik terminlarni qo‘shib yozgan she‘rimni o‘qib, menga tan bergan. Shundan buyon uy vazifasini bajarmasam ham deyarli koyimaydi, faqat “Ko‘pam

she'r yozabermay, uy vazifasini bajarishga ham bir e'tibor bering, oshino!" deb qo'yadi.

O'qituvchi jurnalni ochib, doskaga chaqira boshlaydi:

— Jalolu-uf, matematik oshino, bu yaqqa bir keling!

— O'ртоқ muallim, mening bahomni bilasiz-ku!.. — deydi o'tirgan joyidan Akbar.

— Shundaymi? Ha, bo'lmasam, kundalikni opkeling, oshino! Akbar peshtaxtani ko'tarib ivirsigan bo'ladi.

— O'ртоқ muallim, kundaligim uyda qopti...

— Sizga, bo'lmasam, ildiz ostida "4"!

— A? — Akbar kundaligini chiqaradi.

— A oshino, bu deganim "2"-de! Ikkining kvadrati to'rt bo'ladi. Ildiz ostidan chiqarsa...

— O'ртоқ muallim... — Akbar o'qituvchiga yalinqirab boqadi.

— Ha mayli, "3"! Shopir bo'lsangiz, moshinangizga bir minamiz-de! Opkeling kundalikni!..

Akbarni "matematik" deyishimiz bejiz emas. Bu fandan u o'ta no'noq. Kuni shu: "shopir bo'ladi, Asadovni moshinasiga mindirib", zo'rg'a "3" oladi. Hayronman, lineykadan qochib ketgani uchun Hojiqulov uni 21 musht urganini qandoq sanagan ekan-a?..

U voleybolni yaxshi o'ynaydi. Safarovga havasi keladi. Safarov esa kemshik tishlari orasidan chirt etkizib tupuradi-da, "O'ylama, men tirik ekanman, sen bolaga o'rin yo'q!" deydi. Bilmadim, Akbar bechora endi nima qilar ekan... O'zi yaxshi bola-yu, bir oz qo'rqq-da: Hojiqulov ura-ura "mulla" qilib qo'yan. U hatto o'qrayib qarasa ham, qo'llarini bir-biriga qovushtirganicha, atay qimtingan holda g'alati tovush bilan "Birr matta kechiring, o'ртоқ muallim!" deya shang'illab yuboradi. Albatta, bu "kechirim" zamirida alam va kinoya bor...

Akbar — mening uchinchi raqamli "general"im. Hojiqulov yo'q joylarda g'oyat jur'atli: Risolatga maktubimni yetkazishmi, "Prima" topib kelishmi, xullas, so'zimizni yerda qoldirmay bajaradi. Umar uni "Voobshche-to, molodes paren — poslushniy" deb maqtaydi.

Doska oldida — yaqinidan o'tsangiz, atrining hidi ikki kun dimog'ingizdan ketmaydigan Salimova degan yasanchoq qiz javob berolmay mulzam. Asadov tajang. Bizga o'giriladi:

— O‘rtoqlar, kim aytadi?

Oldingi partada o‘tirgan Risolatning hamisha tayyor qo‘lini ko‘raman.

— Qoniy, o‘rtoq Fayziyeva, Viyet teoremasini bir sayrab yubaring, o‘rtoq Salimova bir eshitsunlar!

Risolat sharillatib aytib tashlaydi.

— Oxi, bilim deganlari mundoy bo‘pti-de! Eshitdingizmi, Salimova? O‘tiring, o‘rtoq Fayziyeva, “5”ning kvadrati!..

— Menga-chi? — deya suzilib so‘raydi Salimova.

— Sizga... — Asadov o‘ylangan bo‘ladi, — o‘smangiz uchun bir ball, surmangiz uchun bir ball... Hisoblang! Shuniyam bilmasangiz kerag-a, o‘rtoq Salimova? Demak, bahongiz — ildiz ostida “4”-de!

Keyin o‘qituvchi va‘zxonlikni boshlaydi; Salimovaga o‘xshaganlarni yomonlaydi, ularni Risolatdan o‘rnak olishga chaqiradi. Ma‘ruzasini “O-o, bizlar o‘quvchiligidamizda qandoq edig-a, o‘rtoqlar!” deb tugatadi.

So‘ng misol yechishga o‘tamiz. Asadov uyuq vazifa berarkan:

— O‘rtoqlar, tayyorlanishingiz shu bo‘lsa, imtihonda ahvoningiz voy! — deydi.

Doskadan misolni ko‘chirib olayotgan bolalar chug‘ur-lashadi:

— O‘rtoq muallim, anavi yechganingizning javobi chiqma-di-ku?

Asadov qo‘l siltaydi:

— E oshino, shart emas!..

Men bu darsning jiddiyroq o‘tilishini Risolat mening munosabatlarimga e‘tibor bilan qarashidek istayman. Biroq, afsuski...

Qo‘ng‘iroq chalinadi — dars tugaydi...

...Kechirasiz, o‘rtoq muallim!..

KIMYO DARSII

Qo‘ng‘iroq chalinadi — dars boshlanadi...

— Hozir kimning darsi? — deb so‘rayman yonimdagi Umardan.

— Nuriyansning, — deydi u quv nab.

Ostonada o'zi ham, gap-so'zi-yu qiliqlari ham kimyoviy mo'jizadek ajoyib muallimimiz G'affor Nuriyevich paydo bo'ladi. Sinf sevimli odamni ko'rib, boyagi qiy-chuvini unutadi, xona suv quygandek jimjit bo'lib qoladi.

G'affor Nuriyevichning bo'yi past, sochi siyrak, ko'zi tiyrak, ma'noli boqib turadi. O'z fanini g'oyat sevadi, puxta biladi. Bir galgi laboratoriya ishida ro'y bergan noxush hodisa esimda...

Qosimov degan bolaning ehtiyotsizligi natijasida G'affor Nuriyevichning qo'liga kuydiruvchi modda to'kilib ketadi. Sinf go'yo muzlab qolgan. Hammamiz unga achinamiz, bu hodisaning oqibatidan qo'rqamiz. U esa odatdagiday xotirjam, "Nima bo'пти? Kuysa, bir qo'l kuyibdi-da! Bu fan uchun qurbon bo'lmoq ham baxt!" deydi shavq bilan.

Nafaqat men, balki hamma uni o'qituvchilarimiz orasida eng a'losi deb biladi.

G'affor Nuriyevich dars boshlashdan oldin:

— Mashg'ulotimiz muvaffaqiyatli o'tadi degan umiddaman. Bu yo'lda sizlarga omad, menga g'ayrat bersin! — deydi quvnoq ohangda.

Ofarin, G'affor Nuriyevich! Ofarin, o'ртоq muallim!

U gapni chertib-chertib gapiradi. Qiliqlari ham o'ziga mos, yarashiqli. Holbuki, uning ayrim qiliq va iboralari g'oyat kulgili. U goho hajviy rolni ijro etayotgan mohir aktyorni eslatadi. Lekin biz — o'quvchilar bunga ortiq ajablanmaymiz, kulmaymiz ham. Negaki, bularning bari — uning o'ziniki, tabiatidan tug'ilgan xislat-odatlar. Har gal kimyodan yomon baho oladigan "ikkichi" Qosimov ham undan nolimaydi, qaytaga nechundir minnatdor...

Men G'affor Nuriyevich artist yoki adabiyotchi bo'lmaganiga afsuslanaman. Uning bir aytgan o'tkir iborasini takror eshitish mushkul — ertasi u yangisini ishlatadi.

O'qituvchi o'tgan mavzuni so'ray boshlaydi.

— Muhtaram Boltayev! Sizni tantanavor suratda doska huzuriga tashrif buyurishga taklif etaman...

Boltayev chiqadi.

— Polietilen formulasini yozib mani xushnud eta olasizmi? — deydi G'affor Nuriyevich sho'x ohangda. Doskadagi formulani ko'rib esa beixtiyor o'rnidan turib ketadi:

— O‘chiring, darhol o‘chiring! Hech kim ko‘rmasin! Mani sharmanda etib fruktozani yozdingiz! Jingalak sochli kallangizda yana bir bor o‘ylab ko‘ring, birodar!

Boltayev “jingalak sochli kallasida yana bir bor o‘ylab ko‘radi”, ammo G‘affor Nuriyevichni “xushnud eta olmaydi”...

— O‘-o‘ Jaloli-iy, — deydi G‘affor Nuriyevich shivirlashib o‘tirgan Akbarga, — doska o‘zlariga muntazir!..

Akbarning ham javobidan qoniqmagan o‘qituvchi deydi:

— Mavzuning ellik foizini bilasiz. Demak, bahongiz ham shunga yarasha. Labbay, necha bo‘larkan?

— Besh, — deydi nimagadir ishongan Akbar.

— Iya, nega endi?

— Ellikning yarmi... nolini optashlasak, beshi qoladi-da, muallim!

— Ofarin-e! Matematikani ham qultillatmay ichib yuborgan ekanlar-da!..

Bu yoqdan biz luqma otamiz:

— Uning o‘zi “matematik”-da, G‘affor Nuriyevich!

— Shunday demaysizlarmi? Obbo, mulla Akbar-ey!.. Ha bo‘lmasa, bu yog‘ini bizning mashhur kimyogar Qosimov hal qilib berar?..

“Mashhur kimyogari”dan ham, odatdagidek, hech sado chiqmagach, G‘affor Nuriyevichning jahli qo‘ziydi va pardama-parda ko‘tarilib boruvchi ovozda doskadagilarga birin-birin zarda qiladi:

— O‘tiring!

— Keting!

— Yo‘qoling!

Kulgili hol. Kulamiz. G‘affor Nuriyevichning o‘zi ham bizga qo‘shiladi. Ammo birdan xomush tortib, deraza oldiga boradi. Uzoq turadi. So‘ng Risolatga qarab iltijo ohangida murojaat qiladi:

— Fayziyeva, o‘zingiz chiqib hal etmasangiz, bu uch pahlavonning tishi bir shaftoliga o‘tmadi!

O-o, Risolatim! Mening erka xayolginam! Har darsda qo‘l ko‘tarib turishni bilasan-u, maktublarimga javob qaytarishga qolganda... Umar aytgandek — “redko”.

O‘qituvchi doskani formula bilan to‘ldirib yuborgan Risolatdan zavqlanib ketadi:

— O-o, man sizni o'zimday bilaman! Siz o'qituvchi bo'lsangiz, manga non qayoqda edi, Fayziyeva! Sizga baholarning oliysi — plyus “5” qo'yishga ruxsat eting!..

Yangi mavzuni “miyamizga qo'rg'oshin misol quygan” G'affor Nuriyevich darsni bunday yakunlaydi:

— Navbatdagi mashg'ulotgacha sizlar maning baxtinga, man sizlarning baxtingizga omon bo'laylik!

O, bu dars naqadar maroqli!

Men bu darsning Risolatning visolidek cho'zilishini istayman. Afsuski...

Qo'ng'iroq chalinadi — dars tugaydi...

...Kechirasiz, o'rtiq muallim!..

BIOLOGIYA DARS

Qo'ng'iroq chalinadi — dars boshlanadi...

Malikaning sevgan mashg'uloti — eshik oldida turib o'qituvchi kelishini poylash. Men uni devoriy gazetada hajv qilsam, Akbar o'pkalab qoladi: “Jo'ra, bekor qipsan-da shuni, “Kinoga yur”, desam, “Qrtog'ing meni gazetada sharmanda qildi — bormayman”, deydi”.

Malika shoshib kelib joyiga o'tirarkan, bizga o'girilib past ovozda:

— Lama-arg! — deydi: “Lamarg kelyapti” degani.

“Lamarg” — Salimovning laqabi. Aslida, Salimov bu so'zni Qosimovdan so'rasa, u doim “Lafarg” deydi, sira yodida saqlolmaydi. Shunda Salimovning jig'ibiyroni chiqib baqiradi: “Lama-arg!..”

Mana, qarshimizda sip-silliq kallasini silab Lamarg o'tiribdi. Uning boshi oynadek yaltiraydi: shaq-shaq kal. Bundan or qilmoqchi bo'libmi, u harbiynusxa kepkasini kiyib dars o'tmoqchi bo'ladi, ammo biz chug'urlashamiz: “O'rtiq muallim, sinf qorong'ilik qilyapti, jamolini bir ko'raylik!..” Sho'rlik Salimov bosh kiyimini olib stolga qo'yadi-da, kumush gardishli ko'zoynagining g'uborsiz ko'zlarini qayta-qayta arta boshlaydi. Bu — uning jahli chiqqani. Mabodo, shunday paytda biror og'iz ortiqcha gap aytsangiz, tamom, yarim soat “O-o-o, bizlar

o‘quvchiligimizda qandoq edig-a!” deb eski xirgoyini oladi. So‘ng, asabi joyiga tushgach, ko‘zoynagini burni ustiga qo‘ndirarkan, g‘urur bilan qo‘shib qo‘yadi: “Men o‘tqazgan nihol hech qachon o‘smay qolmagan! Ana, maktab bog‘idagi daraxtlarni ko‘ring!..” Men bu yoqdan “Lekin boshingizdagisi o‘smabdidada, o‘rtoq muallim!” deyman hazillashib. Ammo bu gapga u kumush gardishli ko‘zoynagining g‘uborsiz ko‘zlarini “bezovta” qilmaydi — beparvogina bosh silab qo‘yib, “Qosimov, doskaga!” deydi.

Sho‘ring qurg‘ur Qosimov — uning har galgi mijozi: qaysi darsi bo‘lmasin, dastavval shundan so‘raydi; “Sinfning tayyorgarligini Qosimovdan bilaman”, deydi. Qosimov esa biologiyaning oddiy mavzulariga ham fahmi yetmay xunob bo‘lganidan tanaffus chog‘lari Risolatdan qayta-qayta tushuntirishini o‘tinib o‘tiradi.

Mana, har galgidek — Qosimov doska oldida! Lamarg uning “javobi”ni tinglarkan:

— Yana, yana, yana, — deb bir so‘zni ermak qiladi. Keyin “Lamarg”ni so‘raydi. Qosimov esa, odatdagidek, “Lafarg” deydi. Salimov jig‘ibiyron bo‘ladi, kumush gardishli ko‘zoynagining g‘uborsiz ko‘zlarini iyig‘i chiqquncha artarkan, baqiradi:

— Lama-arg!.. — Ko‘zoynagini burni ustiga qo‘ndiraturib: — O‘tiring, — deydi. — Talant bor-u, lekin “uch”!

Umar ikkimiz bu zerikarli darsda orqangi partaga o‘tirib olib kitob o‘qiymiz. Lamargning ko‘zi bizga tushib:

— Qani, Normatovdan ham bir eshitaylik, — deydi. Eranqaran o‘rnimdan turaman. Mavzuning sarlavhasini ham bilmayman.

Sinfxonamiz oftobro‘yada joylashgani uchun derazadan tushayotgan yog‘du Lamargning yaltiroq boshida sinib, o‘ynaydi: ko‘zni qamashtiradi. Qayoqdandir uchib kelgan daydi pashsha ana shu “favvora”ning o‘rtasida maskan qurmoqchi bo‘ladi, Lamarg esa uni shap etkazib urib qo‘yadi:

— He, egangni yegur!..

Bu kulgili manzaradan zavqlanib, og‘zimga to‘g‘ri kelgan so‘zdan gap boshlayman va nutqimni “Bunday foydali o‘simliklar bizning tog‘larda ham bor!” deya ishonch bilan yakunlayman. Lekin uning bor-yo‘qligini aniq bilmayman. Har qa-

lay, ana, iftixorga loyiq tog'larimiz bor, o'sha men aytgan gi-yohlardan ham bo'lsa ajab emas. Nima, shuning bor-yo'qligini Lamarg tekshirib boryaptimi!..

— Yo'g'-e, rostdanmi?! Bizning tog'larda-ya? — deya, chippa-chin ishonganidan bolalardek qiyqirib yuboradi Lamarg.
— Qayerdan bildingiz?

— “Fan va turmush” dan o'qidim! — deyman tavakkaliga.

— Obbo, siz-ey! Bizning tog'larda ham bor, deng? Lokigin yaxshi tayyorlanibsiz, Normatov, qoyil! — U bolalarga o'giriladi:
— Ana, qarang, hayotdan! Tag'in o'zimizning hayotdan-a!.. Bu kishining krugozori keng. Yashang, Normatov! O'tiring, bahongiz “besh”!

Men bu doimiy muvaffaqiyatdan ajablanmayman. O'tirib, o'qiyotgan kitobimni boya kelib qolgan joyidan davom ettira-man.

Lamarg yangi mavzuni nasihatga o'rab, chala-chulpa tu-shuntiradi-da, qo'ng'iroq chalinmasdan harbiynusxa kepkasini boshiga iladi...

Men shu savilning kiyilishini she'riy maktublarimga Riso-latning javobiday orziqib kutaman. Baxtinga...

Qo'ng'iroq chalinadi — dars tugaydi...

...Kechirasiz, o'ртоқ muallim!..

TARIX DARSİ

Qo'ng'iroq chalinadi — dars boshlanadi...

Baland ko'k eshik ochiladi-yu, bir daqiqa hech kim ko'rinmaydi. Nihoyat, tik qomatini tebrata-tebrata, bir-bir bosgancha salobat bilan “bizning intelligent” Turobadze kiradi. U Risolatning partasi yonida to'xtab, qo'lidagi yagona anjomi — sinf jurnalini stolga uloqtiradi va to'rt barmog'ini likillatib, dimog' bilan:

— Bevosita o'tirilsin! Jamoat jammi? — deydi. Bolalar bir-birlariga qo'yamay, “Falonchi yo'q, pistavonchi yo'q”, deyi-shadi. Ammo Turobadze quloq ham solmay, “nichevo, nichevo” deb qo'yadi. — Qani, yerdan bo'rni olib bering!..

Turobadze bashanglikda nafaqat maktabimizning, balki tumanning ham faxri: undan o'tkazib kiyinadigani yo'q! U bir taqqan galstugini ikkinchi bor taqmaydi — har kuni bo'ynida yangisini ko'ramiz.

O'zi ham g'oyat xushmuomala. Biror ish vajidan murojaat qilsangiz, chetroqqa o'tkazib, qo'lini kiftingizga qo'yadi, xuddi o'n yillik qadrdonday xush jilmayib, gapingizni diqqat bilan eshitayotgan kabi uni o'zining “chto vi?”, “konechno”, “bevosita” singari munosabat iboralariga “ko'mib” turadi.

U familiyamizga “adze” qo'shib gapirgani uchun o'zini ham shunday — Turobadze deb ataymiz.

— Sami Samadovich Samadze, — deb chaqiradi u sinfida ikki yil qolgan “ermagi”ni, shalvirab chakkasiga tushib turuvchi, silliq taralgan quyuq sochlarini qo'li bilan qulog'i ortiga o'tkazib tekislarkan. — Bu yoqqa chiqing, birodar. Siz bilan bir otamlashmasak, bo'lmaydiganga o'xshaydi...

Samadovning javob berolmaganini ko'rib:

— Og'ayni, — deydi, — sizga maslahat: sinfingizda yana bir yil qolasiz, ana o'shanda asli yo'q bilimingiz yanada mustahkamlanadi, bevosita. Aks holda... Bu javobingizga eski oshnachilik hurmati “ikki” qo'yamiz. Lekin qo'rqmang, jurnalga emas...

Turobadze yangi mavzuni besh-o'n daqiqa ichida tushuntirishga ulguradi. So'zlash uslubining o'zi qiziq. Masalan: “Endi ikki og'iz gap Amerika haqida... Bir kalom Buyuk Britaniya xususida...” Shu bilan mavzuni yakunlaydi-qo'yadi, vassalom. So'ng:

— Xo'sh, kimda savol bor, bevosita? — deb so'raydi...

Ammo shu mahal eshik g'ijirlab, jismoniy tarbiya o'qituvchisi kemshik Safarovning tirjaygan basharasi ko'rinadi.

— Turobovich, — deydi u.

— Ha, Saparovich?

— Bir daqiqa...

Eshik orqasidan uning “Somsa keldi!” deganini eshitib qolamiz. Turobadze xudo huzuriga chaqirayotgandek shoshilib kiradi. Bilaturib so'raydi:

— Sinfboshi kim?

Risolat o'rnidan turadi.

— Sizmi? — deydi o'qituvchi xuddi uni birinchi bor ko'rayotgandek suq bilan tikilib. — Zarur ish chiqib qoldi,

bevosita...Bu yoqqa chiqib, o'tilgan mavzuni takrorlab tursangiz! Iltimos endi, besh daqiqa...

Turobadze yoqalarini tuzatib, chiqib ketadi. Biz uning "besh daqiqa" sini yaxshi bilamiz. Bu, tanaffusga besh daqiqa qolganda kelaman, degani...

Men Risolatga "biz chiqib ketaylik" ishorasini qilaman. U jilmaygancha bosh silkib, kiprigi bilan tasdiq ma'nosini bildiradi.

Men, Umar va Akbar sinfdan chiqamiz. Akbar "Chekkim kelyapti" deb, maktab bog'i tomon ketadi. Biz, Umar ikkimiz esa, "O'qituvchilar xonasi" ni chetlab, yangi gazeta-jurnaldan darak olish uchun kutubxonaga yo'l olamiz.

Deraza yonidan o'taturib, choyxona tomonga qarab o'tirgan, qoshidan o'sma, ko'zidan surma arimaydigan kutubxonachimiz Nazokat opani ko'rib qolamiz. U negadir mudom bizlardan hadiksiraydi, nazari tushishi bilan teskari o'girilib oladi. Ehtimol, hozir ham "Voy, Lazarevning bezorilari-ku!.." degandir ichida. Biroq biz o'ylagandek bo'lib chiqmaydi: bu gal u bizni xush qarshi oladi.

— Keling, shoir! — deydi menga quvnoq ohangda. — Tabriklaymiz, gazetada she'ringiz chiqibdi!.. — U alohida ajratib qo'yilgan gazetani menga uzatadi.

Umar bilan talashib she'rni o'qib chiqamiz.

— Nazokat opa, akamdan xat bormi? — deb so'raydi Umar.

— Yo'q... Nima, sizlarda dars yo'qmi?

— Bor.

— Kimning darsi?

— Turobadze muallimimizning.

— Turdi akaningmi?

— Ha, ishi bor ekanmi...

— Ho-o, o'lib qolsinlar! Ana, choyxonada o'tiribdilar-ku!..

Biz yelka qisamiz va Nazokat opaga rahmat aytib, sinfga yuguramiz. Umar gazetani baland ko'tarib, tantanali tarzda "O'rtoglar! Ibrohimning she'ri chiqibdi", deya e'lon qiladi va uni o'qib beradi. Men uning bu qilig'idan quvonishni ham, g'ijinishni ham bilmayman. Partasi tomon o'tarkan, u harholda men istagan ishni qiladi: gazetani Risolatning oldiga qo'yadi...

Men uni doim ko'nglimdagi ishni qilgani, ko'nglimdagi gapni topib gapirgani uchun yaxshi ko'raman. Mana, o'n yildir-ki, bir partada o'tiramiz, ammo biror marta "sen-men"ga borganimiz yo'q.

Oramizda faylasufimiz shu. Uning otasi ko'proq ruscha gazetalarni o'qiydi va urush xotiralaridan gapirib o'tiradi. Umar ertasi kuni kelib undan eshitganlari-yu kinoda ko'rganlarini qo'shib-chatib bizga hikoya qilib beradi. U ruschani yaxshi biladi. Biror oqshom kinoni kanda qilmaydi. Lazarev uni "Etot general — moy pomoshnik, filosof!" deb maqtaydi. Darhaqiqat, u oddiy ikir-chikirlarga ham jiddiy ko'z bilan qaraydi, chuqur mulohaza yuritadi, goho qildan ham qiyiq chiqaradi, xullas, jaydari faylasufning o'zginasi!

...Mana u — Turobadze! Somsani yeb bitirgan shekilli, odatdagidek, tanaffusga besh daqiqa qolganda huzurimizda shay. Stoldan sinf jurnalini olarkan:

— U yog'ini o'zlaring kelishtirib kelasizlar-da, a? Men sizlarga bevosita ishonaman. Kimda anovinaqa savoldan bor? — deydi.

Akbar "menda" deydi.

— Xo'sh?

— O'rtoq muallim, kommunizmda ham matematika bo'ladimi?

Sinfda kulgi ko'tariladi.

— Chto vi, konechno! — deydi Turobadze iljayib. — Yana?

Umar o'rnidan turadi.

— Xo'sh?

— O'rtoq muallim, konstitutsiyada barcha grajdanlar teng huquqli, deyilgan-ku, nega Hojiqulov hatto kinoga kirishgayam...

— Qo'ying, arzimaydi! — deya qo'l siltaydi Turobadze va tik qomatini tebrata-tebrata, bir-bir bosgancha salobat bilan balland ko'k eshikdan chiqib ketadi.

Men bu darsning sidqidildan o'tilishini Risolatning she'riy maktublarimga yurakdan javob qaytarishiday istayman. Biroq, afsuski...

Qo'ng'iroq chalinadi — dars tugaydi...

...Kechirasiz, o'rtoq muallim!..

ASTRONOMIYA DARSİ

Qo'ng'iroq chalinadi — dars boshlanadi...

O'zi ham familiyasidek daroz Hamroqulov baland ko'k eshikdan ikki bukilib, eran-qaran kirib keladi. Keladi-yu, stulga yastanib olib, gazeta o'qishga tushadi. Bir ozdan so'ng, dars berishi kerakligini eslab, sinfga loqayd nazar tashlaydi.

— Jalolov, chiq doskaga! — deydi.

— Jalolov yo'q, — deb javob beradi kimdir orqangi partadan.

— Nega? — deydi Hamroqulov derazadan maktab hovlisiga ko'z yugurtirib. — Nima, bu yer akademiyami, xohlasa kelib, xohlamasa kelmay... Bugun pedkengashga shu masalani qo'yaman!

Hayronsan: nima, uning o'zi akademikmi? Haftada atigi bir soatgina darsi bor-u, shunga ham ba'zan kelsa, ba'zan... Uni kim, kim pedkengashga qo'yarkan?..

Akbar “Shu ezma darsdan ko'ra “Prima” yaxshi” deb, maktab bog'iga ketgan.

Derazadan ko'rinib turibdi: ikki qora — oldinda Turobadze, orqasidan Nazokat opa bog' tomon o'tadi. Bir gap bor asli...

Hamroqulov Bo'riyeva degan qizdan o'tgan mavzuni so'raydi.

— O'rtiq muallim, o'qimappan. Esimdan chiqibdi... — deydi Bo'riyeva.

— O'tiring, — deydi parishonxotir Hamroqulov, — bahongiz “uch”!..

Undan keyin anchagina javragan Qorayevga ham shuni takrorlaydi:

— O'tiring, bahongiz “uch”!..

Hamroqulov zo'rg'a o'rnidan qo'zg'alib, yangi mavzuni tushuntira boshlaydi:

— ...Galaktikadagi osmoniy jismlar sirti, — deydi u, — nimaday, hozir, hozir... — deya so'z topolmay qoladi. Uning tilidagini Umar aytib yuboradi:

— Salimovning kallasiday!..

— Vo-o! ...silliq emas! — deb yakunlaydi o'qituvchi. Bizlarga qo'shilib o'zi ham iljayadi.

So‘ng dars nasihatga aylanib ketadi; “yulduz turkumlari” bilan boshlangan nutq “O-o-o, bizlar o‘quvchiligimizda qandoq edig-a!” “qo‘shig‘i” bilan tugaydi.

Bu darsni astronomiya emas, nasihatnomiya deb atash mumkin. Uni deyarli hech kim eshitmaydi: hamma o‘z xayoli bilan band. Men biologiya darsida o‘qiyotgan kitobimni qolgan joyidan davom ettiraman...

Men bu darsning Risolatning hijroniday cho‘zilmasligini istayman. Baxtinga...

So‘nggi qo‘ng‘iroq chalinadi — dars tugaydi...

Kechirasiz, o‘rtoq muallim!..

PEDKENGASH

...Bu — pedkengashga birinchi marta “tushishimiz” emas...

Bu xona, bu shifoner, bu sariq divan, bu tergovchilar bizga eskidan tanish... Bu yerda faqat tergaydilar. Lekin savollari Asadovning tenglamasiday murakkab emas, juda jo‘n: “Nima ish qilding? Nega qilding? Nega?..” Shularga javob topolsangiz, bas, yutuq sizniki: xamirdagi qildek bermalol sug‘urilib ketasiz!

Ketayotganingizda “Ikkinchi bor bunday qilma! Agar takrorlansa!..” deb po‘pisa qilinadi. Qo‘rqmang, uch harfdan iborat bir so‘z qahat emas: “xo‘p” deysiz, albatta.

Biz esa bu sinovlardan hamisha qoqinmay o‘tib kelamiz. Kerak bo‘lsa, bu daf‘a ham o‘tamiz...

Bugungi tergovning dastagi ma‘lum: “Nega chekasan? Nega kinoga kirasan? Nega Hojiqulovni sharmanda qilding? Nega va nega?..”

To‘rdagi kresloni doimiy sohibi — direktor Rahmonov egallagan. O‘qituvchilarning ayrimlari stulga, ba‘zilari divanga o‘rnashib olgan. Hammasining ko‘zi “jinoatchilar”da — bizlarda...

Hojiqulovning talabi bilan bizning masalamiz kun tartibida birinchi navbatga qo‘yilgan.

Direktor — g‘oyat semiz bo‘lganidanmi, g‘oyat boqibeg‘am, ammo xushfe‘l, xayrixoh odam. U faqat gazeta o‘qish, qaysidir tashkilotlarga sim qoqish, stolidagi qo‘ng‘iroqni jiringlatib o‘tirish

kabilarga ishtiyoqmand. Go'yo shundan boshqa muhimroq ishi yo'qdek. Deylik, biror hujjatga muhr qo'yish kerak bo'lib qolsa, uning nari-berisini obdon aylantirib ko'radi, so'ng zo'r hafsala bilan bosadi...

U bizni ko'p martalab Hojiqulovning hujumidan qutqargan. Bu safar ham umidimiz katta...

— Qani, yigitlar, nima gap? — deb qarshi oladi u bizni va menga yuzlanadi: — Tabriklaymiz, Normatov! Gazetada she'ring chiqqan ekan. O'qib juda xursand bo'ldik. Yasha! Ana shunday yozib turish kerak! Maktabimizning obro'si... Men-ku adabiy jihatini unchalik bilmayman, lekin nazarimda durust, menga yoqdi. Nima dedingiz, o'rtiq Hojiqulov?

— E-e, yurishi shu bo'lsa, balo ham chiqmaydi bundan! — deydi Hojiqulov bidirlab. — Bugun meni shuncha o'quvchi oldida sharmanda qildi bu shoirchangiz, o'rtiq Rahmonov!

— Sharmanda bo'lmaslik kerak-da, o'rtiq Hojiqulov! — deydi divanda yastanib o'tirgan G'affor Nuriyevich.

— Shundaymi, Normatov? Bu qanaqa gap? — deydi direktor.

— O'zlari... — deya g'o'ldirab qolaman.

— Nima "o'zlari"? — Hojiqulov buzoq ko'zlarini battar olaytirib o'qrayadi.

— O'zingiz Akbarni 21 musht urdingiz-ku, o'rtiq muallim! — deya gapni ilib ketadi Umar.

— Kim sanabdi shuni?

— Ana, o'zi...

Direktorning go'shtdor yuzida negadir jilmayish paydo bo'ladi.

— Umarga bugun "padaringga la'nat" dedingiz... — deydi o'z navbatida Akbar ham.

— Bo'пти, bo'пти, bolalar, — deydi Rahmonov qo'ng'irog'ini jiringlatib va o'qituvchilarga murojaat qiladi: — Xo'sh, bularga nima deymiz, o'rtiqlar?

O'qituvchilar bizga birma-bir munosabat bildira boshlaydi.

G'affor Nuriyevich menga:

— Ay, man bu odamni bilaman! Bu odamdan siz aytgan-chalik andishasizlik chiqmas, degan maning aksiomik fikrimni inkor etmasliklaringiz umididaman!

Lazarev hammamizga:

— Chto s vami, rebyata?

Lamarg Umarga:

— Buning ko‘zi yomon tushgan o‘zi...

Asadov Akbarga:

— A, oxi tek yursang o‘lasanmi, oshino?

Hamroqulov ham qo‘shiladi:

— Bugun nega darsga kirmading?

Hojiqulov menga:

— Ayt hozir! Fayziyevani yaxshi ko‘rishing yolg‘onmi?

Divandan Turobadze:

— Ehtimol sevgidir?..

Lamarg:

— Yo‘g‘-e, shunday deng? Bunga sevgini kim qo‘yibdi, o‘zi hali o‘quvchi bo‘lsa!.. Ha, sevdi deylik, kelib bizga — maktab ma‘muriyatiga xabar qilsin edi, maslahat berardik. Bu qanday o‘zboshimchalik?!

Hamroqulov cho‘zib:

— Sevgi? Taka bo‘ptilar-da, he-he-he...

Divan yostig‘iga yonboshlab olgan shirakayf, bolalar orasi-da “Turna piyon” laqabi bilan mashhur geografiya o‘qituvchisi Turnayev eshitib-eshitmay, har gapga aralashib:

— To‘g‘ri! Rost aytasiz! Men ham ko‘rganman, kerak bo‘lsa!

— deya g‘o‘ldiranib qo‘yadi. U, qachon qaramang, mana shu ahvol: shishaning tusini ko‘rdi — adoyi tamom...

Fizika o‘qituvchisi muloyim Xursandov:

— Yaxshi emas-da, o‘quvchilar!

Oxirida Hojiqulov:

— O‘rtoq Rahmonov, yo shular ketsin maktabdan, yo...

— Buni keyin gaplashamiz, o‘rtoq Hojiqulov, — deya direktor unga g‘ijinibroq qaraydi. So‘ng bizga o‘giriladi: — Ikkinchi bor bunday qilmanglar, xo‘pmi? Bo‘pti, sizlarga javob! Bu yog‘ini o‘zimiz hal qilamiz...

Bu gal ham biz g‘olib!..

Dahlizda boya xonadan chiqqan G‘affor Nuriyevich, Turobadze va universitetni shu yil bitirib kelgan Umarning qarindoshi, chet tili o‘qituvchisi Ismoil akani uchratamiz. Chekishyapti.

— Ha shovvozlar, omon qoldinglarmi ishqilib? — deydi kulib Turobadze.

— Ana endi borib g'alaba sharafiga “yarimta” ko'taramiz-da, bevosita! — deb hazil bilan javob qaytaradi Umar.

— Konechno, bevosita!.. Jaloladze, sen bu yoqqa ke! — U Akbarni chetga tortib, qo'lini kiftiga qo'yadi va xuddi o'n yillik qadrdonday, engashib olib allanimani ma'ni-dod qila boshlaydi.

Ichkaridan Lazarev chiqadi.

— Nu-nu, generali moi, debosh? Nichego, bivayet, kak pishet Yesenin: “Ya ne budu bolshe molodim...” Da, vse proydyot, no vi ne budete bolshe generalom!..

Sinf rahbarimiz, rus tilidan dars beradi. Ajoyib, hazilkash odam. Sarkashligimiz bilan boshqa bolalardan ajralib turganimiz uchundir, hazillashib bizni “generallarim” deb ataydi. Uning hisobicha, birinchi general — men, ikkinchisi — Umar, uchinchisi — Akbar...

Maktabda ko'pchilik bizni “Lazarevning generallari” sifatida taniydi. Yolg'iz Hojiqulovgina “Lazarevning bezorilari” deydi.

— Vi ne bespokoytes, rebyata! Mi sami tut... — deydi Lazarev ko'nglimizni ko'tarib.

— A kak je, konechno! — deydi Akbar bilan maxfiy suhbatini tugatgan Turobadze. — Mi sami s nim... Da, Anatoliy Sultanovich? — U G'affor Nuriyevichga o'girilib pichirlaydi: — Shularniyam qo'ymaydi-ya, nomard!

— He, uni!.. — G'affor Nuriyevich bizga ko'zi tushib, tilini tishlaydi. — Xo'p, bo'lmasam, yigitlar, sizlarga ruxsat! Hech gap bo'lmaydi, xotirjam bo'laveringlar. O'zimiz bor...

— Da, rebyata, idite, idite!

Ismoil aka ikki barmog'ini o'ynatib biz bilan fransuzcha xayrlashadi:

— Orevuar!..

...Kechirasiz, o'ртоқ muallim!..

SO'NG

Bultur harbiy xizmatdan kelgan mehnat o'qituvchisi Ro'ziyevning tashabbusi bilan yaqinda yotqizilgan ensiz tosh yo'lkadan Lamarg ekkani daraxtzor oralab, maktab bog'i

etigidagi qadrdon joyimizga tushamiz. Xilvatroqqa o‘tib, aylanasi bir quchoqdan keladigan to‘nkalar ustiga cho‘kamiz. Bu daraxtlarni burnog‘i yili Lamarg rahbarligida o‘zimiz kesganmiz. Kesikda hosil bo‘lgan doiralar soniga qarab, Lamarg bu daraxtlarning qariligini aytgan edi. O‘ylab ko‘rsam, uning daraxtlari ham, o‘zi ham...

Umar cho‘ntagidan “Prima” chiqaradi. Boyagina pedkengashda “endi chekmaymiz” degan va‘dabozlarning labida yana sigaret! Muallaq oniy shakli kuzgi bulutlarni eslatadigan tutunga xayolchan tikilarkanman, “Bular yaxshi odamlar”, deb qo‘yaman. Sheriklarim “kimlar, kimni aytyapsan?” deb so‘ramaydi. Chunki ular biladi — kimlar yaxshi-yu kimlar yomon ekanini. Axir, ularga bu tushunchalarni o‘rgatgan ham o‘shalarning o‘zi-da!

— Shu vaqt Josus kelib qolsa-ya! — deydi hadik ichida Akbar.

— Chert s nim!..

Hojiqulovning uyi shu atrofda. U doim o‘taturib bizni poylaydi...

— Aytmoqchi, Akbar, Turobadze hali senga nima dedi?

— Hech kimga aytmaganim uchun rahmat dedi.

— Nimani?

— Nazokat opa bilan o‘pishganini.

— O‘pdi? Yo‘g‘-e?!

— Ha-a, xudo ursin agar, o‘pdi!

— Kim?

— Turobadze!

— O‘qituvchi-ya?! Tushuntirib gapirsang-chi!

— Bilasan-ku, bugun astronomiyaga kirmadim. Mana shu yerda chekib o‘tirsam, Nazokat opaning kulgisi eshitildi. Qarasam, Turobadze bilan... Shuni hech kimga aytma, dedi. — Akbar sigaretining uchiga tuflab, chetga otadi.

— Aytding-ku bizga? Ha, qo‘y, davrini sursin bizning davlatimizdan! Yana nimalar deydi?

— Yanami? Hozir, hozir... — Akbar birdan yashnab ketadi: — Yaqinda Hojiqulov maktabdan ketadi, dedi.

— Da? Mana bu boshqa gap!..

— Shu maktabdan ketsa, hammasini tashlayman: ichishni ham, chekishni ham! — deya favqulodda ahd qiladi ma‘yuslangan

Akbar. — E, odam emas u! Bizlarni buzgan — shu, aslida! Malika ham “Oldin shu odatlaringni tashla, keyin kinoga birga boramiz”, deydi. Bo‘ldi, bugundan boshlab tashladim!..

— Shunga achchiq qilib chekardim, de? Kinga naf, kinga zarar?

— Ha, hammasiga shu odam sababchi!

— Kelinglar, bolalar, hoziroq tashladik shu rasvoni! — Umar sigaretini itqitib, bizga o‘giriladi: — Lekin, bilib qo‘yinglar, men unga o‘chakishibgina chekmaganman. Shunchaki bema‘nilikda. U chekishga ham arzimaydigan odam!.. — U kissasidan “Prima”ni olib, oyog‘i ostida ezg‘ilay boshlaydi. — Mana, endi men chekmayman! Hech qachon!

— Men ham!

— Men ham!..

...Kinoteatr maydoni simyog‘ochdagi qalamsimon chiroqlar nuridan oydin, munavvar.

Hojiqulov, odatdagidek, buzoq ko‘zlarini bizga tikib:

— Bugun kelmassizlar deb o‘ylagan edim, — deydi.

— Xato o‘ylabsiz! — deydi Akbar dadil.

Hojiqulov unga o‘qrayadi, “Birr matta kechiring, o‘rtiq muallim!” deyishini kutadi, lekin Akbar buni endi hatto kinoya bilan ham aytmaydi.

— Familiyalarinigiz?..

— O‘rtiq muallim, shuni bir martagina qizil bilan yozsangiz-chi, bugun pedkengash bo‘ldi-ku?! — deyman yurak yutib.

Hojiqulov menga xo‘mrayadi.

Holbuki, to u maktabdan ketmaguncha nomimiz qizil bilan yozilmasligini yaxshi bilaman. Eh, cho‘g‘dek qizil rangda yozilish qanday yaxshi-ya!..

— Ertaga...

— Xaro-osh! — deydi Umar uning gapini shartta kesib. Hojiqulovning “yomon bo‘ladi”sini kutamiz. Biroq endi uning savol-javobimizni har galgidek xotimalashga ham chog‘i yo‘q nechundir...

Mana, pedkengashda “endi kirmaymiz” degan va‘dabozlar yana kinoda o‘tiribdi!..

Undan chiqib, kinoteatr orqasidagi xiyobonga o'tamiz. Ulkan qutisimon ko'k bufetga yaqinlashib:

— Quyning, Qo'ziboy aka! — deydi Akbar.

Mana, pedkengashda “endi ichmaymiz” deganlarning qo'lida yana!..

Umar bilan Akbar bir kecha shu ahvolda Malikalarnikiga borganlarini gapirishadi.

— Yong'og'iga chiqib qaradik. Boloxonasida Ozoda bilan dars tayyorlab o'tirgan ekan, — deydi Umar.

— Keyin chaqirib qochganimizni ayt! — deydi Akbar zavqlanib.

Ko'z oldimda Risolatning qayrilma kipriklari-yu yoqimtoy chehrasi namoyon bo'ladi. Go'yo u hozir meni darvozasi yonidagi tut tagida kutib turgandek...

O, Risolat!..

Bu xayollar oldida bugungi tashvishlarimiz allaqanday arzimas, bachkana tuyuladi.

— Ketdik Risolatlarnikiga! — deyman beixtiyor.

— Ertaga dars... Uy vazifalarini tayyorlash kerak, — deydi Umar. — Yana bir gap: mana shu savilni ham bas qilsak!.. Bizga yarashmaydi!

Qo'l tashlashamiz.

— Bo'pti, ertagacha!

— Xayr!

Ular ketadi.

Xayolimda, Akbar bilan Umar, ularga qo'shilib o'zim ham shu o'tgan bir kun ichida qandaydir pog'onaga ulg'aygandek...

Negadir o'z-o'zimdanda quvonib, bugunning odatdagidan boshqacharoq o'tganini fikran tahlil etgancha, Risolat haqidagi shirin xayollar og'ushida, qalamsimon chiroqlar shu'lasida yaltiroq barglari yanada yaltiraydigan tollarga ko'milgan bog'ko'chadan uyga qaytaman.

Mana, shunday qilib, bugun ham o'tdi. Xayr, bugun!

Ertaga — yana dars...

...Badbin ko'zoynagimni taqib, ba'zilaringizni andak hajv qilgan bo'lsam — men ham odam, siz ham odam, men o'quvchi — siz o'qituvchi — kechirarsiz, jafokash muallimlarim!..

XOTIMA O'RNIDA

...Bugun endi men o'qituvchi — ular o'quvchi... Ular — mening sobiq muallimlarimning bolalari. Endi men o'rgataman — ular o'rganadi...

Men ularni hamisha yomon odam emas, yaxshi odam bo'lmoqqa da'vat qilaman.

Rost, o'zim o'qituvchi bo'laturib, chekaman, mavridi kelsa ichaman ham va hokazo va hokazo... Lekin baribir dars oxiridagi nasihat pallalarida qo'limni stol chetiga tirab, qo'ng'iroq chalinguncha “O'qituvchining qilganini emas, aytganini qil!” deya, Turobovning o'g'lidan eshitib qolganimdek, “notasiya” o'qiyman.

Hojiqulov, Nuriyev, Turobovning bolalari-chi, mening aytganimni emas, qilganimni qilishga urinadi: ichadi, chekadi, o'rni kelsa...

Shunda men ularga qarab bosh chayqayman: “Mana bularni ko'ring: ichadi, chekadi, kinoga kiradi... Umuman, tartib-intizomga rioya qilmaydi. Eh, bizlar! Bizning davrimiz! O-o-o, bizlar o'quvchiligimizda qandoq edig-a!..” deyman shoirona ohangda og'iz ko'pirtirib.

Rostdan ham, biz qanday edig-a?.. Ularni aldagim kelmaydi, lekin... Ehtimol, bo'lgan bo'lsak — bo'lgandirmiz! Axir, unda biz o'quvchi edik...

Endi esa bular o'quvchi — men o'qituvchiman...

K e c h i r a s a n m e n i , z i y r a k o ' q u v c h i m !..

1968

ANOYINING JAYDARI OLMASI

U har yili xuddi bir paytda — yerdan qor ketib, tentak shamollar esa boshlagan ko‘klam kunlarida kelardi; shamollarga qo‘shilib, shamoldek to‘polon bilan kirib kelardi. To‘satdan. Yelkasida — ha, qo‘lida emas, yelkasida — ikki tarafga ham “Barnaul” deb yozilgan pachoq chamadon, chap ko‘zini qisinqiragancha qarshingizda beo‘xshov tirjayi-ib turadi. So‘ng, chamadonini keraksiz buyumdek bir chetga uloqtiradi-da, qulochlarini keng yozib, bolaligingizni yodga soladigan, bolaligingizdek sho‘x, bolaligingizdek beg‘am ovozda hayqiradi:

— Chantrimore-e!

Siz esa — uni ko‘rganingiz zahoti g‘am bosib, tashvishga cho‘masiz: xayr endi, osuda kunlarim! U hali shunday g‘alag‘ovurga ko‘mib yuboradiki! Biroq ayni damda, har ikkalangiz uchun qadrlri, shartli bu g‘alati taomilni buzishga haqqingiz yo‘q.

— Kalamakatore, — deysiz istar-istamas. — Yana keldingmi? Yana o‘qishgami?

— Senginaning jonginangga tegishga! — deydi u va battar g‘ashingizni qo‘zg‘amoqchidek, belingizdan mahkam ko‘taradi, aylantiradi. — Ha, jo‘ramdan-da, jo‘rajonimdan-da!

Uyga kirilgach, egasidek betayin — qulflansa ochilmaydigan, ochilsa qulflanmaydigan antiqa chamadon ming bir amal-taqal bilan ochiladi. Xona kuzaki olmalarning hidiga burkanadi. Bir yog‘i qirmizi, bir yog‘i xol-xol, bandining tubi qizil qumga to‘lgan olmalar; ko‘rimsiz, jaydari olmalar. Bolaligingiz olmalari, bolaligingiz hidlari. Boshingiz aylanib ketadi. Ko‘p narsa birdan esingizga tushadi, entikasiz. Shu tobda uni quchoqlab olingiz, “Jo‘rajon!” degingiz keladi. Ammo, nimadir — boyagi g‘ashlikmi, g‘ururmi yo‘l bermaydi, ijirg‘anib so‘raysiz:

— Nimaga kelding, Ramazon? Baribir kirolmaysan-ku?!

— Kirsam-chi? — deydi u yana chap ko‘zini qisinqiragancha tirjayib. — Kirsam-chi?

— Kirolmaysan! Xudoga ham, bandasiga ham ayon!

— Mayli, jo‘ra, buyam bir gap-da. Mana, sen o‘qiyapsan-ku, bo‘ladi-da menga shu. Qo‘y-e, manavi olmalarga qarasang-

chi! Bunaqasi Bog‘i Eramda ham bitmaydi! — So‘ngra u chamadonini titkilab, o‘n qavat dag‘al qog‘ozga o‘ralgan allani mani chiqaradi: — Mana buni enang berib yubordi, suzma-chakki. “Chalob qilib ichsin, chanqog‘i bosiladi, — dedi. — Shaharlik qizlardi ketidan yuguraverib tomoqqinalari qaqrab ketgandir bolaginamning”, dedi.

Chamadon, o‘sha ma‘lum va mashhur chamadon tag‘in taylay hiylayu hangoma bilan yopiladi. Bu chamadonni u harbiy xizmatdan olib kelgan edi. Kelishi ham qiziq bo‘lgan. Xuddi hozirgidek to‘satdan paydo bo‘lib qolgan. Xizmat qilgan joyi — Barnaul haqida vaysayverib kechasi bilan uyqu bermagan. O‘sha erda tug‘ilib, o‘sha yerda o‘sgan kabi gapirgan gapi nuqul — “Bizda Barnaulda unaqa, bizda Barnaulda bunaqa”. Ovoziga ohang berib, ruscha so‘zlar qo‘shib gapirganiga nima deysiz! Ensangiz qotib jerkiganingizdan keyingina bir tirjaydi-yu yana azalgi tovushi bilan — shang‘illab gapira boshladi. Ertalab yuzingizga ko‘pik chapiyotganingizda, “E, salaga, zelen!” deya ustarani qo‘lingizdan olib, harbiychasiga soqol qirishni ko‘rsatdi; sip-silliq bo‘lib qolgan iyak-chakaklaringizga chamadonidagi askarlik atiridan sepib qo‘ydi.

O‘shanda u — harbiy xizmatdan qaytayotgan odam — uchto‘rt kun bemalol Toshkentda yurgan, bir oqshom dabdurustdan “Barnaulga ketaman!” deb turib olgan edi. “Esing joyidami, xizmatni tugatgan bo‘lsang, Barnaulda nima bor senga?” “E-e, uyga borgim kelmayapti. Bir xat olgan edim...” Ammo qanaqa xatligini aytmagan, qiyin-qistov bilan, bo‘ynidan bog‘lagandek arang jo‘nagan uyiga. Endi ham o‘qish bahona har kelganida “Bir yoqlarga ketsammikan, jo‘ra?” deb qoladi o‘z-o‘zidan ma‘yus tortib. “Ha, tag‘in Barnaulmi? — deysiz ensangiz qotib. — Xudo ursin, miyang xato sening, Ramazon!” “To‘g‘ri aytasan, jo‘ra, xato. Nima qilay, o‘sha yoqqa ketgim kelaveradi-da. Ey-y, sen tushunmaysan!”

...Ramazon chamadoni qirrasiga o‘tirib olib, “Quloq sol”, deydi-da, shang‘illagancha gap boshlaydi:

— Boysundan gapiramiz! Toshkentda uloqib yurgan boysunlik musofirlar uchun beriladigan eshittirishimizni boshlaymiz! Ona shahringiz yangiliklari bilan tanishing!

Ashur kal eskilik sarqiti sifatida nosdan voz kechib, za-monaviylikka intilib sigaretga o'tibdi ("Koshki foydasi bo'lsa, telpakni tashlab, shlyapa kiyganida ham baribir hammaga ma'lum: boshi yaltiroq kal!"); o'zining bobosi ko'knorning kayfida momosi bilan g'ijillashib, ammasining chorbog'iga ko'chib ketibdi ("Meni boshqa narsa o'ylantiradi. Ukkag'ar boboning bir sandiqchasi bor. Boshining ostiga qo'yib yotardi doim. Gap ko'p-da unda. Olib ketdi! O'shandan umid katta edi").); Esonberdiyev, o'sha g'o'ddaygan "Esonberdiyev-hukumat", Boysun tarixidagi battol milisa, iste'foga chiqqach, Qo'rg'onchadagi nafasi o'tkir mulladan bir oy eskicha saboq olib, dastor o'rab qaytibdi, hozir xatmi qur'oni chilyosingacha usiz o'tmas emish ("Bir kuni xudoyiga ketayotib, boshida salla, qo'lida aso, milisaxona oldidan o'tganda chest berib yuboribdi")...

Ramazonning hangamalarini tinglarkansiz, Boysun oralab yurgandek, ajabtovur odamlar to'dasiga kirib qolgandek bo'lasiz.

— Tur endi, ko'cha aylanaylik, — deydi u "yangiliklari"ni aytib tugatgach. — Seni bi-ir lag'monga to'ydiray, to'rt tiyinlik "dumba-jigar" somsadan yeyaverib oshqozoning kalla-pochaga to'lib ketgandir. Menga qara, to'rt tiyin-to'rt tiyin yig'ib, shu somsachiga bir haykal qo'ysalaring-chi, a? Maslahat-da buyam. Beshyog'ochning o'-o'rtasiga! Tatigan tuzingga tovon-da.

Ramazon turish-turmush bilan shaharga yarashmaydi, shaharga sig'maydi. Unga qo'shilib ko'chaga chiqqani ham uyalasiz. Yurgan yo'lida lakalov qiliqlar qilib, hammani o'ziga qaratib, shang'illagancha allanimalarni vaysab ketaveradi. Lug'ati ham antiqa: tramvayni "uch tiyinlik" deydi, taksini — "pulyutar", restoranni — "registron". Xudo deng, yo'lda suratxona uchramasin — tilla topgan tentakdek qichqirib yuboradi u:

— Ana-a!.. Yur, jo'rajon, bir portretga tushaylik!

— Portretni nima qilasan?

— Esdalikka-da. Bir kuni katta odam bo'lib, burning ko'tarilib ketsa, "Mana, ikkovimiz jo'ra edik", deb o'zingga ko'rsataman.

— Ko'rsatsang nima bo'ladi?

— Uyalib, burning yana... joyiga tushadi.

— Gapni qarang, burnim joyiga tushar emish! — deyman uni ermaklab. — Xo'sh, qanday turmoqchilar suratda?

Ramazon ko‘chaning o‘rtasida tomosha yasab, zavq bilan tushuntira boshlaydi:

— Sen o‘tirasan, to‘g‘riga qarab. Men tepangda tik turaman, mana bunday. O‘ng qo‘lim sening yelkangda, ko‘zim chap bilagimdagi soatda bo‘ladi. Ikki jo‘ra! Qalay, zo‘r-a?

— Qo‘ysang-chi, — deyman, uylarining to‘riga osig‘liq — otasi quroldosh og‘aynisi bilan xuddi shunday holatda tushgan surat ko‘z oldimga kelib. — Bobom zamonidan qolgan poza-ku bu!

— Bo‘lmasa, yur, sening fozangga tushamiz, jo‘rajon, pad-rushka qilib...

Ramazonga hammayoq — o‘ziniki, ko‘rgan odami — am-mavachchasidek sinashta, darrov gap qo‘shib, apoq-chapoq bo‘lib olaveradi. Oshxonada navbatga turganida duch kelgan kimsaga “Ho‘v jo‘ra, anavi joyni band qilib, choy-poy tayyorlab turing”, deyishi hech gap emas. Muqarrar mojaroni kutgan-ingizda ahvol boshqacha bo‘lib chiqadi: haligi kishi bir zum Ramazonga baqrayadi-yu allanechuk itoatkorlik bilan bo‘sh choynak qidirib ketadi. Ramazon ham qarzdor bo‘lib qolmaydi: u qiladi, bu qiladi — o‘sha zahoti uning ko‘nglini oladi. U xo‘jalik do‘koniga kirib boshog‘riq dori so‘rashi ham mumkin, xotirjam bo‘ling — albatta topib berishadi. U qo‘pol qilib so‘raydi — unga muloyim javob qaytarishadi.

Ana shunday bizning Ramazon! U bir gal hatto Toshning ham kapalagini uchirgan!

Beshyog‘ochda Tosh degani bo‘lardi, bezorilarning bezorisi. Rostmi, yolg‘onmi, “Pichoqlashib, uch marta qamalgan, tog‘asi kattakonlardan, o‘sha qutqargan”, deyishardi. O‘zi maroq bilan eslarmish: “Hi, shundoq bo‘lgan. Hazillashib qo‘yganmiz-de”. Xudo ham turqni bilib bergan: kalla tarvuzdek, qorin — tarvuzcha, bashara — korsonning o‘zi, sergo‘shlikdan ko‘zlar ko‘rinmaydi, tilla tishlar doim tomoshaga irshayib turadi. Katta-yu kichik uni “aka” deyishga majbur, o‘zi esa hammani, avji kelsa, otasi tengini ham sensirayveradi. Bir to‘da “shotiri” bilan erta-yu kech kinoteatr oldida pista chaqib, o‘tgan-ketganni tergaydi. Borib etti bukilib ko‘rishmasangiz — kun yo‘q. “Hi, o‘qivossanlarmi? — deydi, ko‘zi boshqa yoqda, ko‘kimtir yozuvli biqqi barmoqlarining uchini cho‘zib. — Malades, o‘qilaring. O‘qib bo‘llaring-de, quyonna rasmini chizlaring”.

Ramazon ana shuning kapalagini uchirdi. Kinoteatr yonidan o'tishda men yugurgilab borib Toshga qo'l uzatdim. U "Hi, o'qivossanlarmi?" dedi-yu to'rt-besh qadam narida turgan Ramazonga ko'zi tushdi.

— O'vv, kelmaysanmi mana bundoq!

— Nima deysan? — Ramazon, kaftida nos, oyoqlarini ker-gancha beparvo g'o'ddayib turardi. — Gaping bo'lsa, o'zing ke! O'lding, Ramazon, hozir dabdalang chiqadi!

Ajabo, Tosh men bilan tezgina xayrlashdi-da, unga xavfsir-ab qaray-qaray zipillagancha kinoteatrga kirib ketdi. (Negadir bu safar yonida sheriklari yo'q edi.) Tosh, kallakesar Tosh qo'rqdi! Umrida chumchuqqa ozor bermagan nimjongina Ramazon-dan qo'rqib qochdi! (U keyin bir kuni mendan so'radi: "Anuv og'ayning ja-a anaqa-ku, a, kim edi?" Loqaydgina jav-ob qildim: "E, o'zi shunday. To'rt marta qamalib chiqqan-da. O'shanda ham qamoqdan kelayotgan edi". Shundan so'ng Tosh men bilan yuzimga qarab, quyuq so'rashadigan bo'ldi.)

Bu haqda Ramazonga gapirganimda u rostakamiga ajablendi:

— Nimasidan qo'rqaman? Beshyog'och enasining mahriga tushganmi?!

Ana shunday bizning Ramazon!

Malika ikkimizga boshlab oq fотиha bergan ham shu — Ramazon. Endigina tanishgan, kino-teatrlarga qatnab yurgan kezlari-miz edi. "Yur, sening ham madaniy saviyang oshsin", deb bir gal Ramazonni teatrga ergashtirib bordim. Madaniy saviyasi osh-gan-oshmaganini bilmadim-u, yugurdi-yeldi — bilet topib bizni xursand qildi, tanaffus mahali shamp-u muzqaymoq ula-shib, Malikaning ko'nglini topdi. Ammo bir vaqt tomdan tarasha tushgandek, unga qarab salmoqlagancha "Keli-in, endi-i, biz-ning Boysunlar ham yomon joy emas", deb qolsa bo'ladimi! Xijolatdan muzlab ketdim. Malika jimgina kulimsirab qo'ydi. Tea-trdan keyin uyiga kuzatayotib, Ramazonning qo'polligi uchun uzr so'raganimda, u "Do'stlaringiz ichida eng yaxshisi shu ekan", dedi.

Bizning Ramazon ana shunday!

U har yili o'qishga kirmoqchi bo'lib keladi. Kelgani bilan koshki imtihonni o'ylasa — karavotim ostidagi, burnog'i yil

o‘zi tashlab ketgan darsliklarni bir-bir qo‘liga oladi-yu ochib ham ko‘rmay qaytib joyiga uloqtiradi.

— Gurungdan ber-e, jo‘rajon! — deydi shang‘illab.

— Ramazon, kirolmasliging aniq, yaxshisi — ket, — deyman jahlimni bazo‘r yutib. — Sen, senki kirsang, men tashlab ketaman shu o‘qishini, xudo ursin! Maktabda qanday o‘qiganing dunyoga doston-ku!

— Hay, hay, men kirmasam kirmayin-u, lekin sen unaqa qila ko‘rma — Toshkent shoirsiz qoladi-ya! — deydi u qo‘llarini ko‘ksiga qo‘ygan ko‘yi yasama tazarru bilan. Keyin hiringlaydi: — Algebradan “besh” olganim esingdami?

Esimda, Ramazon bir gal darsda odatdagidek “javob” berganida, ya‘ni churq etib og‘iz ochmaganida devonafe‘lroq matematika muallimimiz “Haydarov, bugun men sizga “a’lo” baho qo‘yaman, shuncha yil maktabda o‘qib armon bilan ketmang-da”, deya unga chindan ham “besh” qo‘ygan edi...

Ramazon tong saharda — hali men shirin tushlar ko‘rib yotgan paytda turib, nonushtaga Beshyog‘ochdan “dumba-jigar” somsa va qatiq olib keladi. So‘ng radioni vang qilib qo‘yib, changitgancha xonani supurarkan, xunuk, yoqimsiz tovush bilan hamma qo‘shiqqa bir xilda “jo‘r bo‘ladi”:

*Xush qol endi-i, Zuhroxonim,
Ayro tushdi-i bu jo-on sendan...*

Nonushtadan keyin men o‘qishga jo‘nayman, Ramazon ko‘cha aylangani chiqadi. Goho shu bo‘yi uch-to‘rt kun bedarak ketadi. Bir kuni darsdan kelsam — mushshaygancha qotgan non kavshab o‘tirgan bo‘ladi.

— Qayoqda eding?

— E, yuribmiz-da.

So‘ng, o‘tirib-o‘tirib Barnaulga jo‘namoqchi bo‘ladi, al-dab-suldab yo‘ldan qaytaraman.

— Nima qilay bo‘lmasa, jo‘rajon, ayt?

— Uyga jo‘na.

— Qanday ketaman?

— Qanday ketarding — bilet olasan-u poyezdga chiqasan.

— Tekin bilet kerak-da menga.

- Iye, puling ko‘p edi-ku?
- Endi yo‘q-da, jo‘rajon, nima qilay?

Keyinroq eshitib qolaman. Ramazon hamshahar studentlarimizdan bir-ikkitasini topib, bor puliga o‘shalar bilan yallo qilgan, ularga osh bergan. Oshini yeb bo‘lgach, miriqib-miriqib bu anoyi ahmoqning ustidan kulishgan. Qo‘shilishib o‘zi ham kulgan. Endi esa yo‘lkiraga pulni mendan undirmoqchi!

“O‘qishga kiraman!” deya kerilib kelgan azamat, imtihon tugul, kitobning ham yuzini ko‘rmay, qanday paydo bo‘lgan bo‘lsa shunday jo‘nab qoladi: to‘satdan.

- Akangning safari qaridi, jo‘rajon!
- Ketganing rost bo‘lsin! Endi kelib ovora bo‘lib yurma!
- Kelasi bahor kutaverasan!

Ana shunday bizning Ramazon!

Xudo omadni ham o‘lchab, misqollab berar ekan. U bir ketsa... hammasi ketar ekan. Ramazonni qamalgan, deb Toshga maqtaganimda farishtalar kaftlarini keng yozib, “Omin!” demoqqa shaylanib turishgan ekan: Ramazon qamaldi!

Bu safar ham u odatdagidek bir chamadon va bir to‘rxalta olma bilan kelgan edi. Malikaga o‘zi otgan tulki terisini sovg‘a qildi — bulturgi va‘da. Biznikida ikki kun turdi-yu o‘zicha bir balolarni valdiray-valdiray, chamadonini ko‘tarib allaqayoqqa g‘oyib bo‘ldi. Oradan uch kunmi, to‘rt kun o‘tgach, menga milisiyadan chaqiruv qog‘ozi keldi.

Ramazonning jo‘rasi ekanim — go‘llogim, soddaligim basharamga bitilgan shekilli, tergovchi — sarg‘ishdan kelgan, ko‘kko‘z kishi meni kutilmagan dag‘dag‘a bilan qarshi oldi:

- Sizni qamoqqa olamiz, og‘ayni!

Ko‘z oldim qorong‘ilashib ketdi. Ishga kirganimga bir yil ham to‘lgani yo‘q, Malika bilan to‘yimiz o‘tgan yozda bo‘lgan, u hozir uyda o‘tiribdi — o‘g‘ilmi, qizmi kutyapmiz. Shunday bir paytda... Nega? Nima sababdan?

Tergovchi sababini aytdi.

Bundan besh kun oldin Haydarov Ramazon uch chamadon olma-yu anor va ikki quti uzum bilan Novosibirsk poyezdiga chiqayotgan mahalda qo‘lga tushibdi. (“Jo‘ra, bir Barnaulga borib kelay deya pman. Tomoshaga. Xizmat qilgan joylarim,

sogʻinibman”.) Pastda ular ikki kishi ekan, kupeda esa toʻsatdan bittasi gʻoyib boʻlib qolibdi.

Dastlabki tergovning koʻrsatishicha, qochgan chayqovchi — ishboshi. Oʻsha men emishman!

— Kim aytdi, kim? Isbotlang! — deya joyimdan turib ketdim.

— Kim aytardi, sherigingiz — Haydarov!

Laʼnati Ramazon! Oʻzing tushgan chohga meni ham tortmoqchi boʻlibsan-da? Nomard, chayqovchi!

— Chaqiring! Yuzlashtiring! — Shosha-pisha yonimni kavlab, xizmat guvohnomamni tergovchining oldiga otdim: — Mana, koʻring!

Tergovchi unga anchayin bir koʻz tashladi-yu qaytib qoʻlimga tutqazdi, sinovchan tikilib soʻradi:

— Ogʻayningiz avval ham chayqovchilik bilan shugʻullanarmidi?

Shunda ogʻzimdan chiqqan gap uchun oʻzimni hech qachon kechirmasam kerak:

— Shugʻullangan boʻlsa bordir, men qayoqdan bilay? U ogʻaynim emas, shunchaki hamqishloq, hamshaharmiz.

— Shunaqami? U sizni ogʻaynim, yaqin ogʻaynim, dediku?! Hozir olib kelsam, ogʻaynim emassan, deb yuziga ayta olasizmi?

— ...

— Boʻpti, sizga ruxsat, — dedi tergovchi chaqiruv qogʻoziga imzo chekib berarkan, sovuqqina bir ohangda. — Iloji boʻlsa, uyidagilarga xabar qilib qoʻysangiz — kelasi jumada sud. Ha, shoshmang. U siz haqingizda hech nima degani yoʻq. “Ogʻaynim boʻladi, ikki kecha uyida yotdim”, dedi, xolos.

Men tergovchiga anqayib qaradim.

Sudga ikki kun qolganda — kuyadori hidi anqib turgan kostumiga urushda olgan medallarini taqib Ramazonning otasi va sovxozda shofyorlik qiladigan akasi yetib keldi.

Ota koʻrgan odamiga nuqul bir gapni takrorlaydi:

— Toʻydan qochib kelib edi. Togʻasining qiziga koʻngli yoʻqmi, toʻydan gap ochdingiz — oʻqishni bahona qilib, Toshkandga joʻnaydi. Armiyadan qaytganidan beri shu ahvol. Uyoqda enasi ogʻir yotibdi, “Ulimning mavridginasini koʻrmay keta-

digan bo‘ldim-da”, deb chirqillagani chirqillagan. Bozor bormoq tugul og‘zidagini eplab yutolmaydigan bolaning bu ishini qarang endi!

Tajangroq akaning battar tajangligi tutadi:

— Shuningizni o‘zi boshdan erkalatib yubordingiz-da, ota! Oyog‘iga kishan urib bo‘lsa ham, to‘yni boshlash kerak edi. Bu muttahaimga nima yetishmasdiki, bizni bunday sharmanda qilib o‘tiribdi!

Ota turib-turib mendan noliy ketdi:

— A, jiyanson-a, siz-ku o‘qigan, esliroq edingiz, jo‘rangizni yo‘ldan qaytarmabsiz-da! Nima kasofat urdiki...

Ramazonning sudi ham o‘ziga o‘xshadi — qip-qizil hangoma! Sudya — ko‘zoynak taqqan, o‘rta yoshlardagi barvasta ayol — yigirma yil shu sohada ishlab, bunday antiqa sudni ham, bunaqa g‘alati sudlanuvchini ham ko‘rmagan bo‘lsa kerak. Butun sud davomida u ishni harchand yengillashtirishga urinmasin (otaning ko‘kragidagi medallar, onaning og‘ir yotgani to‘g‘risidagi spravka-yu boshqa ijobiy qog‘ozlarning xizmati tufayli bo‘lsa kerak), ayblanuvchining o‘zi unga sari battar chalkashtirar, chigallashtirar edi. Ramazon hozir ayblanuvchidan ko‘ra ko‘proq qiziqchiga, o‘zini atay merovlikka soladigan sirk masxaraboziga o‘xshardi. Sochi tap-taqir olingan, egnida — yotgan joyidagi allakimning ola-bula, yoqasi ochiq bachkana ko‘ylagi, qo‘llarini orqaga qilgancha burchakda allanchuk kulgili tarzda qo‘qqayib turibdi. Go‘yo bu yerda bo‘layotgan gaplarning unga sira aloqasi yo‘q — to‘planganlarni shunchaki kuldirishi, maroqlantirishi lozim, xolos. Savolni tushunmagandek ko‘zlarini pirpiratib, xonadagi yigirma chog‘liq odamga bir-bir qarab chiqadi, so‘ng shiftga tikilgan ko‘yi shunday bir gapni aytib yuboradiki, sudya ko‘zoynagini qo‘lga olib baqrayib qoladi: goh yelkasini qisadi, goh boshini changallaydi. Boshqalar ham shunday. Ramazonning o‘zi esa menga qarab xijolatimiz iljayib qo‘yadi. Tergov beraverish joniga tekkanmi yoki birga yotgan tajribali sheriklarining turli-tuman yo‘l-yo‘riqlari gantitib tashlaganmi, xullas, uni qandaydir jin chalgani aniq edi.

— Ayblanuvchi Haydarov Ramazon, oldin ham shu ish bilan shug‘ullanganmisiz? — deb so‘raydi sudya.

— Men, Haydarov Ramazon, 1950-yili Boysun rayonida tugʻilib edim. Keyin... — deya tutilib qoladi.

— Ayblanuvchi Haydarov, hech kim sizdan tugʻilgan yil-ingizni soʻrayotgani yoʻq. Oldin ham chayqovchilik qilganmi-siz, deyaрман?

— Keyin maktabni bitirib, Sovet Armiyasi safida xizmat qilib edim. Keyin boʻlsam...

— “Keyin, keyin”... — Sudyaning ensasi qotdi. — Hayda-rov! Bu gaplar hammasi mana — ishingizda yozilgan. Siz bizga ayting: avval ham qilganmisiz shu ishni?

— Qanaqa ishni?

— Uff! Chayqovchilik-da!

— Yoʻ-oʻq... E, qilganman, qilganman.

— Iya, dastlabki tergovda “Chayqovchilik bilan shugʻullan-maganman”, degan ekansiz-ku?

— Shugʻullanmaganman-da oʻzi.

— A, hozirgina nima dedingiz?

— Shugʻullanmaganman, desam... ishonasizmi?

— Uf-f... Ayting-chi, sherigingiz kim edi?

— Sherigim, sherigim... bilmayman... yoʻq edi.

— Shuncha yukni bir oʻzingiz qanday koʻtarib chiqdingiz poyezdga? Biror kishi yordam bergandir?

— Hech kim yordam bergani yoʻq, oʻzimiz... e, oʻzim! Nima, chamadon koʻtarib yurish qiyinmi? Ichida toʻrt-besh kilogina olmasi bor edi, xolos.

— Menga qarang, Haydarov, uch chamadon va ikki quti bilan qoʻlga tushgansiz-ku? Qolganlari kimniki edi boʻlmasa?

— ...

— Demak, ular boshqa shaxsga tegishli boʻlgan. Organ odam-lari kuzatayotganini sezib, u sizga tashlab qochgan, shundaymi? A, Haydarov?

— Shunday... E, yoʻq-yoʻq, meniki edi, meniki!

— Ayblanuvchi Haydarov! Esingizni yigʻib oling. Yo tob-pobingiz yoʻqmi? Qayeringiz ogʻriyapti, ayting, sud majlisini toʻxtataylik.

— Ebi, nimaga? Soppa-sogʻman.

— Boʻlmasa ayting: buncha uzum-u anorni koʻtarib qayoqqa ketayotgan edingiz? Nima maqsadda?

— Shunday, aylanib kelgani. Barnoul — xizmat qilgan joyim. Zo‘r joy, og‘aynilarim ko‘p u yerda.

— Shuncha narsani og‘aynilaringizga olib borayotgan ekan-sizlar-da?

— Yo‘g‘-e, men ularga to‘rttagina olma olgan edim, bo‘ldi. Quruq bormayin deb.

— Uzum bilan anor-chi? Ularni sotmoqchi bo‘lgansiz-da?

— Nega sotaman? Axir u... Bilasizmi, men Barnaulga...

— E, Barnaul, Barnaul!.. Olmani qayerdan oldingiz?

— Qayeringiz nimasi? Chorbog‘dan-da. Kuzda boring, chorbog‘imizda to‘lib yotadi, yerga to‘kilib.

— O‘sha yoqdan olma ko‘tarib kelish shartmidi? Sovg‘aga ekan, Toshkentdan olaqolsangiz bo‘lardi-ku?

— Bu yerning olmasi bo‘lmaydi-da, taxir, dorining ta‘mi keladi. Bizda shunday bir olma bor, Boysunning olmasi, “jaydari olma” deymiz. Boshqa joylarda bitmaydi unaqasi. O‘zi ko‘rimsizrog‘-u, lekin shunday shirin, shunday shirin, yesangiz...

— Mayli, mayli, Haydarov, keyin yeymiz olmani...

— Zo‘r olma-da lekin. Bu, hozirgi olmalarigizning bari buzilib ketgan. Har baloni payvand qilaverib aynitib yuborishgan-da. Faqat bizlarda qolgan unaqasi. Men o‘zim olmani uncha yaxshi ko‘rmayman. Yesam — ko‘nglim ayniydi.

— Ha-a, demak, olma o‘zlarigizniki, uydan olib kelgansiz?

— Iye, ishonmasangiz, ana — otam o‘tiribdi, akam o‘tiribdi, jo‘ralarim — so‘rang! Ka-atta olmazorimiz bor! Yo to‘rt kilo olmaga ham spravka olib kelaymi?

— Bo‘pti, bo‘pti, ishondik. Demak, siz uyingizdan to‘rt-besh kilo olma olib, o‘sha o‘zingiz aytgandek, hech joyda bitmaydigan antiqa olmadan olib, birga xizmat qilgan og‘aynilaringizni ko‘rib kelgani Barnaulga jo‘nagansiz. Bittagina chamadon bilan, bittagina! A, qolgan narsalar kimniki edi — uzum, anor?

— ...

— Uka, tushunsangiz-chi, biz sizga yordam qilmoqchimiz. Yaxshilab o‘ylab, to‘g‘risini ayting. Taqdiringiz hal bo‘lyapti, axir!

— Opajon, bir marta kechiring!

— Men sizga “opajon” emasman!

— O‘zingiz “uka” deyapsiz-ku, men nima deyin sizni? Otingizni bilmasam, familiyangizni bilmasam...

— Otimni bilishingiz shart emas. Men siz uchun — grajdannin sudyaman!

— Men ham grajdanman.

— Yo‘q, siz endi — ayblanuvchisiz, aybdorsiz!

— Men... aybdorman?! Aybdorman, kechiring...

Sudya ko‘zlarini qattiq yumib, boshini changallagancha sarak-sarak qildi.

Bu gaplar hammasi tushimda kechayotgandek edi. (Tushda bo‘lmay, hayotda ham shunaqasi bo‘ladimi, axir!)

Hukm o‘qildi. Chayqovchilikda ayblangan Haydarov Ramazon bir yilga ozodlikdan mahrum etildi.

U bo‘ynini qiyshaytirganicha mung‘ayibgina turardi. Hukmni eshitib asta boshini ko‘tardi, nimadandir xijolat chekkan misol g‘alati iljaydi! Iljaydi! Go‘yo qamoqqa emas, bir yillik tomoshaga, dunyo bo‘ylab sayr-u sayohatga ketyapti!

Suddan keyin xuddi bir mo‘jiza ro‘y berib, “Kechirasizlar, hazillashgan edik, Ramazonjon kecha tug‘ilgan chaqaloqdek begunoh ekan”, deya ozod qilib yuboradigan kabi, hovlidagi tut tagida to‘dalanib turgan edik, tasodifan Toshga ko‘zim tushdi. U qandaydir milisiya leytenanti bilan yurgan ekan.

— Hi, bundoq? — dedi oldimdan o‘tayotib.

— Yana o‘sha!.. — dedim ma’noli qilib.

— O‘sha-ya! — U ko‘rsatgich barmog‘i bilan kekirdagini “kesib”, “Nima, odam o‘ldirganmi?” demoqchi bo‘ldi.

— Shunga yaqin, — dedim bu gal kamtarlik bilan: kayfiyatim buzuq edi.

Tosh “Zo‘r ekan, tan berdim” degan kabi boshini likillatib, leytenantning ketidan zipilladi. “Ramazondan qolishmaslik uchun to‘rtinchi marta “hazillashib” qo‘yganmi, kim bilsin...”

Bir payt qandaydir shang‘illagan ovoz qulog‘imga chalindi:

— E-ey, she‘ringni o‘qidim — gazeta berar ekan!

Ovoz kelgan tarafga qarasam — Ramazon! Qo‘llari orqada, ikki soqchining o‘rtasida yopiq mashina tomon ketyapti, ko‘zlari chaqnaydi: “E-ey, she‘ringni o‘qidim...”

“O‘l-a, — dedim ichimda, — shunday paytda mening she‘rimga balo bormi, o‘zingni o‘ylasang-chi! — lekin xudbinlik ustun keldi: — O‘qibdi-ya, o‘sha yerda o‘qibdi-ya!”

Ramazonning ortidan qarab qolarkanman, negadir uning sevimli qo‘shig‘i esimga tushdi: “Xush qol endi-i, Zuhroxonim...”

— Jo‘rang qip-qizil g‘alcha ekan, — dedi sudga birga borgan yozuvchi do‘stim qaytishda. — O‘zini o‘zi qamatdi. — Che-xovning “Yovuz niyatli kishi” hikoyasidagi Denisning o‘zginasi-ya! O‘qiganda shunaqa odamlar borligiga ishonmagan edi...

Kechqurun uyda Ramazonning otasi bilan akasini xo‘b kutdim, mendan domangir bo‘lishganmi yoki bu ko‘rgilikdan gangib Boysunga jo‘navorishganmi — kelishmadi.

Ramazonning qamalganiga besh oy bo‘ldi. Besh oydirki, yursam ham, tursam ham — ichimda bir tugun, qattiq, ozorli tugun. Jonim chiqadi, Ramazonni so‘kaman, so‘kaman-u, ajabo, ko‘rgim keladi uni, ko‘rgim! Uning oldida o‘zimni aybdor sezaman. To‘g‘ri, u ko‘p g‘ashimga tekkan, meni ko‘p g‘alvalarga qoldirgan; balki muttahamdir, chayqovchidir, lekin bari bir — jo‘ram! Jo‘ram yotibdi. Qamoqda. Qanaqa joy ekan u?

Besh oy davomida undan uchta xat keldi. Ammo... uchulasi ham bittagina so‘zdan iborat: “Chantrimore!” Vassalom.

“Chantrimore” — Kalamakatore... Shodi garang... Bolaligimiz ertagi, zavqi, quvonchi. Maktabimizning yonida yashardi. Qachon qaramang, iljayib turardi. Basharasiga baqrayib so‘ksangiz ham iljayardi — eshitmasdi, qulog‘i og‘ir edi. Qishin-yozin mudom bo‘yin-boshini malla qiyiq bilan tang‘ib, quloqchin bostirib yurardi. Oqshomlari eshigi og‘zidagi supachada, go‘yo hech kim eshitolmaydigan bir kuyni tinglayotgandek, ko‘zlari chala yumuq, mudrab-chayqalib o‘tirardi. Ahyon-ahyonda o‘tkinchilardan birortasiga qarab “Chantrimore!” deb hayqirar, “Chantrimore!” desangiz, “Kalamakatore!” deb javob qaytarar edi. Hovlisi muyulishdagi pastlab ketgan torko‘chaning adog‘ida edi. Qish kunlari yer muzlaganda biz unga suv sepib, ko‘cha og‘zida Shodi garangning ishdan qaytishini poylardik. U bamaylixtir yurib kelib, xuddi kar emas, ko‘rdek, oyna misol yaltirab yotgan sirpanchiqqa oyoq qo‘yar va ana shu zahoti bor bo‘yi ko‘tarilib tushar, boshidagi quloqchin otilib ketib, o‘zi

sirgʻalgancha darvozasi tagiga borib qolar edi. Biz esa torkoʻchani qiyqiriqqa koʻmib yuborardik: “Chantrimore! Kalamakatore! Chantrimore! Kalamakatore!..” Shodi garang alpong-talpong joyidan turib, quloqchiniga qarab chopardi. Soʻng koʻzlarini olaytirib, bizga poʻpisa qila-qila hovlisi tomon yurar, hayal oʻtmay, choponi barini olmaga toʻldirib chiqar va uni qorning ustiga qubba shaklida terib qoʻyib, oʻzi uyiga kirib ketar edi. Biz bitta-bitta sirpana borib, olmalarni qoʻyin-qoʻnjimizga joylab, “Chantrimore! Chantrimore!” deya suron solgancha koʻcha boshiga qaytardik. Shodi garang esa darvozasidan boshini chiqarib hayqirib qoldi: “Kalamakatore! Kalamakatore!..”

Doim shunday boʻlardi. Biz doim torkoʻchaga suv sepib qoʻyar, Shodi garang doim koʻra-bila oʻsha yerdan yurib uchib tushar, keyin turib bizga poʻpisa qilar, lekin doim olma bilan siylar edi. Doim! Uning farzandi yoʻq edi. Xotini bor, hovli-joyi bor, kattakon olmazor bogʻi bor — farzandi yoʻq edi.

Bir kuni kimdir meni telefonga chaqirib, “Tush pastga!” deb doʻq qildi. “Kimsan oʻzing?” dedim jahlim chiqib. Noga-hon men sira kutmagan shangʻi ovoz yangradi: “Chantrimore!” Yuragim gupillab ketdi. Qayerdan? Qanday qilib? Nahotki?..

Tushsam — ishxonamiz oldidagi xiyobonda birov ishshayib turibdi. Yuzi shishinqiragan, koʻzlari ich-ichiga choʻkkan, koʻylak-shimi gʻijim bir kimsa. Ramazon!

— Ha?! — dedim hovliqib, tahlika bilan.

— Keldim.

— Qanday? Hali, hali... vaqt bor-ku?

— Qochdim-da, joʻrajon, seni koʻrgim keldi. — U qu-lochlarini keng yozib yaqinlasha boshladi.

— Qochding?! — Men, toʻgʻrisi, allanechuk irgandimmi, tisarildim va gʻazab bilan baqirdim: — Yoʻqol, koʻzimga koʻrinma! Meni tinch qoʻy!

— Panjaradan kelgan odamniyam joʻrasi shunday kutib oladimi?

Uni qayta sud qilib, ochiqqa — majburiy xizmatga chiqarishibdi.

Muddati bitguncha shahar yaqinidagi gʻisht zavodida ishlar-mish.

— Oqlashdi, jo‘rajon, oqlashdi, — deya tinmay qiqirlardi u.
— Aybim yo‘q edi-da o‘zi.

— Nega aybing bo‘lmas ekan? Chayqovchi! Bizda begunoh odamni qamamaydi. Unaqa qonun yo‘q.

— Mana, meni qamadi-ku? E, u yerdagi odamlarning gapini eshitib tursang, birontasiniyam tirnoqcha aybi yo‘q. Lekin — bor, bor! Mana, o‘zimni olaylik, aybim yo‘q edi — bor chiqdi. Shunday gap-da. — Ramazon kaftini to‘ldirib nos otdi. U qandaydir o‘zgarib — jiddiylashibdi, chala faylasufga o‘xshab qolgan edi: ilgari hech bunday gapirmasdi. Nosini tupurgach, yengil tortgandek qo‘l siltab, davom etdi: — Mayli, bu gaplar hozir befoyda, baribir ishonmaysan. Keyin bir kun hammasini aytib beraman. Lekin, boyagi gaping to‘g‘ri: aybi bo‘lmasa qamamaydi. Ayb, ayb deymiz-u, kimda yo‘q u, jo‘rajon? Mana shu savlat to‘kib yurganlarning hammasi ham oppoqmi?

So‘ng u tuyqusdan eski ashulasini eslab qoldi:

— Yur, jo‘rajon, ikkovimiz bir portretga tushaylik!

— Shu aft, shu angor bilanmi? — dedim kulib. — Boshqa payt, boshqa payt.

Ramazon o‘sha kuni menikida tunab, ertasi ishiga ketdi. Ishi og‘ir — tandirdan cho‘g‘dek qizib chiqqan g‘ishtlarni olib taxlar ekan: horib-chuykab, kaftlari qavarib, oyda bir marta, shunda ham yo‘lkira so‘rab kelardi. Hordiq kuni shaharga tushib, eski odati — bor-budini allakimlarga ulashib, ketishda mendan pul so‘rab kelardi.

O‘sha — o‘zimizning Ramazon!

Olti oydan keyin uning jazo muddati bitdi. Bitgan kuni u kechki poyezdga bilek olib, ishxonamga keldi.

— Hamma jo‘rangni chaqir!

— Ha, yana biror hunaring qolganmidi?

— Bi-ir registronda o‘tiraylik! Ketar jafosiga!

Ishdan ertaroq chiqib, to‘rt-besh ulfat “Zarafshon” restoraniga bordik. Ramazon hamma narsani taxt qilib, uzun stolning to‘rida tirjayib o‘tirgan ekan.

— Bor jo‘rang shumi? E, bechora! Ziqnaligingga boribsan-da. Qo‘rqma, karmon katta, atab qo‘yganini berdi!

O‘sha kech restoranda rosa yayradik. Ramazonning o‘zi ayniqsa bayram qildi. Muzika boshlanishi hamono o‘rtaga tushib, holdan toyguncha o‘ynadi. O‘yini ham o‘ziga o‘xshagan edi: goh

tizzalariga shapatilay-shapatilay davra bo‘ylab kavkazchasiga yo‘rg‘alab ketadi, goh qo‘llarini ikki yonga siljitgancha kiftlarini qimirlatib, “Ha-a, hu-u!” deya qiyqiradi, hayqiradi, sakraydi, iring‘ishlaydi: goh jilmayadi, goh hazilga qovog‘ini uyub oladi: duch kelgan qizni raqsga tortadi, ajabki, u ham nozlanib o‘tirmay peshvoz chiqib boraveradi: qizga qarab kuladi, yig‘laydi, po‘pisa qiladi, yolvoradi: endi mag‘rur, purviqor, keyin yana tushkun, g‘amgusor, yana izhor, iltijo... Chapak, olqishlar...

Butun restoran ahli tomoshabin, barchaning ko‘zi Ramazonda. Bugun u bayram qilardi, tantana qilardi: kechagi g‘amu g‘uborlarini unutgan, yana asliga qaytgan, o‘sha eski — beg‘am, beg‘ubor Ramazonga aylangan edi.

Restorandan chiqqach, sheriklarimga javob berib, Ramazonni kuzatgani u bilan vokzalga bordim. Poyezd hali kelmagan ekan, suv ichish bahona tag‘in restoranga kirdik. Kayfi ancha oshib qolgan Ramazon ana shunda dardini yordi.

— Bari bir ishonmaysan-da, jo‘rajon, — deya gap boshladi u. — Lekin iltimos: bu safar ishon!

Ramazon o‘shanda rostdan ham Barnaulga jo‘nagan ekan. Poyezdni kutib o‘tirib, mana shu yerda, restoranda bir kishi bilan tanishib qoladi. Birga ovqatlanishadi. Keyin Ramazon uning yuklarini — o‘sha mash‘um chamadon va qutilarni vagonga joylashga ko‘maklashadi. Poyezd jo‘nay-jo‘nay deb turganda kupega ikki odam kirib keladi. Ularning sharpasini oldinroq sezgan haligi kishi tahlika aralash yig‘lab-yolvorib Ramazonga yopishadi: “Jon uka, yuklar meniki, deng, yarmi meniki, deng. Chiqib ket-sak, foydani teng bo‘lamiz. Meni bilishadi, qo‘lga tushsam... Siz yoshsiz, kechirishadi”, alay-balay. Ramazon — go‘l, taytuv Ramazon laqqa ishonadi, hech baloni o‘ylamasdan rozi bo‘ladi. Hushini yig‘ib, qarasa — atrofni militsionerlar o‘rab turibdi. “Ha, meniki, meniki, — deydi sarosimaga qolib, — hammasi meniki”. Yoniga qarasa — haligi kishi yo‘q, yerga kirgandek zim-g‘oyib.

— Ana, aytdim-ku, ishonmading, bari bir ishonmaysan, — dedi Ramazon hafsalasi pir bo‘lgandek, qandaydir mung bilan. — Hech kim ishonmaydi.

— Shu gaplarni nega sudda aytmading? — dedim hayratim oshib.

— Aytib edim, tergovda ming marta takrorladim. Tergovchi eshitgisi ham kelmadi. “Senlarning hammang shunaqa tulkisan!” dedi. Nima qilsin — shuncha narsa bilan qo‘lga tushganingdan keyin yelkangga qoqib, qo‘yib yuborsinmi? Kimnidir qamashi kerak-ku, ularning ham plani bordir. O‘zi tergoviyam, kamera-siyam jonga tekkan edi, jo‘ra, e, cho‘zilib yotadimi, xudoning buyurgani-da, dedim!

— Ahmoq, tentak! Bir muttahaarning nayrangiga uchi-ib... Odam ham shunday anoyi bo‘ladimi? Men o‘laqolsam ishonmasdim.

— Men ishondim-da, jo‘rajon, nima qilay? “Ettita bolam bor, — dedi, — ettitovi ham qiz, — dedi. — Uchtasi bo‘y yetgan, uzatishim kerak, o‘zim zavodda oddiy qorovulman, jigarim kasal”, dedi. Ahvolini ko‘rgan kishi, agar inson bo‘lsa, ishonardi, men ham ishonibman-da, jo‘rajon!

— Mana — ishonchingga mukofot!.. Sen ham qochgin edi, “Bilmayman, meniki emas”, deb turib olgin edi, kallavaram!

— Bunday qilsam, uni tutar edi-da? So‘z bergan edim, nomardlik bo‘lardi...

— Iye! — dedim fig‘onim chiqib. — Ha, tutsin edi, qamasin edi — qilmishiga yarasha! Voy ahmog‘-ey, so‘z bergan emish! Balki qizlarining tashvishini qilgandirsan, ersiz qoladi sho‘rliklar deb?! Ehtimol, o‘sha uchchiga chiqqan chayqovchidir, qallobdir! Ular shunaqa bo‘ladi. Ba‘zan hatto uydagi xotinini ham o‘rtaga qo‘yib...

— Unisini senlar bilasan, gapga boysanlar. Kap-katta odam, ko‘ziga yosh olib gapirganda ishonmay bo‘ladimi? Sochlari ham oq edi... Mayli, jo‘ra, endi pushaymonning foydasi yo‘q — bo‘lgani bo‘ldi, bu yog‘i sindi. Dunyoni panjaradan ham bir ko‘rib qo‘ydim-da, ziyon qilmas...

Ramazon chakkasini kaftiga bosgan ko‘yi deraza osha peronga tikilib o‘tirardi. O‘ychan, beozor, hokisorgina... “Uni xushlamaslik, yoqtirmaslik mumkin, lekin yomon ko‘rib bo‘lmaydi”, deb o‘yladim ichimda.

U bir payt ko‘zini qisinqiragancha nima deb qoldi deng:

— Hozir Novosibirsk poyezdi keladi, hayyo-huyt deb Bar-naulga jo‘navorsam-chi?

— O‘lging kelgan bo‘lsa shunday qil, milisaga tutib bermagan ham nomard! — dedim achchiqlanib. Lakalov qiliqlari,

gap-soʻzlari yana birpasda koʻnglimga urgan edi. — Ramazon, boshni qotirma, qayoqqa ketsang ket, joʻra! Iltimos, endi bu yoqlarga qadam bosa koʻrma!

Ramazon ketdi. Poyezd oʻrnidan qoʻzgʻalganda perron boʻylab bir hayqiriq yangradi: “Chantrimore-e!” “Kalamakatore” boʻgʻzimda qoldi — aytoilmadim. Poyezd endi toʻxtamaydi, uni na men, na Ramazon toʻxtata oladi: Ramazon esa ketdi, joʻnab ketdi, endi kelmaydi!

U ketgach — shahar, gʻala-gʻovur shahar birdan zerikarli, fayzsiz koʻrindi koʻzimga.

Shunday qilib Ramazon ketdi, boshqa kelmadi. Borgan yili uylandi, baribir oʻsha qizga — togʻasining qiziga uylandi. (Onasi ham tuzalib qolgan boʻlsa kerak.) Keyingi yili oʻziga imorat qurdi. Hozir toʻy qilmoq taraddudida yurganmish...

Bultur kuzakda Boysunga borganimda bozor aylanib yursak, yonimdagi hamrohim:

— Ana, oshnangizni qarang! — deb qoldi.

Ramazon! Oldida bir choyquti, bozorni boshiga koʻtarib, yeng shimargancha olma sotyapti. Koʻnglimda shubha uygʻondi: “Oʻshandagi gap tasodif emas shekilli, asli qonida bor ekan-da buning”. Lekin nima ham derdingiz — tirikchilik, birovning roʻzgʻorini birov tebratmaydi.

— Barnaulda olma kamchil emish, Barnaulga olib borish kerak edi! — dedim yaqinlashib, kinoya bilan.

— E, e, joʻrajon! — deya yuzi yorishgancha oʻrnidan turib ketdi u. — Oʻzim ham Barnaulni koʻzlab turuvdim, senday maslahatchiga zor boʻlib. Nima qilay, joʻra, yer bilan bitta toʻkilib yotibdi. Molga beray desam, koʻngil boʻlmaydi, uvol. Undan koʻra... — Ramazon tanlab-tanlab, hamrohim bilan menga ikitadan olma tutqazdi. — Yeb koʻringlar, bunaqasi Bogʻi Eramda ham yoʻq.

Birpas oldida chaqchaqlashib turdik. U hay-huylab oʻtgan-ketganni chaqirar, idishi boʻlsa idishini, boʻlmasa — qoʻyni-qoʻnjini olmaga toʻlatib joʻnatar edi.

— Pulini nega olmayapsan?

— E, otamga qavm boʻladi, noqulay.

— Bunisi-chi?

— E, ena jamoatimizdan qarindosh...

— Olmang ko‘p bo‘lsa, davlatga topshirvormaysanmi bunday qilib o‘tirguncha?

— Qarzim bormi? Arzon oladi!

— Axir, hammaga tekin ulashyapsan-ku?

— E, biri xesh, biri tabor.

— Senga begonasi bormikan Boysunda?

— Bor, — dedi Ramazon tirjayib. — Mana — sen! Musofir, sotqin, shaharlik!

U kechqurun bir to‘rxalta sara olma ko‘tarib uyimizga keldi.

— Yaxshimi, yomonmi, shoir noming bor, ko‘chada olma ko‘tarib yursang obro‘ying buziladi, dedim...

“Obro‘ying buziladi”. “to‘kiladi emas, “buziladi”! Ramazonning gapi, Ramazongina shunday deyishi mumkin!

Ana sizga — Ra-ma-zo-on!

...Ramazon, jo‘ra, jo‘rajon, mana — qo‘limdan kelganicha seni naql qildim. Men bu narsani sen uchun, senga bag‘ishlab yozdim. Ba‘zi o‘rinlarda oshiribroq yuborgan bo‘lsam, ko‘nglingga olmassan. Bu ish qurg‘ur o‘zi shunaqa, shunday qilmasa bo‘lmaydi.

Mendan ahvol so‘rasang — turmushim eskicha, bir maromda. Chatog‘i shundaki, bi-ir maromda! Noliyotganim yo‘q, hamma narsam yetarli, joyida. Lekin hayotimga nimadir yetishmaydi, nimadir — yirikroq tashvish deymizmi, to‘polon deymizmi yoki bir mo‘jizami... Qilayotgan ishlarimdan ko‘nglim to‘lmaydi, hammasi ko‘zimga mayda, arzimasek tuyuladi. Ishga borib kutasan o‘sha narsani, uyga kelib kutasan — behuda. Goho boshingni devorga urging keladi — shoyad biror yangilik ro‘y bersa!..

Bu nolish, shikoyat emas, Ramazon — hasrat, do‘stning do‘stga hasrati!

Kecha kechasi birovning yo‘talidan uyg‘onib ketdim. Qattiq yo‘talardi, beton devorga qoziq qoqqandek bo‘g‘iq yo‘tal. “Qizimmi?!” Uyqu qochdi. Xotiniمنى uyg‘otib, “Turib qarasang-chi!” dedim. Narigi xonaga chiqib, qizimdan xabar olgan xotinim “E, qo‘shning bolasi-ku!” dedi. O‘sha zahoti xotirjamgina uyquga ketibman.

Nega bunday, Ramazon?

O‘tgan hafta tunga yaqin uyimga telefon bo‘ldi. Boysundan. Bir hamshaharimizning tog‘asi vafot etibdi, ertalab chiqarishmoqchi, iloji bo‘lsa, shu gapni jiyaniga yetkazishim kerak ekan.

“Bemahalda sizni bezovta qildik-da, og‘ajon, ovora bo‘lasiz-da”, deb qayta-qayta uzr so‘rashdi, “Iloyo bir o‘g‘lingiz o‘nta bo‘lsin, baraka toping”, deya rosa alqashdi. Ishdan qattiq charchab kelgan edim, o‘zimcha mulohaza yuritdim: “Jiyanining uyi shaharning bir chetida! Ertalab chiqarisharkan, bugun borib aytdim nima-yu saharda ishxonasiga telefon qilib qo‘ydim nima — bari bir janozaga yetib borolmaydi”. Yetib borolmasligi aniq edi, lekin...

Ana shunday, mening uyimda telefon bor! Men ishdan charchab kelaman! Nega bunday, Ramazon? O‘rnimda sen bo‘lganingda nima qilarding?

Sudingda qatnashgan yozuvchi do‘stim yaqinda “O‘zini o‘zi qamatgan afandiroq bir oshnang bor edi, qayerda hozir, nima ish qilyapti?” deya seni so‘rab qoldi.

Afandimiding, Ramazon? Hozir ham shundaymisan? Bilaman, shundaydan, sen o‘zgarmaysan. Ammo men nega o‘zgardim? Nega bunday bo‘lib qoldim? Nega o‘shandagi zorlanishlaringga kulib qaradim, sen bilan “bir portret”ga tushmadim? Tushganimda, bugun uni xonamning to‘riga osib qo‘yardim — ba‘zi narsalarni eslatib, ba‘zi narsalardan ogohlantirib turardi. Men aytgan “poza”lardan, sen aytgan “foza”lardan...

Bir haftalik betayin, bema‘no kuydi-pishdilar oqibati — shanba kunlari turgim kelmay, to‘shakda uzoq cho‘zilib yotaman, gangib, karaxt yotaveraman, kutib — nimanidir, kimnidir... Mana, hozir sen kirib kelasan. To‘satdan. Tashvish bilan, to‘polon bilan. Olma olib kelasan, jaydari olma. “Chantrimore-e!” deysan qulochingni keng yozib. “Kalamakatore!” deyman men...

Bu nima degani, Ramazon? Qaysi tildan bu g‘alati so‘zlar, ma‘nosi nima? Men bilmayman, sen ham bilmaysan. Shodi garangdan so‘raylik desak, u endi yo‘q — uzoq yili o‘lgan. Mi-yasi aynib o‘lgan. Quloqning zahmidan. Urushning kasri.

Undan tirnoq — farzand qolmadi, mol-dunyo qolmadi — “Chantrimore” qoldi, “Kalamakatore” qoldi, bizga: senga, menga...

Nima degani bu?

O‘ylashimcha, buni endi faqat ikki kishi — ikkalamizgina tushunadiganga o‘xshaymiz: senu men.

MUZQAYMOQ

Men azaldan shaharparast edim. Shaharni yaxshi ko‘rardim, shahardagi soya-salqin, ozoda maydonlarni, keng-katta ko‘chalarni, ko‘chalar bo‘yidagi ko‘kish do‘konchalarda shirin jilmayib turadigan oq peshgirli xushmuomala xolalarni — muzqaymoqni, ichib qonmaydigan qip-qizil sharbatlarni, u yoqdan-bu yoqqa g‘iz-g‘iz uchib yuradigan turli-tuman mashinalarni...

O‘zim chor atrofini baland-baland tog‘lar qurshagan, katta shaharlar-u temir yo‘ldan olis bir joyda tug‘ilib o‘sganman. Uyimiz sobiq rayon markazining qoq o‘rtasida: bozordan uchto‘rt hovli naridagi, biqinida bir tup zardoli o‘sgan katta ko‘k darvoza — bizniki. Bir vaqtlar — rayon tugatilmasdan burun obodgina bo‘lgan joy endilikda partov bir qishloqqa aylangan. O‘zi ancha yirik, gavjum, ammo na bir katta ko‘chasi bor, na muzqaymog‘i. Aytishlaricha, yaqin kelajakda rayonimiz qayta tiklanib, bora-bora shahar tusini olarmish. Aql bovar qilmaydigan gap. Shahar deganlari katta bo‘ladi, hovuchdekkina qishloqni qanday kengaytiradi — tog‘ning tepasiga uy qurmasa!.. Ko‘chalari tor, egri-bugri, har yili yangidan tekislab, shag‘al yotqizib chiqiladi, biroq hafta o‘tmay tag‘in asli-qadim — tuprog‘i ko‘pchib qoladi. Muzqaymoq... bo‘lmagan, bo‘lmaydi ham: saratonda ham havo salqin, innaykeyin, yo‘l bo‘yidagi ariqlarda sharqirab, tishni zirqiratadigan yaxdek suv oqib yotadi. Muzqaymoqdan so‘z ochsangiz, kattalar shuni ko‘rsatib, dakki berishadi: “Ana, obizamzam, tentak, bunaqasi O‘zbekistonda yo‘q!”

Qishlog‘imizdagidek mo‘jiza suv O‘zbekistonda yo‘qdir, lekin men baribir muzqaymoqli shaharlarni yaxshi ko‘raman.

Shahar deganda dastavval ko‘z oldimga ulkan chinor soyasida to‘xtab turgan usti chodirli yuk mashinasi keladi. Keyin — ikki cheti quyuq daraxtlarga ko‘milgan salqin, ravon ko‘cha, chaqaloq ukamning chinqirishlari, onamning jonsarak yu-patishlari, ikki qo‘lida ikkita likopcha, biz tomon kelayotgan otam... Otam likoblardan birini menga, birini onamga tutqazadi.

Mening dovdirab turganimni ko'rib: "Ye, ye, morojniy bu", deydi. Ariq labiga cho'nqayib, jez qoshiqcha bilan likobdagi taomdan og'zimga olib boraman. Olib boraman-u — shu daqiqa sira esimdan chiqmaydi — ko'zlarim charaqlab ketadi. Shaharni men shunda ko'rdim, tanidim va... bir umrga yaxshi ko'rib qoldim.

Bayramdagidek ko'rkam ko'chalarda bayramdagidek yasan-gan odamlar: qayoqqadir shoshadi, bir-biriga qaramaydi, ishi yo'q — qaygadir oqqani oqqan. "Biror joyda to'y bo'lsa kerak", deya sodda fikr qilaman o'zimcha. Har yonga alanglayman. Yo'l yoqasidagi ulkan chinor soyasida usti chodirli yuk mashinasi to'xtab turibdi...

Biz ana shu mashinada konchilar shaharchasida yashaydigan tog'amnikiga mehmondorchilikka bormoqda edik. Yo'l-yo'lakay shaharga o'xshash bir talay joylardan o'tilardi. Muzqaymoqni men dastlab shu yerlarda tatiganman. Lazzati hamon og'zimda. Qancha-qancha likopini bo'shatdim! Oxirgi marta... O'shandan keyin uni og'zimga olmadim. Tomog'im yoki tishim og'rib qol-ishidan qo'rqib emas, muzqaymoqqa shaydolik yoshidan o'tib qolganim uchun ham emas, yo'q...

Qishlog'imiz asosan bog'dorchilig-u chorvachilik bilan shug'ullanar, tekis maydoni kam bo'lgani va suvi tanqisligi sa-babli paxta ekilmas, terim mavsumlari katta-kichik bari pastda-gi paxtakor xo'jaliklarga yordamga borar edi. O'sha yili qish qattiq kelib, tog'dagi mollarning bir qismi yemsiz-ochlikdan, bir qismi qahratonning qahridan qirilib ketdi; dov-daraxtni sovuq urib, mo'ljaldagidan kam hosil berdi — sovxozimizning daromadi pasayib, iqtisod jihatdan foyda o'rniga ziyon keltira boshladi. Sovxoz ma'muriyati tang ahvolga tadbir izlab, ko'klamga yaqin cho'l rayonlarining biridan qancha hamdir bo'z yerni ijaraga oladigan, unga paxta ekib, shu yo'l bilan xo'jalikni tiklay-digan bo'ldi. Bog'dorchilik sohasida ishlab yurgan otamni "Bu yil ham baribir daraxtlaringizdan ko'ngildagidek hosil chiq-maydi, borib chinakamiga agronomligingizni ko'rsatib kelasiz endi", deya cho'ldagi bo'limga boshliq qilib jo'natdilar. O'zi, sovxoz direktori bilan murosalar kelishmay yurar, buni kechalari allamahalda qaytib, yana telefonda zarda aralash baland-baland tovushda munozara qilishlaridan ham sezsa bo'lar edi. Onam-ning aytishicha, birovlarni orqa qilib direktorlikka erishgan Ber-

diyorov otamga o'chakishgan, amalidan ayrilib qolishdan qo'rqar emish. Uyimizga kelganida bir-ikki marta ko'rganman; uncha-muncha narsadan cho'chiydigan odamga o'xshamasdi.

Cho'lga ketgach, otam uyga oy oralatib bir keladigan, ro'zg'orning kam-ko'stini to'g'rilab berib ketadigan bo'ldi. U kishi ozib, qoraygan, lekin oldingidan serharakat, quvnoqroq bo'lib qolgan edi. Men ilgarilari otamdan juda hayiqar, unchamunchada boshqalarga o'xshab erkalik qilolmas edim. Cho'lga borib o'zgaribdi, menga muomalasi ham birmuncha muloyimlashgan, iliqlashgan. Shundan foydalanib, har kelganida u kishiga ergashadigan, tarxashlik qiladigan bo'ldim. Otam har gal ham: "U yerda hozir nima bor, hammayoq tuproq, chang-to'zon. Yoz kelsin, ana keyin olib boraman. Qovun-tarvuz serob bo'ladi, maza qilasan. Hozir-chi, ola tuynak ham yo'q", deya aldab-sul-dab meni qoldirardi.

Menga esa qovun-tarvuz kerakmas, ola tuynagidan ham bezorman, faqat mana shu tog'-u toshning orasida siqilib yotgan gadoytopmas qishloqdan nari ketsam — bas. Yo'lda, axir, shaharlar bor, shaharlarda... Cho'llar ham hozir obod bo'lib ketgan, deyishadi, shahardan farqi yo'q emish. Buning ustiga jazirama issiq, shunday bo'lgach, zora... Ajabmas. Mayli, bu soya-salqin qishloq ariqlardagi "obizamzam"i bilan qolaversin, men ketaman!

Yoz keldi.

Oltmishinchi yillarning barchaga ma'lum kezlari, do'konlarda un qahat, ehtiyotkorroq kimsalar bostirma-yu yerto'lalariga g'amlab olishgan. Jo'xori non yeb o'tirgan kunlarimizda otam cho'ldan ikki qop un yuborib qoldi. Ana shunda menga xudo berdi — kelgan shopirga mahkam tarmashib oldim: "Meni olib ketasiz". Onam ham royish bildirdi: "Mayli, borsa borsin, otasini ko'rib keladi".

Jo'nadik-ku! Qishloq — tor, egri-bugri ko'chalari bilan, erta-yu kech xo'mrayib turadigan gird-atrof tog'lari bilan, ariqlarda sharqirab oqadigan "obizamzam"u chang-chungi bilan ortda qoldi. Qaydasan, gavjum shahar? Qaydasan, eslagan hamono og'izdan suv ketadigan rohatijon muzqaymoq?

Mashinaning ustida ketyapman. Turli manzillarga yo'l tortgan uch-to'rt yo'lovchi, xalta-xultasini tagiga tashlab, o'tirib

olgan. Men, birgina men tikka, kuzovga mahkam yopishib, qarshidan urilayotgan shamol-u chang-to'zonni pisand qilmay yiroqlarga tikilaman: qaydasiz, obod go'shalar, qaydasan, shahar? Mashinadan chiqayotgan gazni to'yib-to'yib hidlayman: biram yoqimlik, shahar hidi keladi! Faqat, ikki tarafimdagi cho'yan xumlar bir-biriga urilib, meni "iskanja"ga olaverib bezor qildi. (Keyin bildim: bu xumlarda paxtakorlarga atalgan asal bor ekan.)

Manzilga kech tushganda yetib keldik. Tevarakni quyuq g'ubor tutib turgani uchun hech nimani ko'z ilg'amasdi. Mashinamiz peshtoqiga qizil bayroq osilgan kattakon yog'och barak oldida to'xtadi. Nariroqda yana qandaydir chog'roq hujra. Uning orqasida "dvijok" pat-patlaydi. Havoda benzin-u salarka aralash dastmol hidi anqiydi. U yer-bu yerda turli-tuman traktorlar qorayib ko'rinadi. Ko'zni quvnatadigan boshqa hech vaqo yo'q.

Shtab deganlari shu yer ekan. To'g'risi, hafsalam pir bo'ldi: oshiqib-intiqqan joyim shumi?

Katta barakning orqasida, osma chiroq yorug'ida, uzun qo'lbola stolni qurshab to'rt-besh chog'liq kishi qovun yeb o'tirardi. Ular men bilan: "E, Abrayevning uli-ku! Qanday, katta yigit bo'lib yuribsanmi? Qishloqlar tinchmi?" deya so'rashishdi. Ko'pchiligi qishloqda ko'rib-bilib yurgan odamlarim, paxta ekkani kelishgan. Kimdir "Nachaylikning o'zi qayoqda qolib ketdi ekan?" deb qo'ydi.

Ularga qo'shilib qovunxo'rlikka kirishdim. Otamning bu yerda emasligiga bir ajablansam, bir chekkasi sevinib qo'ydim: nimaga kelding, deb urishsa kerak, deb qo'rqardim.

Bir mahal shiypon orqasiga chiroqlari u yon-bu yonni "paypaslab" uch g'ildirakli traktor kelib to'xtadi. Undan novcha, boshyalang bir kishi sakrab tushdi. Otam ekan. O'zi haydab yuribdi. Kutganimdek, meni ko'rib urishmadi, qaytaga, "E-e, kelsinlar, komsomol!" deya xushchaqchaqlik bilan qo'l uzatdi. Shu choqqacha otam bilan qo'l berib ko'rishmagan edim.

Otam ust-boshini qoqa-qoqa stol qoshiga o'tirib, mahsi kiygan, yuzi qip-qizil, ko'sanomo oshpaz chol olib kelgan kosadagi yovg'onni shosha-pisha ichdi, keyin xuddi shunday shoshqaloqlik bilan qovundan edi. Bu orada har yoqdan traktorlarini tarillatib, latta etiklarining qo'njiga qog'oz qistirgan

bo‘lim faollari, brigadirlar yig‘ilishdi. Uzoqov degan tund, xo‘ppasemiz bug‘altir qayoqdandir sanoqcho‘tini ko‘tarib chiqdi. Otam uzun stolning bosh tarafiga joylashib, boshqalar har tomondan g‘uj bo‘lib, bugun bajarilgan ishlarni muhokama qila ketishdi: uchinchi brigada, beshinchi brigada, falon qarta, pekin qarta, uncha gektar, buncha yer, texnika, qoramoy, salarka...

Yo‘l yurib charchagan ekanmanmi, bu gaplardan zerikibmi, ko‘zim keta boshladi. Lekin nima qilishni, qayerga kirib yotishni bilmayman. Buning ustiga bir balo hammayog‘imni chaqib, qichishishga tushdi. Idish-tovoqlarini yuvib bo‘lgach, kelib davraning bir chetidan joy ogan oshpaz chol — Imom bobo ahvolimni sezdimi:

— Ha, ulim, chaqyaptimi toza? — dedi. — Cho‘lning chivini ana shunday bo‘ladi: nafas chiqarmay kelib jonni oladi. Tur, anovi ariqqa tushib bir cho‘milib chiqqin zahri ketadi, sho‘r suv.

Otamga qaradim: u hamon masala talashuv bilan band edi. Xo‘jalik xodimlari rasm qilgan nosrang matodan furajka kiygan qiyiqko‘z kishi ham (otini bilmasdim hali):

— Bobongning aytganini qil, jiyan, og‘rig‘i bosiladi, — dedi. — Hay, hali bir-ikki kunda chivin bilan oshna bo‘lib ketasan, chaqmay qo‘yadi keyin. Hozir mehmon deb begonasirayaptida.

Beton novda oqib yotgan iliqqina suvga kirib chiqdim-u rostdan ham sal yengil tortganga o‘xshadim. Lekin, fursat o‘tmay tag‘in hammayog‘im qichisha boshladi. Yana suvga tushay deyman-u, qorong‘ida suvning vahimasidanmi qo‘rqaman; ko‘zdan pana, shiyponning orqasida cho‘milmoqda edim.

Shu kecha otam ikkalamiz novning bo‘yidagi pashshaxona tutilgan karavotda birga yotdik. Yotish oldidan otam uyni, ukalarimni bir-ikki og‘iz surishtirdi-da, narigi yonboshiga o‘girilib uxlab qoldi. Charchagan.

Men xiyla zamon bezovta bo‘lib yotdim: tamomi joyim qichishib qo‘ymasdi. Uyimiz, ukalarim esimga tushib, xuddi qishloqdan bugun emas, chiqqanimga talay kunlar bo‘lgandek ularni sog‘inib ketdim. Nega keldim o‘zi bu yerga, chivinlarga yem bo‘lganimi? Qani men kutgan shahar, men orzu qilgan muzqaymoq?

Ertalab uyqudan tursam, vaqt choshgohlar bo'lib qolibdi. Shiyponda Imom bobodan bo'lak kimsa yo'q, hamma dalaga chiqib ketgan. Oyoqlarimni ochib qarab dod deb yuboray dedim: gup-pidek shishgan, qashlayverib kecha boshdan-adoq yara-chaqa qilib tashlabman. Mehmonni rosa siylabdi bachchag'arlar.

Kelganimga battar pushaymon yedim.

Cho'l deganlari haqiqatan ham... cho'l, biydek dasht ekan. Gird-atrofdagi to'rttami-beshta shiypon, olis-olis qartalarda traktorlar gurillaydi. Shu. Yo'q, uzoqda, juda uzoqda baland-baland minoralar, oq uylar ham ko'rinadi. Ana shu shahar bo'lsa kerak!

Imom bobo ko'rsatgan yo'l bilan otam traktor haydab yurgan qartani topib bordim. (Otam betob bo'lib qolgan bir traktorining o'rniga ishlab turgan ekan.) Traktorga mingashib oldim. Otam ikkalamiz tushgacha g'o'zaning ikki yonini chopiq qildik. Buning nomi "kultivasiya" deb atalar ekan. Tushdan keyin otam mashina minib qayoqqadir ketdi, men yana yolg'iz qoldim.

Darvoqe, shtabda Imom bobo ikkalamizdan boshqa yana bir odam bor ekan: Uzoqov. U, kecha qorong'ida men ko'rmagan vagon uychaga kirib olib, ertadan kechgacha cho't qoqib o'tiradi, hech kim bilan ishi yo'q. Imom boboning aytishicha, uch bolasi bilan xotinidan ajrab kelganmish.

— G'ami zo'r buning, — deb shivirliydi chol vagon uychaga ishora qilib. — Osonmi axir, uch bola! Xotini Eshim pason bilan don olishib yurar ekan-da. Erkak odam, vaqtida unday baytalning bo'yini uzish kerak edi.

Qishloqda shunday bir gap qulog'imga chalingandek bo'lgan edi. Shaharbop kiyingan, sochlarini boshiga chambarak qilib, o'sma-surmani quyuq qo'ygan bir xotin avtodo'kon haydaydigan g'arch etikli Eshim pason bilan ko'chada, hammaning ko'z oldida namoyishkorona qo'l ushlab yurganini o'zim ham ko'rganman. "Eshim pasonning-ku kasbi xotinjaloblik, uch bolali bu ayolni qanday shayton yo'ldan ozdirdi ekan? Binoyidek eri, gulday bolalarini tashlab, bu nima sharmandalik?" deb gapirardi ko'rgan-bilgan. "Binoyidek er" deganlari shu Uzoqov ekan-da. Bechora. Mana, alamini endi cho't soqqalaridan olib yotibdi.

Shiyponda tez-tez ko‘rinib turadigan yana bir odam — chorpahildan kelgan, burni ustida tuk o‘sgan shopmo‘ylov Eshnazar amaki. U allaqayoqlardan mashinada oziq-ovqat ortib kelar, kelgan zahoti Imom bobodan “Abrayev qayerda?” deb otamni so‘rar, so‘ng menga qarab: “Zerikmaygina o‘ynab yuribsanmi, dadajon? Biz xesh bo‘lamiz-a, bilasanmi? Abrayev menga bo‘lavachcha, shunday, dadajon”, deya yelkamga qoqib, vagon uychaga — Uzoqovning oldiga kirib ketar edi. Otam uni ko‘rganda: “Ha, Eshnazar shayton, ishlar vangmi?” deb qo‘yadi sho‘xlik bilan. “Unday demang-e, bo‘lajon, — deydi Eshnazar amaki yaltoqlangudek ahvolda. — Biz shayton bo‘lsak ham sizning shaytoningiz. Shaytonlik qilmasak, kechagi go‘sht qayoqdan unar edi?”

Ikki kundan keyin otam meni Boymurod akaning brigadasiga biriktirib qo‘ydi: “Shu akang nima ish buyursa, bajarasan, bo‘ptimi, komosomol?”

Boymurod aka deganimiz o‘sha qiyiq ko‘zli, furajka kiygan kishi edi. U menga deyarli ish buyurmasdi, doim traktoriga mindirib o‘zi bilan u yoqdan-bu yoqqa olib yurardi. Ko‘rgan odamiga meni ko‘rsatib: “Ana, kattaning uli ham shu yerda!” deb qo‘yardi. Ikkalamiz yolg‘iz qolganda, furajkasini boshidan olib yarg‘og‘ini silarkan, iljayib o‘zicha orzu qilardi: “Xudo xohlasa, paxta pilonlar to‘lsa, otangiz sovxozga direktor bo‘ladi, biz — mana shu bo‘limga nachaylik. Shunda ko‘ringda-e ishni!” Keyin chordanana qurib, zavq bilan otamni ta‘riflashga tushadi: Abrayev zo‘r odam, Toshkanddagi zo‘r o‘qishlarni bitirib kelgan, e-e, Abrayevday odam rayonda bitta, yo‘g‘-e, oblastda yo‘q, bo‘lsa, shu o‘zi — Abrayev. Lekin hech omadi chopmadi-chopmadi. To‘g‘ri odam-da, menga o‘xshab. Bo‘lmasa allaqachon, eh-he, direktor, raykom-u ijroqo‘m bo‘lib ketardi. O‘shanda biz ham buytib yurmas edik, a, jijan? Lekin, hech kimga aytmay-siz, otangizning bitta xatosi bor: odam tanimaydi, ko‘ringaniga ishonaberadi. Mana, masalan, Mengliboyni olaylik. Shunga ishonib bo‘ladimi? Shuning qo‘liga davlatning, xalqning pulini berib bo‘ladimi? Borib turgan kazzob-ku u! Etti marta dorning ostidan qochgan muttaham! Ikki marta qamalib chiqqan. Qartaboz, o‘g‘ri. Abrayev bo‘lsa shuni kassir qilib oldi, qo‘liga bir to‘rva pulni topshirib qo‘ygan. Ha, desangiz, buyam odam, odam

bolasi, bir kun emas, bir kun yo'lini topib ketar, bo'lmasa, qayta tarbiyalaymiz, deydi. Uchchiga chiqqan kazzobni qayta tarbiyalab bo'lar ekanmi? Qayta tarbiyalasangiz, yana kazzob bo'lib chiqadi. Zoti past-da. Yo'q, Abrayev o'zinning akam-u, lekin shu ishiga qoyil emasman. Anovi Eshnazar shayton-ku o'nta Mengliboyga birdan dars beradi. Unga omborni berib qo'rgan! G'irt kalamushning o'zginasiga! Yo'q, otangizga qoyil emasman, jiyani. Toshkandlardagi zo'r o'qishlarni bitirgan odam-a!

Men bu gaplarni hardamxayollik bilan o'tirib eshitaman. Mengliboy kim-u Eshnazar shaytoni kim — menga baribir emasmi? O'sha kazzobni hali ko'rganim ham yo'q o'zi.

Esimda, otam cho'lga jo'nashidan oldin bir oqshom uyimizga jez tishli, beliga pichoq osib olgan qandaydir qariya arz bilan kelgan edi. U ko'zlarining selobini oqizib otamga yalingan: shunimiz sal noboproq chiqdi, og'ajon, o'zingiz odam qilib bermasangiz... Iloyim bolalaringizning yaxshiligini ko'ring, mendan qaytmasa, xudodan qaytsin. Uyda gulday xotin, to'rta jo'ja, bu bo'yni uzulgurning yurishi bu. Ha, ha, yaqinda chiqib keldi. Biron ish bilan andarmon bo'lsa, shoyad odam soniga kirib qolsa deyman-da. Yo'q demang, og'ajon...

Boymurod aka aytgan kazzob o'sha cholning o'g'li bo'lsa kerak. Qanaqa odam ekan o'zi u? Hamma "Mengliboy, Mengliboy" deb gapiradi-yu, o'zini sira ko'rmadim-ko'rmadim. Negadir barcha shuni so'raydi, shuni gapiradi: Mengliboy qachon keladi, Mengliboy kelsa, Mengliboy kelgan kun unday qilamiz, bunday qilamiz... Shu yerda ishlasa, qayoqlarda yurar ekan u? Sirli odamga o'xshaydi...

Bekorhilikdan brigadaning ul-bul yumushiga qarasha boshladim. Goho qari-quri ishchilar bilan dalaga chiqib, g'o'zani o'toq qilaman, goho qartalarga suv tarashda ko'maklashaman, goho otam bilan — "kultivasiya". Boshqa paytlar Boymurod akaga mingashib, uning uzundan-uzoq hangamalari ermak, traktorda shiyponma-shiypon sang'iyman. Kechqurunlari ba'zida shatbga kelaman. Imom boboga o'tin yorishaman, qozon-tovog'iga qarashgan bo'laman. Bu yerda bari eskicha: xafagazak Uzoqov cho'tini qoqqani qoqqan, o'sha qarindoshlikka da'vogar Eshnazar amaki, o'sha "dadajon", oqshomlari uzunchoq stolning girdiga yig'ilib olib o'sha masala talashuvlar. Otamning men bi-

lan deyarli ishi yo‘q, ha-ar zamonda: “Ha, komsomol, ukalarini sog‘inmadingmi?” deb qo‘yadi, vassalom.

Chivin deganlari “mehmon”ni rosa siyladi: sog‘ joyim qolmadi. Kechqururlari men ovora, novdagi suv ovora. Bari befoyda. Hammayog‘im puflab chiqilgandek shishib ketgan. Turib-turib, qishloqqa jo‘navoray deyman-u, u yoqda qilgan xarxashalarim esimga tushib, otamdan uyalamani. Gohida olisdagi minoralarga, qavat-qavat uylarga ko‘z tikib xo‘rsinib qo‘yaman: sha-ha-ar!

Kelganimga bir haftacha bo‘lgan edi. Bir oqshom shtabda qovun yeb o‘tirsam, kimdir tepamga kelib, indamay bir karchini olib yeya boshladi.

— Privet! Qalaysan, Alikboy? Zerikmayapsanmi?

Hayron bo‘ldim: atrofda mendan boshqa odam yo‘q edi. Mening otim esa Alisher emas, Alijon ham emas — nega “Alik” bo‘laman?

Boshimni ko‘tarib qarasam — yelkasiga sumka osgan, boshida chapanicha qalpoq, kurak tishli bir kimsa tirjayib turibdi. O‘sha, o‘sha kazzob!

— Shaharga morojniyo‘rlikka olib boraymi?

— Qachon? Qachon? — deya sapchib o‘rnimdan turdim.

— Qachon desang! — Kazzob qo‘lidagi qovun po‘chog‘ini nov tomon irg‘itdi. — Ke, avval tanishib qo‘yaylik. Meni Misha aka deysan...

Misha aka zo‘r odam ekan.

Huv o‘sha baland-baland minoralar ko‘ringan joygacha traktorda keldik. “Alikboy ikkalamizni posyolkaga eltib qo‘y”, dedi Misha aka traktorchiga. Posyolka degani shaharga o‘xshaganroq bo‘larkan-u, baribir shahar emas: hammayoq chang-tuproq, odam ham siyrak; uzoqdangina shaharga o‘xshab ko‘rinarkan, xolos. Muzqaymog‘i ham bo‘lmasa kerak.

Traktordan tushganimiz hamono bizni biqiniga shaxmat aksi chizilgan “Volga” kutib oldi. O‘tirdik. Haydovchisi Misha aka bilan og‘ayni ekan, ismi Jenya. “Poyexali!” deb gazni bosdi. Posyolkasi ham ortda qolib ketdi. Qaydasan, gavjum shahar? Nihoyat, seni ko‘radigan, muzqaymoqlaringga to‘yadigan kun bor ekan!

Yo‘l bo‘yi mashinaning Uzoqov amakining sanoqcho‘tidedek chiq-chiq qiladigan matahidan ko‘z uzmay ketdim. Voy-bo‘, agar shu pulning hisobi bo‘lsa, uni kim to‘laydi? Meni vahm bosdi. Misha akaning tirsagiga turtib, o‘sha yoqqa ishora qildim. U kuldi.

— Otasi nachaylig-u, buning puldan qo‘rqishini qarang! — dedi ermaklab. — Jenya, anaviningni o‘chirib qo‘y, Alikboy ni tashvish bosyapti. G‘am yema, Alikboy, shaharga yetaylik, sen bo‘larsan, biz bo‘larmiz, bir yo‘lini topib Jenyani rozi qilarmiz. Puldan bormi o‘zi, nachaylikning uli?

“Nachaylikning uli”da pul nima qilsin! O‘sha, cho‘lga jo‘naganimda onam qo‘limga tutqazgan uch so‘mgina. Muzqaymoqqa asrab yuribman. Otam bizga pul berib o‘rgatmagan. Misha aka hazillashyapti shekilli, ana tizzasidagi sumka to‘la pul; in-naykeyin, Jenya o‘zining oshnasi ekan-ku!

Mashina shaharga kirib keldi-yu men es-xayolimni yo‘qotdim. Har yonga alanglayman, yo‘l chetidan ko‘kish do‘konchalarni qidiraman. Shu ko‘yi ikki yonida baland teraklar o‘sgan chog‘roq, sokin ko‘chaga kelib to‘xtaganimizni ham payqamabman. Misha aka to‘rvasini ko‘tarib, halloslaganicha o‘ng yoqdagi qo‘shqavatli g‘ishtin binoga kirib ketdi.

U ancha hayallab, yasan-tusan bir juvon bilan boshlashib chiqdi. Juvon shapaloqdekkina oq sumkachani ko‘ksiga bosib kelar, qadam olishlari tamannoli, qosh-ko‘zlari o‘sma-surmadan charaqlab turar, quloq-bo‘yni jaraq-juruq taqinchoqlarga to‘la — jonli qo‘g‘irchoqning o‘zginasi edi.

Misha aka mashinaga yaqinlashib, “oldinga o‘t” ishorasini qildi menga. Apil-tapil oldingi o‘rindiqqa o‘tib o‘tirdim. Juvon mashinaga kirdi-yu nafas olib bo‘lmay qoldi — hammayoq atir hidi. Misha aka uning yoniga joylasharkan:

— Bu bizning bratan — Alikboy, — dedi meni ko‘rsatib. — Bu kishi yangangiz, shaharlik yangangiz bo‘ladilar, Alikboy!

Juvon o‘rindiq osha qo‘sh bilaguzukli bilagini o‘roqdek egib menga qo‘l uzatdi:

— Mayya.

Sehru jozibadan ko‘zlarim qamashib ketdi, shosha-pisha qo‘l cho‘zdim. U, xuddi eski tanishlardek jilmayib, sho‘xlik bilan qo‘limni silkib-silkib qo‘ydi.

Misha aka Jenyani juvonga tanishtirmadi — chamasi, ular oldindan tanish ekan, bir-biriga betakallufgina bosh silkib qo'yishdi.

Yangamiz ko'zimga issiq ko'rinardi. Qishloqda o'tgan bir to'yni esladim. Davraga chiqib o'ynagan raqqosa tus mana shu yangamizning o'zginasi edi. Qarang, kimlar bilan tanishdim-u kimlar bilan yuribman!

Mashinamiz yo'lga tushdi. Gavjum ko'chalar bo'ylab aylanib, yam-yashil majnuntollarga ko'milgan so'lim bir manzilga yetganda qo'nim topdik.

Oldi moydan qorayib ketgan kalta xalatli oqsoq yigit hakkalab kelib eshikni ochdi:

— E Misha aka, yuz so'mlik bo'lib ketdingiz-ku, aka! Qaniqani, tushingizlar. Qadamlariga hasanot!

U bizni jimjimador zinapoya bilan girdi panjarali xushhavo ravonga boshlab chiqdi. Sahnda bir nechta stol-stul mehmonga muntazir turar, ammo burchakda iyak tirab o'tirgan ko'k peshgiri ikki ayoldan boshqa odam yo'q edi. To'rdan tuzab qo'yilgan stoldan joy oldik. Boyagi ayollar xuddi atay bizga ko'z tikib o'tirgandek jonsaraklik bilan yugura-yela xizmatga kirishib ketishdi. Bular ham Misha akaning qadrdonlari ekan, biri jilmayib turib ahvol so'rasa, biri uning egnidagi gard-gurdni termoqqa ovora. Yangamizga esa negadir iltifotsizroq nazar tashlab qo'yishdi. So'ng unga zimdan suqlanib-qizg'anib tikilishlarini sezdim.

Bizni boshlab chiqqan yigit birpasda zipillab hil-hil kabobini ko'tarib keldi. Jonon ziyofat boshlandi.

Panjara tarafda yangamizga suykilib o'tirgan Misha aka qadahlarga ichimlik quyilgandagina meni eslab qoldi:

— Alikboyga-chi? Alikboyga — morojniy, topdimmi?

Topganda-chi!..

Haligi ayollardan biri, Jenyaning “menga kerakmas” deganiga qaramay, to'rt kishiga ikki hissadan qilib ko'tarib keldi-ku! Yashang, Misha akajon! Shu choqqacha qayerda edingiz! Cho'lda yuraverib tomoqlarim chatnab ketdi-ku!

Boshqa taomlariga qiyo boqmay, muzqaymoqqa yopisha ketdim. Rohatijonmisan, rohatijon!

Qornini to'ydirgach, “Soat sakkizlarda kelaman”, deb Jenya ketdi. Uchalamiz qoldik. Oldimizda mo'l-ko'l noz-ne'mat,

har xilidan uch kishiga emas, olti kishiga yetgulik, dastyor yigit kabobni peshma-pesh yangilab charchamaydi; havo salqin, musaffo, pastdagi maydonchada vishillab favvora otilib turibdi; oldimda xohlaganimcha muzqaymoq, ro‘paramda mehribon Misha akam-u oypari yangam, shoshayotgan joyimiz yo‘q. Tag‘in nima kerak menga? Yurgan ekanman-da cho‘l-u biyobonlarida ahmoq bo‘lib!

Misha akam yangamizga parvona, og‘zidan chiqqanini muhayyo etib turibdi. Oshiq-ma‘shuq bir-biriga suykaladi, goho men tushunmaydigan, nazarimda, men-ku men, ikkalovidan boshqa olamda hech kim tushunmaydigan ajab-ajab gaplar qilishadi. Misha akam dam-badam yangamizni quchib qo‘yadi. Mening ko‘z oldimda, tortinmay. Shunda menga sirdoshlarcha ko‘z qisadi. Men ham ularning siriga sherik bo‘lganimdan marsinib, javoban ko‘z qisaman. Yangamiz mening oldimda o‘zini oqlamoqchi bo‘libmi: “Alijon yaxshi bola ekanlar”, deya boshimni silaganida, bu gap go‘dak bolaga popukqand tutqazib avrash bilan barobar ekanini sezib tursam-da, og‘zimdagi muzqaymoqqa qo‘shilib erib ketay deyman.

Jenya aytgan vaqtida yetib keldi. Men taltayib oldingi o‘rindiqda, Misha akam bilan yangam orqada — achom-achom, shahar bo‘ylab kechki sayrga jo‘nadik. Mashina dimiqqan ko‘chalarni ortda qoldirib, hur-hur shabada esib turgan dala yo‘liga chiqdi. Ko‘p yurmay, ufqni to‘sib turgan bir tepalikka ko‘tarildi. Shu yerda mashinadan tushdik. Qo‘llarimiz ko‘zimizga soyabon, kechki shafaqda yalt-yult tovlanib oqayotgan azim Amudaryoni tomosha qildik. So‘ng Jenya yelkamga qo‘l tashlab meni uzoqda qorayib turgan qadimiy vayronalar tomon boshladi, Misha akam bilan yangamiz esa qo‘ltiqlashib boshqa tarafga ketishdi.

Daryo pastdan ham, yuqoridan ham bir xilda ko‘rinar ekan: qontalash mavjlar bir-birini quvlashgani quvlashgan...

Daryo sayridan qosh qorayganda qaytdik. Jenya bizni boyagi ikki qavatli g‘ishtin imorat oldida qoldirib, saharlab kelishga va‘da qildi-yu mashinasini yeldirib jo‘nadi.

O‘rtadagi dorlarga qator-qator choyshablar osib tashlangan, qayerdadir krandan suv sharillab turgan gird-tevaragi ochiq bir hovli orqali binoga kirdik. Qorong‘i yo‘lakda turtina-surtina ikkinchi qavatga chiqarkanmiz, akamiz shu yerda ham sho‘xligini qo‘ymadi shekilli, yangamiz istig‘noli ohangda jerkib berdi:

— Muncha besabrsiz-a! Birortasi chiqib qolsami...

U sumkachasidan shiqirlatib kalit oldi-da, eshikni ochdi.

Umrim bino bo‘lib men hali bunaqa serhasham uyni, bunaqa qiyomat jihozlarni ko‘rmagan edim. Og‘zim lang ochilib qoldi. Ikki xona. Devorlarda yal-yal gilamlar, barra yungidan qilingan momiq g‘ilofli divan-u kreslolar, yaltirama shkaf-u servant, har xonada bir nechtdan ko‘zgu, dimoqni oladigan quyuq iroqi sovun hidi...

Yumshoq kreslolarga cho‘kib, xontaxta ustida turgan kamalak tusida tovlanuvchi burama vazadagi shokolad bilan choy ichdik. Keyin Mayya yangam: “Alikjon charchagandirlar, yotib dam-larini olsinlar”, deya chaqqonlik bilan chiqib qo‘shni bo‘lmadagi divandan menga joy qildi. Aslo charchamagan bo‘lsam-da, shirin sulukatlardan iyib, noiloj narigi xonaga o‘tdim, oppoq, badan yayraydigan silliq choyshabli o‘ringa kirdim.

Misha akam vannaxonada suvni sharillatib yuvinish bilan band. Mayya yangam xonama-xona polni g‘ijirlatib allanima yumush qilib yurgan edi, dahlizda telefon jiringlab qoldi. Trubkani olgan uy egasi kim bilandir avvaliga muloyimgina salomalik qildi-yu, sal o‘tmay zarda aralash o‘shqirdi: “Net! Yo‘q, deyapman-ku, musulmon! Bo‘pti, bo‘pti! Endi bu yerga telefon qilmang!” Trubka shaq etib joyiga qo‘yildi. Yangamizning kinoyali nolasi eshitildi: “Tavba! O‘zlari xudo urgan bir mirqurug‘-u, dag‘dag‘alari olamni buzadi”.

Suvning sharillashi tindi. Qo‘shni xonadagilar, mening qulog‘im dingligidan bexabar, baralla so‘zlasha boshladilar. Chamasi, eshikning og‘zidagi divanda o‘tirishibdi, gap-so‘zlar bemalol quloqqa chalinardi:

“Toshkentgami, Samarqandga?”

“Farg‘onaga boramiz!”

“Nega endi imenno Farg‘ona?”

“Anaqa shunaqa, jonginam, imenno Farg‘onaga!”

“Qora dengiz-chi, Qora dengiz nima bo‘ladi?”

“Qora dengizi qop-qorayib yotaversin, biz-chi, Farg‘onaga ketamiz, haymi?”

“Yo‘q, oldin...”

Yotib-yotib diqqatim oshardi: nega endi shunday oypari juvon kelib-kelib kurak tishli, ittumshuq Misha akamizga xushtor

bo‘lib qoladi? O‘zimcha rashk qila boshlaganimda qo‘shni xonada nimadir gup etdi, yengilgina shapati tovushi eshitildi, keyin yangamizning nozli e‘tirozi: “Tish-sh! Bola uxlasin...”

Bola qachon uxlab qolganini o‘zi bilmaydi. Qora dengiz bo‘ylab sayr qilib yurganmish. Yonida Misha akasi-yu Mayya yangasi. Qirg‘oqdagi mavjdan hosil bo‘lgan ko‘piklarni kaftiga olib tatib ko‘rsa, muzqaymoq emish...

Mashinaning cho‘ziq signalidan uyg‘onib ketdim. Eshikdan hammayog‘i — ko‘kragi, yelkasi-yu bilaklarigacha har turli ko‘kimtir tasvirga to‘la maykachan Misha akam bosh suqdi:

— Alikboy! Tur, uka, ketdik!

Orziqib kutilgan shaharga sayohatim poyoniga yetgan edi. Xayr, sevimli shahar! Xayr, rohatijon muzqaymoq!

Otam meni ko‘rib qovog‘ini uydi. Shiypon biqinida ketishga shaylanib turgan yuk mashinasiga ishora qilib, “Chiq!” dedi. Boshqa gap aytmadi. Fe‘li shunaqa: cho‘rtkesar, ortiqcha gapni xush ko‘rmaydi. Lom-mim deyolmadim. Qilmishimga yarasha!

Qishloqqa qaytdim.

Yana o‘sha qishloq, yana o‘sha zerikish, shaharni, muzqaymoqni qo‘msash... Shaharda kezganlarim, muzqaymoqqa to‘yanlarim, Misha akam, Mayya yangam — hammasi bir tushga o‘xshab qoldi.

Baxtinga, hademay kuz keldi. Paxta terimi boshlandi. Biz, maktab o‘quvchilari, pastdagi paxtakor rayonlarga hasharga jo‘nadik. Borib tushgan joyimiz otamning bo‘limiga qarashli yerlarga tutash ekan. Bundan xabar topgan otam bir oqshom traktorda kelib, muallimlarim bilan nimanidir maslahatlashdi-yu meni olib ketdi.

Boymurod akaning brigadasida paxta terib yuribman. Uzoqovning Nabi degan men tengi o‘g‘li ham shu yerda. Ikkovlon egatni yonma-yon olib musobaqa qilamiz. Har doim men g‘olib chiqaman. Lekin hafta oxirida Nabiboyga katta-katta pul tushadi, bizga shamataloq ham yo‘q. “Nega bunday?” desam, Boymurod aka kulib: “Otangizning buyrug‘i shu, polvon. Hammasini bir qilib, yoppabarakasiga sezon oxirida olasiz”, deydi. Bu gapni otamga arz etgan edim, “To‘g‘ri aytibdi. Terimdan topgan pulingga o‘zingga yaxshi bir palto olib beramiz, qishda maza qilib

kiyasan. Kelishdikmi, komsomol?” dedi. Mening bo‘lsa es-xay-olim shahar-u muzqaymoqda edi.

Misha akani kamdan-kam, maosh kunlaridagina ko‘raman. “Privet, Alikboy! Qalay, shahar borasanmi?” deydi-yu, javobimni ham kutmay shosha-pisha pulni tarqatib, to‘rvasini yelkalab jo‘nab qoladi. To‘g‘ri, u meni tag‘in bir marta shaharga olib tushdi. Ammo bu gal Jenyani ham ko‘rmadim, Mayya yangamni ham. O‘ziyam zud borib, zud qaytdik. Uzoqov amaki ham birga edi. Ikkovlari qandaydir idoraga kirib ishlarini bitirib chiqquncha men tolning soyasida muzqaymoq yeb o‘tirdim. Muzqaymoqqa to‘yib qaytgan bo‘lsam ham, to‘g‘risi, bu galgi safardan unchalik ko‘nglim to‘lmadi. Misha akaning o‘zi ham negadir parishonroq ko‘rinardi.

Qavs kirdi, havoda mezonlar quyuqlashdi. Ertalablari sovuq bo‘lar, kechga borib g‘uborning zo‘ridan tevarak-atrofnini ko‘z ilg‘amay qolar edi. Terim oxiray boshlagan. Ana shunday kunlarning birida Boymurod aka shtabdan hovliqib keldi.

— Men senga nima degan edim! — dedi meni chetga tortib. — Anovi kazzob qochibdi! Bir sumka pulni orqalabdi-yu qochibdi-ketibdi. Yaxshi ko‘rgan Misha akang! Ana endi otangning ahvolini ko‘r! Buncha pulni qayoqdan topib beradi? O‘zi bir nonyemas, oriyatli odam bo‘lsa, buyoqda sizlar... “Milisaga xabar qilaylik”, desak, anoyi otang nima deydi-ya: “Shoshmay turaylik, balki o‘zi kepqolar. Uning ham axir bola-chaqasi bor, u ham odam. Yana qamalib ketsa, qishloqdagilar nima deydi? Abrayev cho‘lga obborib, qamatib yubordi demaydimi?!” Bu gapni qarang! A, qamasin, unday muttaham o‘g‘rining joyi o‘sha yer — qamoq! Eh, Abrayev aka-ey, Abrayev aka-ey!..

Boymurod aka o‘zi vahimachiroq. Misha akaga azaldan bir keki ham borgan o‘xshaydi, nuqul uni yomonlagani yomonlagan. Baribir, ko‘nglimga vahima tushib, bor gapni bilish uchun oyog‘imni qo‘limga olib shtabga yugurdim.

O‘sha uzun kengash stolining yon-verida uch-to‘rt kishi tashvishmand o‘tiribdi. Uzoqov, jiyagi yirtilgandek doim ko‘zlari qizarib turadigan cho‘tir mexanik, to‘rtinchi brigadaning boshlig‘i Ismat soqov, yana menga notanish, shu atrofda o‘ralashib yuradigan traktorchi yigit. Imom bobo nariroqda, choponi bar-

larini to‘shancha qilib yerga cho‘kkalagan. Uzoqov davraga chamasi yaqinda kelib qo‘shilgan mexanikka ma’ni-dod qilyapti:

— ...Boya ketdi, prokuror chaqiribdi.

Shu gapni eshitib uch-to‘rt qadam berida serrayib turib qoldim. Boshqasi qulog‘imga uzuq-yuluq chalindi:

— Buning ustiga, “bo‘la, bo‘la” deb yurgan anovi qasamxo‘r ham bir dunyo ig‘vo bilan sovxozga chopib yurganmish. Ilon-da.

— ...Nima bo‘lardi, bir-ikki yil bersa kerak... Anovi nomardning bo‘lsa qayoqqa qochganini hech kim bilmaydi.

Daf‘atan menga ko‘zi tushib, mexanik ma‘nodor tomoq qirib qo‘ydi. Hamma menga zimdan boqayotganini sezdim. “Anov nomard” mening muzqaymoqqa, paltoga atab yurgan pullarimni ham olib qochgan! Qayoqqa qochganini ham bilaman: Farg‘onaga! Lekin Farg‘ona katta shahar bo‘lsa kerak.

Ilkis joyimdan yulqinib, novdan sakrab o‘tdim-u yaydoq dashtga qarab yugurib ketdim...

Otam, Boymurod aka orzu qilganidek, direktor bo‘lolmadi. Shuncha mehnati suvga oqib, “ishni to‘g‘ri tashkil etolmagani hamda paxtakorlarning haqiga ko‘z olaytirgani” uchun vazifasidan bo‘shatildi. Bekor qoldi. Paxta planlari bajarilsa, egasining qo‘yni-qo‘nji to‘lib kirib kelishini kutgan xonadon yana boyagi-boyagi quruq non kavshab qolaverdi. Onam shunisiga ham shukur qiladi. “Hayriyatki, otaginangning o‘zi omon qoldi, bolam, bo‘lmasa, holimizga maymunlar yig‘lardi, — deydi ko‘ziga yosh olib. — Baxtimizga, Dir-dir bobo bor ekan, shu bo‘lmasa, men sho‘rlik sen sakkiztang bilan qaysi eshikka bosh urib borardim?!” Dir-dir bobo — qo‘shnimiz, yirtiq-yamoq kiyib, muttasil isitma tutgandek qalt-qalt uchib yuradigan uvolgina chol. Otam bilan onam kechalari mijja qoqmay nimaningdir maslahatini qilib chiqishardi. Nihoyat, bir qarorga kelib, ana shu choldan kattagina qarz ko‘tarildi-yu sovxoz bilan hisob-kitob qilindi. Onamning aytishicha, xudo Berdiyrovga insof beribdi, ishni shu yo‘l bilan bosti-bosti qilib yuboribdi. Agar kojligi tutib yomonlikka olganida, otam kamida besh-olti yilga kesilib ketar ekan. Haliyam odamlarda rahm-shafqat bor emish. Anovi noming o‘chgurdan esa hamon darak yo‘q, qaysi go‘rga ketgani noma‘lum. Qari otasi kunora qiyig‘iga to‘rtta olma tugib, otamning oldiga yig‘lab keladi: jon Abrayevjon, milisa bilmasin; bilsa, u juvon-

margni topib, tag'in necha yilga kesib yuboradi, bolalariga jabr bo'ladi... Bizga-chi, bizga jabr bo'lmadimi? Qiyig'ing uchida sen ko'tarib kelgan to'rtta olma, yeyman deb turgan sakkiz og'izga nima bo'ladi? Cholning oldida "shunday, shunday, bob-
ojon", deb o'tirgan onam, u ketgach, ana shularni aytib nola qiladi, qarg'anadi. Keyin, o'tirib-o'tirib himmatli odamlarning boriga shukrona o'qiydi. Cho'ldan kelganidan beri battar tund, tajang bo'lib qolgan otam esa haftalab uydan chiqmaydi, boloxonaga biqinib olib, ana shunday himmatli odamlardan biri — institutda sirtidan o'qiydigan sovxozning bosh buxgalteriga yozma ishlar tayyorlab berish bilan ovora. Evaziga ikki qop bug'doy va'da qilganmish...

Men onamdan yashirincha mehmonxonaga kirib, otam Toshkentdan olib kelgan fotoalbomni varaqlayman. Suratlarda — boshida shlyapa, bo'ynida galstuk, bashang kiyingan otam! Nahot shunday odam bugun kelib, qiltillab zo'rg'a yuradigan bir sassiq cholning puliga dar qolib o'tirsa?! Darvoqe, hech qayerda o'qimagan, umrida bo'yni galstukni ko'rmagan bu g'aribgina chol shuncha pulni qayoqdan oldi ekan? Onam tushuntiradi: "Yemay-ichmay o'limligiga yiqqan-da, bolam. Mana, endi biz uni "Iloyim o'lib qolmasin", deb iltijo qilib o'tiribmiz. Xudo urib bir balo bo'lib qolsami, ana unda otangning ahvolini ko'r..."

Qishda tag'in o'sha eski, yangi tirsagimga kelib qolgan paltom bilan yurdim. O'tgan yiliyoq unga ko'z tikkan ukam ham dog'da qoldi. Shu tariqa sakkiz bola qishni eski-tuskilarimizga o'ranib o'tkazdik.

Ochlig-u yupunlikdan o'ladigan zamonlar o'tgan ekan, hammamiz ham o'zimizga yarasha odam bo'lib yetishdik.

Birovlarning aytgani keldi. Rayonimiz qayta tiklandi, keyinroq shahar bo'ldi. Endilikda kengaytirilgan markaziy ko'chaning bir tarafidagi ko'kish do'konchada muzqaymoq sotiladi, bir tarafida — qip-qizil sharbatlar. Lekin, menga o'xshagan bitta-yarimta shirinlikka o'ch bola-baqrani aytnasa, kattalarning bunga ishi yo'q. Ular quvur suvidan qonib-qonib simirishadi-yu, "bir vaqtlar ariqlarda sharqirab oqqan "obizamzam"ni qo'msashadi.

Men bolalikda shaharsevar edim — shaharlik bo'ldim. Umrinning yarmidan ko'prog'i o'sha murg'ak tushlarimda ham

koʻrmagan qiyomat shaharda oʻtmoqda. Meni shaharga chorlagan ilk rishtalardan biri muzqaymoq ekanini esa hamon unutmayman, biroq unga oʻgirilib qaramayman. Endi bolalarim “Muzqaymoq olib bering”, deb xarxasha qilsa, kulaman, “Muzqaymoq esang, tishing ogʻriydi, innaykeyin tomogʻing ogʻriydi, innaykeyin — angina, innaykeyin — oyoqogʻriq boʻlasan”, deb ularni qoʻrqitib koʻraman. Lekin bu poʻpisalarga parvo qilish qayoqda!

Mana, boya aytganimdek, umrning yarmidan koʻpi shaharda kechyapti. Ota yurtimga — mitti makonimga otpuskalardagina boraman. Shunda koʻcha-koʻyda uchragan yor-doʻstlarim muzqaymogʻu sharbat doʻkonlarini chetlab oʻtib, meni qoʻyarda-qoʻymay, markazda qad rostlagan obodgina “Chinor” restoraniga sudrashadi. Kirib, boqqa qaragan deraza tagidagi shinnam burchakdan joy olamiz. Odam yigʻiladi. Tanish-bilishlar. Salom-alik. Bir mahal narigi burchakda oʻziga oʻxshagan chapani ulfatlari bilan qizishib oʻtirgan Mengli aka asta turib bizning stolimizga keladi. Men bilan chin dildan, begʻaraz quchoqlashib koʻrishadi. Soʻng bir chetdan joy olib, oʻtirganlarga gap uqtira boshlaydi: “Bu kishi bizga uka boʻladi. Oʻzim koʻtarib katta qilganman. Gapim yolgʻon boʻlsa, ana, oʻzlari aytsinlar. Bu kishining otalariyam zoʻr odam, hamma gap otada!” “Ha, ha, — deyman kulimsirab, — shunday, toʻgʻri aytyaptilar...” Nega-dir shunda qirq yamoqqa oʻranib dunyodan oʻtgan qadimiy qariya — joyi jannatda boʻlsin! — Dir-dir bobo koʻz oldimga keladi.

Dir-dir bobo... Otam... Zoʻr odam... Dunyo qiziq.

Dir-dir boboning olamdan oʻtib ketganiga talay yillar boʻldi, fotihasiga ham borolganim yoʻq. Bu odam esa hamon qarshimda — yuzlari yaltillab, xuddi oradan hech gap oʻtmagandek, bandasi kechagi kuni-yu bor xotiralaridan paqqos mosuvo etilgandek, shunga ishonibmi, menga gap maʼqullatib oʻtiribdi...

Darvoqe, men unga nima ham deya olaman? Oradan shuncha yil oʻtgan boʻlsa! Oʻsha gaplarni badxotirlik bilan eslab yurishga hojat bormikan endi? Lekin baʼzi narsalar aslo yoddan chiqmas ekan...

...Novdan sakrab oʻtdim-u yaydoq dashtga qarab yugurib ketdim. Qancha chopganimni bilmayman. Bir mahal qarasam — baland bir qumtepaning ustida turibman. Bir yon gʻoʻzapoyasi

qorayib yotgan paykallar, undan nari qiziriq dasht. Uzoqda sovxoz markazi: baland minoralar, oppoq-oppoq uylar... Undan nari — shahar! Quyuq daraxtlarga ko‘milgan soya-salqin ko‘chalar, ko‘cha bo‘ylaridagi ko‘kish do‘konchalarda peshgir tutgan xushmuomala xolalar, yam-yashil majnuntollarga ko‘milgan shinam, xushhavo manzil, Misha aka, Mayya yanga... Tomog‘im qaqrab ketdi, issiq bir nima lablarimni jizillatganini sezdim.

Birov meni chaqiryaptimi?

Nabi ekan. Qo‘lida qog‘ozga o‘ralgan allanima, men tomon shoshib kelyapti. Yaqin kelganida qo‘liga urib yuboraman, yerga tushib atalasi chiqadi. Muzqaymoq, menga atalgan muzqaymoq. So‘nggi muzqaymog‘im...

1986

PIYODA

Bu o'rtada kim yomon desangiz — Berdiboy yomon! Berdiboy bemehr, Bediboy otabezori, onabezori, Berdiboy ukalarini xushlamaydi, ularga yov, ota uyidan ham qochgani qochgan — yomon-da Berdiboy! Nomi yomonga chiqqan. Azaldan. Eskilik sarqiti u. “Hoy, shoshmanglar, birodarlar, unchalik emasdir-ov, nima, enasi buni yomonlikka tuqqanmi, buniyam ko'nglida biron dardi-da'vosi bordir, aytsin, eshitaylik!” dey-digan mardumi musulmon qayda! Alam qilar ekan: axir, u ham odam, shu zamonning odami, shu havodan nafas oladi, ikkita munchoqdek-munchoqdek qizalog'i bor; birovdan kamdir, birovdan ziyod ro'zg'or qilsa, hech kimdan non-osh so'ramasa, ba'zilarga o'xshab piyoda yurmasa — eskiroq bo'lsa hamki, mayli-da, tagida uch oyoqli ulovi tayyor! Faqat, faqat...

Mana, u odatdagidek, bozor-o'charini kajavaga joylab, endi motosiklini o't oldirmoqqa chog'langan edi, kimdir chaqirib qoldi:

— Ho'v Berdiboy!

Ukasi, to'rtinchi sinfda o'qiyotganida tug'ilgan, o'n yoshlar kichik bir tirmizak — Samandar; qavatida o'ziga o'xshash ikkita shotiri, yuqori guzardan velosiped surib kelyapti.

Berdiboy yonbosh bo'lib motosikl egariga suyanarkan, g'ijindi: “Parda Qurbonning tarbiyasi-da!”

— Sanam o'qishga ketyapti! — dedi Samandar shaytonaravasidan tushar-tushmas, bir oyog'ida hakkalab.

— Suyunchi beraymi shunga?!

— Toshkentga! — Samandar battar g'ashiga tegmoqchidek tirjaydi.

Berdiboy g'azabini yashirolmadi:

— Otang-chi, Parda Qurbonning o'zi-chi, o'qishga bormas-mikan u?!

— Otam supada eski kitob o'qib o'tiribdi, — deb javob qaytardi bola parvo qilmay.

— O'qisin, ko'proq o'qisin — imoniga foyda!

Berdiboy motosiklini tarillatib bozor darvozasidan chiqdi-yu, katta ko'chada qatorlashib o'tayotgan mashinalar bahona, ikkilangancha turib qoldi. Nihoyat, bir qarorga kelib, bundan uch oy avval "qaytib qadam bossam!.." deya qasam ichib ketgan uylari tarafga soldi yo'lni.

Bostirma tagida, bo'yin-boshini kattakon eski sholro'mol bilan tang'ib, qo'lida rapida, ikki yuzi tandirdan yangi uzilgan kulchadek qizarib-bo'g'riqib non yopayotgan onasi uni:

— Ebi, o'zimdi sahroyi ulimmi? Araz-durazing arib-tarqab keldingmi, bolam? — deya, yaxshi tanimagan bo'lib chap kaftini peshonasiga soyabon qilgancha, kulimsirab qarshi oldi. — Ke, ke. Qizginalaring chopib-chopqillab yuribdimi? O'zingdi tan-joning sog'mi? Oyro'zingdi vaqti xushmi? Tiniq kampir qalay? O'tirgandir keng yaylovda kengash qurib?

— Yaxshi, hammaginasini yaxshi, oy kulganday! — dedi Berdiboy sabrsizlik bilan. — Bu, Sanamingiz o'qishga ketarmish, deb eshitdikmi, apa?

— Uzangi shaylab turibdi-ku, akasi, bilmasam. Shunga to'rttagina kulcha qilib beray, yo'lda yeb ketar deb, mana, ertalabdan beri sabil qolgur tandirga bosh suqib yotibman.

— Toshkent deganlari anoyi shahar emas, apa...

— Nima qilay? Yo'liga xoda solay desam, bu qilobining fe'lini bilasan, keyin uyda qolib suyagimni oqartiradi. Qo'y, ulim, sen aralashma, borsa borsin, o'qisa o'qisin! Binoyiday bitirib kelayotganlar kammi! O'ziga insof bersin, de. Zamonasi ekan, nachora! Mana, o'qimay men nima bo'ldim? Kunim — kir yuvish-u non yopish!

— Apa-a, Toshkent katta shahar, deyapman!

Bu safar onadan sado chiqmadi. U indamay, birin-ketin tandirdan uzgan patirlariga kosadagi suvdan sepib, nariroqqa — yirtiq dasturxon to'shlagan xontaxta ustiga qalashtirib tashlayverdi.

— Ha, avval borib anov odam bilan so'rash, — dedi bir mahal.

Samandarning aytgani to'g'ri chiqdi: Parda Qurbon uzumlarini chumchuq cho'qib bitirgan ishkom tagidagi supada, po'stakni chappa tashlab, qansharida ko'zoynak, xirmondek bo'lib kitob mutolaa qilib yotardi.

— E-ha, Berdiboy, — deya og‘ir qo‘zg‘alib, istar-istamas qaddini rosladi u. — Keling. Bolalar yuribdimi? Momangiz damlimi?

— O‘tiribdi. Eski kasali — kechasi oyog‘i og‘riydi.

— Ihm, ihm. Cho‘rt, borish kerak ekan-da bir.

Koshki bu odam bilan tuzuk so‘rashib bo‘lsa, so‘zlashib bo‘lsa! Yuz og‘iz gapirsangiz ham javob shu — “Ihm, ihm. Cho‘rt, cho‘rt”.

Nimadan so‘z boshlashni bilmay Berdiboy beixtiyor to-morqaga nazar soldi. Qarovsiz, hammayoq qarovsiz! Olmalar-ning tagi yumshatilmagan, shoxlari sinib, mevalari yerga to‘kilib yotibdi — molga yem. Devor tagida o‘sgan ikki tup anor — beboshbog‘ gangib yurgan ikki qo‘tir echkiga tayyor ermak. Hovliga tutash keng sayhon suvsizlikdan tors-tors yorilib, ajriq-zorga aylangan...

— Anovi yerni chopib, biron nima ekish kerak edi, — dedi Berdiboy azbaroyi gapni yurishtirib olish maqsadida.

— Ihm, chopish kerak, ekish kerak, — deya ma‘qullab qo‘ydi ota.

Kim chopadi, kim ekadi? Erkashotirlari har yoqqa to‘zib ketgan, boyagidek ko‘cha changitib, noma‘qulning nonini ko‘zlab yuribdi. Bir umr cho‘t qoqqan odamning o‘zi bo‘lsa, endi mana, muk tushganicha eski kitoblarni hijjalab yotibdi — oxiratning tashvish-u hisob-kitobi bilan mashg‘ul, bu dunyoni suv bossa bosaversin! Erta bir kun boshiga salla o‘rab, soqolini ko‘kragiga tushirib namozxonlar qatoriga kirsa ham ajab emas. Anov boloxonada ulfati Barot Qosim bilan bir yonboshlaganda yarim qo‘yning go‘shini-yu necha-nechalab shishaning tusini o‘chirgan davrlari esida yo‘q...

— Ota, bu Gulsanam... — deb g‘udrandi Berdiboy.

— O‘qishga ketyapti u. Toshkandga, — dedi Parda Qurbon kitobidan ko‘z uzmay.

Shoshma, g‘urur bilan aytdimi shu gapni?

— Maylimi? O‘zi boshyalang yurardi...

— Boshyalang? Qachon? Yo‘g‘-e, Berdiboy, unday de-mang!

Bu yog‘ini pardoqlab o‘tirmadi Berdiboy — borini tiliga chiqardi-qo‘ydi:

— Er bo‘lsa shu yerdan ham topilar edi...

Ota ajablangan kabi unga bir o‘qraydi-yu, indamadi, tag‘in kitobiga egilib oldi.

— Berdiboy, o‘zingizning singlingiz-a!.. — dedi saldan keyin.

Nos yaxshi-da bunday paytda, tilning tagiga tashla-ab, karu gung bo‘lib o‘tiraverasiz! Aytgichingizni bo‘lsa aytib oldingiz!

— Mana men, akajon!

Berdiboy yalt etib ayvon tarafga qaradi. Deraza tagida yotib hamma gapni eshitgan chog‘i, panjaraga suyanganча, hech narsadan tap tortmaydigan bir vajohat bilan sho‘x-shaddod Gulsanam turardi. Boshyalang! Ana, ko‘rdinglar, musulmonlar, aytmabmidim!

— Yo‘l bo‘lsin, singlim? — dedi Berdiboy nosini tupurib.

— Toshkentga!

— Toshkentda pishirib qo‘ygan ekanmi?!

— Sizga sallalik, Oyro‘zi chechamga paranjilik opkelmoqchiman!

— Xo‘sh, qanday o‘qishga ekan? — dedi Berdiboy uning kesatig‘ini eshitmagandek, atay merovsirab. — O‘qib kim bo‘lasiz endi?

— Xudojnik-modeler! Bichiqchi rassom.

Bu so‘zlarni Gulsanam shunday ohanjamali talaffuzda, shunday burab aytdiki, tilginasini sug‘urib olgisi keldi Berdiboy.

— Devor ag‘nasa, ichkari ag‘nasin, — dedi maqol-matal-siz gapirmaydigan ona tandir boshidan turib orachi-murosachilikka tusharkan. — Mayli, akasi, o‘zimizdan ham chevar chiqsin-da. Bir ko‘ylak tiktirish — falon pul! Kelib xotiningga, qizaloqlaringga chiroyli-chiroyli narsalar tikib beradi.

— U yoqda kimnikida turasan? — deya so‘rog‘ida davom etdi Berdiboy.

— Kimnikida bo‘lardi, akam-chi, Muzaffar akamnikida!

— Ha, xudo uribdi!

— Bu nima deganing, ulim! Bir qorindan chiqqan ukanga-a! — dedi onasi supaga yaqinlashib. — Uyat bo‘ladi. O‘zingnikini yomonlasang, yotning mehri qochadi, deydilar. — U qo‘lidagi ko‘pchib-singib pishgan nondan bir chimdim uzib og‘ziga soldi-da, chala yozig‘liq dasturxon ustiga qo‘ydi: — Ol, nondan ol.

— So‘ng Gulsanamga o‘girildi: — Sen, qiz, bunday aytishib o‘tirguncha, kirib taraddudingni ko‘r! Akangdi odatini bilasan: Tiniq kampir di o‘gitini yeb, o‘gitini ichib katta bo‘lgan bu sahroyi ulim!

Yo‘q, Gulsanam zahrini so‘nggi tomchisigacha to‘kmasa, naq o‘lib qolardi!

— Siz, aytaymi... — dedi u Berdiboyga chaqchayib qarab, — o‘tgan asrdan qolgan odamsiz, akajon!

— Bo‘pti! Bu zamonda akalik qolmabdi, ukalik qolmabdi. Buni surishtirmoqchi bo‘lgan odam o‘tgan asrga qaytishi kerak ekan, bo‘pti, qaytamiz! — dedi Berdiboy g‘aribnolalik bilan. — Otang rozi, enang rozi, biz nima der edik, singlim? Biz bu uydan etak silkiymiz-u chiqamiz-ketamiz-da!

— O‘tir, o‘tir! Qo‘zilaring qo‘lingga qaraydi, ikkita issiq patir o‘rab beray, — dedi onasi kiftidan bosib. So‘ng yarim hazil, yarim chin ohangda ginaxonlik qildi: — Doim kelib uyimga bir g‘avg‘o solib ketasan-a, ulim? Hah, sening kindikkinangdi kesgan kampir di kapaginasi kuysin!

“Kindikkinangdi kesgan kampir...” Momamni aytyapti. Yoqtirmaydi, o‘lgudek yomon ko‘radi uni. Kelinligida ko‘p sitam o‘tkazgan emish-da. Shu yalmog‘iz kampir dan qutulay, ham ota-onamga yaqin bo‘lay, deya qistayverib, axiyri, shahardan uy-joy qildirgan otamga. Biz bo‘lsak qolaverganmiz u yoqda — yolg‘iz kampirning qo‘lida, “yalmog‘iz” kampirning qo‘lida... sahroyi bo‘lib, o‘gay bo‘lib! Endi bular — shaharlik! Endi bularning oti — Muzaffar-u Samandar, Gulsanam-u Gulandom! Bizniki bo‘lsa... Berdi, Berdiboy! Kim b e r d i, n i m a berdi, nega?.. Endi apam bu yerni “uyim, mening uyim” deb gapiradi. Parda Qurbon bo‘lsa miq etmaydi, “ha, uying, sening uying” degandek, quloq qoqmay o‘tiraveradi. Chunki ro‘zg‘orning tizgini, jami bordi-keldisi apamning qo‘lida! Bu ishlarni ko‘ring, e, dod-ey!

— Yo‘q! — dedi Berdiboy shitob bilan o‘rnidan turib. — Men ketdim! Boshingizga yostiq qiling patiringizni! Uyimda non yetarli, shukur! Bu yerda bizning bir chaqalik qadrimiz yo‘q ekan, bildik! Endi yelkamning chuquri ko‘rsin uyingizni!

— Berdiboy, ihm, Berdiboy! Cho‘rt, cho‘rt... — deya bazo‘r, tanbalona bir qo‘zg‘alib qo‘ydi ota.

— Sizdi bilamiz, yana hech nima ko‘rmaganday, labingizga kesak surtib kirib kelasiz uyimga — sizdi bilamiz! — dedi ona zaharxanda bilan.

— Kelsam!..

— Berdiboy! Cho‘rt, cho‘rt..

— O‘tgan safar qasam ichmay, suv ichib edingizmi? Yashang!

O‘tgan safar... Berdiboy to‘lib-toshib kirib kelgan edi bu uyu. Muzaffarboy kepti, ukasi kepti! Toshkentda, institutda domlalik qiladigan ukasi! Xotini bilan kepti. Bir izzatiga yetish kerak! Toki, kelinlari qoyil qolsin, “erimning shunday akasi bor ekan”, desin! Berdiboy motosiklda markazga tushib bozor oraladi, uyiga borib semiz bir qo‘yni yotqizdi. Mehmonlarni olib ketgani kelsa, hovlida qandaydir qiz yuribdi... Boshyalang, sochi qirqilgan. Egnida yupqagina, piyozning po‘stidan ham yupqa-e, yengsiz bir ko‘ylak, lozimdan-ku darak yo‘q. Kelinlari shu emish! Onasini chetga tortib: “Apa, ayting, — dedi, — boboydi oldida buytib yurmasin!” “O‘ylama, ulim, boboy qaramaydi”. “Qaramasayam...” Anovi arzanda Muzaffarlari-chi, Muzaffarlari? “E, Berdiboy-e, qip-qizil chudaksiz-da!” deydi kulib turib. Xotinini uyga olib kirib och biqiniga solishning, “aka, to‘g‘ri aytasan”, deyishning o‘rniga!

Onasi rost aytadi: o‘shanda, arazlab ketayotganida ichgan qasami — qasam bo‘lmay, suvmidi?! Hah, xom sut emgan banda!

Berdiboy darvozadan chiqqach, hayratidan yoqa ushlab qoldi. Yo tavba, rostdan shu xotin tuqqan onasimi? “Ket! Jo‘na! Yana shu uyda qorangi ko‘rsam!..” dedi-ya!

...Rajab bodining hovlisi temirchilar guzarida edi. Berdiboy motosiklda bog‘-bog‘ot oralab topib bordi. Devor kemtigidan ovoz berib so‘radi: “Toshkentdan billa o‘qigan jo‘ralari kelgan, o‘shani olib qayoqqadir ketdilar”, deb javob qildi xotini.

“Eh, qo‘limga tushasan-ku hali!” dedi ichida Berdiboy titrab.

Gap shundaki, avval-boshlab Safar shilpiqning temir-taqaga o‘ch kenjasi Rajab bodi Toshkentdan shunday bir antiqa tomosha topib keldiki, kuy-qo‘shiqdan tashqari, shappotdek joyidan kino ham ko‘rsatar ekan. Qo‘ni-qo‘shni, mahalla-ko‘y oqshomlari bodining ayvonini to‘ldirib tekin kino ko‘rgani to‘planardi.

Keyin bunaqa matah ko‘paydi, rasmga kirdi.

Keyin... qiz-juvonlar hayo atalmish dahmazaga qo‘l siltab, ko‘chada ishvakorona qadam tashlaydigan bo‘lishdi; yigit-yalangning sochi yelkasiga tushdi, surnaypocha shim-u zaifona guldor ko‘ylak kiymagani qolmadi; Ashur novvoyning kelini uch go‘dagini chirqiratib, “Sevaman! Sevsam nima qilay?” deya shahrisabzlik dorboz bolaga ergashib ketdi. Keyin bir kuni mulla Shodining sochi taqimini o‘padigan, qushdek hurkak, qo‘ydek yuvosh qizi Gulchehra ko‘chaga velosiped minib chiqdi, keyin — eh!..

Berdiboyning hayoti o‘shanda buzildi — yettinchi sinfdan beri Gulchehraga oshiq edi! (Qishloqda oyog‘idan chayon chaqib, shahar maktabiga o‘qishga o‘tganidan beri!)

Shu-shu, Berdiboyimizning ashaddiy g‘animi — Rajab bodi. Televizor degan baloni o‘sha yaramas topib kelgan-da. Berdiboyning barcha “fojia”siga esa ana shu badbaxt sandiq aybdor, shu aybdor!

Rajab bodi qo‘liga tushsa!.. Biroq, tushganda nima deyishi, nima qilishini o‘zi ham bilmasdi.

Rajab bodi qo‘liga tushmadi — uyida yo‘q ekan. Berdiboyning o‘zi bo‘lsa, mana qariyb ikki soatdan buyon do‘ngning ustida boshiga mushtlab o‘tiribdi. Motosikli buzilib qoldi... Rayon veterinariya shifoxonasiga kirib yumushlarini bitirdi-da, shitob bilan markazdan chiqib qishloqqa haydadi. Yo‘lning yarmiga kelib, mana shu do‘nglikka o‘rlyotganida la’nati arava pat-pat etdi-yu o‘chdi-qoldi. Qani endi o‘t olrib bo‘lsa! Qilmagan hunari qolmadi: nishablikka endirib ko‘rdi, “sham”larini qaytadan artib qo‘ydi, moylarining yo‘lini ko‘zdan kechirdi, tozaladi — qayoqda! Axiyri, bir ish chiqishidan umidini uzib, kajavadagi xurjundan ikki dona bodring oldi-da, karsillata-karsillata do‘ngga chiqib o‘tirdi. O‘tgan mashinaga qo‘l ko‘taradi, hayqirib ovoz beradi — birovi burilib qarasa-chi! Nomusulmonlar! Xurjunni yelkaga tashlab piyoda jo‘nayveray desa — manzil olis, xurjun zildek! Kuyovlik chog‘lari — markazdagi veterinariya idorasida ishlardi u paytlar — mana shu o‘n besh chaqirim yo‘ldan goho yayov qatnardi. Qalliq o‘yinga oshiqardi! Xayolida — o‘tgan kechasining zavqi, nash’asi, yutinib-tamshanib ketaverardi. Endi qayga shoshadi — o‘sha uy, o‘sha xotin!

Berdiboy tilining tagiga nosni tashlab, shu sabilning kayfini surib, xo'rsina-xo'rsina o'tiraverdi. Bugun chap yoni bilan turganmidi, hamma ishi chappa ketyapti-ya? Umuman, nimaga bunday bo'lyapti? Bari chatoq, bari teskari, buzilganmi, bir balo... ilgarigidek emas!

Yo'q, birdan o'zgardi hammasi, birdan! Go'yo u talay muddat — bir yilmi, besh yilmi g'aflat uyqusida yotdi-yu, uyg'onsa — mana shu ahvol! Go'yo uning bir yilmi, besh yilmi ko'zi ko'rmay, qulog'i eshitmay qoldi-yu, bir kuni tuzalsa — hammasi boshqacha! Odamlar qandaydir o'zgarib qolgan, lafzu liboslari antiqa, dunyolari antiqa — tanib bo'lsa, o'lay agar, mana jon! Qarasa — mulla Shodining qushdek hurkak, qo'ydek yuvosh qizi Gulchehra boshyalang, sochini kungurador turmaklab, ko'chada velosiped minib yuribdi! Kuppa-kunduzi! Yo pirim-ey! To'rt yil ikkovi bir partada o'tirgan qiz! "O'v, esing joyidami, Chehra! Bu nima yurish? Boshingni yop!" desa, "E, bor-e, tezagingni ter!" deydi!

O'shandan boshlab Berdiboy battar aynidi: neki yangilikni ko'rsa g'ijnadigan, dushman ko'zi bilan qaraydigan bo'lib qoldi. O'zi-ku azaldan shunday ori nozik, irimchi; xudojo'y kampirning tarbiyasida yurib, yigit yoshida bamisoli sakson yashar xurofotparast cholning o'zginasiga aylangan. Ona rost aytadi: "Tiniq momoning o'gitini yeb, o'gitini ichib katta bo'ldi". Qishloq xo'jalik bilim yurtida o'qib yurgan kezlari ham kursdoshlari unga olaqarg'adek, orqavarotdan kulib qarashardi. Harbiy xizmatdan qaytib o'qishga kirgani uchun u hammaga — aka, yurish-turishi-yu o'zini tutishi anovi yengiltak zumrashalarga o'xshamas, muallimlar ham unga "Berdiboy aka" deb murojaat qilishar edi. "Aka"lik huquqidan foydalanib, u duch kelgan bolani tergapani tergapan edi. Kaltaroq ko'ylak kiygan qizni ko'rsa-ku, jon-poni chiqardi: "Tizzangni yop-e, sharmanda!"

Buxgalterlik bo'limida Musallam degich sal shaddodroq, ammo ofatijon bir pari bor edi. Shu qiz Berdiboyga qandaydir suykalgandekmi bo'lib, iliq-intiq nigohlar tashlab yurardi. Nihoyat bir kuni u o'rtaga odam qo'yib, dardini yetkazganida, Berdiboy ko'pchilikning oldida baralla: "Ih, shu jibljajibonni olaman deb kim o'lib boryapti!" dedi. Bu gapni eshitgan barcha qiyqirib yubordi. Keyin bilsa, kursdagi jami yigit o'sha qizga xushtor, xushtori nimasi, birgina boqishiga intizor ekan. Keyin

bilsa, uni shunchaki laqillatishgan, mayna qilib kulishgan ekan. O'sha qizning o'zi ham!..

Ay, Gulchehra, Gulchehra! Ay, esini yegan qiz! Nega o'sha sabilni minding? Nega boshingni ochib yurding — tunde qora zulflaringni Berdiboydan o'zgalar ham ko'rsin, debmi?.. O'shanda boshgingangga ro'molgingangni o'rab, halimdekkin bo'lib yursang, o'sha, erkakka chiqargan matahga oyoq oshirib minmasang — zaifalik o'ringni bilsang, qiz bolaga nomunosib o'sha makruh gapni og'zingga olmasang... qo'ling uzayib, oyoqlaring qisqarib qolarmidi, zolim qiz?! Mana, endi Berdiboydan hol so'ra!..

Gulchehra unday-bunday shaharda emas, naq Toshkentda o'qidi. Kelgan-ketganlarida uchrashib qolishsa, Berdiboyning yonidan xuddi arazlagandek tumshayib, dimog' bilan o'tardi. Keyin-keyin ko'rganda esa, “ha, sinfdosh!” deya qandaydir hazil aralashmi, mazax aralashmi muomala qilishga o'tdi. U endi erga tekkan, Toshkentning qoq belida yashar, chamasi, bir paytlar televizordan ko'rib maftun bo'lgani — xilvat xiyobonlar-u o'zining ho'v o'sha sunbul sochlaridek qirqkokil majnuntollarga batamom yetishgan edi.

Televizorda nima ko'p — ko'zni quvnatib, havasni qo'zg'aydigan yaltiroq tomosha ko'p! Ayniqsa, sokin Anhor bo'ylarida qo'ltiqma-qo'ltiq, navozish ila kezib yurgan yoki so'lim majnuntollar tagida sirli roz aytishib o'tirgan “baxtiyor yoshlar”ni ko'rgandan keyin bu juvonmarglarning fe'li buziladi-da. Fe'li buzilsa ham-ku mayli... Toshkent deganlari nuqul ana shunday quv nab-yayrab sayr qilib yuradigan shahar ekan-da, deb o'ylaydi. Shulardan qayerim kam? Oh, Toshkent! Men ham borsam, shularday bo'lib yursam!.. Mana, chamadon tayyor, pishang berguvchi dugonalar ayyor: hech nimang kam emas, o'rtoqjon, o'lsang o'liging ortiq ulardan, yur, ketdik! Xullas, bechora ota-onani qon qaqshatib yo'lga tushadi. Ana shunda, ana shunda: “Esingni yig', hoy qiz, o'sha sen havas qilgan tomoshagullarning xiyobon-u majnuntoldan boshqayam dardlari bordir!” deb yo'lga ko'ndalang bo'ladigan sherimard aka kerak!

Bunday akaga qo'l siltasa, uni hatto masxara qilsa-chi?! E, unaqa singilning boridan yo'g'i!.. Ketsa ketsin, daf bo'lsin, izi o'chsin, nomi o'chsin! O'qib kelib bu kishim yana ko'p nag'malar ko'rsatmoqchi bu yerda — “xudojnik-modeler” emish-a! Axir, shahar senga ammangning uyimi? Yaxshi bor,

yomon bor. Yomon ko‘p! Ko‘za kunda emas, kunida sinadi, singlim! Bilib bo‘ladimi, bo‘yni yo‘g‘on biror nomard bosh-ko‘zingni aylantirsa... begona yurtlarga tushding-ketding-da. Ota-onangni, jigargo‘shalaringni ko‘rgani kelsang — yiliga bir kelarsan. Tobora uzoqlashasan, begonalashasan. Begona — sangi devona, debdilar. Keyin, kimga xatlab beribdi bu dunyoni? Hozir beg‘am-beparvo kitob varaqlab yotgan otang bir kuni paq etib... Yetib kelguningcha “yetti”si o‘tadi, jon singlim! “Otam”lab armonda qolaverasan! Bunisi ham mayli, deylik. Falokat bosib, biror la‘nat orttirsa-chi — isnod, yetti pushtingga yetadigan isnodga botasan! Ey, nima jin urgan-a bu odamlarni? Ko‘ra-bila...

Berdiboyning vujudi zirqirab ketdi. Og‘riqdan, ojizlikdan bo‘kirkudek nola qilib yubordi u. Nolasi tevarak-atrofga taraldi. O‘zining tevarak-atrofiga, xolos.

Berdiboy goho o‘zicha orzu qilardi: qani edi, aka-ukalar barimiz bir joyda, masalan deylik momamning bog‘ida — dashtda yashasak, bir qo‘ra, bir qo‘rg‘on bo‘lib! Topgan-tutganimizni kechqurun bir qozonga solsak, birga yesak, birga tursak! Mayli, boboy yotsa yotaversin bizning davrimizda davron surib — yangi kitobini o‘qiydimi, eski kitobini o‘qiydimi, o‘zi biladi. Ota bo‘lib boshimizda tursa, dasturxonimizning to‘rini to‘ldirib o‘tira — kifoya, shuning o‘zi katta davlat bizga. Apam, xayr, chidar uch-to‘rt kun, nima momamni bog‘lab beribdimi bu dunyoga, o‘zining ham oldingi shashti yo‘q... Singillar ham shu yaqin-atrof xesh-hamsoyaga uzatilgan bo‘lsa — issiq-sovug‘u yaxshiyomon kun degan gaplar bor. O‘, qani bunday bo‘lsa! Ana o‘shanda mehr-oqibat ham, og‘a-inichilig-u ota-bolalik deganlari ham boshqacha bo‘lardi.

...Yo‘q, Berdiboy, bu tushingizni suv allaqachon oqizib ketgan! Bilasizmi, biz bugun qanday zamonda yashayapmiz? Endi bizning har birimizga alohida bir qo‘rg‘on kerak! Devorlari shunday baland, o‘zi shunday pinhon qo‘rg‘onki, na otdan bo‘ylab bizni ko‘ra olasiz, na osmondan qarab! Bu shunday bir qo‘rg‘onki, goh yuksak yulduzlar orzusida, goh zamindagi mayda bir havaschalar ilinjida o‘rtanib, ba‘zan o‘zimiz ham o‘zimizni yo‘qotib, topolmay sarson yuramiz...

Ammo, qo‘rg‘onimiz muttasil harakatda — ulkan bir ke-maning bag‘rida u. Kemadan tushib qolib bo‘lmasa — jon shirin, dunyo qurg‘ur umidli...

Berdiboy tirishib-toriqib shahar tomonga nazar soldi: nega bordi o'zi shu yoqqa? O'qishga ketadigan bo'lsa ketardi, qorasi ko'zdan yitardi! Bunday alam-u azob ham kam edi.

Asta-sekin tevarakni shom qorong'isi chulg'ab, shahar tarafda chiroqlar miltillay boshladi. Elektr chiroqlar. Go'yo shular ham paydar-pay ko'z qisib, uni masxara qilardi. Battar alami jo'shdi Berdiboyning. Yaqin yillargacha momosining uyiga chiroq o'tkazilmagan, bunga istak ham, ehtiyoj ham yo'q edi. Uylanganidan so'ng xotini qo'ymadi. "Chilla" kezlari edi... "Kechasi tashqari chiqqani qo'rqyapman", deb turib oldi. Ilgari Berdiboy uyiga elektr o'tkazsa, xuddi o'zigagina mahram qandaydir muqaddas sir olamga oshkor bo'ladigandek, osuda-osoyishta hayotiga allaqanday g'animlar bostirib kiradigandek bo'lib tuyular edi. Axir, hamma baloni shu boshlab keldi-da! Shu bo'lmasa, radio o'qirmidi, televizor ko'rsatarmidi! Shu bo'lmasa... Berdiboyning boshida bunaqa savdolar ham yo'q edi. Shu bo'lmasa, tanka-yu raketa degan vahimalar ham bo'lmasdi. Nega shularni o'ylab chiqardi ekan odamzod? O'ziga o'zi balo orttirguncha, tinchgina kunini ko'rib o'tiraversa nima qilardi?..

Yovuz bir kayfiyatda edi hozir Berdiboy! Qo'yib bersaki, olamdagi jami elektr chiroqlarni-yu radio-televizorlarni sindirsa, majaqlasa, yanchib tashlasa!.. Lekin — odamlar-chi, shularni o'ylab topgan odamlar-chi?! E, hammasining bo'lgani bo'lgan, endi o d a m qilib bo'lmaydi bularni!

Osmonni larzaga solib, yashil-qizil chiroqlarini lipillatgan-cha samolyot uchib o'tdi. Qorong'ida allaqanday parranda, to'rg'aymikan, naq Berdiboyning tepasida charx urib aylandi, qanotlarining epkini ham sezilgandek bo'ldi. Uch-a, qirg'inga uchragurlar, uch!

Berdiboy jahl bilan og'zidagi nosni tupurib, o'rnidan turdi. Yugurgudek halloslab do'ngdan tushdi, motosiklining oldiga bordi. Ko'ziga u hozir bir uyum keraksiz temir-tersakdek xunuk, dardis-sar ko'rinib ketdi. Turib-turib, alamidan shartta burildi-yu kavasidagi xurjinni chetga olib qo'yib, motosiklni surib bordida, sel o'pirgan soylik — arnaga itarib yubordi. Negadir, kutganidek qattiq taraqlamadi, bir o'ram sim toshga borib tushgan kabi sado berdi, xolos.

Asli, almisoqdan qolgan bu shalaqaravanning sog‘ joyi yo‘q, sovxoz necha yillar burun uni hisobdan chiqarib tashlagan, Berdiboy u yoq-bu yog‘ini yamab-yasqab, bozor-o‘charga-yu qozon-tovoq orasida minib yurar edi. Ajab bo‘ldi, shu bahona qutuldi-qo‘ydi!

Berdiboy og‘ir bir xo‘rsindi-da, xurjunini yelkalab yo‘lga tushdi.

Tun zim-ziyo, milt etgan shu‘la yo‘q, to‘rt taraf biydek dasht, manzil olis, yelkasida zildek xurjun, turtina-surtina bir odam piyoda ketib boradi.

Uzoq yo‘l yurdi u, yo‘l yursa ham mo‘l yurdi u. Yura-yura shunday bir go‘shadan chiqib qoldiki...

...”Ajinalar” hech ajablanmay, hatto allanechuk xushhollik bilan qarshi olishdi uni, davraga taklif qilishdi. Hammasining kayfi bor, uning ham qo‘liga darhol piyola tutqazishdi. Notanish bir hayajon ichida, o‘ylab ham o‘tirmay ichib yubordi u. Xiyol boshi aylanib, o‘zini unutgan ekanmi, asta yoniga cho‘kkan sharpadan sapchib tushay dedi. Sochlari to‘sdek, yarimyalang‘och bir “ajina”. Badani-yu yuz-ko‘zida tomchilar mildiraydi — hozirgina anovi suvdan chiqqan. Iye, Rajab bodi ham shu yerda yuribdimi?! Ha, ana, bir dasta kabob ko‘tarib kelyapti. Davradan chetroqda, ikki toshning orasiga bosh suqqancha, ko‘zlari yoshlanib tutun puflayotgan maykachan kimsa shu ekan-da. “Toshkentdan billa o‘qigan jo‘ralari kelgan”. Davranning iz-zatli joyi — ko‘rpacha ustida yostiqli quchoqlab siporoq o‘tirgan anovi notanish yigit o‘sha, Toshkentdan kelgan mehmon bo‘lsa kerak. Boshqalari ko‘ziga birmuncha issiq ko‘rinadi, chamasi, rayon markazidan chiqqan yosh-yalang...

— E! Parda Qurbon bobomizning ulimi? — dedi Rajab qo‘lidagi kabobni o‘rtaga qo‘yarkan, unga ko‘zi tushib. — Qalaysiz, Berdiboy? Yo‘l bo‘lsin? Munchoqligami? Kech yo‘lga chiqibsiz-da? Bunday, piyoda? Kamnamoroqmi o‘zi keyingi paytda? Haliyam qishloqda — Munchoqlida? Bo‘limda? Zootexnik?.. Ha-a, malades!

Berdiboy uning birorta so‘rog‘iga churq etmadi, xo‘mrayib o‘tiraverdi. Rajab ham javob kutmadi — o‘z savollariga o‘zi javob qaytargan edi.

— Bittadan olsak! — dedi u so‘ng mehmonga qarab takalluf bilan.

— Ixtiyori ba shumo, deydilarmi...

Quyildi. Hammaga. Berdiboyga ham. Ichdilar. Hamma. Berdiboy ham.

— Sovuqmasmikan? — deb so‘radi mehmon boya suvdan chiqib kelgan “ajina”dan. — Men ham bir tushsammi devdim.

Yelkasiga sochiq tashlab o‘tirgan “ajina” dik etib joyidan turdi:

— He, shu shaharliklar nozik bo‘ladi-da! Turdik! Hamma!

— U sochig‘ini toshning ustiga otib, patira-putur suv oralay ketdi.

— Turdik!

Dasturxon boshida Berdiboyni yolg‘iz qoldirib, barcha o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Rajab bodi bo‘shagan sixlarini ko‘tarib “ko‘ra”si tomon ketdi.

Gulxan shu‘lasida yalt-yult tovlanayotgan mavjlar, yarimyalang‘och ko‘lankalar. Shalop-shulup, shatir-shutur. Zimziyo tunni boshlariga ko‘tarib qiyqirishadi, bir-birlariga suv sepib qochishadi... Ajinabazm, tus ajinabazm!

Berdiboy nima qilib o‘tiribdi bu yerda? Qanday kelib qoldi u?

Yelkasida zildek xurjun, qorong‘ida tusmol bilan qadam tashlab boraverdi, boraverdi — hech yo‘lning adog‘i yo‘q. Yurayura shunday bir manzaraga duch keldiki, qarab ko‘zlariga ishonolmadi. Soylikka o‘xshash o‘zan. Allaqayoqdan guldiragancha bir quvur suv otilib chiqyapti. Gulxan, qandaydir ko‘lankalar, g‘ovur-g‘uvur... Berdiboy hangu mang bo‘lib qoldi. Nima, adashdimi? Bolaligidan buyon kezaverib tovonlari to‘zigan bu dasht-u adirda sira bunday manzilni ko‘rmagan, bunaqa manzaraga ham uchramagan edi. Yo, ajinalarmikan? O‘xshaydi. Ana — suv, gulxan... Momam aytar edi: ajina qorong‘i bir xilvat joyda, yolg‘iz paytingda uchraydi, deb. To‘g‘ri aytib ekan: mana, qorong‘i xilvat joy, bir o‘zim... Uni qo‘rquv bosdi, tizzalarining ko‘zi qaltiray boshladi. So‘ng, o‘zini dadillikka olib, do‘ngning tepasiga chiqdi-da: “Ho‘-o‘v!!!” deb ovoz berdi. “Nima-a?” degan ovoz qaytdi pastdan. Odamga o‘xshaydi-ku! “Ki-im?” dedi Berdiboy endi dadilroq. “Ajinalar! — dedi haligi odam. Keyin uni cho‘pon gumon qildimi, chaqirdi: — Keling, boy-

bobo, kelavering!” Berdiboy asta do‘ngdan enib, gulxanga yaqinlashdi. Qarasa — bir to‘p yigit-yalang; ziyofat avjida, davra chortang? Chetroqda ikkita “Jiguli” ham turibdi...

Dasturxonga fotiha qilgandek kaftlarini yuziga tortib, Berdiboy sekin joyidan qo‘zg‘aldi. Vazmin odimlab Rajabning tepasiga bordi.

Mana, o‘sha Rajab bodi, qon-qiyomat dushmaning! Qo‘linga tushdi nihoyat! Gapir gapiraringni, qil qilaringni!..

— Buytib yurguncha, uyginangizga borib, xotingingizni oldida televizoringizni ko‘ri-ib o‘tirmaysizmi? — dedi Berdiboy achchiqqina ohangda chimdib.

— Televizorda nima bor, Berdiboy, dunyoning bor gashti mana shunda-ku! — dedi Rajab uning pichingiga mutlaqo beparvo, allaqanday beg‘araz bir samimiyat va hushchaqchaqlik bilan. — Ko‘raman desam, ana — televizor moshinada! — So‘ng u kaftining ko‘zi bilan chap qovog‘ini ishqay-ishqay qaddini rostlarkan, cho‘milayotganlar tarafga qarab qichqirdi: — Chori, telikni qo‘y — futbo-ol!..

Berdiboyning ko‘ziga Rajab bodi sirli odam bo‘lib ko‘rindi. Boyagi shashti-yu g‘azabini bir zumga unutib, da‘atan unga havasi kelib ketdi. Bir hisobda shuniki maza! Yashashni biladi bu: o‘zi oddiy o‘qituvchi, maktabda fizikadan dars beradi-yu, bir qarasangiz — doim qo‘lda nimadir yasab, temir-tersakning ichida yuradi, bir qarasangiz — mana bunday dala-dashtda bir chimdim go‘shetni deb tutun puflab yotadi. Alomat! Shu yerga ham olib kelibdi-ya televizorini... Erinmagan banda!

— Siz nima deysiz gapimga, Ravshanjon?

— To‘g‘ri aytasiz, dunyoning lazzati mana shunda, mana shunday ajoyib o‘tirishlar-u ajoyib joylar, ajoyib kengliklarda! — dedi kattakon sochiqqa o‘rangancha junjikib ularga yaqinlashgan mehmon yigit. — “Piknik” deyishadi buni, chinakam piknik bu! Bizni ham ana shu narsa boshlab keldi-da bo‘tga, Rajabvoy! Umuman, hozir butun dunyoda tabiatga keskin qaytish jarayoni boshlangan. Masalan, sivilizatsiyaning cho‘qqisiga yetishgan Fransiyadek mamlakatda ham hozir uyda non yopish rasm bo‘lgan emish. Do‘konning nonidan qo‘lbola nonni afzal ko‘risharkan-da. Bu hatto antiqa bir mashg‘ulot, antiqa bir... taom, tansiq taom hisoblanar ekan!

— Ho‘-o‘, kelinglar! Futbol!.. — deb baqirdi Chori.

Cho‘milayotganlar apir-shapir suvdan chiqib, artina-kiyina davraga oshiqishdi. Yerga to‘shog‘liq sholchanning bir chekkasida vag‘illab yotgan mo‘‘jazgina bir qutiga hamma mahliyo! Bir to‘pni deb shuncha odam u yoqdan-bu yoqqa yugurgani yugurgan!..

Murodi hosil bo‘lmay pisillab qolgan Berdiboyni yana boyagi badbin, yovuzona kayfiyat chulg‘agan edi. Davrani chetlabroq jilarkan, televizorga yaqinlashganda u, xuddi qoqilib ketganga o‘xshab, uni sekingina bir tepib o‘tdi.

— O‘, o‘, Berdiboy, nima qilyapsiz! — deya chinqirdi o‘rnidan sapchib turgan Chori. — Ko‘z bormi?! Yo kayfingiz oshdimi?

Berdiboy pinak buzmay, borib xurjunini yerdan ko‘targan edi, Rajab uning oldiga keldi.

— Ha, Berdiboy? O‘tirmaymizmi? Nima, yo oborib qo‘yaymi? — dedi u qorong‘ilikda turgan mashinasi tomon ishora qilib.

Berdiboy ilkis uni ko‘kragidan qattiq itarib yubordi-yu bir siltashda xurjunni yelkasiga olib, burilasolib jo‘nab qo‘ydi.

Kutilmagan zarbdan ag‘anab, yerga o‘tirib qolgan Rajab negadir xaxolab kula boshladi. So‘ng orqadan uning gapi eshitildi:

— Mana shunday kelib-kelib turi-ing, Berdibo-oy!..

Yana o‘sha zim-ziyo tun, yana o‘sha to‘rt tarafi biydek dasht, yana o‘sha zildek xurjun, x u r j u n — turtina-surtina piyoda ketayotgan bir odam... Bir olam!

Berdiboy qayoqqa qarab borayotganini o‘zi ham bilmas, negadir bu haqda o‘ylamas ham, nuqul halloslab-harsillab oldinga intilgani intilgan edi. Anchadan so‘ng qir bo‘yida qandaydir chiroq miltillab, chaylaningmi, kapaning qorasi ko‘rindi. O‘sha tomonga burildi u...

Kapadan shabpo‘shini kaftiga urib qoqa-qoqa, yarg‘oqbosh bir qariya chiqdi:

— Keling, mehmon. Baxayr?

Salom-alik qildilar. Muddaosini aytdi Berdiboy.

— Munchoqlidanman, deng? Kimdi uli bo‘lasiz?.. He, u bizning oshna-ku! Frontga birga jo‘naganmiz. Ko‘p og‘ir, ba‘mani odam. Hay, uyga kiring, yotib keting. Eski oshnamizning uli ekansiz... Borishim shart, deng? He, bir kecha o‘n kecha

bo'lama, borasiz-da shu uyingizga ham!.. Ulov desangiz, anov "pat-pat"ning moyi sob bo'lgan, hafta beri — yotibdi. Nima? Eshak-peshak deysizmi? Eshak nima qiladi bizda, og'am! U jonivor ham qirilib bitdi hisob. Padang tomonlarda qolmagan bo'lsa bitta-yarimi... E, ulariyam bir...

Qariya bilan xo'shlashib, u ko'rsatgan yo'l bo'ylab qoron-g'ilikka sho'ng'irkan, taajjubdan Berdiboyning boshi qotdi. Bu yerlarni Oqqo'ton deydimi u. Chillai chor mahalligidan mana shu dala-dashtda o'sib, bunday joyni eshitmagan ham ekan, bunaqa yerlarni ko'rmagan ham. Bugun o'zi u bir baloga uchrabdi: nuqul adashadi, nuqul...

Bir mahal uzoqdan nimadir yiltilladi. Yonarqurtdek bir nima. U yaqinlashib kelaverdi, kelaverdi. Kattalashdi. Odamga o'xshaydimi... Odamning ko'zi shunday yonarkanmi qorong'ida?! O'ziyam bahaybatroq ko'rinadi. Orqasida dumsimon nimadir yerga surgalib kelyapti. Ana, yoli ham bor. Ot ekan-da, kalla! Iye, ot ikki oyog'ida yuradimi? Qanaqa maxluq bu o'zi — vi-shillaydi? Motorning tovushiga ham o'xshaydimi? Benzin hidi kelyapti, ha, ha! Motosikli... Yo pirim, bu nima balo bo'ldi?!

Balo, balo!

Berdiboy shunda sezdi: qandaydir soylikka tushib qolibdi. Ikki yoni tik jar. Boyagi soylikning adog'i emasmi? O'shanga tus beradi...

"Balo" hamon bostirib kelmoqda edi. Orqaga qochay desa — u yoqda anovilar, oldinga yuray desa...

U asta-asta o'rlikka tomon tislaverdi — "balo" to'g'ri unga qarab kelaverdi, u tislaverdi — "balo" bostirib kelaverdi...

Bu paytda...

Erini kuta-kuta zerikkan Oyro'zi, katta qizini Tiniq momoga tashlab, kichkinasini ko'tarib, eri bultur qorbo'ronda adashib halok bo'lgan beva qo'shnisinikiga televizor ko'rgani chiqqan, mana, hozir ro'zg'or yumushlaridan horigan xotinlar o'tirgan joylarida pinakka ketishgan, tomoshalari poyoniga yetib, ekran-da "qorbo'ron" bo'lib yotar edi.

...Gulsanam esa, chamadonchasini kiftiga qo'yib, mulla Shodining nevarasi bilan markazga qarab chopdi. Tonggi avto-busga ulgurishlari kerak!

SHAHARDAN ODAM KELDI

“Oq kema”dagi Bolaga

Bola echki-uloqni ovuldan bir gaza nari oshirib adirga yoydi-da, o‘zi o‘ngirdagi buloqqa ketdi. Qadam olishi eran-qaran, sudrab borayotgan zarang tayog‘i so‘qmoq chetidagi chag‘ir toshlarga tegib yengil sakraydi.

Buloq qiyshayib o‘sgan bukri archa soyasida, chetini aylantirib ko‘kish tova tosh yotqizilgan. Ikki tosh orasidan sizib pastga jilg‘a oqadi. Mollar shu jilg‘ada suvlaydi.

Qoramtir suv sathida archa shoxlari oralab osmon parchalari suzadi. Bola engashgan edi, do‘ppisining tikkayib turgan qirralari, po‘st boylagan burni ko‘rindi. U sarg‘aygan chim ustida uzala yotib suvga termildi. Ana, qo‘ng‘ir bulut suzib o‘tdi... Bolaning bo‘ynidan tumori sirg‘alib tushib, suvda qalqdi, suvni chayqatdi: osmon parchalari, archa shoxlari qo‘shilishib tebrana boshladi. Bola suvga labini tegizdi, tamshandi, so‘ng qultumlab ichdi, ichdi, lekin qongan-qonmaganini bilolmadi. U tag‘in bir muddat shu tariqa qo‘zg‘almay yotdi — turishga erinardi... Chanqagani uchun kelmagan edi bu yerga. Buloq — ovunchog‘i. Gird-atrof tog‘- u toshda shundan bo‘lak uni ovutadigan narsa yo‘q. Zerikdi — shu yerga keladi, suvni chayqatib, sathini tomosha qilib yotadi.

Buloq — ovunchog‘i. Bor, tag‘in bir mashg‘uloti bor uning: do‘ng boshida tizzasini quchoqlab shahar yoqqa qarab o‘tiradi. Shahar yiroqda. Ho-ov, osmon tugagan joyda. Ana, daraxtlari ko‘karib, uylari oqarib turibdi. Kechasi chiroqlari jimirlaydi... Goho buralib-buralib ketgan tasmadek yo‘lda olis nuqta paydo bo‘ladi. U chumolidek o‘rmalab kelaveradi, kelaveradi... keyin kattayib, mashinaga aylanadi.

Bola mashinalarni pastga — dashtga enganlarida ko‘p ko‘rgan. Bir gal kapalarining xuddi biqinida ham bittasi to‘xtagan edi. Yaqinlasholmadi. Shapkali, ko‘zlari qizargan odamdan qo‘rqdi. Mashina o‘shaniki ekan: oynalarini o‘zi artdi, o‘zi haydadi. Shlyapali odamlar ham bor edi, ularga rulni bermadi.

U shaharni ham koʻrgan. Bultur kuzakda otasi bilan borgan edi.

Shaharda odam juda koʻp! Mashinalar-chi!.. Shapkali, koʻzlari qizargan qizgʻanchiq odamning mashinasiga oʻxshamagan, undan chiroyliroq mashinalar, katta-katta!

U shaharni yaxshi koʻradi. Ziyoddek boʻlsin hali, boradi. Otasi aytgan. Ziyod akasi shaharda — internatda oʻqiydi. Ikki-uch oyda bir, ferma mudirining otiga mingashib keladi. Kiyimlari boshqacha, gaplariga ham tushunish qiyin.

Bola kun-uzzukun doʻng boshida oʻtirib shahar haqida oʻylaydi. Baʼzan qochib ketgisi keladi. Qochib ham koʻrdi. Yuraverdi, yuraverdi... shahar yoʻq! Doʻnglikdan qarasa, daraxtlari koʻkarib, uylari oqarib koʻrinadi. Lekin shuncha yursa ham — shahar yoʻq! Yetolmadi. Oyoqlari charchab qoldi, yiqilib tizzasi siyrildi. “Chagʻatda boʻri koʻpayibdi”. Otasining ana shu gapi esiga tushib, uni qoʻrquv bosdi. Oxiri oʻtirib olib yigʻlashga tushdi.

Kechqurun sut topshirib kelayotgan mudir uni otiga mingashtirib qaytdi.

Shu-shu, u qochishni oʻylamay qoʻydi. Ammo shaharni koʻrish orzusi diliga yanada mahkamroq oʻrnashib qolgan edi.

Gʻira-shira tongda qatiqqa non toʻgʻrab yeb oladi. Soʻng yarimta nonni tuguncha qilib, mol ortidan joʻnaydi. Uzoqib ketmaydi, choshgohda molni qaytaradi. Sogʻdiradi. Shu bilan oqshom qorongʻisi tushgunga qadar... ke-etdi. Peshingacha-ku vaqt anamana demay oʻtadi. Keyin, ayniqsa, oqshomga tomon shahar yanada yiroqlashadi, xiralashadi; atrof — togʻ-u toshga gʻubor taraladi.

Bolaning koʻngliga ham allaqanday gʻashlik choʻkadi, shahar haqida oʻylagisi kelmay qoladi. Siqiladi. Bunday paytda u yotib uxlashga odatlangan. Doʻppisini buklab boshi ostiga qoʻyadida, erinchoq suzib yurgan bulutlarga qarab uzoq esnaydi. Mudray boshlaydi... Shahar! Kattakon mashina! Oynasini artyapti. Ziyod iljayib turibdi. Haydagani beradi, deb oʻylayapti, shekilli. Berib boʻpti! Har safar kelganida shaharga olib borishni vaʼda qiladiyu, azonda mudirning otiga mingashib juftakni rostlab qoladi.

Ha, mayli, u shapkaliga oʻxshab qizgʻanchiq emas, mashinasiga mindiradi, haydagani ham beradi...

Burnini nimadir qitiqladi. Ha-a, qamchining uchi...

— Tur-ey, masxaraboz! — deb g'o'ldiradi birov.

Kim ekan? Kim bo'lardi — Turdiboy-da! Ko'zlari yumuq holda biladi.

— Buning yotishini! Mollaring yeb bitirdi ekinni!

Turdiboy xo'mrayib turibdi. Avzoyidan qamchi bilan tushiradigan. Tushirolmaydi, shunchaki po'pisa — otasidan qo'rqadi... Boshida adasqi telpak. Telpak ham deb bo'lmaydi, charm qalpoqning o'zginasi.

— Bir gaza nari haydasang haqing ketadimi molingni? Hamma yoqni payhon qipti. Otang haydab berama keyin?!

— Sizdi otangiz! — deb bo'sh kelmaydi bola.

— Tirmizak! Gapini qarang! Kechqurun bor hali otangdi oldiga...

— Bormay nima?

— Tur endi, jiyani, ko'p qashshanglik qilma, — deya muhosaga o'tadi Turdiboy.

Ana shunday aldab-suldab bolani o'rnidan qo'zgatgach, u otini yo'rttirib adir ortiga o'tib ketadi. Fe'liga tushunish qiyin: baqirib turib kuladi, kulib turib do'q uradi. O'zi o'rmon qorovuli-yu, etakdagi adirga o'g'rincha arpa ekan.

Ekin yonib ketgani yo'q: bir chetiga to'rt-besh uloq oralabdi, xolos. Shunga shuncha joydan ot choptirib kelganini!

Kunning o'tishi buncha qiyin! Bulutlar ham qayoqqadir yo'qoldi.

Bola cho'qqilarning qo'rg'oshin tusli osmonga tezroq qo'shilib ketishini — kech bo'lishini kutadi. Ertaga balki Ziyod kelib qolar, balki ferma mudiri Hamroqul amaki dashtga enish daragi bilan qaytar. O'shanda u yana mashinani ko'radi, hoynahoy, shaharga ham tushar...

Kunni ana shunday xayollarda kech qiladi.

Oqshom tushadi. Mollar qaytadi. Ovul cho'pon-cho'liq bolalarining chuldirashiga, echki-uloqning uzun-qisqa ma'rashiga to'ladi. Kattalar Hamroqul amakining ovul o'rtasidagi shinamroq o'toviga to'planishadi. Qo'rdagi olov shu'lasida davra qurib, radio xonishiga chayqalgan ko'yi alla-pallagacha gangir-gungur qilib o'tirishadi. Bolalar-chi? Bolalar birpas quvlashmahoq o'ynab, keyin duch kelgan joyda tarrakdek qotib qolishadi. Onalar javragan, ularni qidirgan, ustilaridagi ko'rapalarni tuzatgan...

...Bola Turdiboyning ekinzoriga oralagan uloqlarini haydab, dara tomonda o'tlab yurgan to'daga qo'shdi-da, joyiga qaytib, cho'zildi. Yana xayolga berildi. U ayniqsa bugun tezroq kech kirishini istardi.

Kechqurun shahardan Hamroqul amakining jiyani keladi. Turdiboyga o'xshamaydi u, yaxshi odam bo'lsa kerak — shahardan! “Qalay, Shomat polvon? — deydi kulib. — Katta yigit bo'lib yuribsanni?” Qo'l berib ko'rishadi! Ertasiga ular mol ortidan birga chiqishadi. Shomat unga buloqni, suv yuzidagi mo'jizalarni ko'rsatadi. Bo'rilar, tulkilar haqida otasidan eshitganlarini aytib beradi. Quyinni o'z ko'zi bilan necha marta ko'rganini ham aytadi. Balki ikkovlon Archamozorga kaklik ovi-ga borishar... “Osmonga qarang-a, — deydi Shomat unga. — Bulutlar nimaga o'xshaydi? Kattasi... Hamroqul amakining samaniga, a? Anavinisi — tulki, to'g'rimi? O'rtadagisi-chi, qani, toping! Bular meniki, men topganman!” deydi. U Shomatning yelkasiga qoqib, “malades”, deb maqtaydi. Keyin do'ng boshida o'tirib, shahar haqida gapirib beradi. “Men bilan shaharga ketasanmi?” deb so'raydi. “Qachon?” deydi Shomat irg'ishlab. “Ertaga”. U Ziyodga o'xshab aldamaydi, shaharga albatta olib boradi. Aytmoqchi, keyin Shomatning bir o'zi u yoqdan qanday qaytib keladi? Iya, esidan chiqibdi, Ziyod-chi! U bilan qolib ketsa ham ajab emas...

Mehmon kelishini bola choshgoh payti molni sog'dirishga olib borganida eshitgan edi. Onasi — taraddudga tushib, u yoq-bu yoqni sarishtalayotgan Hamroqul amakining xotini — Anor xoladan so'radi:

— Ha, oynam, muncha tapi-tez? Biron gap bormi deyman?

— Shahardan odam keladi.

— Kimakan?

— Toshkandda o'qiydigan jiyanlari...

Oldida tunuka kosa, sutga non to'g'rayotgan bola birdan sergak tortdi, so'ng xuddi bu oqshom ovulda shodiyona bo'ladigandek suyunib ketdi. Darhol kapaga kirib, dashtga enganlarida kiyishni mo'ljallab yurgan toza ko'ylagi va Ziyod sovg'aga olib kelgan yangi do'ppisini kiyib chiqdi.

Ana shu gap — shahardan odam kelishi kuni bo‘yi bola ko‘nglini yoritib turdi. U hozir ham shu haqda o‘ylab yotardi. Kelgan bo‘lsa-chi? Shomat o‘rnidan irg‘ib turdi. Qaytishga hali erta, lekin otasi bugun indamas: shahardan mehmon keladi-ku!

Echki-ulog‘ini haydab ovulga yaqinlasharkan, sevinchi uchdi-ketdi: hech gap yo‘q, hammayoq kechagidek, tunov kungidek... Mehmon kelganga, keladiganga o‘xshamaydi. Ha-a, ana, mudirning o‘tovi panasida otasi bir qo‘yni go‘sht-po‘st qilayotibdi. Boshida Anor xola. Hamroqul amaki ko‘rinmaydi. Demak, hali kelmagan.

Shomatga e‘tibor qilishmadi, hech kim nega qaytganini ham surishtirmadi. U o‘tov oldida bo‘sh xumga suyanib, pastga — adir yoqalab buralgan so‘qmoqqa ko‘z tikdi. Kelmasa-ya!.. Bolaning ko‘nglini qorong‘ilik chulg‘adi.

Oqshomgi g‘ubor quyuqlashdi. Nihoyat, olisdagi do‘ng boshida ot qorasi ko‘ringandek bo‘ldi. Shomatni intiq qilib u Hamroqul amakining samaniga aylandi... Yaqinlasharkan, ovuldagilarning bari unga peshvoz chiqdi: Shomatning otasi, onasi, Anor xola, Turdiboy, separatorchi Islom... Bolalar orqaroqda turib qiziqsinib qarashardi. Shomat oldinga o‘tdi.

Hamroqul amakiga mingashgan mehmon otdan chaqqon sakrab tushdi. Turganlar u bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishib, qo‘llarini yuzlariga tortishdi. Anor xola qaynisining kiftiga qoqib-qoqib:

— Eson-omon keldingizmi, yigit? — deb so‘rashdi.

— Shukr, checha. O‘zlaring sog‘-salomatmisizlar? Jiyanchalar?.. — deya so‘zlarni abjir terib so‘rashardi mehmon.

U bosh yalang, quyuq qora sochlari ensasigacha tushgan, yaltiroq tufli, bejirim shim, gulli ko‘ylak kiyib olgan edi.

Mezbonlar Hamroqul amakining o‘tovi tomon yo‘l ochib:

— Qani, qani, mehmon, o‘zingiz torting, — deya mulozamat qilishdi. Uning orqasidan o‘zlari ham yurishdi. Xotin-xalaj, bolakaylar ergashdi.

Otini qantarib, pallalari semiz xurjunini yelkalagan Hamroqul amaki kelgach, o‘tov ichidagilar yuzlariga yana bir karra fотиha tortib, qaytadan so‘rasha ketdilar.

— Hay, inim, ishqilib yaxshi yetib keldingizmi Toshkandlardan? U yoqlar tinch-omonmi? — deya birinchi bo‘lib Shomatning otasi so‘rashdi.

Mehmon, qo‘li ko‘ksida, “Shukr-shukr, rahmat. O‘zlarinigiz?” der edi.

O‘tov girdini o‘g‘il bolalar, qizil qiyikli qizaloqlar o‘ragan. Ular kigizi himarib qo‘yilgan keraga tirqishlaridan ichkariga mo‘ralashib o‘zlaricha chuldirashadi, chug‘urlashadi.

— Sochlari muncha qalin, orqasi jingala-jingala...

— Ko‘ylagining chiroyliligini-i!

— Mening amakim!

— Ho-o, mening! Toshkanddan kelgan...

Shomat bo‘yinsalariga qo‘shilmay, berida — xuddi o‘tov ostonasida, mehmondan ko‘z uzmay turardi. U mehmonning: “Ho‘-o‘ jijan, kir munday. Bu yoqdan ke. Xo‘sh, qani, oting nima seni?” deya yoniga chaqirishini kutardi.

— He, shu churvaqalar gapni gapga qo‘shirmayapti-da, — deb qoldi kimdir.

— Quving, aka!

— Hoy, Xosiyat, bo‘yning uzilgur, uyga bor tez, enagga qarash! — dedi Turdiboy qiziga.

Hamroqul amaki o‘tovdan chiqdi-da, bir-bir turtib, bolalarni haydagan bo‘ldi:

— Qani-qani, uyga jo‘nanglar-chi, qizinkalar! Gap kor qiladimi senlarga? Boringlar, bo‘lmasa mehmon uyat qiladi. Yo tavba-ey, bular odam ko‘rmaganmi? — So‘ng o‘choq boshidagi xotiniga yuzlandi: — Anor, bu churvaqalar tinchlik bermayapti, o‘zing qarab tur!

Bolalar chuldirashib-chuldirashib birin-sirin tarqalishdi. O‘tov og‘zida Shomat qoldi. U hamon nimanidir kutar, nimanidir umidvor edi.

Katta sopol tovoqda qovurdoq ko‘tarib kirayotgan Anor xola: “Yo‘lda turmagin-da, Shomatjon”, dedi, qaytib chiqayotib esa: “Bu bolaning qulog‘iga gap kirmas ekan-da”, dedi endi jerki-gandek.

Shomat serraygancha turaverdi. U mehmondan ayni shu payt tayinli bir gap chiqishini kutardi. Yo‘q, chiqmadi!

Mehmon yuzlari qizarib gapga sho‘ng‘ib ketgan, bu tomonga qarashni xayoliga ham keltirmas edi.

Bola havas bilan uning kiyimlariga tikilar, og‘zidan chiqqanini ilib olay der edi. Ammo biror gapiga tushunmadi. U allaqanday gilamlar haqida so‘zlardi.

— E, bu hali ham shu yerda-ku! — dedi bir vaqt Turdiboy.
— Shuningiz ko‘p qashshang-da, Aliqul...

O‘tirganlar bolaga yalt qarashdi. Mehmon unga shunchaki bir nazar tashladi-da, tag‘in gapga tushib ketdi.

Otasi chiqdi, Shomatni qulog‘idan cho‘zib kapalariga olib keldi.

— Buning odamni sharmanda qiladigan... — deb onasiga o‘qraydi.

Shomat po‘stakda ag‘anab, chiy qamishlari orasidan qo‘shni o‘tovga ko‘z tikdi. “Balki hozir chiqib qolar, — deya o‘y surardi u. — Ertaga-chi, aytganday, ertaga...”

Bola alla-pallagacha ana shu xayolda uyg‘oq yotdi.

Ertasiga u echki-uloqning tapir-tupuridan turib ketdi. Chiy qamishlari oralab kigiz ustiga uzun-uzun kumush chiziqlar tushgan: kun yoyilib qolibdi. Negadir bugun uni hech kim uyg‘otmabdi. Bu mahalda u mollarni sog‘dirish uchun qaytarardi...

Shoshib kapadan chiqdi. Hamroqul amakining o‘tovi kimsasiz. Atrofida bo‘shagan shishalar yumalab yotibdi. Shlyapalilar kelganida ham ertasi shunaqa bo‘lganini esladi Shomat. So‘ng ularni do‘nglikka terib, Turdiboy bilan Islom merganlik qilishgan edi.

Shomat do‘ng etagidagi, qiydan qoraygan maydonga olazarak tikildi. Tikan bostirib o‘ralgan qo‘rada ayollar mol sog‘ish bilan mashg‘ul. Tizzalari orasiga olgan xurmachalarga shir-shir sut tushadi. Qizil qiyiq tang‘igan qizaloqlar qo‘y-u echkilar bo‘ynidan quchoqlab turishibdi. Uloqchalar sog‘ib bo‘lingan onalariga ma‘rab talpinishadi. Ularning bir qismi arqonga ko‘ganlangan, qolganlari yonbag‘irda erinib yemish qidiradi. Maydon qiy hidi, echki-uloq xonishiga to‘lgan.

“Qayoqqa ketdi ekan?..” Shomat shu xayolda Hamroqul amakining xotini bilan gangir-gungur qilishib chetroqda echki sog‘ayotgan onasi tomon yurdi.

— Kecha xiyla o‘tirishdi, chog‘i? — deb so‘radi onasi.

— Ha-ya, oynam, uch marta go‘sh t qovurdim. Shishalarni ko‘rdingizmi? Yigit o‘zi siqilgan ekanmi, tog‘- u toshda bir yayrab ketdi-da.

— Iya, ketdimi hali? Men, kecha o‘tirishgan bo‘lsa, o‘tovda uxlayotgandir, deb o‘ylabman.

— Qaytishi kerak ekan Toshkandga. Ishi ko‘pmish. Ko‘rmadingizmi, azonlab jo‘nadi-ku?

Bola bo‘shashib cho‘nqaydi, yuzini tizzasi ustida chalishtirgan qo‘llariga bosgan ko‘yi xiyla zamon karaxt bo‘lib qoldi. Keyin asta o‘girilib tog‘ tomon qaradi. Shunda, kezaverib qadrdon bo‘lib ketgan past-baland adirlari, uchi nayzadek qoyalar, oppoq bulutlar qo‘nib turgan olis tog‘ cho‘qqisi ko‘ziga favqulodda ajib ko‘rindi. O‘sha oppoq bulutlar qo‘nib turgan cho‘qqi ortida hamon g‘aroyib bir shahar bordek tuyulardi unga...

1973

SOY BO'YI, CHIMZOR...

...Bog'ko'chani to'ldirib qarindoshlarining to'yidan qay-tishardi. Ko'cha kunduzidek oydin. Eshaklar tuyog'idan ko'tarilayotgan chang oydinda kumush g'ubor misoli kezadi. Devori nuragan tomondagi chimzor yalanglikda qator chodirlar tikilgan, allakimlar yuribdi. Eshak hangrashi quloqqa chalinadi, bolalarning baqiriq-chaqirig'i...

U tavanxonaning bir burchagida uxlab qolgan ekan, uyg'otib olib ketishdi; hozir buvisining izidan gandiraklab mudroq odim tashlardi. Yalanglikdagi manzarani ko'rib vahimaga tushdi.

— Lo'lilar... Shu yerga qo'nishganga o'xshaydi, — dedi buvisi.

U buvisining etagidan tutgancha uyg'a qadar qo'rquv ichida keldi. Tushiga ham lo'lilar kirib, bosinqirab chiqdi.

Bola-da, xiyla muddat yalanglikka yo'layolmay yurdi. So'ngroq yalanglik uning tengqurlari bilan chillak o'ynaydigan sevimli joyiga aylandi. Ammo u endi bu yerda o'sha manzara: chodirlar, lo'lilarni ortiq ko'rmadi.

Har qalay, ulg'aygani sayin o'sha oqshom xotirida oydin bir xayolga aylanib bordi. Keyin-keyin u yalanglikdan ham, chillakdan ham aynidi, tanho o'zi soy bo'yiga tushishni odat qildi.

Yalanglik tutashgan yassiroq do'ngdan orqada qishloqni bo'lib soy oqardi. Soyning narigi beti qalin terakzor. O'rtadagi yakka yong'oq tagida tomiga beda bosilgan tosh devorli g'arib kulba, shotinusxa eshigi doim ochiq yotadi. Balandda qatorlashib ketgan hovlilar etagidan ensizgina so'qmoq o'tgan. So'qmoqda ahyon-ahyon qizil ko'ylakli qizaloqlar, boshiga tugun qo'rgan ayollar ko'rinib qoladi.

Terakzor soy burilgan joydagi jarlikka kelib tugaydi. Jarlik qirrasida ildizlari ochilib soygacha tushgan bir tup tug'dona, suvga egilib turibdi. Pastda buloq, tubida patak ildiz bosgan mayda chag'ir tosh. Buloq tegrasini silliq ko'kish xarsanglar qurshagan.

Chashma suvi doim muzday, xarsanglar esa iliq bo'lardi. U shoshilmay yechinib, buloq suviga tikilgancha xarsang ustida uzoq

o'tirardi. Nogoh dara bo'ylab esgan oqshomgi shabadadan junjikib ketib soyga oshiqardi. Cho'milib chiqqach, o'zini boyagina band etgan o'ylardan yiroq sezar, tez-tez kiyinar, lekin soy bo'yidan jilolmas, asta chimzorga cho'zilar edi. Chimzor mayin, ko'rpadek yumshoq, iliq. Tevarakdagi xarsanglar ham iliq, havo ham...

U soyning shu yeriga har oqshom bir o'zi kelardi. Bir o'zi chimzorda chalqancha tushib yotar, vujudi halovatdan erib bo-rayotgandek tuyular, osmonga tikilgan mudroq ko'zlari beixtiyor yumilib ketar edi...

— Xayrli tun, Jalil Norboyevich!

Jalil Norboyev soy bo'yidagi chimzorda emas, kresloda ko'zini ochdi: xayol bilan mudrab ketibdi. Xona o'rtasida hamkasbi To'lqin Ikromov turardi. Eshik ochiq edi, kirganini sezmadbi.

— Charchabsiz-da... — Ikromov pastak stolcha yonboshidagi kresloga o'tirdi.

— E, xayol, xayol, — dedi Norboyev boshini orqaga tashlab yuzini, go'yo yuzidagi karaxtlikni ham kafti bilan sidirarkan. — Og'ir kun bo'ldimi-ya?

— Bilmadim, — deya kulimsiradi Ikromov. — Men uchun, masalan, odatdagidek kun. Oripov bilan tag'in g'ijillashdinglar chamasi? Foydasi yo'q, azizim, foydasi yo'q. Hali ham romantiksiz desam, xafa bo'lmang.

— Romantik bo'lishning nimasi yomon? — Norboyevning chehrasi bir oz yorishdi. — Lekin gap hozir mening romantikligimda emas. Tag'in kim biladi deysiz, balki Oripov haqdir.

— Men sizni nohaq demoqchi emasman, ammo ba'zida behuda qizishishingiz...

— Qizishmay bo'ladimi, birodar? Studentligimdan buyon shu ob'ekt taqdiriga qiziqib, qidiruv natijalarini uzluksiz kuzatib kelaman. Xabaringiz bor, bir necha ekspeditsiyalarga o'zim ham qatnashganman. "Xuddi ob'ekt bilan maxsus shug'ullangan odamday gapirasiz-a!", deb pisanda qildi. Sobir akaning oldida yer yorilmadi kirib ketsam. U kishi yangi ob'ekt bilan tanishayotganimdan bexabar-da. Ishingga emas, yoshingga, mavqeingga qarab muomala... Hech bir ish ko'rsatmasang ham qarib bukchaysang, bu odam uchun tajribali sanalasan. Qachon shunaqa illatdan qutularkanmiz-a? Natija qidiruvlar, sabr-qanoat-

lar so'ngida ro'yobga chiqishi — oddiy haqiqat. Bu kishiga natija ikki-uch oyda darrov ko'rina qolsa. Yillab tog'-u dasht kezib, hech narsaga erishmaslik ham mumkin. Holbuki, bizning qo'limizda o'tgan hafta yuborilgan dalillar bor. Kecha laboratoriyada edim. Shaxsan menda ishonch tug'ildi. Qolaversa, dastlabki qidiruvdagi faraz oshqovoqdan chiqmagandir...

— Oripov nima deyapti?

— Nima derdi, gruppani yangi ob'ektga ko'chiramiz, deydi. Men, qo'limda dalillar turib, uni hech qayoqqa jo'natolmayman. Jo'natsam, ketgan sarf-xarajatlarni keyin nimaga asoslanib akt qilamiz? O'ylab ko'ring-a! Yo'q, bu vijdon ishi, men oddiy ijrochi to'tiqush bo'lolmayman. Ekspeditsiya barbod bo'lsa, javobgarligi Oripovning emas, mening bo'ynimga tushadi. — Qizishganidan terlab ketgan Norboyev ro'molchasi bilan bo'ynini artarkan, bir fursat indamay qoldi.

— Kuyinmang, azizim, — deb jilmaydi Ikromov. — Bari bir bo'ladigan ish bo'lmay qolmaydi. Orada sizning shuncha xunobingiz oshgani ortiqcha.

— To'g'ri-ku-ya, — dedi Norboyev endi boyagi shiddatidan tushib, bo'shshibroq. — Ammo ba'zan shunday paytda hammasiga qo'l siltab...

— O'lis sohillar tomon ketging keladi... — topqirligidan zavqlanib kuldi Ikromov.

— Ketging keladi, — kulimsirab takrorladi Norboyev ham. — Qani menda shunday jur'at bo'lsa! Ishni chala qoldirib ketolmayman-da. Lekin ruhim tushib, dunyodan bezganimda...

— Yaxshi narsalar haqida o'ylang, o'tgan shirin damlarinigizni eslang, — deya uning gapini tag'in ilib ketdi Ikromov. — Men buni o'z tajribamda ko'rganman. Albatta, tabiatigingizga bog'liq-ku-ya, har qalay...

— Bir umr esdan chiqmaydigan damlar, daqiqalar har kimda ham bo'ladi...

— Umrning yorqin sahifalari, deyiladi kitoblarda, — hozir-javobligidan yana mamnunlik tuydi Ikromov.

Bu odam umuman xiylagina gapdonligi bilan hamkasblari orasida ajralib turardi. U ayniqsa balandparvoz so'zlarni xush ko'rar, suhbatdoshining gaplaridan emas, o'zining javoblari-dan ko'proq lazzat olar edi. Hozir ham uni birovning dardi-hasratini tinglab o'tiribdi, deyish qiyin edi.

Norboyev o‘ychan bo‘lib qoldi, xayoli tag‘in olisdagi chimzorga uchdi.

— Yaxshi damlar, baxtiyor damlar, — dedi u o‘zicha pichirlab, xayolan o‘sha manzillarga qaytarkan. — To‘g‘ri... Lekin shunaqa shirin damlarimdan ko‘ra boshqa bir narsa menga ko‘proq yupanch beradi. Qishlog‘imizdagi soy bo‘yida bir chimzor bo‘lardi. Siqilsam, doim negadir o‘sha joyga borgim keladi.

...Uni tun sharpalari uyg‘otib yuborardi. Biroq u o‘rnidan qimiray olmas, qimirlasa go‘yo nimanidir buzib qo‘yadigandek, ajib bir baxtdan bebahra qolib, keyin umr bo‘yi qo‘msab o‘rtanib yuradigandek tuyular edi. Ko‘zini yumgisi, boyagi huzurbaxsh holatga qaytgisi kelardi-yu, ammo soy uzra to‘shalayotgan tun vahimasidan qo‘rqardi.

Oqshom bog‘-rog‘lar bag‘riga chekingan, tun elchilari uni tosh devorli g‘arib kulbaning doim ochiq yotadigan shotinusxa eshigidan ichkariga ta‘qib etib bormoqda... Soy shovqini ham qayergadir quvilgandek, olis-olisdan osuda shovillashi quloqqa arang chalinadi. Uning o‘rnini daqiqqa sayin kuchayib borayotgan buloq viqirlashi egallaydi. Ana, toshchalarning bir-biriga urilib shiqirlashi, jonsarak tipirchilab yurgan mitti tomirchalar... Bir payt u buloq sasidan boshqa hech nimani eshitmayotganini payqaydi. Go‘yo borliq ayni lahzada yolg‘iz ana shu tovushdangina iborat. Endi hech qachon bu yerdan turib ketolmaydigandek, tun saltanati va buloq shovqini ko‘kragidan bosib, bunga yo‘l bermaydigandek ko‘rindi, uni vahima chulg‘adi...

Xotirasiga mahkam o‘rnashgan bu holat, bu manzaralar Jalil Norboyevni ko‘p mahal tark etib yurar, biror nimadan ezildimi, ko‘z o‘ngida bexos namoyon bo‘lar, yuragiga tanish darddek kirib, tinchini olar edi. U bamaylixotir damlarida bu noaniq hissiyotdan taajjublanar, “Nega esladim? Nima bu o‘zi?”, deya o‘y surar, harchand urinmasin izohini topolmas edi. Hozir ham muztar bir kayfiyatda holatini hamkasbiga tushuntirmoqchi bo‘larkan, daf‘atan undagi loqaydlik, xotirjamlikni ko‘rib, bo‘shashib ketdi: “Rostdan ham mijg‘ov bir romantikman, shekilli”.

— Soy bo‘yidagi chimzor... — Ikromov ensasi qotganini yashirmay kiftini uchirib qo‘ydi. — Xayol — xayol, azizim, hayot — hayot. Bunaqa shoirona orzu-o‘ylar siz-u bizga hech

narsa bermaydi. Realistiroq bo'lish kerak. Anov masalaga kelsak, fikringizda qattiq turing, haqligingizni isbotlang. Oripovning hamma gap-u takliflari amalga oshavermaydi-ku. Sobir aka ziyrak, tadbirkor odam. Huzurlariga kirib batafsil tushuntirsangiz, ajabmas...

— Urinib ko'raman, — dedi Norboyev sovuqqina.

— Shunday qiling, azizim, — Ikromov stolchani shapilatib urib joyidan qo'zg'aldi, qo'llarini ikki yonga silkitganicha yasama hayajon bilan: “Qaydasiz, orombaxsh go'shalar!”, deya xitob qilgan ko'yi eshik tomon yurdi.

Norboyev uning orqasidan qarab qolarkan, ichida pushaymonlik tuydi: “Kelib-kelib hasrat qilgan odamimni qara! Men bog'dan kelsam, bu... Sayradi-sayradi, ketdi. “Orombaxsh go'shalar” emish!.. Sen aytmasang ham bo'sh keladigan landovur yo'q. Oripovga qolsa nimalar bo'lmasdi! Lekin, baribir, kayfiyatga shayton oraladi”.

Norboyev sevimli chimzorini eslayverib, aftida bu g'aroyib xotiralariga xotinini ham ko'niktirgan edi. U qachon o'shandan gap ochsa, xotini negadir ma'yuslanibroq qolardi.

...Endi hech qachon bu yerdan turib ketolmaydigandek tun saltanati va buloq shovqini ko'krigidan bosib, bunga yo'l bermaydigandek ko'rindi, uni vahima chulg'adi. Biroq shu payt osmon nogoh nurlanib ketdi-yu oppoq bulutlar bag'ridan uchib chiqqan jonzot oqqush misol ohista-ohista pastlab kelib uning yoniga beozor qo'ndi. Yonginasiga — chimzorga cho'zildi-da, orzu qilib yurgan qiziga aylandi.

Mana, ular osmondagi oppoq bulutlarga tikilib sarxush yotishibdi. Xayollari o'sha bulutlardek oppoq, beg'ubor. Ko'ngillarida tashvishdan, armondan gard yo'q. Baxtiyor sukunat. Atrofdasas eshitilmaydi — ko'kraklarning bir tekis ko'tarilib tushishi-yu bulutlarning yengil, nozik qanot qoqishi... Go'yo hammasi bir umr shunday davom etadigandek...

U qachon chimzordan gap boshlasa, xotini negadir ma'yuslanibroq qolar, boyagi joyi kelganda g'ash bo'lgani ochiqdan-ochiq yuziga tepar edi.

— Kim edi o'sha qiz? — deya betoqat bo'lib so'rardi u.

— Sen, — deydi Norboyev kulimsirab.

— Men? Ho, u paytda men qayoqda ekanman?..

— Sen... o'sha bulutlar orasida eding. Rost, o'sha sen eding. Chimzorda yotib seni o'ylardim.

— Bahona! Bilaman, u boshqa bo'lgan. Yashiryapsiz...

Bahonami, yashiryaptimi Norboyev? O'sha qizning kimligini o'zi biladimi? Kim edi u?.. Ehtimol, bu o'sha — osmon favqu-lodda ko'm-ko'k, tip-tiniq bo'lgan g'aroyib oqshom xarsang boshida yashindek bir ko'rinib ko'zdan qochgan qizdir...

O'smirlik kezlari edi. Olamda uni hech kim tushunmas, hat-to o'zi ham o'zini tushunmasdi. Alomat-alomat orzularga sho'ng'irdi, xilvat-xilvat burchaklar qidirardi, yuragi to'lqin urib bir yoqlarni qo'rsardi. O'smirlik kezlari edi.

Bir kech u soyda suvdan chiqib, yag'rinini iliq xarsangga toblagancha xayol surib o'tirgan edi, daf'atan nigohi balandda qatorlashib ketgan hovlilarga tushdi. So'qmoq bo'yidagi ulkan xarsang ustida bir qiz turardi. Boshdan-oyoq oppoq kiyimda. Ko'ylagi, qo'lidagi harir durra shamolda hilpiraydi, yoyiq sochlari ham, go'yo hozir o'zi ham uchib ketadigandek...

U boshini sarak-sarak silkitdi, ko'zini bir-ikki yumib ochdi — qaradi. So'qmoq bo'yidagi ulkan xarsang ustida bir qiz turibdi. Boshdan-oyoq oppoq kiyimda...

Ko'z oldidan tevarak-atrof chekingandek bo'ldi: terakzor, balandda qatorlashib ketgan hovlilar, so'qmoq, xarsang... ko'm-ko'k, tip-tiniq osmon-u oydin bir chehra qoldi. Boshdan-oyoq oppoq libosdagi qiz va ko'm-ko'k osmon. Ko'm-ko'k osmon va boshdan-oyoq oppoq libosdagi qiz... Oydin ruxsor ro'parasiga kelib qoldi. Jilmaydi. Gapirmaydi, faqat jilmayadi. Faqat jilmayadi, gapirmaydi...

Sinfida qizlar ko'p edi, maktabida qizlar ko'p edi, chiroylilari ham bisyor edi-yu, ammo bu qiz ularning hech biriga o'xshamasdi: faqat jilmayadi — gapirmaydi. Gapirmaydi — faqat jilmayadi.

Nogohon u qanot qoqqandek sakrab xarsangdan tushdi-da, chopqillab gujum ostidagi darvoza ortiga bekindi. Ko'm-ko'k, tip-tiniq osmon qoldi... U darvozadan ko'z uzolmay, sehrlangan kabi o'tiraverdi. Bir yilga cho'zilgandek tuyuldi unga o'sha oqshom.

Ertasi u yana soyga tushdi, gujum ostidagi darvozaga qaradi, indiniga yana tushdi, gujum ostidagi darvozaga qaradi: darvoza

joyida, xarsang ham joyida, osmon ko'm-ko'k, tip-tiniq — ammo qiz ko'rinmas edi. U go'yo darvoza orqasiga bekinib olib, uni kuzatib turgandek edi.

Nihoyat bir kuni u ikkilana-ikkilana so'qmoq tomon chiqib bordi. So'qmoq etagidagi gilamdekkina maydonchada uchto'rt bolakay yong'oq o'ynab yurardi. Tikroq biridan darvozani ko'rsatib, kimning uyi ekanini so'radi.

— Ularnikiga mehmon kelgan edi, — dedi peshanasi qashqa bola, xuddi birov so'ragandek.

— Mehmon? Qanaqa mehmon?

— Shahardan, — deya aralashdi tikrog'i. — Ne'mat amakimning kattalari. Uzun qora mashinada kelishdi. Kattalari, xotini, qizi, yana Shurik degan o'g'li. Mashinalari bilan huv toqqa chiqib tomosha qilib kelishdi-da, keyin ketishdi.

— Shahardan, de?

— Shahardan, katta shahardan...

U shaharni, katta shaharlarni ham ko'rdi. Lekin o'sha qizni, unga o'xshagan qizni uchratmadi. Go'yo o'sha, osmon favqulodda ko'm-ko'k, tip-tiniq bo'lgan oqshom shamol uni hech kim ko'rmaydigan bir yoqlarga uchirib ketgan edi.

U soyga ketayotganida doim o'sha qizni yana ko'radigandek tuyulardi. Qiz hamon gujum ostidagi darvoza tirqishidan mo'ralab turgandek bo'lardi.

Soy bo'yidagi chimzorning yuragiga bezovta bir dard kabi o'rnashganiga ham, balki, o'sha g'aroyib oqshom xarsang boshida yashindek bir ko'rinib ko'zdan qochgan shaharlik qiz sababchidir...

O'smirligidagi bu voqea-ku Norboyevning kechagidek yodida. Biroq har eslaganida xotini o'smoqchilab so'raguvchi oppoq bulutlar bag'ridan uchib kelgan anov qizchi?.. Ehtimol, xuddi o'sha holat unda haqiqatda hech qachon bo'lmagandir. Ehtimol, bu tushdir yoki orzumand o'smirligida xayolida yaralgan mavhum manzaralar samarasidir. Lekin Norboyev biror nimadan dilgir bo'lgan, siqilgan chog'larida bir martagina shunday baxtiyorlik, bearmonlik o'zida kechgandek tuyuladi, ko'ngli shundan orom topadi. Bir kuni u xotinidan so'radi:

— Senda ham shunaqa xotirobormi?

Xotini xayolparastlikda Norboyevdan qolishmas va bir qadar shoirtabiat edi. U birpas o'ylandi-da:

— Bilmadim, — dedi. — Qiziq... Bolalagimda ekanmi, hatto go'dakligimdami, buvim bilan qayoqqadir ketayotgan edik. Hayron qolasan: quyosh yo'g'u, lekin hammayoq yop-yorug', chorog'on. Ikki tarafda baland-baland teraklar. Osmon zangori-zangori, yulduzlar charaqlagan. Pastda, teraklar boshida qandaydir gilam... Ha-ha, teraklarning uchginasida!.. Uchar gilam shu bo'lsa kerak, deb o'ylabman. Gilamda xuddi bir rasmdagidek mashshoqlar, raqqosalar davra qurgan. Biri raqs tushyapti... Ertakdagiday antiqa manzara-ya, to'g'rimi? Lekin men nima uchundir shularni o'z ko'zim bilan aniq ko'rganga o'xshayman... — U andak indamay qoldi. Norboyev sehrlangan kabi qimirlamay o'tirardi. — Yoqimli bir kuy chalinardi. Tanish, juda tanish kuy. Ammo shuncha eslayman deyman-u sira eslab qololmayman, nimasidir tutqich bermaydi. Bo'lmasa shunday qulog'im ostida turadi-yu, ohangi tilimga kelmaydi-ya! G'alati. Xotirami bu yo bolalikda ko'rgan tushimmi — hanuzgacha ajratolmayman.

— Bo'ladi, bo'ladi, — dedi nimadandir qanoat hosil qilgan Norboyev quvonib. — Lekin... bu qanday paytlarda esingga tushadi?

Xotini erkalanib iljaydi.

— Ba'zan, xafa qilganingizda, keyin huv chimzoringizni aytib berayotganingizda.

— Chimzor... — Norboyev hasrat bilan pichirladi. — Soy bo'yidagi chimzor... Bu yil qishloqqa borsak, albatta o'sha chimzorda yotib bir maza qilamiz. Eh, sen bilmaysan-da u yerni! — U xotiniga yod bo'lib ketgan manzarani qaytadan aytib bera boshladi. — Tasavvur qil: ikkalamiz cho'zilib yotibmiz, tepangda osmon — baland, oppoq; yonginangda soy, buloq viqir-viqir qaynaydi... Eh, sen ko'rmagansan-da, u yerning osmoni ham, soyi ham, bulog'i ham boshqacha... Ikkalamiz osmonga tikilib yotibmiz. Tashvishlarni unutasan, xuddi hamma orzularingga yetganday, armonlaring yo'qday tuyuladi. Ishon, shunaqa bo'ladi. Bu yil albatta...

Xotini shu tobda xayolparast o'smirga aylanib qolgan erining gaplarini eshitarkan, avval ajablanar, so'ng undagi orzumandlik yuqib, ishona boshlaganini sezmas edi.

Norboyev otpuskasini deyarli har yili qishloqda o'tkazardi, biroq har gal ham chimzorini ko'rolmay armonda qaytib kelardi. Bultur ham u ne-ne niyatlar bilan qishlog'iga bordi. Yil davomidagi diqqatbozlikdan toliqqan ekanmi, yor-jo'ralari ardog'ida yayrab, necha kun o'tganini ham payqamay qoldi. Bir-biriga ulanib ketgan ziyofat-bazmlarga chalg'ib, o'ylab kelgan rejalarini eslashga fursati bo'lmadi, soy bo'yidagi chimzor esa yodiga ham tushmadi.

Bir oqshom, kunduzgi mehmondorchilikdan horib-charchab ayvonda cho'zilib yotarkan, xotini unga va'dasini eslatgan edi, shaharda qilgan xayoli o'ziga erish tuyulib, ajablendi: "Kap-katta odam xotini bilan allaqanday chimzorda cho'zilib yotsa kulgili-ku. Bu yoqda shuncha dabdabali mehmondorchiliklar... Afandilik bo'ladi, yo'q. Keyin bitta-yarimta ko'rib qolsa nima deydi? Bu fikr menda qayoqdan paydo bo'ldi o'zi?.." Xotini-ning yalinchoq bir qiyofada o'tirganini ko'rib, yumshadi: "Ul-guramiz, jonim, shu yerdamiz-ku hali. Erta bor, indin bor..."

Ertasi Norboyevning uzoqroq bir qarindoshi vafot qilib qoldi. Fotihaga soyga yaqin o'sha ko'chadan borishga to'g'ri keldi. Marosimga ketayotgani uchunmi, Norboyev yalanglik yonidan o'tarkan, ko'ngli battar buzildi, xotirida ajoyib bir manzara bo'lib qolgan o'sha — lo'lilar qo'ngan kechani esladi. Fotihadan qaytishda albatta soy tomonga o'tishni o'ylab qo'ydi. Ammo qaytishda soy bo'yiga tushish ko'ngliga sig'may, bir lahza yalanglik chetida xomush turib qoldi. Basharti u yerga hozir borsa, o'ylagani chiqmaydigandek, natijada, bir muqaddas narsasidan butunlay ajralib qoladigandek bo'ldi-yu niyatini keyinga surdi.

Ikki kundan keyin ishxonasidan shoshilinch telegramma keldi. Unda muhim bir masalada ishtiroki zarur ekanini ta'kidlab, tez yetib kelishi aytilgan edi.

— Tinchlikmikan? — deb so'radi xotini.

— Tog'dan xushxabar bor shekilli, — dedi Norboyev ich-ichidan quvonib. — Balki boriboq ekspeditsiyaga jo'nashimga to'g'ri kelar. Yoki yangi loyihamizni tasdiqlashmoqchimikan?..

Xotini jimgina kulib qo'ydi.

— Siz asli shoir bo'lishingiz kerak edi, — deya so'z qotdi u anchadan keyin, — ta'sirchansiz juda. Yuragingiz tor. Haqiqat-

ni osmonda deb bilasiz ba'zan. Mana, shuncha kuyib-pishganlaringiz zoye ketmabdi-ku. Demak...

Norboyev xotinini gapirtirmadi: belidan quchib dast ko'tardi.

— Geologning shoirdan nimasi kam, a? Yuragingiz tor, deysanmi? Tor bo'lgani yaxshi. Ishni yuragi tor, doim kuyib-pishadigan tajanglar o'rinlatadi, bilsang.

— Oh-oh, maqtanishlarini!.. Qancha qiynaladingiz shu loyihani deb.

— Uzoq davom etgan muvaffaqiyatsizliklar g'alabani juda yaqinligidan darak beradi, degan ekan kimdir. Busiz kashfiyot, hayot bo'ladimi, jonim? Lekin, aytganingday, tinkamni quritgan edi o'zi shu ish. Uchib borgim kelyapti hozir...

Ketishda soy ko'prigidan o'tisharkan, Norboyevni favqu-lodda ayanchli bir hayajon qamradi. U o'tpuskasi ko'z ochib-yumguncha yarimlaganini, biroq olis shahardan nechog'li qo'rsab, oshiqib kelgan chimzoriga yana borolmay, yana uni ko'rolmay, mana endi qaytayotganini o'yladi-da, o'rtanib ketdi. Soy bo'yidagi qadrdon xarsanglar, barra chimzor unga ta'na bilan qarab qolayotgandek tuyuldi. Uzoqlasharkan, ularga boq-qancha dilida qasd qildi. “Kelgusi yil albatta, albatta...”

Norboyev bugun ham uyiga tajang qaytdi.

Erining avzoyidagi tanish holatni payqab, xotini odatdagidan ehtiyotkorroq muomalada bo'lishga tirishardi. Norboyev xontaxtadagi ustiga sochiq bosilgan choynakni asabiy nari surib qo'ydi-da, choponini yelkasiga tashlab ayvonchaga chiqdi. Panjaraga suyanib, chiroqlari jilva qilayotgan shaharga boqdi. Lekin hech nimani idrok etmadi — xayoli chimzorda, soy bo'yidagi ko'kalamda edi.

Ayvonchada battar diltang bo'lgach, xonaga kirib divanga yonboshladi, bari bir g'ashligi tarqamadi — choponi bilan boshini burkab oldi. Shu tariqa u divanda anchagacha yotoqchilab yotdi. Bir mahal peshanasida xotining yumshoq barmoqlari kezayotganini sezdi.

— Charchadingizmi?

— Ey-y, — xo'rsindi Norboyev. — Shu yil bi-ir dam olmasak... Qishloqqa boramiz. Soy bo'yida chimzor bor... — U nimadandir xavotirda xotiniga o'tkir tikildi. — Ha?

— Soy bo'yida chimzor bor... — deya unga hayron boqarkan beozor takrorladi xotini. Bu gapni u shu qadar tabiiy samimiyyat, soddadillik va ishonch bilan aytdiki, Norboyev beixtiyor jilmaydi.

Soy bo'yida chimzor borligini Norboyev o'zi biladi. Ammo shu tobda xotining bu gapiga juda-juda ishongisi keldi. Kayfiyati o'z-o'zidan yorishib ketdi. Xotini sovib qolgan choyni yangilash uchun oshxonaga chiqarkan, ko'zini yumdi. Ko'z oldida tanish manazara namoyon bo'ldi... Ko'm-ko'k, tip-tiniq osmon... Ulkan xarsang ustida turgan oppoq libosdagi qiz... Bog'ko'cha kunduzidek oydin. Eshaklar tuyog'idan ko'tarilayotgan chang oydinda kumush g'ubor misoli kezadi. Yalanglik... chodirlar... notanish allakimlar... bolakaylar baqiriqchaqirig'i...

U buvisining etagidan tutganча tuproq ko'cha bo'ylab pildirab ketmoqda. Ko'channing adog'i ko'rinmaydi...

1975

ERTAK BILAN XAYRLASHUV

...Boloxona derazasi oldida karavotga tizzalab, iyagini uning yaltiroq, muzdek qubbasiga tiragancha qo'shni hovlidan ko'z uzmaydi.

Uch kun avval u bir to'p jo'ralariga qo'shilib ravoch ter-gani Archamozorga ketgan edi. Ravoch bahona, tog'-toshni aylanib, bugun peshinga yaqin qaytib keldi. Kelsa, qo'shni hov-lidan childirma tovushi eshitiyapti.

— Chiq, — dedi, yengi shimarig'liq, borib-kelib xizmat qilib yurgan onasi, — Rohat opangning to'yi...

— E-e!.. — deya arazli qo'l siltadi u.

— Chiq-ov, tentak, xafa bo'ladi. Nima jin urdi sizlarni, et-tirnoqday opa-uka edilaring-ku!

Xo'mraydi — indamadi. Boloxonaga ko'tarilib, botiniy bir qiziqish bilan qo'shni hovlini kuzatishga tushdi. To'rt-besh mo'ysafid-u to'rt-besh tanish ayol aylanib yuribdi. Childirma tovushi ichkaridan kelyapti. Bolaning ko'ngli hazin bir orzi-qishga to'ldi. Xayolga cho'mib, o'zicha mast bo'la boshladi u.

...Mana, hozir uydan otilib Rohat opa chiqadi. Yuzidagi doka-paranjini ulotiradi. Childirma birdan tinadi. Hovlidagi chol va ayollar uy-uylariga g'oyib bo'lishadi. Atrof jimjit. Tuyqus ayvon tagidagi supada Rohat opaning allaqachonlar o'lib ketgan bu-visi paydo bo'lib qoladi: qabridan chiqib keldi shekilli... U oyog'ini pastga osiltirib, ustunga suyangancha bemalol tasbeh o'girib o'tiribdi...

Rohat opa yugurib kelib uni mahkam bag'riga bosadi, ko'zlarida yosh: “Mendan xafa bo'ldingmi-a, Komiljon? Ham-masi yolg'on edi! Endi hech qachon unaqa bo'lmaydi. Kechir, kechiraqol...”

Komil uni kechirolmaydi, chunki gapirolmaydi: shirin dardli uyquda, boshi qizning bulutdek momiq xayoliy ko'ksida — unga ortiq hech narsa kerak emas...

...U qiz bolalar bilan do'stlashishni noma'qul odat deb bi-lardi. Tengdoshlari barining do'st tutingan qizlari bor edi. Ular goh dars, goh tanaffus chog'lari kimlar orqalidir sirdosh qiz-

lariga pinhona xat yo‘llashar, xilvat-xilvat burchaklarda shivirlashishar, bo‘lak mahallari esa sirli imo-ishoralar yordamida all-animalarni “kelishib” olishar edi. Buni zimdan payqab yoki oshkora ko‘rib qolsa, Komil avval hayratlanar, so‘ng g‘ashi kelar, jahli chiqar edi. Bachkana, yarashmaydigan bir qiliq sanab, bundan or qilardi. Sezishicha, qizlar ham unga allane-chuk kinoya aralash taajjubda qarardi. Bora-bora bu qarashlar anchayin loqaydlikka aylandiki, Komil endi bunga ham toqat qilolmas, o‘zini kamsitilganday his etar edi.

Darsdan keyin bolalar maktab maydonchasida qolib ko‘ptok tepishadi, u to‘g‘ri kutubxonaga — Rohat opaning yoniga yo‘l oladi.

Kutubxonada boshlangan kitob bahsi oqshom chog‘lari uyda davom etadi.

Komilning boshqalar kabi darichadan engashib, shoshilmay o‘tishga toqati yo‘q: jiyda tagida tandirga taqalgan kemtik devordan lip oshadi-qo‘yadi. Rohat opa ko‘ylagi etagini o‘g‘il bolalardek lipasiga qistirib hovli supirayotgan yoki pastak somon-xona ustida yiroqlarga tikilib negadir xomush xayol surayotgan bo‘ladi. Tili zahar, o‘zi shirin jikkakkina buvisi esa ayvon chetida ustunga suyanib, oyog‘ini osiltirganча tasbeh aylantirib o‘tiradi. Bolaga ko‘zi tushgach, yuzi battar bujmayib, zaif ko‘zlari yiriklashadi.

— Hi, mahmadana, yana keldingmi? — deydi yoshiga no-munosib jangari ovozdа. — O‘zi mushtdakkina-yu, ichi gapga to‘lgan-a, yopiray!.. Rohatoy, qara bu yoqqa, qayliqchang keldi.

— Uyga o‘tarkansiz, moma, — deydi Komil. — Enam aytib yubordilar.

— Ha-a, mundoq degin. Nima, mehmon-pehmon keldimi? — deya yuzidan ajin qochib, kampir muloyimlashadi: — Momang bo‘lsa edi. Ko‘pdan bi-ir hasratlashay deyman...

U Komil gilosdan yo‘nib bergan qiyshiq hassaga tayanib o‘rnidan qo‘zg‘aladi. Burilib sinovchan so‘raydi:

— Tag‘in kechagiday aldagan bo‘lma-ya!.. Rohatoydan kitob opbo‘psan keyin! Otangga aytib, teringga somon tiqtiraman...

Rohat opa supa labiga kelib, jilmayib ko‘z qisadi:

— Qala-ay? Olamda nima gaplar? Yana qaysi sho‘rlik qahramon baxtsiz bo‘lib qoldi?

— E-e, shu... — deya chaynaladi Komil.

— Birpasda baxtiyor qilib qo‘yamiz-da!

U to‘qiyotgan ro‘molchasini olib supa chetiga o‘rnashadi, Komil — to‘ntarilgan paqirga.

Shom kiradi, ishkomdagi barglar bir tusga bo‘yaladi; qo‘shni Tursun kalning tezpishar giloslari boshida tungi chug‘urchiqlar gurungi qiziydi; oldin yulduzlar miltillaydi, so‘ngra shoshmasdan oy ko‘tariladi. Barglar endi tusini o‘zgartirib, nur emgan-cha sokin mudray boshlaydi... Qaysidir bechora qahramon baxtsiz bo‘ladi, qaysisidir baxtiyor. Hammasi Rohat opa ikkisining qo‘lida, shularga bog‘liq. Faqat kampirning qachon qaytishigina emas...

Tosh to‘kilgan yo‘lakda egri hassaning to‘q-to‘qi eshitiladi-yu, qizg‘in tortishuv avjida shartta uziladi.

— Gapxaltalaring haliyam bo‘shamadimi, o‘ xudo! — deydi kampir yaqinlashib. Komilga yuzlanib dag‘dag‘a qiladi: — Hah shayton! Aldagan ekan bu yana. Otangga aytib keldim, ko‘rasan hali. Bo‘ldi endi, jo‘na!

— Hozir, momajon, hozir...

— Yo‘q-yo‘q, jo‘na! Ertaga ham qolsin, axir! — Kampir hassasi bilan nuqiy-nuqiy Komilni haydagan bo‘ladi. — Muncha bir-birini topgan-ey bular! Rohatoy, qayliqchangni o‘zing quvlasang, ketmaydiganga o‘xshaydi bugun. Sendan ko‘ngil uzolmayapti shekilli-da...

Rohat opa sho‘xchan ko‘z qisib, o‘rin solgani ichkari kirib ketadi. Komil tajang holda uyga qaytadi. Afsus, qancha-qancha qahramonlar taqdiri hal etilmay qoldi...

... — Har kimning o‘zicha ertaklari bo‘larkan... — dedi bir kuni Rohat opa xayolchan. — Lekin shulardan birinchisi hamisha shirin, unutilmas...

— Rohat opa, meniyam ertagim bormi? — deb so‘radi bola qiziquvchanlik bilan.

— Bor, — deya javob qildi Rohat opa jilmayib, — katta bo‘lsang bilasan... Senga bir ertak aytib beraymi? — dedi u orziqtiruvchi sukutdan so‘ng. — Eshit, qiziq...

Bola anqayib uning mayin tukli lablariga, yoshovsirab turgan ko‘zlariga tikildi.

— Bir bor ekan, bir yo‘q ekan... — deb boshladi Rohat opa ertagini.

Komil o‘qigan ertaklarning bari shunday boshlanar, keyin “bir chol-u kampir bo‘lardi”. Rohat opanikida esa “bir kampir va uning nevarasi bo‘ladi”. Bola xayolan kampirni Rohat opaning buvisiga, qizni uning o‘ziga o‘xshatdi.

— Kunlardan bir kun yaqin qarindoshlarining biridan qizga sovchi kepti, — deya davom etdi Rohat opa. — Qiz uni durustroq ko‘rmagan, yaxshi tanimas ekan. Buvisi “Agar shunga tegmasang, go‘rimda tik turaman”, deb shart qo‘yibdi. Buvim go‘rida tik turmasin deb qiz noiloj rozi bo‘libdi. Uning senga o‘xshagan yolg‘iz sirdosh ukasi bor ekan. Qiz uni juda yaxshi ko‘rar, ko‘nglidagi hamma gapini, o‘zi haqida to‘qigan ertaklarini ham unga aytib berar, lekin u hali yosh, ko‘p narsani tushunmas ekan...

— Tushunaman, tushunaman, — deb yuborganini sezmay qoladi Komil.

Rohat opaning yonoqlariga bir zum qirmiz rang yuguradi, ammo u piqirlab:

— Voy, bu ertak-ku! — deydi. So‘ng bolaga uzoq tikilib qoladi. — Shaytoncha! Bundan gap yashirib bo‘larkanmi...

Ko‘chada bolalarning shovqini tingan. Chug‘urchiqlar guringi avjida, lekin hali yulduzlar ko‘rinmaydi. Komil, har galgidek, kemtikdan oshiboq, “Rohat opa-a!” deb chaqirdi. Biroq, ayvonga yetar joyida taqqa to‘xtab qoldi. Kampir, odatdagidek, ustunga suyangan ko‘yi tasbeh o‘girardi, yuzida allaqanday tashvish. Hovlida esa, odatdagidan tashqari, uch-to‘rt ayol katta bir ishga qo‘l urmoqchidek yeng shimarib u yoqdan-bu yoqqa o‘tib turar, ammo qilayotgan ishlarining tayinini bilib bo‘lmas edi.

Bolani ko‘rib ular, yenglari shimarig‘liq, joylarida to‘xtab qolishdi. Kampir boshini ko‘tardi, o‘qraydi, yomon o‘qraydi. Komil o‘zi bilmagan holda qandaydir nobop ish qilib qo‘yganini sezdi. Sezdi-yu, shuni oqlamoqchi bo‘libmi, beixtiyor:

— Rohat opam... Rohat opam qanikay? — deya entikib so‘radi.

Dastyor ayollar bir-birlariga qarab olishdi, ajabsingandek kulimsirashdi. So‘ng ulardan biri — aftidan, Rohat opalarning

qarindoshi, Komil ilgari ham bu yerda ko'p ko'rgan yoshroq juvon — ko'rsatgich barmog'i bilan "jim" ishorasini qilib, ildam yaqin keldi, oppoq, semiz qo'lini uning kiftiga qo'ydi-da, engashgancha uy tomonni ko'rsatib shivirladi:

— Rohat opangizning qaylig'i kelgan...

Bola uning mamnun yuziga, jonsarak ayollarga, tajang-tashvishli kampirga, supadagi ohorli ko'rpa-yostiqlarga, o'choqda gurillab yonayotgan olovga va nihoyat noma'lum sababga ko'ra eshigi berk uyga bir-bir qarab, nimaningdir ma'nisiga yetgandek bo'ldi.

Juvon baxmal nimchasi yonini kavlab, to'rt-besh dona popukqand chiqardi, uni bolaga tutqazarkan:

— Mang, aylanay, Rohatoy opangizning to'yidan, sochqi, — dedi. — Boring endi, o'ynang. Kech bo'ldi, enangiz ham qarab o'tirgandir. Ha, opasi bo'yidan...

Kecha tatil mahali onasi otasiga aytgan gaplar Komilning esiga tushdi: "Rohatoyniyam qayliqqa berdilar. Xolavachchasigami, amnavachchasigami. Kampir qurg'ur qildi bu ishni. O'zining ko'ngli yo'q shekilli, yig'lagani yig'lagan. Endi nima deyayotganmish deng kampirsho: "Kuyov bo'lsa, kelib shu yerga qo'shilsin. Men o'lsam, keyin o'zi biladi: ketadimi, qoladimi. Qolsa, mana uy, mana joy, hovli-tomorqa. Shartim — o'lgunimcha Rohatoy yonimdan jilmaydi!" Ertaga oqshom nikohlab, shu yerda qo'shib qo'ysalar kerak..."

Komil shalvirabgina iziga qaytarkan, orqasiga qaradi: Rohat opa ko'rinmaydi, derazalar qop-qorong'i...

Shundan keyin u Rohat opalarnikiga kamroq o'ta boshladi. Biror bahonada o'tib qolsa ham, oldingidek erkin shovqin sololmasdi: Rohat opa ko'rsatgich barmog'ini labiga bosib tanbeh ohangida "jim" deydi, so'ng uy tomonga bir qarab oladi:

— Mehmon!..

Komil goho bilib-bilmay u yerga ham kirib qoladi. Kirsas, taxmon tagidagi chorburchak-naqshin sandiqqa suyanib, qalin ko'rpachaga oyoqlarini uzatgan ko'yi bir yigit tamaki tutatib o'tirgan bo'ladi. Egnida harbiy libos, boshida Rohat opaning qo'li bilan tikilgan guldor dumaloq do'ppi. Oldidagi xontaxtada xumchoynak, piyola. Narirog'ida — kuldon o'rnida cheti uchgan likobcha.

U bolani ko‘rib, labida papirosi, chap ko‘zini tutundan qisganча:

— E-e, keling, keling, jiyan, — deya o‘rnida qo‘zg‘alib qo‘yarkan, qo‘shqo‘llab tortib uni yakandozga o‘tqazadi: — Qani, qani, jiyan, bu yoqdan...

Chehrasida bir zungina begona tabassum yoyilgandek bo‘ladi. So‘ng, shu o‘tirganicha miq etmay tamakisini tortaveradi, tortaveradi, aftidan, Komilning bor-yo‘g‘ini ham unutib yuboradi. Rohat opa kirgandagina qovog‘i sal ochilib, uning harakatlari harislik bilan kuzata boshlaydi. U yakkam-dukkam savol-javobga ham aralashmaydi, ahyon-ahyonda tizzalariga shapatilab, Rohat opa uzatgan piyolaga “yo‘q, bo‘ldi” debgina to‘ng‘illab qo‘yadi.

Rohat opa esa turli yumushlarga ivirsib, bolaning maydachuyda savollariga goh istar-istamas xayolchan javob qilsa, goho besabab indamay qo‘yaqoladi.

Ko‘chada bolalarning qiy-chuvi tinmasdan kampir hassasini do‘qillatib, “Yugur, enang chaqiryapti”, deya ming‘irlyadi.

Komil qachon u yerga borsa — “mehmon”. Mehmon har kuni keladimi, deb ajablanardi u. Keyin-keyin ko‘nikdi, “mehmon” ham o‘rgandi shekilli, unga parvo qilmay qo‘ydi. Ammo asta-asta oradagi munosabat sovuqlasha bordi. Bir gal u “Opan-gizning ishi bor”, dedi, ikkinchisida “Jiyan, sizning gapingiz tamom bo‘lmas ekan-da”, deb jerkib berdi. Oxiri “Qo‘yasizmi-yo‘qmi?” deydigan ham bo‘ldi.

So‘nggi gal... Kampir hali qo‘shnikidan qaytmagan edi. Fursatdan foydalanib Komil kemptikdan oshdi. Eshikni tortsa — ochilmadi. Derazada chiroq ko‘rinmas, pardasi tushirilgan edi. Nega bunday qildi — o‘ziyam bilolmay qoldi — beixtiyor eshikni qoqdi. Zum o‘tmay eshik zarda bilan ochildi. Ostonada papirosini labiga asabiy qisgan, ko‘zlari pirpirab maykachan “mehmon” paydo bo‘ldi.

— Ha! Nima qilib turibsan bu yerda so‘rrayib? Yana Rohatmi? Rohat yo‘q! He... — U yuzini bujmaytirib papirosini bir tortdi-da, qars etkazib eshikni yopib oldi. Ichkaridan to‘ng‘illagani eshitildi: — E, anavi tirranча! Yo‘q, dedim. Rosa jonga tegdi...

Komil kimgadir jahl qilgan kabi, orqasiga qaray-qaray qaytarkan, tag'in kimdandir najot kutar, qandaydir mo'jiza ro'y berishidan umidvor edi.

Uyda chiroq yondi, deraza yorishdi, pardasi bir yonga surildi... Rohat opa... Taniyolmay qoldi Komil: allanechuk sovuq, kinoyali... Tut barglari orasidan negadir unga bir lahza tikilib turdi.

O'sha kuni Komil sevimli kemptigidan so'nggi bora oshdi. U boshqalardek engashib, shoshilmay darichadan o'tishga toqat qilolmas, shu kemptikdan lip oshardi-qo'yardi...

Ertasidan boshlab u kutubxonaga qatnamay qo'ydi, kitobga ham qiziqishi so'ndi. Darsdan keyin maktab maydonchasida to'p tepa boshladi.

Qiz bolalardan sirdoshlar orttirdi; pinhona xat uzatadigan, ular bilan xilvat-xilvat burchaklarda uchrashadigan, shivirlashadigan bo'ldi. Sirlil imo-ishoralarning ham ma'nosini bilib oldi. Qizlarning ham Komilga munosabati o'zgardi...

Bu orada Rohat opaning buvisi qazo qildi. Endi bu yerda qolish-ketish, kampirning vasiyatiga ko'ra, kuyovning ixtiyorida edi. Kuyov hovlini sotib, cho'lga otlangan, irimiga bo'lsin, Rohatoyini hovlidan childirma bilan olib chiqish taraddudida emish.

... Komilning xayoli bo'lindi — childirma tovushi balandroq yangramoqda edi.

Hovlida birdan jonlanish yuz beradi. Qayerdandir egarjabdug'i baxmal, peshonasi bulut parchasidek oppoq qashqa ot paydo bo'lib qoladi. Childirma sadolari ostida uydan kelinni olib chiqadilar. Uning ikki yonida ikki chapdast, yengi shimarig'liq kayvoni ayol, qolganlari ortidan ergashgan.

Kelinning boshida uzun paranji, yuzida doka — kimligini bilib bo'lmaydi. Novcha bir kampir uning ustidan bir changal chaqa-tanga sochadi. Jarang-jurung. Gird-atrofdagi ayollar qiy-chuv bilan o'zlarini oyoq ostiga urishadi...

Qandaydir bilarmon qashqani kelin tomon o'ngaradi. Boshidagi do'ppisi-yu egnidagi chopon-belbog'igacha tanish, yuzi ham tanish, o'zi ham tanish kuyov kelinni belidan quchib dast ko'targancha otga mindiradi. Kelinning oldiga yosh bir bolakayni o'tqazib, jilovni shuning qo'liga tutqazishadi. Tag'in

qaysidir bilarmon rahrovga — otning yo‘liga o‘t yoqadi. Turganlar duoga qo‘l ochishadi.

Qashqa tantana bilan yo‘lga tushadi: kimdir g‘olib...

Torko‘cha boshiga yetganda bir to‘p bola chug‘urlashib otning yo‘liga arqon tutadi. Uzoq tortishuvdan so‘ng haqlarini undirib, yo‘lni ochishadi. Ot yana yo‘lga tushadi: tag‘in kimdir g‘olib, kimdir...

Childirma tovushlari uzoqlashgach, qandaydir fojiani his etgandek, Komil daf‘atan o‘ziga keldi. Fojining esa katta-kichigi yo‘q...

...Haligina gavjum, haligina to‘y bo‘lib o‘tgan hovli suv quygandek jimjit. Go‘yo to‘y u yoqda tursin, ko‘pdan buyon bu yerga odam ham kirmagan...

Bir lahza hovliga hayron tikilgan bolaning yuragi allatovur og‘riqdan suv ochib ketdi: u o‘zini xuddi tushida uchganday sezdi, beixtiyor ko‘ziga yosh qalqdi.

Komil qadrdon kemtigidan na u yoqqa, na bu yoqqa osha olmay, oyog‘ini osiltirib dilgir o‘tirardi. Shu o‘tirishda u bundan buyon — boya ko‘chada arqon tutgan, endi esa yuraklarni orziqtirganча beg‘am, betashvish shovqin ko‘tarib to‘p tepayotgan tengqurlari safiga qaytib qo‘shilolmasligiga nechundir qattiq ishonardi. Bularning bari go‘yo olis bir ertakka aylangan edi...

1970

XOTIRA

T u s h i d a

...Uylari boshqa joyda emish. Qachonlardir bo‘lganmi, bu hovli ham unga elas-elas tanish. Orqa tarafi toqqa tutash o‘rmon. Gujum tagidagi shohsupadan qaralsa, yaxlit bog‘ni eslatuvchi lo‘ppi daraxtlar-u do‘mpaygan sarg‘ish g‘aramlar aro past-baland qishloq uylari, yemirilgan chetan osha somon yanchiladigan taqir maydoncha — xirmonjoy, keyin tollarga ko‘milgan hovuzning oynadekkina chekkasi ko‘rinadi.

Supada bir to‘da xotin-xalaj. Hayitdagidek yasanishgan: qo‘llarida bilaguzuk, bo‘yinlarida shaldir-shuldir zebigardon, ko‘zlarida surma. Hammasi qarindoshlari! Ular gujumning tubangi shoxiga ilingan sopol ko‘zadan galma-gal chinni kosada suv ichishyapti. Kimdir, ammasimi-xolasimi uni imlab chetga chaqirdi. Tandir oldida shirin kulimsirab:

— To‘ylar muborak! — dedi. — Suyunchini cho‘z, suyunchini! Keyin aytaman...

U cho‘ntagini kavlab angishvona chiqardi.

— Barmog‘i teshilmasin, debsan-da, yo‘q-yo‘q, chanqovuz bo‘lsin, chanqovuz! — Ammasimi-xolasimi uyalmay-netmay yosh boladek erkalik bilan yer tepa boshladi.

Chap cho‘ntagini kavlab chanqovuz oldi.

Supadagi xotinlar guv etib unga yopirilishdi.

— Menga... menga... menga...

Kimdir, tag‘in ammasimi-xolasimi sirli shipshidi:

— Yuguring. Hovuz bo‘yida Oydin sizga qarab turibdi.

Yuguray desa, oyoqlari tepinar-u, joyidan jilmas emish. Orqasidan xotin-xalaj shovqin-suron ko‘tarib quvar-u, lekin yetolmas emish.

Oydin...

H u s h i d a

...Oydin! O‘sha xayoldek yiroq xotiradagi qizcha. Ko‘zlari katta-katta, hayrat bilan boqar edi. Qudrat negadir uning ko‘zlarinigina eslaydi, qiyofasi yodidan ko‘tarilgan. Eh-he, qachonlar edi...

Kamol ikkalasi har kun darsdan keyin oʻrmonga borardi. Gʻaffor tuyakashning yakpaxsa devoridan irgʻib oʻtgach, quyuq daraxtzorga shoʻngʻishar, goho bir-birlarini quvib, bir zumda keng sayhonlik biqinidan chiqqanlarini sezmay qolishar edi.

Toqqa tutash oʻrmon idorasi shu yerda joylashgan.

Sayhonlik boshida qator koʻrkam binolar oqarib turar, atrofida uzun-uzun oʻrisi daraxtlar boʻy choʻzgan edi. Qudrat bu yerda oʻzini qishloqlarida emas, qulogʻi ogʻriganda otasi bilan borgan shahardagidek his etardi.

Maydondan erta-yu kech bolalarning shovqin-suroni arimasdi. Oqshom, poda kelar payt birining ust-boshi tuproq, birining burni qonagan, birining boshi yorilgan, uyga qaytardi. Ayniqsa, maydon adogʻidagi terakdek oʻqqa oʻrnatilgan aylanma argʻimchoqning talabgori koʻp edi. Kim baland uchariga bahs oʻynashardi. Bahslashganlardan nechasi yiqilib, bu yerga yaqinlashmay qoʻygan, zada edi.

Garaj biqinida chala vayron “polutorka” mashinasi boʻlardi. Gʻildiraklari olingan, kabinasi pachoq, chiroqlari “koʻr”, qolgan murvatlarini Gʻilay tashib ketgan.

Gʻilay — sariq tugmali, uzun qora shinel kiyib yurguvchi, bolalar moʻylovidan qoʻrqadigan badjahl oʻrmon qorovulining oʻgʻli. Koʻzlari ikki yonga alanglab turadi: qayoqqa qarayotganini bilish mahol. Tashlandiq mashinaning xoʻjayini shu. Otasi oʻrmonga, Gʻilay mashinaga qorovul.

U mashinaga hech kimni yoʻlatmas, “Mitka, Vitkaga ayta-man”, deb poʻpisa qilar edi.

Mitka, Vitka oʻrmon xoʻjaligi direktorining oʻgʻillari edi. Yuvosh bu aka-ukalar oʻrmondagi hech narsaga daʼvogarlik qilishmas, kun-uzzukun qoʻllarida choʻzma, daraxtzor ichida chumchuq qidirishar edi. Gʻilay oʻshalardan chala-chulpa bilib olgan ikki-uch ruscha soʻzini aytib kerilib yurardi.

Toʻsatdan Mitka, Vitkalar koʻrinmay qoldi-yu Gʻilayning avji pasaydi: mashina chinakam ishqibozlarini topdi. Bolalar Mitka, Vitkani soʻrashgan edi, “Nu, davno koʻchib ketgan ular”, dedi Gʻilay xomush.

Mashinadan ayrilgach, u argʻimchoqqa xoʻjayinlik qila boshladi. Argʻimchoqda kim oʻzarga Qudrat hammadan peshqadam edi. U bir kuni Gʻilay bilan bahs boylashib, har galgidan ba-

landroq uchdi: bir zum chinorning tepa shoxlari, daraxtlar uzra soy, qishloq namoyon bo'ldi. Shu payt qo'li arqondan chiqib ketdi-yu muvozanat saqlolmay, o'rtadagi zarang do'nglikka kelib urildi. Peshonasi qonadi, tirsaklari shilindi. Qarasa, atrofida hamma: G'ilay, uning sog'-u, lekin o'lgudek bijildoq singlisi, o'rmonchining bir-biridan farqlab bo'lmaydigan uch qizchasi va hatto Kamol ham masxaraomuz tirjayib turibdi. Alamidan negadir unga yopishgisi keldi. Ammo bir chetda... rangpar, ko'zlari katta-katta, yoqimtoy notanish qiz turganini ko'rdi. Qiz kulmas, aksincha, boqishida achinishmi, hayratmi bor edi. Quдрat tuyqus peshonasidagi qonni, jizillayotgan tirsaklari-yu masxaraomuz tirjayishlarni unutib, joyidan sapchib qo'zg'aldi-da, yugura ketdi.

— Menga nima, o'zingdan bo'ldi-da, — dedi orqasidan yetib kelgan Kamol. Quдрat indamadi, xayoli boshqa yoqda edi.

— Anovi qiz kim? — deb so'radi.

— Qaysi? Ha-a... turganmi? Bilmadim, birinchi ko'rishim. Ertasiga bilag'on G'ilaydan so'rashdi.

— Da-a, umi? Yangi direktorning qizi, — dedi G'ilay va maqtanib qo'ydi: — Hamsoyamiz.

— Oti nima?

— Oti? Oti... aytmayman! — deya mug'ombirona tirjaydi G'ilay.

— Aytmasan? Nima, otangdi qizimi u?! Uraman — o'lasan!

Ko'pchilik bolalar qatori G'ilay ham Kamoldan hayiqardi. Oxiri aytdi: oti Oydin ekan!

Quдрat arg'imchoqdan zada bo'lmadi: yana bahs boylashib, avvalgidan balandroq ucha boshladi. O'rmonga oldingidan serqatnov bo'lib qoldi. Ba'zan darsdan ham qochib kelar, kechgacha shu yerda aylanib yurar edi.

Oydin goho kuni bilan ko'rinmas, oq binolarga qarayverib Quдрatning esi ketar edi.

Qiz dardchilroq, yozda ham mudom ro'mol o'rar, issiq ki-yinar edi. Quдрat uning yozilibroq o'ynaganini, quvnaebroq kulgani eslolmaydi. Ahyon-ahyonda bir ko'rinsa, o'yinga yochitmay onasi chaqirib olardi.

Chinor tagida supaga o'xshash tekis maydoncha bor edi. Oydin shu yerda G'ilayning sog'-u, lekin o'lgudek bijildoq sin-

glisi bilan qush misol hakkalab “mak-mak” o‘ynardi. Ammo Qudrat chinorga yaqinlasholmas, oq imoratlar tomon o‘tishga ham jur‘at qilolmas edi. U mashinaga kirib, oynasi siniq kabinadan Oydinni kuzatib o‘tirar, qiz qarab qolgudek bo‘lsa, G‘ilay sug‘urib ololmagan chamberakni u yon-bu yon aylantirib, oyoqlarini nimalargadir bosganча “g‘ing-g‘ing”lashga tushar edi. Keyin arg‘imchoqqa o‘tar, qiz nigohini tuygan ko‘yi yanada balandroq uchishga, bolalarning olqishini olishga tirishar edi.

Qudrat qizning qarashlaridan nimaningdir belgisini izlar, biroq, beozor, andak hayratli nigohlardan o‘zga narsani ko‘rmas edi. Oqibatda G‘ilayga havas, hasad qilardi: u Oydin bilan qo‘rqmasdan, bemalol gaplasha oladi — qo‘shnisi! Bu sharafga erishish uchun Qudrat ba‘zan g‘ilay bo‘lishga ham rozi edi...

O‘rmonni qo‘msab, Kamol ikkalasi yozda muddatidan ancha ilgari lagerdan qaytishdi. Keliboq shu yoqqa yugurishdi.

Kuz nishona berib, yerga shapaloqsimon chinor barglari to‘shalgan, arg‘imchoqlar jimib qolgan, o‘rmon allanechuk ruhsiz, zerikarli edi.

Yolg‘iz tentirab yurgan G‘ilayni topib, Oydinni so‘rashdi.

— Nu, davno ko‘chib ketishgan, — dedi G‘ilay loqaydgina: chamasi, u endi nimaga xo‘jayinlik qilishni bilmay siqilgan edi.

Qudrat o‘rmonga qaytib bormadi. Oydin asta-asta xayolidan ko‘tarildi. Qaysi bir yili Kamol uni qo‘shni rayonda ko‘rgan ekan. Gaplashibdi. Rostmi-yolg‘onmi, “Seni so‘radi”, deydi. Ammo Qudrat muqaddas bir nimani buzib qo‘yadigandek, borishdan qo‘rqdi.

Keyinroq ulg‘aygach, u ko‘p chiroyli ko‘zlarni uchratdi. Lekin o‘sha ko‘zlar oldida bulari... Yiroq xotiradagi, beozor, hayrat bilan boquvchi katta-katta ko‘zlar! Ularni uzoqdan bo‘lsin bir ko‘rish Qudratning armoni edi...

T u s h i d a

...”Hovuz bo‘yida Oydin sizga qarab turibdi”.

Oydin!

Oyoqlari o‘z-o‘zidan harakatlandi, u jon-jahdi bilan yugura ketdi — xotin-xalaj suron ko‘targanча ortda qoldi. Darvoza-xonadan chiqib, muyulishdan burildi-yu burni tagida masxa-raomuz tirjayib turgan basharani ko‘rdi: G‘ilay! Hali ham bola

emish. Bir koʻrganida otasi kabi moʻylov qoʻyib, oʻrmonchining samanini minib yurgan barzangi yigit edi...

— Nu da-a! — dedi Gʻilay va qoʻqqisdan uning yuziga panja tortib yubordi...

— Oydin, Oydin!..

H u s h i d a

...Choʻchib uygʻonib ketdi. Koʻzini ochdi. Ter bosgan, yostiqliq jiqqa hoʻl. Chalqancha yotibdi: tushida alahsirayotgan ekan-da.

Toʻshakka tirsaklab yagʻrinini koʻtardi. Karaxt, garangsib derazaga boqdi: olis-olisda kichrayib oʻrmon koʻrindi... Ana, toqqa oʻrlagan koʻm-koʻk archalar, ularning tumshuqsimon uchlari... Soʻng bu manzara hayrat toʻla bir nigoh bilan almashindi...

Derazadan tong boʻzarib kelar, qoʻshni hovlidan uzuq-yuluq uyquli tovushlar eshitilar edi.

Koʻrpani avaylab oldinga surdi. Turib tizzalarini quchdi. Tushdagi kechinmalarining shirinligini, armoni endi ushalay deganda uygʻonib ketganini oʻyladi, dardli xoʻrsindi. Nazarida hushyorlik maʼnosiz, zerikarli tuyulib ketdi: “Hayot bu qadar joʻn, maroqsiz”, deb fikr qildi oʻzicha. Xayolida yana oʻsha, unutilib ketgan xotiralari jonlandi: “Gʻalati, nega tushimga kirdi ekan? Eslamaganimga koʻp boʻldi, koʻ-oʻp. Tush — tush...”

Yoniga qaradi, gʻira-shirada beozor nafas olayotgan kimsa xotini ekanini idrok etib, dafʼatan hayron boʻldi: uylangan, xotini bor... Nimanidir qidirgandek unga qiziqsinib tikildi. Topolmadi: gʻira-shira qorongʻi. Xotini... Ana u, chalqancha yotib bir tekis nafas olyapti. Darvoqe, chalqancha yotsa, alahsiraydi, deyishadi. Ehtimol hozir xotini ham tush koʻrayotgandir? Balki u ham tushidi...

Muzdek bir nimadan titrab ketdi. Qoʻrqish va rashkka oʻxshash bir his dilini larzaga soldi.

— Guli, Guli!.. — deb jonholatda xotini turtdi.

Xotini qimirladi, “Imm”, deya erinibgina koʻzini ochdi, ogʻrinib unga boqdi:

— Ha-a?

— Tush koʻrdingmi, tush? — deya hovliqib soʻradi u.

— Tush? Qanaqa tush?! Shungami?.. E, boring-e! — Xotini ijirgʻanib teskari oʻgirildi-da, koʻrpani boshiga tortib, gʻujanak

bo‘lib oldi. Bir ozdan keyin boshini burib so‘radi: — Nima qilib o‘tiribsiz? Yoting. Kechagi tashvish o‘zi...

Kecha xotining bir to‘da dugonasi kelgan edi. Antiqa latifalar aytib ularni rosa kuldirdi. Keyin negadir qishlog‘i, bolaligi haqida gapirgisi keldi-yu, gapirmadi.

Mehmonlar orasida Mastura degani ko‘p sho‘x ekan...

U yana bir zamon shu taxlit qotib o‘tirdi. So‘ng beixtiyor ko‘ngli yorishib ketdi. Boshini orqaga tashlab shirin esnadi. O‘ringa cho‘zildi-da, xotining kiftidan quchdi...

1973

OSTONA

“Kambag‘al” bobom, erka bolaligim va targ‘il mushuk ta‘rifida bir hikoya

...Pisht, ko‘zlari sovuq o‘t sohadigan targ‘il mushuk!

Uyqudan ko‘z ochib, ostonaga yaqin, ayvon kunjida turgan ikkita qovunni ko‘rdim-u tomog‘im qoq bo‘lib ketdi — kechagi “savil” ichimdan o‘t purkardi. Bosh tomonimda, yarg‘oq po‘s-takda chopon qavib o‘tirgan onamga qaradim: “Bobommi?”

— Bobong, — dedi onam. — Seni ko‘rgani kelgan ekan. Uyg‘otgani qo‘ymadi. “Hali shu yerda ekan-ku, kelarman yana. Karimning ozroq hashari bor edi, o‘zim boshida turmasam, devor qolib loyni yuziga chaplaydi”, deb ketdi inqillay-sinqillay. Sho‘rlik otam! Senlarning ustingda o‘lib bo‘ladi, oyog‘ini arang sudrab bir zamin joydan nevara ko‘rgani keladi. Senlar bo‘lsang...

Bizlar bo‘lsak, boshimiz osmonga yetgan, tug‘ilgan qishlog‘imizni yilda bir martagina qo‘msab qolamiz. Keliboq bazm-u ziyofatlarga sho‘ng‘iyimiz, ertasi ijrig‘anish bilan eslanadigan, ayvon kunjidagi, o‘sha — bobomiz qo‘yib ketgan qovunni ko‘rganda yutoqtiruvchi ulfatbozliklardan bo‘shamaymiz. Bobomiz, saksandan oshgan, “oyog‘ini arang sudrab bosadigan” bobomiz uzoqda yashaydi-da, juda uzoqda — borish qiyin. Innaykeyin, uning shokoladi yo‘q — mushugi bor, biz yomon ko‘radigan, qo‘rqadigan mushugi...

— “Musofirchilikdagi nevaraginam”, deb besh vaqt namoz ustida duoi joningni qilganimiz qilgan — kelganda “Shamday lipillab qolgan bir bobom bor edi”, deb yo‘qlab borishni bilmaysan. Uyimizda shakalatimiz yo‘q-da, biz kambag‘al-da? “Hammasini Shakalat bibim o‘zi bilan olib ketgan”, deb o‘ylaysan-da? Hay, ishqilib musofir yurtlarda sog‘-omon, boshing toshdan bo‘lib yurgin ulim. Bizning qo‘limizdan keladigani shu — duo. Dard-u dog‘laringni ko‘rmay ketsam kifoya. Hozir ham mushukdan qo‘rqasanmi, a? Endi mushuk yo‘q, “Erka nevaramning g‘ashiga tekkan bexosiyat maxluq”, deb allaqachon uydan quvganman...

Boya onam meni uygʻotganida bobom ana shunday degan boʻlardi. Yoʻq, avval rahrovdan “Ho‘-o‘, kambagʻal bir bobo keldi, kim bo-or?”, deb ovoz bergan, “Ebi, otajon!”, deya peshvoz chiqqan onam jelagi etagiga solib orqalab kelgan qovunlarni olgach, men bilan quchoqlashib, namlangan mijjalarini yengiga artarkan, shunday degan boʻlardi. Albatta. Doim. Onam meni uygʻotmabdi — bobomning koʻzi qiymabdi...

Bibim, men yaxshi koʻrgan, meni yaxshi koʻrgan, “Oʻlmasa katta odam boʻladi shu nevaram”, deb orzu qilgan, shokolad beraverib “Shakalat bibi”ga aylangan, bolaligimning yorugʻ xotiroti — bibimning vafotidan bu yogʻiga bobom ostonasini koʻrganim yoʻq. Bibim oʻn besh yilcha muqaddam toʻsatdan qazo qilgan edi. Uning oʻlimidan keyin bir necha muddat bobomning uyida turdik — “Enamning tuprogʻi sovimay ketmayman”, dedi onam. Bir oqshom bobom yangi mahsisini kiyib qaygadir otlaganda, u: “Ana, bobong “qalliq oʻyin”ga joʻnadi”, deb qoʻydi. Bu gap hazil ekanmi, rost ekanmi, uch-toʻrt oy oʻtib, bobomning uyida manqalanib gapiradigan bir kampir paydo boʻldi. “Endi men senga bibi boʻlaman, oʻlayjon”, dedi u bir borganimda. “Bibim emassiz, manqasiz!”, degancha qoʻlidan yulqinib qochib ketdim. Boshda bir-ikki vaqt bobomni qarqʻab yurgan onam keyin-keyin: “Nima qilsin shoʻrlilik, qariganda issiq-sovugʻiga kim qaraydi? Xolang yo men kunda-kunda borib turolmasak. Buning ustiga sagʻirlari hali goʻdak. Qarilikning ermagi buyam”, deb koʻnikdi.

Manqa kampir bilan barobar bu xonadonda koʻzlari sovuq oʻt sohadigan targʻil bir mushuk ham paydo boʻldi. Mushuk, jirkanch panjalari bilan bobom xonadonidagi serzavq, begʻubor kunlarimga chang solgan targʻil mushuk! Hozir ham sendan jirkanaman, hazar qilaman... Oʻtirganda ham, turganda ham egasi uni qoʻlidan qoʻymasdi. Yovuz, yuvuqsiz moʻylovlarini hafsala bilan qaychilab oʻtirishni aytmaysizmi! “Bibing mushugining koʻziga surma ham surarmish”, derdi onam kulib. Bobomnikiga borsam, koʻrpachaga chiqmasdim — mushuk yotgan, och qolsam qolardimki, ovqatga qaramasdim — idish-tovoqqa oʻshaning nafasi tekkan. Meni koʻrdi deguncha Karim (togʻam) uni koʻtarib chopardi. Yonma-yon oʻtirganimizda ham bexosdan “Miyo-yov!”, deb yuborardi. Choʻchib qochsam,

bobom orqamdan “Bordi-bordi, qoch!”, deb xaxolab kular, bu kulgi menga xunuk, masxaraomuzdek tuyular edi. Bobomdan ko‘nglim sovidi; Karimni ham yoqtirmay qoldim — ko‘rsam, mushuk esimga tushardi. Bulardan qutulishning birdan-bir yo‘li bobomnikiga bormaslik edi — bormay qo‘ydim. Keyinchalik bunga targ‘il mushuk bahona boshqa sabablar ham qo‘shildi — bormadim. O‘n besh yilcha bo‘ldi — bormayman.

Mushuk, ko‘zlari sovuq o‘t sohadigan targ‘il mushuk!..

Shu yil saraton boshlarida bir yakshanba kuni eshigimning qo‘ng‘irog‘i jur‘atsizgina jiringladi. Borib ochdim: bo‘yga tortib o‘sgan novcha-novcha ikki yigit; gunoh qilib qo‘yib endi qochmoqchidek jonsarak bo‘lib turishibdi. Biri ko‘zimga issiqroq ko‘rindi, lekin taniyolmadim. Ko‘nglimda unutilgan qadrton bir nima g‘imirladi. Shoshib qoldim. “Ostonada ko‘rishmaylik”, dedim. Ichkari kirishdi. Ko‘zimga issiqroq ko‘ringani otimni aytib quyuq so‘rashdi. Chopqillab chiqqan qizchamning qo‘liga bitta besh so‘mlik tutqazganida o‘ng‘aysizlanganimni ko‘rib: “Rasmi shu, bo‘la. Ko‘rmana. Shaharda yuraverib esingizdan chiqibdi-da. Poyezddan tushib to‘ppa-to‘g‘ri kelishimiz. Magazinlar abet ekan, qo‘limiz quruq — xafa bo‘lmaysiz”, deya iljaydi. Xotinim bilan yerga qaragancha, bir bolamizni o‘nta qilib, “bola-chaqalar”, deb so‘rashishdi.

“Bo‘la?! Bo‘lam?..” (Bizning yurtlarda amakivachcha, xolavachcha-yu uzoqroq qarindoshlarning bolalarini ham shunday — “bo‘la”, deyishadi.) Bo‘lamning otini ayvonchaga chiqib stol atrofiga o‘rtirganimizdan keyingina, sherigi: “Toshkent issiq ekan-a, Chori?”, deganda bildim. Lekin qay jihatdan, qanaqa bo‘lam ekanini bilolmay boshim qotdi, sir boy bermay men ham “bo‘la”lab turdim. Yo‘q, haytovur, o‘zi eslatdi: “Ho‘o‘v, Sho‘rsoyning bo‘yida Nabi akam bilan yong‘oq o‘ynaganlaringiz esingizdami, bo‘la? Bir safar yutqazganingizda yig‘lab so‘kkan edingiz...” “Obbo, bu bo‘la degani xiyla betakalluf chiqib qoldi-ku? — dedim ichimda. — Bo‘la bo‘lgandan keyin nima qilsin? Yong‘oq o‘yinda yutqazib yig‘laganimgacha yodida ekan, chindan ham bo‘lam shekilli”.

Nabi... G‘ira-shira esladim: burni bir qarich keladigan, suyagi buzuqroq bola. Lekin qaysi jamoatdan qarindoshligimizni eslashim qiyin bo‘ldi — axir, qachongi gap bu!

Keyin bo‘lam qarindoshlarga xos betakalluf ohangda menga nasihat qilishga tushdi: “Endi-i bunday qilib yurmang, bo‘la, har zamon-har zamonda qishloqqa borib turish kerak: tug‘ilgan joyingiz, el-xesh, qavm-qarindosh deganday... Ko‘chib borish niyatingiz-ku yo‘qdir? Lekin borsangiz bo‘lardi. Bu yerdagiday katta ish bo‘lmasayam, hay, ana bundayrog‘i topilardi axir. Oliy ma‘lumotlisiz. Mana, bizday o‘qimaganlar ham bir kunimizni ko‘rib yuribmiz o‘sha yoqda. Yaqinda “Jiguli” oldik. Nabi ozmoz yordam qildi, keyin bir-ikkita qo‘y-po‘y bor edi...”

Kelishdan muddaolari ketar chog‘larida ma‘lum bo‘ldi: “Sizni to‘yga aytib keldik, — deyishdi. — Karimboyning to‘yiga, tog‘angizning. Bobongiz kelin tushiryaptilar. “Albatta kelsin”, deb tayinlab yubordilar”. Ta’sirlanib, dimog‘imni bir nima achishtirgandek bo‘ldi. Demak, Karimboy uylanyapti, o‘sha mushukboz tog‘am! Bu menga negadir kulgili tuyuldi. “Borishga harakat qilaman, — dedim. — Atay shunga kelgan bo‘lsalaring, bugun hech qayoqqa ketish yo‘q — qolasizlar!” Ular avval: “Ha, shunga, — deyishdi-yu, keyin bo‘lam sherigiga ishora qilib vaj aytdi: — Bu yoqning boshqa ishi ham bor edi-da, zarur ish”. Xullas, ko‘nishmadi. Ichkari xonaga kirib, xotinimga: “Anov, Moskvadan olib kelgan zo‘r ro‘molchalarimni chiqar”, dedim. “Ro‘molchangiz bor-ku yoningizda, nima qilasiz? deb so‘radi xotinim. “To‘yga aytimchilar kepti, kalla!”, dedim uni battar ajablantirib. “Aytimchilar” ro‘molchani ko‘rib iymangandek bo‘lishdi-yu, so‘ngra taomilga ko‘ra yuzlariga surta-surta cho‘ntaklariga solib qo‘yishdi.

Ularni kuzatgach, negadir qishloqqa ketgim keldi.

O‘sha kunlar bir kecha bobom, oyda-yilda bir esimga tushadigan bobom tushimga kirdi. Ertalab turib tushimning sababini o‘ylarkanman, daf‘atan bosh changallab qoldim: “aytimchilar” tayinlagan kun kecha ekan — to‘y kecha o‘tgan! Ajabo... Bu gapni xotinimga aytgan edim, “Ha-a, ro‘molcha berganinigizmi?”, deb esladi...

Bobom, “musofir nevarasi”ni unutmay, to‘yga aytib shunday uzoq manzilga odam yuborgan “kambag‘al” boboginam!

— Ena! Turing, bobomning uyiga boramiz! — dedim.

— Bobongnikiga?! Ebi, rostdanmi?

— Ha, hasharga, Karimboyning hashariga.

— Ebi, cho‘p sindiray bo‘lmasa... — deya qo‘lidagi ignani choponga sanchib, ishonar-ishonmas joyidan qo‘zg‘aldi onam.

Bobomning chorbog‘i qishloqning narigi chetida — Sho‘rsoyga yaqin, sohillarida yong‘og‘-u chillak o‘ynab bolaligim o‘tgan Sho‘rsoyga yaqin. Balxi tutlar, sersoya gujumlar o‘sgan keng hovli, etagi — jiyda-yu shaftolizor, bog‘-bog‘ot... Karimning mashinasiga mo‘ljallangan bahaybat temir darvozadan ichkari kirdik. Bobom kampiri bilan yashaydigan o‘sha eski uyni hisobga olmaganda, hovli butunlay o‘zgarib ketibdi — tanish qiyin. Bizni birinchi bo‘lib hovli to‘rida savlat to‘kib turgan tunuka tomli qasrdek imorat zinasidan tushib kelayotgan boshdan-oyoq qizil libosdagi kelinchak ko‘rdi. Ko‘rdi-yu bir lahza angraydi, so‘ng eski uy tarafga bosh burib:

— Bobo-o, darvozaga qarang! — deya peshonabog‘i uchi bilan yuzini berkitganicha uyga qochib kirdi. Yangam, Karimning xotini. Darvoqe, menga yanga bo‘ladimi, kelin? Karim mendan yosh-ku? Lekin — tog‘a!

Hovli bir zumda qiy-chuv bo‘lib ketdi. Boshida shab-po‘sh, egnida Karimning o‘ngib ketgan gimnastyorkasi — bobom, ketidan kampiri chiqib keldi. Yangi imorat biqinida yengi-yu pochalari shimarilgan, oyog‘i loy Karim ko‘rindi. Kampir meni bag‘riga bosganicha manqalanib xotim va qizchamning sog‘ligini surishtirdi, “Ularni ola kelmabsiz-da”, deb o‘pkalagan bo‘ldi. Bobomning ixcham jussasini ko‘tarib aylantirarkanman, yelkam osha u Karimga qarab baqirardi:

— Mushukni yo‘qot, mushukni! Shakalatni olib chiq! Kelinga ayt, yaxshi-yaxshisidan bo‘lsin!

— Nevarangiz kepti, ota, cho‘p sindiraylik! — deya Karim tog‘alarcha mehr bilan qovurg‘alarimni qisirlatib quchoqlashdi.

— Cho‘p ham gap ekanmi, xoda sindiraman, xoda! — derdi bobom og‘zidan tupuk sachratib.

Gujum tagidagi supaga joy qilindi. Davra-dasturxon. Taomilga borib boya bizdan “qochgan” kelin yugurib-yelgan — xizmatda. Supaga yaqin kelib menga qimtinibgina salom berdi, onamning maslahati bilan olgan ko‘rmanamni qo‘liga tutqazdim. Kampir erinmay mendan “kelini bilan nevarasi”ni surishtiradi. “Olib kelmabsiz-da bir, aylanay”, deb koyinadi. Yonimda o‘tirgan bobom esa har zamonda:

— Sochni qara, sochni! — deb suyib ensamni silab qo‘yadi.
— Obbo ulim-ey, o‘laman deb yotgan bobomni bir ko‘rib ketay, debsan-da? Endi o‘lmayman, senki yo‘qlab kepsan — o‘lmayman, o‘lmaydigan bo‘ldim.

— Hasharingiz qani, bobo, hasharga keldim?

— Obbo, sher ulim-ey, seni hasharga solarkanmanmi? Yo bir g‘ayratingni ko‘rsatasanmi? Karim tur, buning qo‘liga ketmon ber, loyga tushsin.

— E-ey, hashar bormi! — dedi Karim kulimsiragancha qo‘l siltab. — Peshinga qolmay tarqab ketdi. O‘zi to‘rt changal loy edi. Bir oshxona solmoqchi edik-da, shunga...

U o‘rnidan turib bog‘ tomon yurdi va zum o‘tmay bir qo‘yni yetaklab qaytdi. Supaga yaqinlashib so‘radi:

— Ota boshlayveraymi?

— Yo‘q, yo‘q, — deya joyidan qo‘zg‘aldi bobom. — O‘zim. Nevaram o‘z qo‘lim bilan so‘ygan qo‘yning go‘shtidan yeb ketsin. A, labbay?

Men xijolatomuz bosh qimirlatib qo‘ydim. Ota-bola qo‘yni etakroqqa sudrab ketishdi. Karim ko‘maklashib turdi, bobom ajib bir chaqqonlik bilan qo‘yni birpasda kalla-pocha qildi.

— Bobongiz hali multiqchaday, a? — dedi Karim menga ko‘z qisib.

— E, go‘rimizni aytasanmi, ulim, ko‘z hech baloga o‘tmay qolgan, — deb noligan bo‘ldi bobom.

Qovurdoq oldidan Karimning qistovi bilan alohida choynakdagi “mo‘jiza”dan bir-bir piyola ichib o‘tirgan edik, ulbulga unnab yurgan bobom:

— Ulim, choyingdan bir piyola ber, tomoq qaqrab ketdi, — deya supaga yaqinlashdi.

— Bu choy sizga to‘g‘ri kelmaydi-da, ota, — dedi Karim qiqirlab. Keyin o‘zini oqlagandek qo‘shib qo‘ydi: — Mana jianboy kepti, shuning xursandchiligiga jindak-jindak... Maylimi, xafa bo‘lish yo‘qmi?

— Ha, endi, rasmi shu bo‘lgandan keyin... Faqat bizga ko‘rsatmasdan! — deya bobom yolg‘on po‘pisa qilib nari ketdi.

— Yoqtirmaydilar, — dedi Karim bobomning orqasidan. — “Besh kallarga o‘xshamay ket”, deydilar.

— Ha-a, besh kallar... — deb qo‘ydim men ham eslagandek.

Qovurdoq bahona hamma dasturxonga yig'ilganda Karim bir vaqt sho'xlik qilib "Miyov!", deb yubordi.

— Pisht-e, nevaramni qo'rqitma! — dedi kulib bobom. Kampir ham nimadir deb ping'illadi. Kulishdik. Shu asno gap mening bolaligimga ko'chdi: shokoladni yaxshi ko'rganim-u mushukdan qo'rqanlarim...

Choydan so'ng oyoqning chigilini yozish uchun Karim ikkovimiz bog' aylandik. Keyin ko'chaga chiqib, ariq bo'yida chekishgancha uni-buni xotirlab gurunglashgan bo'ldik. Ro'paradagi tor ko'cha muyulishida, sariq "Jiguli" atrofida g'imirlab yurgan telpakli kimsa ko'zimga tanishdek ko'rindi.

— Karim, anovi kim edi?

— Ahmad kal-da, — dedi u qiqirlab. — Besh kallarning kattasi. Mashina o'ziniki, yaqinda oldi.

Esimda, bu ko'chani "Besh kallar ko'chasi", deyishardi — besh aka-uka yashardi: Ahmad kal, Rahmat kal, Samad kal, Normat kal, Yormat kal. Har kechqurun navbati bilan bittasi ichib kelib janjal qo'zg'ardi, otalarining hovlisini boshiga ko'tarib besh aka-uka o'zaro yoqalashib yotardi. Biz, bolalar daraxtga chiqib, "kino" ko'rardik; unga nom ham qo'ygan edik — "Beshkalfilm mahsuloti".

— Hozir ham o'sha kinomi? — dedim kulib.

— Yo'q, hozir... — Karim birdan jiddiy tortdi. — Samadi ketdi-yu tinchib qolishdi.

— Qayoqqa ketdi?

— Hech kim bilmaydi, xat-xabari yo'q. E, ko'p yil bo'ldi. Bir janjaldan keyin ostonasidan bosh olib chiqqan, shu bo'yi bedom-darak. O'shandan beri otalari to'shakda, kasal. Ayniqsa hozir ahvoli og'ir emish. Har kecha ketdi-ketdi bo'ladi. "Samadni kutib jon uzolmayapti", deyishadi, qaydam...

— Nega janjallashishardi o'zi, meros dardimi?

— Yo'g'-e, shunday, yoshlikdan, ichkilikdan, — dedi Karim o'ychanlik bilan. — Yomon-da, otang bu ahvolda yo'lingga ilhaq yotsa-yu, sen bandasiga biliksiz bir go'rlarda uloqib yursang. Yomon-da.

— Uyg'a kiraylik, — dedim betoqat bo'lib.

Supada bobom ko'rinmasdi.

— Farmon cho‘loqning oldiga chiqdilar shekilli, — dedi kampir norozi ohangda. — Bog‘ darcha tarafdan. O‘shasiz tomoqlaridan ovqat o‘tmaydi. Bir maydon ko‘rmasalar... Eskidan jo‘ra-da.

Karim mol-holga qarash uchun og‘ilxonaga ketganda men beixtiyor bog‘ darcha tomon yo‘l oldim.

Bog‘ darcha... Bog‘ ko‘cha, bog‘lar ichra sho‘ng‘igan ko‘cha! Ana, o‘sha behilar, o‘sha jiydalar. Mening behilarim, mening jiydalarim! Mening gunohlarim uchun bog‘ ko‘chaga bosh egib turishibdi. Anovi, ichi kovak tut tagida bir darvoza bor edi, Juma juvozkashning darvozasi. (Hozir ham bormikan?) Undan bir qizaloq chiqardi, yuzi ola-bula, sochlari patila-patila qizaloq. “Xatcha-a, — derdi bibim rahmatli, — shu qizingni mening nevaramga berasan-da, mana shu quluntoyimga”. “Mayli, oy opa, sizning nevarangizga bermay kimga beraman?”, deb javob qilardi Xadicha xola. “Yo‘q, yo‘q, olmayman qizingizni!” deb qochib ketardim men. O‘sha, yuzi ola-bula, sochlari patila qizaloq keyin bir qiz bo‘ldi, oydek, sochi tovoniga tushadigan bir qiz bo‘ldi... Lekin endi siz yo‘q edingiz, bibijon. Siz ketgach, odamlar va‘dasini unutdi. Dunyoning tomoshasi shu ekan-da, bibijon. Bir qadam jilgan odam boshqalarni, boshqalar esa uni unutar ekan...

Bu maskan, bu manzaralardan bir xil-u bir alvon bo‘lgan tarz ko‘nglim buzilib bog‘ darcha ostonasida o‘tirarkanman, ko‘zlari sovuq o‘t sohadigan targ‘il mushuk ko‘rinib qolishidan hadiksirar, ich-ichimdan xudoga iltijo qilar edim: “Endi uni menga yo‘latma!”

Yon tarafdan sharpa eshilib, seskanib ketdim. G‘ira-shira qorong‘ida beliga ko‘ndalang qo‘yib olgan hassasidan qo‘llarini ikki yonga osiltirgan ko‘yi enkayganча og‘ir odimlab kelayotgan bobomni ko‘rdim.

— Bobo?

— Ha, ulim, senmiding? Tanimabman, egangni yegur ko‘z o‘tmay qolgan. Bu yerda nima qilib o‘tiribsan?

— O‘zingiz qayerdan kelyapsiz, bobo?

— Mozordan.

— Mozordan?!

— Ha. Bibingning oldidan, ulim. Xushxabar olib borgan edim. Bugun nevarang, arzanda nevarang keldi, dedim. Sen ketgandan beri ostonamizga qadam bosmas edi, bugun keldi, dedim... Arvohi qulog‘im ostida chirqillagani chirqillagan edi...

Dimog‘im achishib ketdi, burnimning ikki yonidan iliq bir nima pastga o‘rmlay boshladi.

— Tur, ulim, bu yerda o‘tirma — ostonada o‘tirishning xosiyati yo‘q.

Bobom ko‘rib qolishidan qo‘rqqandek shosha-pisha ko‘zimni artdim. Shu tobda bobomning ko‘zi hech narsani ilg‘amas — mening bog‘ ko‘cham, menga ko‘p yillardan beri begona, ammo olis shaharlarda ham xayolimdan ketmagan, yodi hamisha entiktirgan, aziz go‘shalar uzra surmarang etaklarini silkita-silkita tun cho‘kmoqda edi... Shosha-pisha ko‘zimni artdim.

Pisht, ko‘zlari sovuq o‘t sohadigan targ‘il mushuk!..

1979

KO‘K ESHIK

Tanishimizning ijara uyiga aylanma zinada chiqilar ekan... Oynaband rovoncha, keyin devorlariga rasm solingan serhasham xona. Ungurda sakrab yurgan hurkak ohu bolalari tasviri Hamidga ayniqsa ma’qul tushdi: qishlog‘imizni, uni qurshagan tog‘larni eslatgan bo‘lsa kerak.

Darvoqe, gap devordagi bezakdami? U holda biz yashaydigan xona devorlarini tog‘ ungurida o‘ynab yurgan ohular emas, seryomg‘ir kelgan bulturgi bahorning tomdan sizib o‘tgan chakka dog‘lari “bezagan”. Yagona derazasi tirqishlarida chilla shamoli bemalol daydigan, ilituvsiz bu uyda Hamid ikkimiz galma-gal tumovlab turamiz. Mana, gap nimada!

Borgan joyimiz dardimizni yangiladi. Mezbon tinmay dam sharoiti: elektr, gaz, suvini aytib g‘ururlansa, dam uy egasining odamoxunligini maqtardi. Biz uning omadiga — xo‘jayin, elektr, gaz, suviga tahsin o‘qib, Hamidning ta’biricha, “saroyimiz”ga qaytarkanmiz, o‘yga toldik.

Boshqa joy topish kerak!

* * *

Darvozadan kirganda tomiga jilvir qog‘oz yopilgan ko‘rimsizgina ikki uy, bir dahlizga ko‘z tushadi. Zax bosgan, qorong‘i dahlizdan chapdagi xonada kampir, o‘ngdagisida biz turamiz. (Nachora, ayb o‘zimizda — yotoqxona shovqini malol keldi.) Shifti Hamidning pakana bo‘yiga moslangandek pastak bu xona ikki kishi uchun chinakamiga “saroy”: buklama karavotlarimiz va ustiga kitob qalangan siniq stolni hisoblamasa, unda hech vaqo yo‘q.

Torgina bu hovlida kampir yolg‘iz, faqirona kun kechiradi. Qo‘shnisiga tushgan qizi oilasi bilan andarmon, qo‘li tekkan mahaldagina kirib turadi. Bizdan tashqari, hovli to‘rida, tut tagidagi bostirmasimon hujrada istiqomat qiladigan Bo‘riboy akaning derazaga qaray-qaray negadir xavotirlanib gapirishicha, kampirning qizidan keyingi yagona o‘g‘li daydi chiqqan, onasiga

qarashmay, xabar ham olmay qo‘ygan; harbiydan qaytgach, bir beva ayolga uylanib allaqayerda yasharmish.

— Ba‘zan ichib kelib qoladi. Ana keyin ko‘rasiz tomoshani, — deydi Bo‘riboy aka pichirlab.

* * *

Tushdan keyin o‘qiyman. Kechqurun sovuqda junjikib qaytaman. Hamid yo kampirning uyni zo‘rg‘a ilituvchi cho‘yan pechi oldida gap sotib o‘tirgan, yoxud Bo‘riboy akanikida xalqaro ahvoldan masala talashayotgan bo‘ladi. Karavotga cho‘zilib oyog‘imni ko‘rpaga o‘rayman-da, kitob o‘qishga tutinaman. So‘ng sovuqdan hushim kelmay kitobni qo‘yib, kampirning xonasiga bosh suqaman.

— Voy bolam-ey, ko‘karib ketibsan-a! Kir-kir... Qachon kelding? Man xavotir olib o‘tiribmanki, bu izg‘irinda bolafaqir qay ahvolda kelarkan deb. O‘lgur sovuq ham... Mayli, hade-may issiq kunlar kepqolar. Bo‘riboy aytayotuvdi. Gazetada yozganmish. O‘qishinglarni bitirib, hali bir odam bo‘lasanlarki, hammasi unutilib ketadi. Sani, Hamid bolamni uylariga borib bir davron surishim bor. Umidim katta sanlardan, ha-ha!..

Chindan ham kampirning bizga ishonch-ixlosi zo‘r, kela-jagimizdan ko‘p narsa kutadi. U ayniqsa Hamid bilan soz. Uning sho‘x-sho‘x hazillaridan boshini orqaga tashlagancha miriqib-miriqib kuladi.

— Oyi, shu-u, bo‘yga yetgan qizingiz bo‘lmagani chatoqda, — deydi Hamid menga ko‘z qisib.

— O‘zim ham shunga achinaman. Bo‘lganida sandan boshqaga bermasdim-a, attang! — deb astoydil kuyunadi kampir. — Hay, parvo qilma, bolam, sani o‘zim uylantiraman, ko‘rasan. Ko‘z ostiga olib yurganim bor. Qo‘shnilardan. Bir nozaninki, sochi taqimiga tushadi.

— O‘shani tezroq olib bermasangiz, sochini qirqtirib qo‘yadi, oyi. Hozir shunaqa.

— Sho‘x bo‘lmay ket-a, bolam...

Bo‘riboy akaning hujrasiga o‘taman. O‘ttizlarni qoralagan bu odam qo‘shni kampirning o‘g‘li; akasi bilan murosa qilolmay uyidan arazlab, shu yerda so‘qqabosh yashaydi. U birinchi kun bizni sovuqqina qarshilab:

— Musofir ekansizlar, — dedi negadir parishon bir qiyofada. — Mayli endi. Lekin kampirni ranjitish yo‘q — shart shu. O‘g‘li tufayli ko‘ngli yarim o‘zi. Ammo-lekin tilla kampir-da. Mana, o‘zimiz ham...

Uzoq kirish so‘zidan keyin u “Vokrug sveta” jurnalini o‘qish-o‘qimasligimizni so‘radi. Hamidning mujmalroq javobini eshitgach:

— O‘qib turish kerak, — dedi. — Ammo-lekin shu jurnalda gap ko‘p. Mana, o‘zimiz ham...

Uning katalakdek hujrasi gazeta-jurnalga to‘la. Zax taxmonning tepasigacha sonma-son “Vokrug sveta” taxlangan. Ba‘zan tongga qadar hujrada chiroq miltillab turadi: Bo‘riboy aka o‘ninchi lampa yorug‘ida boshini qashlab, qo‘lida qizil qalam, gazeta titadi. Yurganda ham uning qo‘lidan gazeta tushmaydi, qo‘ltig‘ida albatta jurnal bo‘ladi. O‘zi qurilishda oddiy ishchi-yu, hamisha oq ko‘ylak, bo‘yinbog‘, shlyapada yurishi, muomalasi ziyoli kishilarni eslatadi.

U goho ichib kelib, hovlini boshiga ko‘targudek o‘kirib yig‘laydi; akasining sirlarini bilishini, bir kunmas-bir kun uni fosh qilajagini aytadi, bo‘ralab so‘kadi. Keyin ishkombir tagidagi chorpoyaga o‘tirgancha hasratga tushadi.

— Men baxtimni yo‘qotganman, ukalar, — deydi bizga. — Musofirsizlar. Ammo-lekin musofirchilik yomon narsa. Mana, o‘zim ham... Baxtimni tortib oldi. Nomardlar! Men hali ularga ko‘rsatib qo‘yaman! Ha! Ilmiy ishlarim qolib ketdi... Uni kampir onasidan o‘zga hech kim tinchitilmaydi ham, ovutolmaydi ham.

— Hi, Bo‘riboy, tag‘in nima bo‘ldi sanga? — deya darvozadan munkillab kiradi kampir.

Bo‘riboy aka goho onasining bo‘yniga yosh boladek osilib oladi, goh uni yerdan dast ko‘taradi.

— Oyijon, oyijonimsiz! — deydi u qayta hiqillashga tushib. — Ilmiy ishlarim bitsin hali, men sizni boshlarimga ko‘taraman, ha, xuddi osmonga! Nomardlar-r! Tortib oldi-ya, oyijon...

Eshitishimizcha, bu devonatabiat odamni tole qisgan, suy-gani kuydirib ketgan ekan. “Ilmiy ish” degani esa bir paytlardagi orzusi bo‘lsa kerak. U mudom nimadandir xunob, nimadandir shikasta. Nimadanligini biz ham bilmaymiz, o‘zi ham.

Gazetaga ishqibozligim uchunmi, Bo‘riboy aka menga boshqacha qaraydi. U meni ehtiromlar bilan qarshi olarkan, Hamid o‘rnidan turadi.

— Ha, mulla? — deydi Hamidga. — O‘tiring endi. Mana, bu yoq keldilar, boyagi masalani hal qilamiz.

— Rahmat, — deb hafsalasiz jilmayadi Hamid. — Ilmiy ishni tugatish kerak. Ertaga kengashda muhokamasi...

U chiqib ketgach, Bo‘riboy aka maxfiy sirni ochayotgandek, derazaga qarab pichirlaydi:

— Sherigingiz tupoy ekan-ku? Daniyaning qirolichasi kimligini bilmaydi-ya! Oliy maktabda o‘qiy turib... Ha-a, bu, Kambodja masalasini eshitdingizmi?

Kosada ovqat ko‘targan onasi kiradi-yu siyosat chetda qoladi.

Kelsam, “tupoy” ilmiy ishi — seminarga tayyorgarlik ko‘rib, allaqachon to‘shakka kiribdi.

— Seni, tupoy ekan, dedi. — Kulgim qistaydi.

— Kim? Musofirmi? (Hamid Bo‘riboy akaga shunday deb laqab qo‘ygan.) — U qiziqsangancha yostiqaqqa yonboshlab oladi. — Hi! O‘ziyam mendan qolishmaydi. Ilmiy ish emish! Uylanish taraddudida yuribdi. Topganmish bittasini. Kwartira berishibdi. Yaqinda ko‘chmoqchi bu yerdan — mana, senga ilmiy ish! Qarasam, allaqaydagi savollar bilan boshimni qotiryapti, “Bor-e”, dedim. E, buyam o‘zimizga o‘xshagan bir afandi-da. Sho‘rlik musofir!

Kampirning “Uy sovuqlik qilayotgan bo‘lsa, mani yonimga, bu yoqqa o‘ta qolinglar, harna issiqroq”, degan gapini Hamidga aytaman.

— Qo‘ysang-chi, — deydi u ko‘rpani yuziga tortib. — Hech biri o‘zimizning mana shu saroyga teng kelmaydi: muzdekkina, maza!

— Tezroq boshqasini topmasak...

— Bu kecha tushimizga kirib chiqsin, ertaga topamiz.

* * *

Hamidning tushi o‘ngidan keldi: u ertasi kuni darsdan xushxabar bilan qaytdi. Kursdoshlari orqali surishtirib, universitetning yonginasidan uy topibdi. Kechqurun ko‘rgani bordik. Uy

biz kutgandan ziyoda, o'sha tanishimiznikidan o'tsa-o'tardiki, qolishmasdi. Ertaga ko'chib keladigan bo'lib bekasi bilan ahd-lashdik. U negadir sal jonsarak, ammo juda muloyim ayol ekan.

— Mayli, kelaveringlar, — dedi. — Kechqurun adasining o'zlari gaplashadilar. Fe'llari bir oz anaqaroq, “Xo'p”, deya-verasizlar.

Galdagi mushkulot ko'chish, ya'ni bu gapni kampirga aytish edi. Nima deyish, kim aytishi xususida Hamid bilan xiyla bosh qotirdik.

— Yotoqxonada yashamoqchimiz, desak-chi?

— Kallangga balli!

Uzoq tortishuv, ikkilanishlardan so'ng, “Kampir seni yaxshi ko'radi, u-bu”, deb gaplashishga uning o'zini ko'ndirdim.

Hamidning orqasidan kampir uyga yig'lab kirdi.

— Sanlarni o'z bolam degandim, o'rganib qoluvdim, — deya hiqillardi u. — Bir hovlida yolg'iz o'zim... Bo'rivoy ham yaqinda uylanib ketib qolarmish. Mana, bu yog'i bahor edi. Bilaman, sovuqda xiyla qiynaldinglar, sho'rlik bolalarim. Ahvol-laringni ko'rib ich-etimni yeyman. Ilojim yetganda-ku... Yo-nimga o'ta qolinglar, dedim... Yo biron nimadan xafa bo'l-dinglarmi, a, bolalarim? Tunov kungi...

Tunov kuni, kampir qizirikida edi, o'g'li keldi. Ko'rinishdan beozorga o'xshagan bu odam ancha nag'ma ko'rsatdi: u g'irt mast, oyog'ida turolmas edi.

— Kim qo'ydi sanlarni bu yerga? Kimsanlar o'zi? Bu mani uyim, ha! Hech kimning haqi yo'q, ha! — deb baqirdi u bizga. Keyin yerga boqqancha chayqalib so'kinishga o'tdi... — Oyim qani? Oyimni topib berlaring! Tez bo'l, hozir!

Hamid kampirni chaqirib chiqdi. O'g'li tag'in dag'dag'aga tushdi.

— Bas qil, jinni, qo'shnilar eshitadi, — deya kampir uni sudrab uyga olib kirdi.

— Man-n qo'shnilaringizni... — Uning hush-behush baqirig'i eshtilardi. Bular kim? Kim qo'ydi bularni? Sizga pul kerakmi, a, ayting, pul kerakmi? Mana, mana!..

— Puling o'zingga buyursin, — dedi kampir titroq tovush-da. — Nima desang de, lekin man bu bolalarni yonimdan jildirmayman, ular o'zimmiki...

Amallab o'g'lini jo'natgach, kampir yig'lab hasrat qildi, uzr so'ragan bo'ldi.

U hozir o'sha gapni eslardi. Ko'nglimiz buzilib ketdi. Biroq endi qolish ham o'ng'aysiz edi.

— Xabar olib turamiz, oyi, — deya yupata boshladi Hamid.

Kampir battar to'liqdi. So'ngra yotoqxonaga sharoitini obdon surishtirdi, ko'ngli to'ldi shekilli:

— Mayli, bolalarim, nimayam derdim, — dedi past, dardchil ovozda. — Niyatlarim ko'p edi...

Nihoyat, kampirning duosini olib, birinchi bor ko'rayotgandek qadrdon hovliga so'nggi marta g'amgin nazar tashlagan-cha, ko'ngilda bir orziqish... ko'k darvozadan chiqib ketdik.

Yangi joyga o'rnashib, kechqurun beka aytgan kishining kelishini kutdik. Keldi. Tanitishicha, allaqayerda bufetda ishlar-kan, burnining uchi ham xuddi vinoga tiqib olingandek edi.

Bekaning “quloq qoqdi”siga ko'ra, “bir oz anaqaroq” bu odamning gaplariga “Xo'p”, deyaverishimiz kerak edi. Vazifamizga kirishdik.

— Yotoq yoqmaqda-da, xilvat qidirib qolibsizlar? — deb boshladi u so'zini.

— Xo'-o'p, — dedi Hamid. Ho'jayin unga bir o'qrayib qo'ydi.

— Pulini xotindan eshitgandirsizlar? Aytib qo'yay, har oyning boshida to'lashinglarga to'g'ri keladi. Qalay?

— Xo'p.

— Soat to'qqizdan keyin darvoza berk bo'ladi. Buniyam hisobga ollarning, xo'pmi?

— Xo'-o'p...

— Ichish-pichishga qalaysizlar?

Hamidga qiyin bo'ldi: Masturani, olis qishloqdagi Masturasini eslab gohida jindak-jindak otish odati bor.

— Rubobinglar ham bor ekan. Buniyam vaqti-vaqti bilan, a?

Menga-ku bari bir, seminarga tayyorlanish o'rniga Hamid ba'zan ermakka ting'irlatib o'tiradi.

— Xo'pmi, vo-ot... Tag'in har qanaqa oshna-og'aynini boshlab kelish ham yo'q. Keyin siz, uka, mo'ylovniyam, a?... To'g'ri kelmaydi, mahallachilik.

Shu yerga etganda Hamid tamom bo'ldi, lekin sir bermadi.

— Xo'pmi, vo-ot, chiroq masalasi... soat o'n ikkigacha.

Bu gap ikkimizga birdek ta'sir qildi: qishloqni, maktab davri-ni eslaydigan gurunlarimiz qisqaradi endi.

Keyin gaz, suv, kran masalalari muhokamasiga ko'chdik. Biz o'z vazifasimizni og'ishmay ado etardik. Hamid “xo'p, yax-shi, bo'pti”, deb o'tirar, dam-badam chap ko'zini qisganicha ko'rsatkich barmog'i bilan burnining yonini qashib qo'yar edi: ensasi qotgani, “qo'yaver”, degani.

Nihoyat, xo'jayin shartlarini tamomlab, “Shundoq bo'lsin”, deya o'rnidan turdi. U ketgach, Hamid ikkalamiz bir-birimizga tikilganicha xiyla fursat xona o'rtasida qaqqayib qoldik. So'ngra o'tirib kampirni esladik.

Shu kecha alla-pallaga qadar uyqumiz kelmadi.

* * *

Ertasi kuni darsdan keyin uy qidirishga tushdik. Bir xillar uyiga o'zi sig'mayotganidan shikoyat qilardi; bir xillarini shum ijaragirlar dog'da qoldirib ketishganmish; ba'zilarining esa bo'yga yetgan qizlari bor ekan...

— Bo'yga yetgan bo'lsa, bervormaysanmi bizga o'xshagan bitta-yarimtaga! — derdi Hamid hazil aralash xunobi oshib.

Ijaraga qo'ymasliklariga ko'pincha Hamid, uning mushtday-yu, lekin mahmadonaligi va allakimlarnikiga o'xshash ingichka mo'ylovi sabab bo'lardi. Uy egalari menga ishonch bildirishar, so'ngra Hamidga o'girilib... xavfsirab bosh chayqashar, afsus aytib, uzrlarini ilova qilishar edi.

Oxiri... eski uyimizga yaqinroq joydagi naqshindor darvozadan xizmatchiga o'xshash bir ayol chiqdi. Hafsalamiz sovib turgan bo'lsa-da, Hamid salomni quyuq qilib, bidillashga tushib ketdi.

Albatta, bu shirinsuxan xola ijruga qo'ymaydi: uyi o'ziga tanglik qiladi, bo'yga yetgan qizi ham bor, buning ustiga ijaragirlardan kuygan deng... Ammo, aytishicha, bizga razm solib qarasa, ancha bama'ni bolalarga o'xsharkanmiz, rahmi kelibdi.

— Muyulishdan shundoq o'tsanglar... — deya u o'zimiz ko'z yumib ham topa oladigan yo'lni tushuntira boshladi, — “Zuhra kampirning uyi”, desanglar, ko'rsatishadi. Ko'k eshik. O'ziyam

bir kampirjon-da lekin. Bir-ikkita bola turgan ekan. Kechami, oldingi kunmi, yotoqxonaga ko'chib ketishibdi. Kampir sho'rlik yig'lab o'tirganmish o'shalarning orqasidan. "Halima opa ayt-di", desanglar, yo'q demas...

Ayolga rahmat aytib yo'lga tusharkanmiz:

— Nima qildik, xo'jayin? — dedi Hamid.

— Qaytib borishdan o'zga chora yo'q shekilli?

— Insof bilan o'ylab qaralsa, — deya xo'rsindi Hamid, — o'zimizdan o'tgan, jo'ra. Uyning u yoq-bu yog'ini tuzatib, pechka-mechka qo'ysak...

Ko'k darvoza oldiga kelib taqqa to'xtadik. Unga qo'l cho'zishga na Hamidda, na menda jur'at bor. Nihoyat, odatdagidek uzoq tortishuv, ikklanishlardan so'ng Hamidni ichkariga kiritib yubordim.

Bir ozdan keyin hovlidan yig'i eshitildi. Darvoza tirqishidan mo'raladim. Kampir Hamidning bo'yniga osilganча o'tirardi... ostonada...

1971

FAYZINING AMAKISI

— Urre-e! Amakim armiyadan kelyapti! — dedi Fayzi irg‘ishlab. — Amakim armiyada-an!

Amakisi armiyaga ketmasdan oldin rayon markazidagi “tir”da ishlardi. Qishloqqa oyda bir kelar, ko‘chamizda ko‘rindi deguncha, uning tashrifiga mushtoq bo‘lib turgandek qo‘shni xotinxalaj darvozalar tirqishi-yu devorlar kemptigidan mo‘ralashga tushar — guzarda ikki-uch kunlik mish-mishga mo‘may mavzu topilar edi.

— Sochi xuddi yelkasiga tushgan-a, yopira-ay! Jamalak taq endi, dedim!

— Cholvorini aytmysizmi — balog‘i to‘rvaday, yer supuradi. Tag‘in deng, pochasiga zanjir tiktirgan!

— Belidagi kamarni ko‘rmabsiz-da, usta, otning ayili deysiz.

— Ko‘rdim, ko‘rdim. Cholvorining kissalariyam bir ajabtovur.

— Ko‘ylagi-chi, Norgul qo‘shnochning mushkulkushodda kiyadigan libosidan nusxami-ey?

— Yurishini ayting, miskar, yurishini! Bosaymi-bosmaymi deb odim tashlaydilar, ko‘krak bir gaz oldinda, ko‘z osmonda deng, qarashlar ham artistlarnikiday, bir qiziq!

— Rahmatli otasi bunday emas edi, a, maxsum?

— Zamonasi-da, usta, zamonasi. Akasiyam binoyi, dashtda mol ketidan yurgan mo‘mingina odam.

— Shinel ko‘rmagan-da, amaki, shinel! Armiyaga borsin, ko‘zi moshday ochilib, mulla mingan ulovday yuvosh tortib qaytadi.

— E, bilmadim-da, jiyani, bunaqaga armiya tugul boshqasiyam kor qilmas!

— Mana, ko‘rasiz...

Fayzining amakisi qishloqqa har kelganida Samad miskarining halqasimon qabzalariga gul zarb berilgan qo‘sh tavaqali darvozasi yonidagi sersoya tol tagida taxminan ana shunday gapso‘z bo‘lardi.

— Amakim o‘qishga jo‘nayapti! — deb yurdi Fayzi g‘ururlanib.

Amakisi armiyaga ketmasdan avval ustma-ust ikki yil o‘qishga otlandi. O‘qishga u shunday tayyorgarlik ko‘rardi: uchragan kishiga qaysi institutga kirmoqchiligi, kim bo‘lib yetishajagi-yu bitirgandan keyin nima qilmoqchi ekanigacha gapirardi. Ketar kuni og‘aynilarini yig‘ib sarhovuz bo‘yidagi supada ziyofatnamo o‘tirish qilib berar, o‘qishga kirolsa, bitirib shaharda qolish niyatida ekanini aytar, bironta aktrisaga uylanishi mumkinligini ham soxta kamtarlik bilan qo‘shib qo‘yar, mehmondorchilik so‘ngida esa ulardan bu yo‘lda go‘yo oq fotiha olar edi. Oshnalari hazilmutoyiba aralash: “Lekin ehtiyot bo‘l, shaharlik qizlar shaytonroq kelarmish, gangitib qo‘yishmasin tag‘in”, deya askiya qilishar, sho‘xroq biri: “Mashina olishni unutma, shaharda juda asqotarmish”, deb o‘git berar — ashulachi o‘rtog‘i butun o‘tirish davomida “Men sevaman, sen sevasanmu?”ni takrorlab turar edi.

Kuz boshlarida — o‘qishga joylashganlar bir-bir kelib, nimaga qodirliklarini ko‘rsatgandek, qishloq ko‘chasidan namoyishkorona o‘tib ketishardi. Fayzining amakisidan esa darak bo‘lmas, shunda gapdonroq qo‘shnilar: “U kattaroq o‘qishga kirmoqchi ekan-da, kechroq kelarmish”, deya o‘zlaricha karomat qilishar edi.

— Amakim o‘qishga kirolmabdi, — deb qolardi Fayzi kuyunib.

— “Jo‘raqulboyning inisi To‘raqulboy kattaroq o‘qishga kirarmish”, deb eshitib edik. Qaysi kuni cho‘lda ko‘rib qoldim... cho‘ldagi o‘qishda shekilli?

— Toshkentda emas ekanmi? Kari-fari olamga sig‘mas ediku uning, nima bo‘pti?

— Yiqilibdi-da.

— U yoq-bu yog‘i sinmabdimi ishqilib?

— Har qalay, bir oz lat yegan bo‘lsa kerag-ov...

Kuz oxirlarida — o‘qishdan yiqilgan, lekin hech nima ko‘rmagandek beparvo To‘raqulboy kelib qolar, hamma gap o‘shanda ayon bo‘lar edi. O‘zining aytishicha, imtihonlardan necha baholar bilandir o‘tibdi-yu, konkursdan qaytibdi. “Kelasi yil albatta kelgin, olamiz”, deyishganmish.

Kelgusi yil o'qishga borish To'raqulboyga nasib etmagan ekan: yoz yaqinlashmay harbiydan qog'oz kelib qoldi.

— Amakim armiyaga ketyapti! — dedi Fayzi faxrlanib.

To'raqulboy ertasi xizmatga jo'naydigan kecha sarhovuz bo'yidagi supada shiringina bazm bo'ldi. "Aybdor" boshini egib jim o'tirdi, xizmatda bo'lgan og'aynilari o'z xotiralarini eslashib, unga turli yo'l-yo'riqlar berishdi.

Ertasi choshgohda hovlidan chiqarkan, To'raqulboy safar xaltasini supa chetiga qo'yib, bir lahzacha ma'yus turdi. So'ng poxol g'aramlangan somonxona osha osmonga tutash tog'larga boqib: "Xayr, tog'lar!", dedi va negadir bizning uyimiz tarafga qarab: "Xayr, qishloq!", dedi, burilib devor boshida turgan Mamat qassobni ko'rib: "Xayr, qassob bobo!" dedi.

O'shanda, bu manzaradan ta'sirlanib, "Xayrlashishi boshqacha, qaytib kelmaydiganga o'xshaydi", deb o'ylagan edim...

— Amakim! Ana, amakim!..

"To'raqulboy armiyadan kelyotganmish!", degan xabar yashin tezligida guzarga tarqaldi. Ovul-hamsoya, qo'ni-qo'shni darvoza tirqishi-yu devor kemtigiga yopirildi: "Qanaqa bo'lib qaytibdi ekan?"

Osmondan tushgandek, ko'chamizda u favqulodda paydo bo'ldi. Boshida furajkasi qirra, bir chetidan jingalak sochlari qaynab chiqqan; o'ng qo'lida sirtiga ishvakor jonon tasviri solingan ixchamgina chamadon, chap qo'lida shinel, qansharida qora ko'zoynak.

Fayzi yelib borib amakisining bo'yiniga osildi. Ketidan men ham yugurdim. U ikkalamizni barobar ko'tarib bag'riga bosarkan: "Orli moi, virosli", dedi. Ust-boshidan xushbo'y atir hidi keldi.

Keyin Fayzi chamadonni, men shinelni ko'tarib darvoza tomon yurdik. Hovliga kirilgach, To'raqulboy supa oldida to'xtadi, poxol g'aramlangan somonxona osha osmonga tutash tog'larga bir nimani xotirlamoqchidek uzoq tikilib qoldi. Xizmatga jo'nagan kunini eslab, hozir "Salom, tog'lar!", desa kerak, deb o'ylagan edim, yo'q indamadi. Uyimiz tarafga esa qaramadi, devor boshida Mamat qassob ham ko'rinmasdi.

— Boshlarida shapka. Qirra deng yana. Birov kelyapti, tus general, deysiz!

— Oynak taqib olganmi ko‘ziga?

— Ha, endi, aka, armiya oson deysizmi, biror nima bo‘lgandir-da.

— Be-e, armiyaga borgan bir shumi? Borganlarning bari bir yigit bo‘lib kelyaptiki... Ana, Ahad qoraning o‘g‘li...

— Moshinadan tushayotib, ust-boshi chang ekan chog‘i, “Ax, giraz!”, deganmish.

— Bo‘lmagan gap! He, keyin o‘zimiz ham meshday shishiramiz-da!

— Nimani gapiraylik yo‘g‘asam, birodar? Yaxshini yaxshi deysiz, yomonni yomon-da...

Tol tagida bundan ikki yil burun uzilib qolgan mish-mish To‘raqulboy kelishi bilan ana shunday qayta ulandi.

— Ketdik dashtga! — dedi Fayzi kaftlarini bir-biriga ishqab.

— Suyunchiga!

Oqshom osti Fayzi ikkalamiz eshak minib, xushxabarni yetkazish uchun dashtga jo‘nadik. Fayzining otasi — negadir yozin-qishin telpag-u choponda yuradigan Jo‘raqul amaki “Kinoga kirasizlar”, deb bizga bir so‘mdan “suyunchi” berdi. So‘ngra semiz bir qo‘yni otiga o‘ngarib orqamizdan o‘zi yetib keldi.

Qo‘ni-qo‘shni yig‘ildi. Ilgari salomiga alik ham olmaydiganlar To‘raqulboy bilan quchoq yozib ko‘rishdi, xizmat qanday o‘tganini surishtirishdi. To‘raqulboy jilmayganча “Nichevo, nichevo”, deb javob qilardi.

Qo‘y so‘yildi, tandir kabob osildi — To‘raqulboy kelgani sharafiga ziyofat boshlandi.

Uning o‘zi ayvondagi yostig‘-u yakandozlarga yonboshlab olib beto‘xtov tamaki tutatardi. O‘tirganlar eshondan kalom kutgan muridlardek undan ko‘z uzishmas, har zamon-har zamonda irimigagina bir nimalarni so‘rab qo‘yishar, To‘raqulboy ham irimigagina istar-istamas javob qaytarar edi. Aftidan, bu an‘anaviy ziyofat unga ko‘p ham xush kelmayotgan edi. Bir mahal u o‘z-o‘zidan allanechuk ruhlanib, tirsagini yostiqdanda, armiyadan gap boshlab bir sarguzashtini hikoya qila ketdi.

Aytishicha, xizmatda generalning mashinasini haydagan ekan. Qizi oshiq bo‘lib qolibdi. Odatda tamshanib eslanadigan ko‘p shirin damlarni To‘raqulboy o‘sha bilan o‘tkazibdi. Eh, endi

qay birini gapirsin! O‘ziam qizmisan qiz ekan-da. Nachora, xizmat tugab, xayrlashadigan payt yetibdi. Qiz undan ko‘ngil uzolmay zor-zor yig‘larmish, deng. Otasi — general ham To‘raqulboyini o‘z o‘g‘lidek yaxshi ko‘rarkan. “Qol, Tolik, — debdi iltimos qilib, — leytenantlik unvonini beraman, qizimga uylanasan”. “Yo‘q”, — debdi To‘raqulboy rad etib. — Ketishim kerak!” Eh, endi u damlarning qay birini gapirsin!..

— Yo‘q, dedim, — deydi To‘raqulboy mag‘rur chimirilib. — Ketaman, ketishim kerak, dedim.

Davradagilar uning hikoyasini “buni qarang-a!”, degandek hayratlanib tinglashardi.

Mayda-chuyda yumushlarga unnab yurgan Fayzining otasi, choponi barlari belbog‘iga qistirig‘liq, poygakka kelib cho‘kkaladi, “Ha, ishqilib eson-omon borib kepsan — bizga shunisi g‘animat”, deya davradagilar ishtirokida yuziga fotiha tortdi.

— Qani, ukam, gapir-chi, endi, xizmatlar yaxshi o‘tdimi? Ul-bulga chalg‘ib tuzuk so‘rasholmadik ham.

— Nichevo, nichevo, — dedi To‘raqulboy. Keyin oldidagi choydan bir ho‘pladi-da, ishtiyoq bilan yangi sarguzashtini aytib bera boshladi.

Uning gaplaridan ensasi qotdimi yo bu narsalarning durust fahmiga yetmadimi, o‘choqqa qarash bahona Jo‘raqul amaki o‘rnidan turdi. Anchadan so‘ng qaytib kelib cho‘kkalarkan, hali-hamon o‘sha naql ekanini ko‘rib:

— E, uka, biz ham bo‘lganmiz armiyada, qo‘y endi, ular qolib ketgan gap, — dedi.

To‘raqulboy pinak buzmay hikoyasini davom ettiraverdi.

— E, oynagingni ol-e, bunday! — dedi akasi axiyri, jahli chiqib. To‘raqulboyning ham jahli chiqdimi, uning keyingi gaplariga javob qaytarmadi — yostiqqa yonboshlab oldi.

Fayzi ikkalamiz o‘choqboshidan sopol tovoqlarda qovurdoq ko‘tarib kelarkanmiz, orqadan Jo‘raqul amakining: “Armiyaga borib ham odam bo‘lmabdi bu”, deb to‘ng‘illaganini eshitdik.

Ertasi Qodir tulumning xotini devor osha qo‘shnisiga:

— Eshitdingizmi, hamsoya? — dedi. — Jo‘raqulboyning inisi To‘raqulboy armiyaga borib To‘lik bo‘lib kepti...

— Bugun maza! — dedi Fayzi quvnab. — Ziyofat, ashula!

Kun bo‘yi To‘raqulboyni ko‘rgani, otamlashgani oshnagog‘aynilari kelib turishdi. Kun bo‘yi sarhovuz yoqasidagi supada dasturxon yig‘ishtirilmadi. Kun bo‘yi Fayzi ikkalamiz machit yonidagi magazindan shisha tashidik.

Yor-do‘stlari To‘raqulboy xizmatni qanday o‘tagani bilan qiziqishardi.

— Generalning moshinasini haydadim, — deya so‘z boshlardi To‘raqulboy.

U to‘rda uzala tushib yotar, o‘z hikoyasidan nechog‘li maroqlanayotgani tamaki tutuni ora basharasidan ayon edi. Davradagilar uning gaplariga dastlab birmuncha e‘tibor, hatto qiziqish bilan quloq solishdi; so‘ng qarashdiki, suhbat maromi xiyla suyuqlashib, bachkanalashib ketyapti, To‘raqulboy bu turishda bandasiga so‘z bermaydigan — xizmat ko‘rganlar lof aralashayotganini ilgariroq payqab, kulgilarini yutgancha birinsirin qo‘zg‘alishdi, qolganlar ularga ergashdi.

Ikkinchi guruh odam yig‘ilganda ham To‘raqulboy gapni xuddi boyagi joyidan boshladi.

Bu hol shu yo‘sin kechga qadar besh marta takrorlandi. Kelgan barchaning ensasi qotib bir-bir jo‘nadi, ashulachi o‘rtog‘igina — qo‘shiq aytishga xumor bo‘lib, mavrid poylab yurgan ekan shekilli — kun botguncha turay demadi. U mehmonlar har yangilanganda “Men sevaman”ni olardi.

— Amakim zerikyapti ekan, — dedi Fayzi xuddi o‘zi ham zerikayotgandek.

Indini To‘raqulboyning qolgan-qutgan yor-jo‘ralari kelib ketishdi. Shundan keyin uni hech kim yo‘qlamay qo‘ydi. Chamasi, shirin xotiralarini eshitadigan boshqa og‘aynisi qolmagan edi. Uch-to‘rt kun o‘tib, o‘ziga o‘xshaganroq oshnasi keldi. Ikkovlon uzoq otamlashishdi. Mehmon ish yuzasidan qayerdadir bo‘lib, vaqtida kelolmagani uchun uzr so‘radi. To‘raqulboy hikoyasini unga rus tilida aytib berdi. So‘ng kuzatib chiqarkan, darvozaxona oldida:

— Mne vsyo ravno zdes ne jit, — dedi ma‘yuslanib.

Uydan mehmon arigach, To‘raqulboy endi kechqurunlari yasan-tusanni joyiga qo‘yib, ko‘chaga otlanadigan bo‘ldi. Kunduzlari — sahardan oqshomgacha supada cho‘zilib yotadi. Yoni-

da “BT” sigareti. Har erta choshgohda hafsala bilan soqol qiradi, yuziga pishillatib atir sepadi — qiladigan ishi shu.

Fayzi ikkalamiz kun-uzzukun uning yonidan jilmaymiz, dam-badam savolga tutamiz.

— Amaki, u yer yaxshimi, bu yer? — deb so‘raydi Fayzi.

— O, koneshni, u yer! — deydi amakisi suhbatdosh topilganidan boshi ko‘kka yetib.

— Dunyoda eng yaxshi joy qayer?

— Voronej! O-o, Voronej! — deya entikib ketadi To‘raqulboy. So‘ng tamaki tutuniga o‘ychan tikilib, chuqur uh tortadi: — Voronej! Gorod moyey pervoy lyubvi!..

Bir kuni eshakka qiy ortib dashtdan Fayzining otasi kelib qoldi. Ukasining hamon o‘shandek beg‘am-bekor cho‘zilib yotganini ko‘rib jig‘ibiyroni chiqdi.

— Ho‘v, yotaverasanmi endi tolqon shimgan to‘raday bo‘lib? Yo u yoqdan bel-meling sinib kelganmi?! — deya o‘shqirdi.

To‘raqulboy rostdan ham beli sinib kelgandek o‘rnidan qo‘zg‘almadi, “Nima deyapsan?”, deb o‘girilib ham qaramadi — cho‘zib-cho‘zib tamakisini simirib qo‘ydi.

— Amakim armiyaga qaytib ketyapti, — deb qoldi Fayzi xomush.

O‘sha kuni Jo‘raqul amaki ot yo‘rttirib keldi. Tomosha quvib orqasidan hovliga kirdik. To‘raqulboy, chamadoni supa labida, xayolchan cho‘nqayib tamaki tutatardi.

Jo‘raqul amaki, qo‘lida qamchi, to‘g‘ri uning ustiga bostirib bordi. To‘raqulboy akasining vajohatidan hayiqibmi, sekin joyidan turdi.

— Xo‘sh? — dedi Jo‘raqul amaki muloyim, maslahat ohangida. To‘raqulboyning “gap shu”, degandek bezrayib turganini ko‘rdi-yu qamchi bilan bir urib chamadonni ag‘dardi va kutilmaganda baqirib yubordi: — Noma‘qulning nonini yep-san, xo‘pmi! Ol chamadonni, otga mingash!..

— Jo‘raqulboyning oliftasi ko‘rinmay qoldimi?

— Adirda emish-ku, akasiga yordam berib yurganmish.

— Yo‘g‘-e! Bu kishining ham yerga tushib, odam soniga qo‘shiladigan kunlari bor ekan-da? Xayriyat.

— Lekin, menimcha, shu bolaning oyog‘ini biron joyga chatib qo‘yishsa, tiyilib qolarmidi? Har qalay, ola xurjun, degan gaplar bor.

— Eshitmadingizmi, qaysi bir qarindoshlarining qizidan gap ochishsa, “Sochi sariq ekan”, deb unamabdi-ku!

— Obbo, azamat-ey! O‘zimiz kal, lekin ko‘nglimiz nozik, deganlari shu-da, a, maxsum? O‘zlari bir takasaltang-u, ko‘ngillari qora sochga ketganini! Sochi sariq emish!

— Adirda yuribdi, dedingizmi, usta? Mening eshitishimcha, akasi bilan arazlashib, cho‘lga ketib qolganmish, ekskavatorida ishlayotganmish.

— Shunaqa ekanmi? Ha-a, tuzuk, tuzuk...

— Amakim Mubor opangga haligiday... — dedi Fayzi chaynalib.

Muborak opam — shaharlik xolamning qizi; uzoq yili onasi o‘lib, biznikiga ko‘chib keldi; maktabni bitirgan, kutubxonada ishlaydi.

Keyingi paytda boshiga tugun qo‘ygan xotinlar uyimizga serqatnov bo‘lib qolishdi. Ular ketgach, onam Muborak opamni oshxonaga olib kirib bir nimalarni uqtiradi. Muborak opam esa: “Pishirib yeng uningizni, xolajon! Naynov, laqma. Boshimga uramanmi?”, deya eshikni qarsillatib chiqib ketadi. Men uning shu qilg‘ini yaxshi ko‘raman.

Keyingi paytda To‘raqulboy kattakon portfel ko‘tarib ko‘chamizda tez-tez paydo bo‘la boshladi. U cho‘ldan bir kelganida qo‘limga buklog‘liq qog‘oz tutqazarkan:

— Shuni Mubor opangning kitobi ichiga solib qo‘y, — dedi mug‘ambirona iljayib. Angrayib turganimni ko‘rib va‘da qildi: — Fayzi ikkovingni cho‘lga olib boraman.

Uyga yugurdim...

Ertasi kuni uyimizga Fayzining otasi, onasi va yana bir ayol tugun ko‘tarib mehmonga kelishdi. Ular ketgach, onam Muborak opamni oshxonaga olib kirdi. Men eshik tirqishiga qulog‘imni qo‘ydim.

— Boring-e, shu oliftangizni boshimga uramanmi? — derdi Muborak opam harchand.

— Nimasi yomon, Muborakjon? Alining qilichiday yigit bo‘lsa... — deya avrardi onam.

Negadir bu gal Muborak opam eshikni qarsillatib chiqib ketmadi.

O‘sha oqshom — biz ayvonda o‘tirardik — devorimiz tagida “Alining qilichiday yigit”ning xirgoyisi eshitildi:

*Ikkalamiz bir avlodning bolasi,
Ne qiladi bir-birimiz sevganda...*

Hamмамiz Muborak opamga qaradik. U yerga tikildi, qizardi, keyin yugurib uyga kirib ketdi.

— Amakimning to‘yi ertaga, — dedi Fayzi.

— Mubor opamning to‘yi! — dedim men.

Biron oylar o‘tgach, Fayzining amakisi — mening pochcham kechqurunlari bir qo‘lida to‘rxalta, bir qo‘lida qovun yoki tarvuz ko‘tarib uyga qaytadigan, so‘ngra egnida beqasam chopon, chiqib tol tagidagilarga — o‘sha, kechagina o‘zini muhokama qilganlar safiga qo‘shiladigan bo‘ldi.

— Yur, amakim chaqiryapti, — de(ganmi)di kunlardan bir kun Fayzi kattalardek tashvishmand yo‘sinda. — Ikkovimizga aytadigan gap bor ekan.

— Jiyalar, — deya o‘ychan so‘z boshla(ganmi)di To‘raqul pochcham. — Bilasizlar, men o‘qimoqchi edim. O‘qishni bitirib shaharda qolmoqchi, kattaroq biron ish qilmoqchi edim. Boshqacha odam bo‘lmoqchi edim-da, boshqacha! Orzularim osmonni ko‘zlagan edi. Hammasiga erishaman, deb ishonardim, hammasiga. Bugun kelib qarasam — hech biriga erisholmabman, hech qaysisiga-ya! Nimadir yetishmadimi, nimadir xalaqit berdimi — nima? Bilmayman. Eh, bu gaplarni sizlarga nima uchun aytyapman?..

Biz uni hali shu choqqacha sira bunday tushkun, bunday jiddiy qiyofada ko‘rmagan edik.

...Rost edimi shu?

Keyinroq o‘zimiz — Fayzi ham, men ham amaki bo‘ldik, jiyalarimiz ketimizdan ergashib yura boshladi.

Tol tagidagilarni hamon qizg‘in muhokama ustida uchradim. Ular orasida To‘raqul pochcham ham bo‘lardi. “Nimani gapirisharkan buncha?“, deb ajablanardim.

U yerdan o‘tganimizda davradoshlar bizga — Fayzi bilan menga zimdan qarab-qarab qo‘yishlarini sezardim, shunda ko‘zim hech narsani ko‘rmas, qulog‘im hech narsani eshitmas edi. (Chamasi, Fayzi ham mendek “ko‘ru kar” edi.)

Ajabo, doim shular yonidan o'tsam, hanuz-hamon Fayzining amakisi — mening pochchamni naql qilishayotgandek tuyulardi...

Endi bu gaplarga ko'p bo'ldi. Endi qishloqqa borgandagina, Fayzini, Fayzi ikkalamizning bolalik zavqimiz, havaslarimiz sababkori — To'raqul pochchamni ko'rgandagina eslab-eslab qo'yaman. Eslayman-u o'ylab qolaman: o'shanda rostdan ham kunlardan bir kun To'raqul pochcham Fayzi ikkalamizni huzuriga chaqirib azza-bazza hasrat qilgan, bizga — ha, Fayzi bilan menga nimadir, o'zi ham tagiga yetolmagan nimanidir aytmoqchi, uqtirmoqchi bo'lganmidi yoki buni o'zimcha to'qib yuribmanmi? Bilmayman. Ulardan so'rashga esa iymanaman. Lekin negadir shunga — kunlardan bir kun To'raqul pochcham Fayzi ikkalamizni huzuriga chaqirganiga, chaqirib azza-bazza hasrat qilganiga, hasrat asnosi bizga — ha, Fayzi bilan menga n i m a n i d i r, o'zi ham tagiga yetolmagan n i m a n i d i r aytmoqchi, uqtirmoqchi bo'lganiga ishongim keladi.

...Fayzining amakisi — mening pochcham boshqacha odam bo'lmoqchi edi, boshqacha! Bilasizmi, qanday? Bilmaysiz. Men ham bilmayman, Fayzi ham, o'sha odamning o'zi ham...

Buni endi hech kim bilmaydi, bilolmaydi.

1974

QOR BOSGAN DOVON

Malik, Nishon, o'sha qattiq kelgan qish eslaringdami? Qattol dara yo'li, olijanob Safarov...

Bugun men uni "Toshkent" mehmonxonasi oldida uchratib qoldim. Yo'q, uchratishni kutmagan, o'ylamagan edim — tasodifan duch keldi. Yonida o'ziga o'xshaganroq bir kishi. Tanimadim. Maydonda kezib yurishibdi. Hasan-Husandek bir xil kiyinishgan. Kiyim-boshlari yangi, a'losifat, ammo birovning egnidan nasiyaga olgandek qandaydir zebsiz, yarashiqsiz. Chamasi, kecha kelishgan. Kelib oq zarur ishlarini bitirishgan-u kechqurun yo "Toshbolta oshiq"qa (nechanchi marta?), yoki biron-bir (to'ylarda eshitaverib zerikmagan) xushovoz xonandaning konsertiga kirib miriqishgan. Bugun esa u yoq-bu yoqni aylanishgan, albatta SUM, GUMlardan sovg'a-salom olishgan, restoranda o'tirib "bir xumordan chiqishgan". Mana, endi mayin kekirib poytaxt manzaralarini ko'zdan kechirishmoqda. (Axir qishloqqa qaytganingda safar taassurotiga qiziqqan birov-yarim "Ha-a, bu Toshkentlar qalay ekan?" deya so'rab-netib qolsa, mum tishlab turolmaysan-ku! "E, so'ramang, birodar! Erkagu ayolini ajratib bo'lmaydi. Qizlar ham shim kiyib qolibdi deng, barining sochi qirqilgan. Qiyomat. Lekin bu metro degani zo'r ekan, hamma yog'i marmar-a!") Hozir teatr maydoniga o'tishadi: antiqa favvora tevaragini ham bir aylanishsin-da... Xuddi shu payt uchrashib qoldik.

— E, e, jiyani! — dedi Safarov quchoqlashmoqchidek qo'llarini ikki yonga yozib.

Salomlashgan, hol-ahvol so'rashgan bo'ldik: "Qaysi shamol uchirdi?". "Xizmatchilik, jiyani. Shahringizda mehmonmiz".

Taxminim to'g'ri chiqdi: kecha kelishgan ekan; "Xudo xohlasa, bugun oqshom poyezdni ko'zlab turibmiz".

— O'zimizning ukalardan, — deya Safarov meni sherigiga tanishtira ketdi. — Shu yerda, Toshkentda ishlaydi. Idorasi — huv anovi baland binoda. Ko'ryapsizmi, tepasida soati ham bor! Shundaymi? (Gapini menga tasdiqlatib oldi.) Bular to'rt-beshta bo'lib bu yoqdan borishardi. Qishning kuni deng,

sovuq, izg'irin. Egnilarida charmga o'xshagan yupqagina haligi, nima deydi, kurtkami, istansada diqillabgina yer tepib turishadi. Ustudent-da. Rahmim keladi. "Mininglar moshinaga", deyman. Ekspeditor edik, tagimizda moshina, istansadan taxta-yu shifer tashiydigan vaqtlarimiz. Shuytib deng, to'-o'rt-besh-tasini moshinaga o'tqazib qishloqqa olib qaytaman. Yo'l bo'yi ashulani vang qo'yib ketishadi. Ustudent-da. Mana, endi qarang, qanday odam bo'lib ketishdi!! Toshkentday joyda ishlash osonmi? Faxrlanamiz-da bular bilan, faxrlanamiz. Nima dedingiz?

— Shunday, shunday, — deya sherigi ham unga qo'shilib men bilan faxrlandi.

— Qani, bunday bir choylashaylik bo'lmasa, — dedi Safarov restoran tomon ishora qilib.

Men ham o'z navbatimda ularni uyga taklif etgan kishi bo'ldim.

— Aytдим-ku, bugun oqshom poyezdga chiqmoqchimiz, — dedi Safarov afsuslangandek. — Lekin yanagi qatla yo'limiz tushsa, siznikida albatta bir mehmon bo'lishimiz bor, ha, hisobga olib qo'ying, jiyan. Ehtiyotdan adresingizni yozib bering. Toshkent bizga Makkaday gap, mana shunday kelib-kelib turamiz.

Biz u bilan anchayin tanish hamqishloqlar kabi jo'ngina ajralishimiz, men undan qishloqdagilarga salom aytishini so'rab, u esa navbatdagi kelganida albatta mehmon bo'lajagini ta'kidlab odatdagidek xayrlashishimiz, shahar odamiga xos parishonxotirlik ichida men uni birpasdan keyin unutishim, butunlay unutishim, yana o'zimning bosh-adoqsiz tashvishlarimga sho'ng'ib ketishim mumkin edi. Shunday bo'lgani tuzuk edi, ammo xo'shlashar chog'imiz u ishni buzdi — dabdurustdan so'rab qoldi:

— Ho'-o', Durdara esingizdami, jiyan? Bo'ron chatoq?..

Durdara! La'nati Durdara! Esingdami, Malik? Esingdami, Nishon?

Durdara, du-ur dara — chek-adoqsiz olis dara...

Egnimizda yengil nimcha-kurtka (palto bizga yarashmaydi: qo'pol, uzun), boshyalang (telpak og'irlik qiladigan mahallarda!), oyoqlarimizda yozlik boshmoq (qishligiga pul qayda?), uchovlon — Malik, Nishon va men yangi yil bayramini uyda, ota-onalarimiz bag'rida o'tkazish uchun qishloqqa jo'nadik. Uyda bizni bezatilgan archa emas, qorbobo emas, sirli sovg'a-salom-

lar ham emas — issiqqina sandal, atay asrab qo‘yilgan kuzgi uzumlar, olma, behi, ularning xonani to‘kinlik gashtiga to‘ldirgan anvoyi hidi, onalarimiz, ukalarimizning qadrdon quchog‘i, mehri kutardi.

Ammo poyezddan tushgach bizni sovuq stansiya, chillada mastiqqan bo‘ri misol xunuk uvillab oyoqdan chaladigan bo‘ron, yuzlarga zaharli ignadek sanchiladigan daydi izg‘irin qarshi oldi. Pisand qilmadik: yosh edik, sog‘lom edik. Sovqotardig-u yaqin, juda yaqin joyda — huv anovi kulrang tuman pardasida osmonga o‘rlab, osmonga qo‘shilib g‘ira-shira ko‘zga chalinayotgan dovon ortida, adirlar qo‘yniga yashiringan bir qishloq borligini, unda uyimiz, issiq-issiq uylarimiz borligini, omad yo‘limizni bersa, hademay u yerga yetib olishimizni o‘ylab, badanlarimizga iliqlik yugurgandek bo‘lardi. Yaqin, juda yaqin. Devdek xo‘mrayib turgan anovi dovondan eson-omon o‘tsak — uyga yetganimiz.

Bamisoli nuqul sovuq, badnamo temir-u qo‘rg‘oshindan quyilib, rutubat makon qilgan qafasdek tor, nimqorong‘i stansiya binosidan navbatma-navbat chiqib, kaftimiz — quloqlarimizga qopqoq, yugurishga shaylanayotgan odamga o‘xshab, turgan joyimizda depsingancha yo‘lovchi mashinani poylay boshladik.

Omadimiz chopganimi, ko‘p kutishga to‘g‘ri kelmadi. Poyloqchilikka chiqqan Nishon o‘sha zahoti yugurib kirdi:

— Mashina!

Ro‘parada, temir yo‘ldan narida saf tortgan, tevarak-atrofi egalarini kutib, qor ko‘rpasi ostida mudrab, zerikib yotgan yog‘och-u ko‘mir uyumlariga to‘la pastak-pastak taxta omborlar biqinida ko‘ringan yuk mashinasi g‘ildiraklaridagi zanjirlarni shaldiratib kelib yonginamizda to‘xtadi. Kabina oynasini tushirib, boshida savatdek telpak, po‘stini yoqalarini ko‘tarib olgan, yuzi shishinqiragannamo bir kishi bo‘ynini cho‘zdi:

— Ha, jiyanlar, yo‘l bo‘lsin?

— Bog‘bologa, — deya uchalamiz baravar javob qaytardik.

— E, o‘zimizning bolalar-ku! Kimning uli bo‘lasizlar?

— Salim tegirmonchining, — dedi Nishon chiyillab.

— Qahhor darozning ukasiman, elektrstansiyadagi, — dedi

Malik istar-istamas po‘ng‘illab.

— Abrayevning, — dedim men oxirida, nimagadir umidvorlik bilan.

— E-e, shunday denglar? Buni qarang. — Savatdek telpak yoniga — shofyorga o‘girildi.

— Safarov, — dedi Nishon pichirlab. — Hamsoyamiz. Uyi sal nariroqda-yu, baribir hamsoya-da.

Kabina ichidagi gap eshilib turardi.

— Devonamisiz o‘zi, Norboy aka? Kunni qarang, bo‘lmaydi-e! — derdi shofyor o‘jar ohangda. — Ana, dovonni qor bosib yotibdi. Undan yuraman deganning yuragi otniki bo‘lishi kerak. Xudo ko‘rsatmasin, Durdaraning yo‘lini o‘zingiz bilasiz, borguncha...

Kabinaning narigi eshigi ochildi, quloqchinli, qora choponga o‘rangan shofyor tushib, oldimizga keldi.

— Ukalar, xafa bo‘lmaysizlar, — dedi u Nishonning yelkasiga qo‘lini qo‘yib, — yukimiz og‘ir, dovondan yurolmaymiz. Ko‘r-yapsizlar, moshinaning usti ochiq. Kiyimlarning ham... Yaxshisi, men sizlarni ammannikiga olib borib qo‘ysam. Uyi shu yerda, yaqin. Bu kecha mazza qilib gurungni urib yotsalaring-da, ertaga — xudo poshsho, kun ochilib, qulayroq biron moshina bo‘lsa... Maylimi?

Biz mo‘ltirab Safarovga tikildik.

— O‘ Cho‘lli! Qo‘y shu gapni, bu yoqqa chiq! — dedi Safarov amirona ohangda. So‘ng bizga ko‘z qisib, mashinaga imo qildi: — Mininglar, bolalar! Ikki soat nima degan gap? Xash-pash deguncha yetamiz. Sovuq yeb qo‘yarmidi? Bo‘zbola, student. Ammangnikida nima bor? Bugun praznik, uylariga borishi kerak. Shundaymi, jivanlar, a?

Yashang, Safarov amaki!

Bizga xuddi shu gap kerak edi. Lip etib uchalamiz ham mashinaga chiqib oldik. Mashina Safarovniki, unga ammasining uyini bahona qilib ortiqcha dahmazadan qutulmoqchi bo‘layotgan anovi qo‘rqoq shofyor emas, tushungan odam Safarov xo‘jayin. Xo‘jayinning gapi gap!

“Etagi” tushirilib, bo‘g‘zigacha terak bo‘yi keladigan uzun-uzun taxtalar ortilgan mashina haydovchisiga qo‘shilib og‘ringandek, istar-istamas joyidan qo‘zg‘aldi. Yo‘lovchi mashinaga intizorligimiz sovuq xo‘mrayib turgan qizg‘ish stansiya bi-

nosi, tuman ichiga sho'ng'ib ketgan temir yo'l-u tevarak-atrofi ivirsib yotgan taxta omborlar bilan birga ortda qoldi. Mashina hademay bahaybat dovonga, dovon emas, bamisoli osmonga o'rlab ketgan ilon izini chetlab o'tib ("Undan yuraman deganining yuragi otniki bo'lishi kerak!"), oddiy odam yuragi bilan yurishga o'ng'ay, tepasida qoyalar vahimali qaqqayib, ajdahodek og'zini ochib turgan dara yo'liga burildi.

Qoyalarning xira ko'lkasidan boshqa narsani ko'rib bo'lmaydi — hamma yoq tuman. Chiroqlarini yoqqan mashina paypaslangancha, toqatni toq qilgudek imillab bormoqda. Go'yo tuman ichida silkinib, tuman belanchagida tebranib turgandekmiz. Qiyalik yoki do'nglikka ko'tarilganda xuddi tuman qo'yniga singib, tumanga qorishib ketgandek bo'lamiz. Dara bo'ylab allanima, yo'q, ajdaho na'ra tortayotgandek. Ajdaho bizni domiga chorlamogda, yutmoqda...

— Dovondan ketsak zo'r bo'lardi-da, — dedi Nishon qu-loqlarini kaftlari bilan ishqarkan. — Birpasda yetardik.

— O'lging kelgani yo'qmi? — dedi Malik.

— O'lmoq yo qolmoq-da, jo'ra, bu nima azob?

— Shoshmay tur endi, uyga borganda o'lasan. Davay, ashula aytamiz.

— Ashulaga balo bormi shu paytda? — deya luqma tashladim men. — Sovuqda o'laman deb ketyapsan-u!

Ular gapimga parvo qilishmadi, boshlashdi:

Qarg'alar-r-r ucha-a-a qarayli-i-ik...

— Qo'shilsang-chi, — dedi tishlari takillayotgan Nishon menga. — Isigandek bo'lasan, xudo ursin. Sovuq esingdan chiqadi-da. Qani, ha! Qarg'alar-r-r...

Men esa labimni qimirlatishga ham qo'rqardim: sovuq kiradi. Yo'q, ular ham sal o'tmay "isinib bo'lishdi" — bas qilishdi. Biri qulog'ini, biri burnini ishqashga tushdi.

Mashina sekinlagandek bo'lib, Safarovning ovozi eshitildi:

— Ha, jiyalar, jimib qoldilaring? — dedi u kabinadan hovur purkab. — Baland-baland aytinglar-da ashulani, biz ham eshitaylik!

— Yetib qoldikmi, amaki? — deb so'radi Nishon chiyillab.

— Yetamiz, yetamiz. Daraning og‘ziga oz qoldi.

Daraning og‘ziga yetguncha... burnimiz, quloqlarimiz ishdan chiqdi, ular haqida qayg‘urmay qo‘ydik — yo‘q hisobi bo‘lib qoldi. Oyoqlarimizga yopishdik. Lekin oyoqlar na bunday iligan-ga o‘xshar, na birdan muzlab, bizni tinch qo‘yar edi. La‘nati boshmoq, ichiga xuddi aysberg muzidan bir bo‘lak joylangan-dek! Nishon bo‘ynidagi sharfni yechib oyog‘iga o‘radi. Malik bilan men ham shunday qildik. Ammo quloq-burun boshqa-yu, oyoq boshqa, ular har xil etdan yaralgan ekan.

Bir vaqt Nishon piq-piq qila boshladi.

— E-ha, Gamletim, o‘ylay-o‘ylay oxiri o‘lmoqqa jazm etdilar-mi, — dedi Malik. Ichimizda dadilrog‘imiz ham, sho‘xrog‘imiz ham shu edi. — Tentak bo‘lib qoldi bu, — dedi keyin menga qarab va jiddiy uqtirdi: — Sovuq yomon-da, odamni mana shunday tentak qilib qo‘yadi. Sen ham ehtiyot bo‘l!

— Yig‘layapman, — dedi Nishon qalt-qalt uchib, eshitil- lar-eshitilmas. — Picha isiganga o‘xshayman. Sizlar ham yig‘langlar.

— Ana, aytmadimmi?! — dedi Malik yana kulgiga olib. — Sog‘ odam shu havoda isidim deydimi?

Biroq ko‘p o‘tmay Malik ikkalamiz ham “tentak bo‘lib qoldik” — boshqa iloji yo‘q edi. Chindan ham, odam sal yengil tortgangami, isigangami o‘xshadi. Toshbaqa misol bo‘ynimizni ichimizga tortgan ko‘yi g‘ujanak bo‘lib, uvillagancha bir-biri-mizning pinjimizga tiqilamiz. Rahmi keldimi, Malik Nishon- ning oyog‘ini bag‘riga oldi, men oyog‘imni asta Nishon tomon uzatdim...

Biz hozir “ajdaho”ning naq “oshqozoni”da edik. Hali ancha yurishimiz kerak, ancha. Boyagi hazil-mutoyiba-yu “ashula”, “yig‘i” — hech biri kor qilmay qoldi. Endi go‘yo ortiq sezgi- hisdan mahrum, jonsiz uchta gavda, uch jasad “ajdaho oshqozoni”da qalqib-qalqib shunchaki suzib yuribdi, xolos. Faqat bu jasadlarning ich-ichida bittadan chiroq miltillaydi: “Axir, uyga boryapmiz-ku, uyimizga! Axir, yetarmiz-ku! Uyimiz is- siq, pechka bor, sandal bor, olma, uzum, behi...”

Bir vaqt mashina to‘xtadi, g‘o‘ng‘ir-g‘o‘ng‘ir ovozlari eshitil- di. Karaxt, bemajol gavdalarimizni ko‘tarib qaradik.

Ura! “Ajdahoning qorni” — daradan chiqibmiz! Ana, ko‘kish g‘ubor ichida ikki adir oralig‘idagi soylikda joylashgan besh-o‘n xonadonli Avjin ovuli! Undan naryog‘i — yarim soatlik yo‘l. Ura!

Mashinamiz soylikka yengan joyda to‘xtab turardi. Oldi qar-moqqa o‘xshagan, kamonsimon xoda bilan to‘silgan; yo‘l cheti-da omonatgina taxta hujra. Shlagbaum! Egnida eski chakmon, to‘shi ochiq, yuz-ko‘zini soqol bosgan bir kishi kabina oldida Safarov bilan munozara qilmoqda.

— Meni taniyapsizmi o‘zi, Bo‘ron aka? — derdi Safarov bo‘g‘ilib.

— Menga bunday siyosat qilmang, xo‘pmi! Men sizni tani-mayman! — derdi kishi jangarilik bilan. — Aytdim-ku, mumkin emas!

— Ebi, bu odamga bir balo bo‘lganmi o‘zi? Har kuni o‘tib-qaytib yurgan yo‘limiz bo‘lsa...

— Bugun o‘tmaysiz-da. Bugun — kalantir!

— Axir, ertalab ketayotganimizda hech gap yo‘q edi-ku? Qorangizni ham ko‘rmadik? Qachondan boshlab...

— Hozirdan boshlab — kalantir! Tushdan keyin shunday buyruq bo‘ldi. Yuqoridan!

— Qo‘ying, Bo‘ron aka, o‘zimizning odamsiz, — deya Safarov kabina eshigini ochib oyog‘ini tushirarkan, murosqa qilishga urindi: — Anov ola tayog‘ingizni ko‘taring endi, yo‘ldan qoldirmang odamni buytib. Tepada yuk bor, ko‘ryapsiz.

— Anovilar-chi? Ular ham yukmi?

— Ular... — Safarov biz tomon o‘girildi, — o‘zimizning bolalar, ustudentlar.

— Ayting, tushsin.

— E-e, qo‘ying-da shu gapni, Bo‘ron aka! Toshkentday joydan praznik qilib kelishyapti, uylariga borishi kerak.

— Uyiga shunday ko‘karib boradimi? Uni qarang, sob bo‘pti-ku bari. Yo‘q, tushadi, gap tamom! Kalantir!

— E, karantinlamay keting! — dedi Safarov achchiqlanib. — Taxta-maxta kerak bo‘lsa, bunday aylantirib o‘tirmay...

— Kalantir deyapman, musulmon, taxta emas!

— O‘ bobo, mana bu Abrayevning o‘g‘li bo‘ladi! — dedi Malik meni ko‘rsatib.

— E, menga desang, xudoning uli bo‘lmaysanmi — tushasan!

— Ha, bular tushsa, bizni qo‘yib yuborasizmi, axir? — dedi Safarov ilojini topgandek.

— Tushsin qani.

Mehribon Safarov qo‘llarini ikki yonga yozgancha bizlarga qarab nochorona iljaydi:

— Jiyanlar, o‘zlaring ko‘rib turibsizlar, bu odamga xudo bas kelmasa...

Mashinadan birinchi bo‘lib Nishon tushdi. Tushdi-yu, joyidan turolmay o‘tirib qoldi.

— Ha? — dedi Malik unga engashib.

— Oyog‘im... — Nishonning afti ayanchli bujmaydi.

— Bular endi nima qiladi? — dedi Safarov.

— Ishingiz bo‘lmasin, siz ketavering, — dedi kishi to‘siqni ko‘tarib mashinaga yo‘l ocharkan.

— Aytganday, qachondan beri bu karantinchilikka o‘tdilar? Ilgari chorvada edilar shekilli? Yo bunisi beg‘alva, serdaro-madroq ekanmi? — Safarov kinoya bilan uni bir achitmoqchi bo‘ldi.

— Bu yo‘ldan sizga o‘xshaganlar o‘tadigan bo‘lsa, men doim shu yerdaman!

— Zo‘rsiz, zo‘rsiz, — dedi Safarov gapga e‘tibor bermay va kabina eshigini yoparkan, bizdan uzr so‘ragan bo‘ldi: — Xafa bo‘lmaysizlar endi, jiyanlar.

Mashina g‘ubor ichida ko‘rinmay ketgach, yonimizdagi kishi “Noinsof!” deb to‘ng‘illadi va bizga o‘girildi:

— Yuringlar.

U qiyalikka qarab yo‘l boshladi. Malik ikkovimiz Nishonni ikki yonidan olib indamaygina unga ergashdik.

U bizni qayoqqa olib bormoqchi? Nega yo‘ldan qoldirdi? Qayoqdan paydo bo‘ldi o‘zi? Maqsadi nima? La‘nati “kalan-tir”!

Oldimizda ho‘qqidek bo‘lib churq etmay ketayotgan bu odam, uning yarg‘oq telpagi, eski chakmoni, paytavasi chivalib borayotgan qo‘pol etigi ko‘zimizga balodek ko‘rinardi. Lekin shu tobda qo‘limizdan nima keladi, ilojimiz qancha?

“Kalan-tir” bizni ovul chetidagi, girdi tosh bilan o‘ralgan qo‘raga olib bordi, peshayvonsiz imoratning chap yonidagi kichik

bir xonaga boshlab kirdi-da, o'zi chiqib ketdi, shu bo'yi qorasi ko'rinmadi.

Xiyol o'tib, boshiga qalin ro'mol o'ragan, ko'k duxoba kam-zullii novcha bir ayol kirib:

— Yaxshi yuribsizlarmi, yigitlar? Sovqotibsizlar-da? — dedi va poygakdagi pechkaga lang'illatib o't yoqdi. Keyin dasturxon yozib, non-choy, bir tovoqda qovurdoq keltirib qo'ydi: boshimizda turib bir lahza bizga razm soldi-da, — yeb-ichib o'tiringlar-a, aylanaylar, — deya xonadan chiqdi.

Qovurdoqni paqqos tushirdig-u o'zimizni og'ir, lohas seza boshladik. Xona xiyla isib qolgan edi. Badanlarimiz bo'shshib, yayrab, quroqi yakandozlarga cho'zilgancha lo'labolishlarga yon-boshladik. Sovqotib charchagan ekanimizmi, issiq elitibdimi, ko'zimiz ilinibdi, tarrakdek qotib qolibmiz. Tush ko'rgan bo'lsak, uchalamizning ham tushimizga la'nati Durdara emas, issiqqina uylarimiz, sandal, olma, uzum, behilar, ukalarimiz, onalarimiz kirgandir...

Toshkentdek joydan atay yo'lga chiqib, manzirimizga bir qadam qolganda birovning uyiga majburan qo'nib, yangi yil bayramini uyquda, ana shunday tushlar bilan "kutib oldik".

Yangi yilning birinchi tongi uyg'onib ko'zimni ochsam, ostonada kechagi ayol turibdi.

— Sizlarga moshina yuboribdilar...

Shosha-pisha sheriklarimni uyg'otdim. Ko'zlarimizni ishqay-ishqay xonadan chiqarkanmiz, dasturxonda qo'l urilmagan bir tovoq oshni ko'rdik. Kechagi!

Tashqarida bizni biqiniga "Veterinariya" deb yozilgan moshrang yengil mashina kutib turardi. Ayolga na "rahmat", na "xayr" deyishni unutib, mashinaga o'tirdik.

Shofyor asli shu ovullik ochiqqina, so'zamol yigit ekan, o'zi gap boshlab qoldi:

— Kecha kechalab kelgan edim. Bayramda boboy-momoyini yo'qlab qo'yish kerak-da. O'zim sovxozda turaman. Sizlarning bu yerda ekanliklaringni bilganimda kechayoq olib borib qo'yardim. Ertalab Bo'ron chatoq aytdi, "Uyda mehmon bolalar bor edi. Toshkentdan kelishayotgan ekan", dedi. Saharlab uyga boribdi.

— O'zi qayerda? — dedim men.

— Hozirmi? Molning boshida, qo‘rada bo‘lsa kerak-da.

— Shlagbaumda emasmi?

— Shlagbaumda nima bor unga? — dedi yigit kulib. — Cho‘pon-ku, cho‘ponligini qiladi-da. Hozir mollarning ahvoli chatoq.

— Kasal tarqaganmi? Karantin deyishayotuvdi? — deb qiziqsindi Malik.

— Karantin-parantin-ku emas, sovuq. Sovuqda molni asrash, qishlovdan to‘kis chiqarish osonmi, oshna!

— Kecha bizni karantin deb yo‘ldan olib qoldi-ku?

— Kim? Bo‘ron chatoqmi?

Malik bo‘lgan gapni aytib bergan edi, shofyor qiyqirib kuldi.

— Obbo, chatog‘ey, sizlarni toza boplabdi-ku! Karantin deyilsa, birinchi biz bilmasmidik? U nima qilib yurgan ekan shlagbaumda? Karantin bo‘lganda ham odam o‘tkazilaveradi-ku? Aytmadilaringmi? Chatoqligiga boribdi-da. Sizlarni bir mehmon qilgisi kelganmi? Isinib olsin, deganmi? Qiyomat odam. Fe‘liga tushunish qiyin. O‘rligi tutsa, aytganini qildirmay qo‘ymaydi. Arzimagan bir gapning ustidan tug‘ishgan ukasi bilan necha yildan beri gaplashmaydi. Lekin o‘zi zo‘r cho‘pon, yaxshi odam. Obbo, chatog‘ey, sizlarni rosa boplabdi-da.

— Ukkag‘ar “Kalantir”! Bayramni uyda o‘tkazolmadig-a! — dedi Malik.

Uchalamiz Bo‘ron chatoqni boplab so‘kib oldik.

Ertasi kuni otam ko‘chadan qaytib:

— Safarovning mashinasida kelgan ekansizlar-da? — deb qoldi. — Boya choyxonada ko‘rdim, “Qarasam, stansiyada diqillabgina turishibdi, olakeldim”, dedi.

Men bo‘lgan gapni, bir kun yo‘lda tunab qolganimizni otamga aytmadim. Bo‘ron chatoq haqida ham gapirmadim. Indamay qo‘ya qoldim.

Sen ham buni hech kimga aytmagandirsan, Nishon? SENCHI, Malik? Darvoqe, nimasini aytardik, nima deb aytardik? Bir paytlar qish kuni ikki soat sovuqda yurgan bo‘lsak yuribmiz-da, aytishga arzigulik nimasi bor buning?

Ammo ba‘zan yomg‘irda mening belim og‘rib qoladi. Juda qattiq og‘riydi, Nishon. Juda qattiq, Malik. Sizlarning-chi,

sizlarning qayerlaring og‘riydi? Nimadanligini bilmay-sizlarmi?..

Bugun men Safarovni “Toshkent” mehmonxonasi oldida uchratib qoldim. Yo‘q, uchratishni sira kutmagan, o‘ylamagan edim — tasodifan duch keldi. Bugun u menga yana o‘sha la‘nati darani, bizga qilgan yaxshiligini eslatdi. Shunda yodimga boshqa bir voqea tushdi.

Institutga kirish imtihonlaridan biri paytida tishim qattiq og‘rib qoldi. Bir azobda imtihonga kirib chiqdim—u yaxshi baho olganimdan suyunib, jag‘imni ushlab ham xayolimda yo‘q, ko‘chada ketayotsam, kimdir: “Ho‘ yigitcha!” deb chaqirib qoldi. Qarasam, bir-biriga yarashgan yoshgina kelin-kuyov. Ikkalasi-ning ham qo‘lida muzqaymoq, menga qarab jilmayib turishibdi. “Imtihon topshirdingizmi? Necha baho oldingiz?” — deydi yigit. “To‘rt”, — dedim hayron bo‘lib. “Yashang, mana, sizga mukofot! — u qo‘lidagi qog‘ozi ochilmagan muzqaymoqni menga tutqazdi. — Oling, oling, tortinmang. “Besh” olganingizda boshqa narsa sovg‘a qilardik, a?” — shunday deb u kelinchakka yuzlandi. Muzqaymoq yalayotgan kelinchak jilmaygancha bosh irg‘adi. “Ikkita olgan edik. Mana, bittasini opangiz yeyapti, bunisi — sizga. O‘zumniki edi, sizni ko‘rib, sizga bergim keldi. Imtihondan yaxshi o‘tganingiz uchun. Qani, oling”. Ular menga shunday ochiq chehra, samimiyat bilan boqib turishardiki, muzqaymoqni olmay ilojim qolmadi. Oldim—u tish og‘rig‘imni ham unutib yeya boshladim va, taajjub, og‘riq taqqa to‘xtadi.

Kim bilsin, balki o‘shanda yigit muzqaymoqni juft qilib olishga olgan—u, keyin yegisi kelmay qolgandir, balki uning ham tishi og‘rib turgan—u tashlab yuborishga ko‘ngli bo‘lmay, meni ko‘rib shunchaki manzirat qilgandir? Kim bilsin. Lekin mana, oradan shuncha yil o‘tganiga qaramay, gohida o‘sha kelin-kuyovni qo‘msab qolaman, qidiraman. Ularni hamon o‘shanday — biri biriga yarashgan yoshgina kelin-kuyov holida ko‘rgim keladi...

Bizga yaxshilik qilmoqchi bo‘lgan olijanob Safarov...

Ko‘zimizga balodek ko‘rinib, nafratimizni qo‘zg‘agan Bo‘ron chatoq...

Menga muzqaymoq hadya etgan o‘sha kelin-kuyov...

Malik, Nishon, men bugun ham ba'zida yana o'sha daraga tushib qolgandek bo'laman va o'zimga taskin beraman, o'zimni ovutaman: "Mana, hozir uyga yetaman, issiqqina uyimga. U yerda..." Shunda beixtiyor olijanob Safarov yodimga tushadi. Bo'ron chatoqni esa negadir eslamayman. Sizlar eslaysizlarmi uni? Kim edi u? Qanaqa odam edi? Nega u bizni yo'ldan olib qolgan edi, Malik, bilasanmi? Sen-chi, Nishon, la'nati Durdara yo'lidagi himoyasiz hamrohim?..

1979

BOG‘BOLOLIK KO‘KALDOSH

Yozgan narsalarimni men eng avval unga o‘qib beraman. Adabiyotni suv qilib ichgan, qilni qirq yoradigan bilimdon do‘stlarim ko‘p, lekin mening to‘ng‘ich o‘quvchim doim — Najmiddin. Hikoya unga ma‘qul kelsa, menga kifoya, keyin bilimdon do‘stlarim nima desa deyaversin — ishonmayman. Yozganimning biron joyi yoqib ketsa, u tizzasiga shapatilab “To‘g‘ri, to‘ppa-to‘g‘ri!” deya qiyqirib yuboradi, hikoya ma‘qul tushmasa, anchayin “Yaxshi”, deb qo‘ya qoladi; ko‘nglim to‘lmaganini ko‘rib, gapini takrorlaydi: “Yaxshi dedim-ku!” Bilingki, hikoya yoqmagan, bilingki, hikoya yomon yozilgan. Aytadigan bor fikri shu uning. Bilimdon do‘stlarim esa... bilimdon, xolos.

Najmiddin — ham yurtim, bir tumandanmiz; u tog‘ etagidagi, dov-daraxtga ko‘milgan obodgina Bog‘bolo qishlog‘idan. Bizni musofirchilik yaqinlashtirgan. Meni qora tortib, uyimga tez-tez kelib turadi. Ko‘pincha yakshanba kunlari keladi.

U shaharda yashashni yaxshi ko‘radi, o‘zining ta‘biri bilan aytganda — “shaharsevar”. “Tashselmash”da ustalik qiladi, allaqayda sirdan o‘qiydi. Harbiy xizmatni shu yerda o‘tab, qolib ketgan. Bir chamadon sovg‘a-salom ko‘tarib, keksa onasini ko‘rgani tez-tez qishloqqa ham borib turadi. Shaharda qolib ketgani shaharsevarligi uchungina emas, qishloqda kim bilandir, yaqin bir qarindoshi bilan gapi qochgan, chamasi, qandaydir nizoga ham borgan — bu haqda og‘iz ochmaydi. Uylangan, go‘dakka o‘xshagan arazchi, lekin mehribon xotini bor; uni kam olib keladi: kir yuvmoqchi edi, opasining uyiga ketgan, qizchamizning tobi yo‘qroq edi...

Najmiddin kelganda men doim quvonib ketaman, har qanday ishimni yig‘ishtirib unga peshvoz chiqaman, o‘tirib bajonidil gurunglashaman.

— Yur endi, — deyman (u mendan ancha yosh) choydan so‘ng uni ish bo‘lmamga boshlab. — Yangi narsa yozganman, o‘qishamiz.

— Ko‘kal haqidami? — deydi u ko‘zlari chaq nab.

Ensam qotgandek kulimsirab qo‘yaman: “Topgan gapi — Ko‘kal!”

Nega men bilimdon do‘stlarim qolib, adabiyotdan yiroq bir odamga hikoya o‘qib beraman, undan fikr kutaman? Uning muruvvatiga tayanib, o‘zimcha ko‘nglimni ovlab qo‘yish uchunmi? Yoki yozgan narsamni shunchaki bir jaydari sinovdan o‘tkazib olish uchunmi? Axir, u tizzasiga shapatilab “To‘g‘ri, to‘ppa-to‘g‘ri!” desa — hikoya chindan ham tuzuk, “Yaxshi”, deb qo‘yaqolsa — yomon, albatta bir ishkali bor chiqadi. Buni o‘zim ham sezib turaman... O‘rtabo‘yman — bo‘ychanroq bo‘lishni, qiziqqonman — siporoq bo‘lishni, yalqovman — serg‘ayrat bo‘lishni orzu qilaman. Orzu qilaman, ammo iloj qancha!

Najmiddin har safar hikoyani eshitib bo‘lgach:

— E, Ko‘kalni yozingda-e! — deydi. — Ko‘kal qiziq, Ko‘kal ajoyib... — U bolalikda birga o‘sgan oshnasining g‘aroyib qismatidan naql qila ketadi. — Bilaman, baribir yozmaysiz, — deydi hikoyasini yakunlarkan, o‘kinch bilan. — Yozmaysiz, chunki u paxtadan mo‘l hosil yetishtirmagan, sevgisi ham kitoblardagiga o‘xshamaydi. Lekin baribir Ko‘kal qiziq, Ko‘kal ajoyib!

“Shunisi yaxshi-da”, deyman ichimda va umrimda ko‘rmagan, bilmagan odamim — bog‘bololik Ko‘kal haqida o‘ylab ketaman. Mayli, u paxtadan mo‘l hosil yetishtirmasin, mayli, mansabdor ham bo‘lmasin, qahramonlik ko‘rsatishi ham shart emas, o‘sha, mashina haftada bir boradigan xilvat qishlog‘ida jimgina, o‘z kunini o‘zi ko‘rib yuraversin — shuning o‘zi kifoya emasmi odamzodga?

Najmiddinga qarayman. Nigohida ta‘na, o‘kinch: “Bilaman, baribir yozmaysiz”. Loqaq uning ko‘ngli uchun o‘sha ajabto‘vur oshnasi haqida biror nima yozib ko‘rgim keladi. Ammo qo‘rqaman, uning dilidagi porloq bir xotirotni, ajib bir mehrni o‘l d i r i b qo‘yishdan qo‘rqaman.

* * *

— Ko‘ka-al! — deb qichqirardi onasi. — Ko‘kingni kiyay, Ko‘ka-al! Bo‘ying go‘rda chirigur Ko‘ka-al! Zotingga tortmay noming o‘chgur Ko‘ka-al!..

Onasi o'riklilik tog'chilar urug'idan edi. Bu mardum xiyla badfe'l, jangari keladi, bilasiz, g'alvani pulga sotib olay deydi. Turib-turib, zerikkanidan sho'rlik Ko'kalni qarg'ab qolardi. Shom-u sahar hovlida g'imirlab, ro'zg'orning o'tidan kirib-suvidan chiqadigan Ko'kal burilib bir og'iz "Nima deyapsiz o'zi?" deb so'ramasdi. Bu jihatdan u otasiga tortgan edi. Otasi... Otasi shu o'zimizning chig'atoylardan. Aytgandek, uning otasi yo'q edi. To'g'rirog'i, bor edi-yu, yo'q hisobida edi. Bilganlar bilardi, ammo bilmaganga olardi. Jig'iga tegish uchunmi, Ko'kalni jo'rttaga tergashardi.

- Kimdi uli bo'lasiz, Ko'kalboy?
- Enamdi.
- Enangiz kim, Ko'kalboy?
- Mayram tog'chi.
- Otangiz-chi?
- Otam yo'q.
- Nima, o'lganmi?
- O'lmagan.
- Bo'lmasa kim u?
- Bilmayman.
- Odam otasiz ham tug'iladimi, bachchag'ar?!

Hamma balo shundaki, Ko'kal otasining kimligini bilardi. Bilardi-yu kimsaga aytolmasdi. Peshonasining sho'ri ham shu edi-da uning.

Ko'kal novcha, darozligidanmi, doim enkayib, allanechuk qimtini yurar, siz bilan gaplashganda ko'zini yerdan uzmas edi; avaylab, oyoq uchida odim bosardi — sharpamdan birov cho'chimasin degandek, qo'rqibgina nafas olardi — bu havodan bahramand bo'lishga haqqim bormi degandek...

U soyadek sharpasiz, sharpadek soyasiz ediki, shunisi bilan ham atrofda qilarga yoqardi. Negadir sira kulishni bilmaydigan odamovi, o'gay temirchi otasi ham, Ko'kal hech o'xshamaydigan sho'x-shitroqi ukalari ham uni yomon ko'rishmasdi. Birgina onasi go'rdan olib-go'rga solishini qo'ymasdi:

- Suvsab o'lgur Ko'kal, suv opke!..
- O't-olovsiz o'tgur Ko'kal, o'tin yor!..
- Og'ilni murdasho'ying kuraydimi, juvonmarg!

— Eshakka qara, bo‘yning uzilgur, nima deb hangrayapti?!

Ko‘kal jimgina borib Doniyorovning hovuzidan suv keltirar, jimgina o‘tin yorar, jimgina og‘il kurar, jimgina eshagini sug‘orar edi. Hamma ishni jimgina, bo‘yin burmay bajarardi. Onasi esa guzarga jar solib javragani javragan: “Ko‘ka-al, Ko‘ka-all..”

Ko‘kal butun Bog‘bologa dastyor edi. Onalarimiz uni bizga ibrat qilib ko‘rsatardi: “Ana, Ko‘kalni qara...” Ko‘kalga qarardik: u kattalarga qo‘shilib toqqa ko‘mirga borardi, yoz bo‘yi dashtdan qiy-tezak tashirdi, kuzda qop-qoplab somon to‘plardi. Biz buni ko‘rardig-u lekin qishloqning tepasidagi adirlikda ertadan kechgacha to‘p tepar, chillak urar, hayqirib-qiyqirib quvlash-machoq o‘ynar edik. Namozshom payti bir zumgina Ko‘kalni ko‘rib qolardik. U do‘ng boshida cho‘nqayib, tizzalarini quchgani ko‘yi bizning o‘yinimizga va kattakon chorboqqa o‘xshash Bog‘boloning adl teraklari uchini yallig‘lantirganicha tog‘ ortiga yashirinayotgan oftobga termilib o‘tirar edi. U ichida oh tortardi, ammo uning ohini na biz, na Bog‘bolo teraklari, na-da tog‘ ortiga yashirinayotgan quyosh eshitardi: biz — bola, hech baloni tushunmaydigan go‘dak edik; teraklar — tilsiz, jonsiz; quyosh — barcha jonzotga barobar quyosh yashirib ulgurgan...

— Ko‘ka-al, Ko‘ka-all..

Do‘ng boshidagi Ko‘kal tog‘ boshidagi oftobdek birdan g‘oyib bo‘lardi.

U hech qachon bizga qo‘shilib birpas o‘ynamagan — bola holidi kattalar dunyosiga o‘tib ketgan edi. O‘zi ham bizga qaraganda xiyla qoruvli, rostakam bo‘zbola edi. Maktabga yangi kelgan o‘qituvchi orqangi partada o‘tirgan Ko‘kalga ko‘zi tushsa, albatta “Siz ham... o‘qiyormi?” deb so‘rardi. Adabiyot muallimimiz hazillashib uni “Ko‘kaldosh” deb atardi; “Doskaga chiqish navbati — to‘qson ikki alpning og‘asi, pahlavon Ko‘kaldoshga!”

Ko‘kal onasi buyurgan hamma ishni bajonidil bajarar, faqat Doniyorovning hovuziga borishgina unga azob edi. Lekin har kuni ikki karra — ertalab va kechqurun suv keltirishi shart. Endi satilni suvga botirganida qayoqdandir Doniyorovning baqaloq, badqovoq xotini paydo bo‘ladi:

— Av, suvni loyqatmay ol!.. Av, ko‘zingga qara, hovuzga tushib ketib tag‘in...

Ko'kal "Hay, loyqalansa, yana tinar" yoki "Xudoga shukr, ko'zim bor, xola!" deyishi mumkin, ammo indamaydi. U shosha-pisha satilini yarimlatib iziga qayrilarkan, sarhovuzdagi baland shiyponda to'nini yelkasiga tashlab, o'zi bilan o'zi shaxmat o'ynab o'tirgan basavlat Doniyorov ko'zoynagi ustidan avval unga, so'ngra xotiniga bir qarab qo'yadi. U ham indamaydi.

Ko'kal uning indashidan qo'rqadi, "Bir kun indaydi-yov" deb qo'rqadi. Shunday basavlat, ko'rinishdan badjahl odam indab qolsa... nima bo'lar ekan?

Lekin Doniyorov indamaydi. Ko'zoynagi ustidan odamni teshib yuborgudek bir qaraydi-yu churq etmaydi. Xayoli oldidagi shohlar-u sipohlarda bo'lsa kerak. Yoki shu zormonda hovuzni to'ldirish uchun qayoqlardan suv bog'lab kelishda Ko'kalning ham hissasi borligini, kechalari quloq-dahanalarda yotib mashaqqat chekkanini bilarmikan?..

Doniyorovni hamma "yaxshi odam" deydi, hamma hurmat qiladi. Bu atrofda u minmagan mansab oti yo'q emish: rais bo'lgan, hosilot bo'lgan, MTS direktori bo'lgan... Ana shunday baubro' odam endilikda birmuncha qartayib, allaqanday dardga muhtalo, uyda o'tiradi, kun-uzzukun oldidagi kataklarga tikilib o'zi bilan o'zi kuch sinashadi: harif ham o'zi, raqib ham o'zi. Go'yo bir paytlar yo'qotgan narsasini bugun shu tilsimli kataklardan qidirgandek...

U vaqti-zamonida, ayniqsa, qahatchilik yillari ko'p kishilarga yaxshilik qilgan, mana shu Ko'kalning onasi — sabil qolgan yetimcha qizni ham tog'dan Doniyorov olib kelgan, birmuncha muddat xonadonidan joy ham bergan... Ko'kal bularni biladi, bilgani uchun ham undan mudom nimadir kutib, qo'rqib-hadiksirab yuradi.

Qo'lida satil, Doniyorovning darvozasidan chiqar-chiqmas, onasining shang'illagani eshitiladi:

— Suvga ketib cho'kib o'ldingmi, Ko'ka-al?! Men sen sag'irni deb...

Shunda basavlat Doniyorov joyidan nimxez bo'lib, devor osha bosiq to'ng'illab qo'yadi:

— Bas endi, o'v Mayram!

Onasi tomog'iga tosh tiqilgandek birdan jimib qoladi.

Alamidan telbanamo, serxarxasha bo‘lib qolgan onaning qarg‘ish-qaynovi ostida, otasiz o‘sgani bilan Ko‘kal juda ta‘sirchan, oriyatli edi. Shunday bo‘lmaganida maktabni biz bilan bitirarmidi...

O‘qishlar tugab, yozda pichan o‘rgani chiqdik. Mehnat ta‘tilidan saboq beradigan o‘qituvchimiz Doniyorovning ukasi edi. U har bir bolaga tegishli joyni taqsimlab ko‘rsatdi-da, o‘zi soyning narigi betiga o‘tib ketdi. U yoqdagi o‘rikzorda Salim chaqqon chavki — kurash bermoqda, dam-badam davraning guv-guv olqishlari eshilib turar edi. O‘roq-qurog‘imizni marzalarga uloqtirib, biz ham soy kechib tomoshaga oshiqdik. Unda-bunda kurash tushib yuradigan muallimimiz o‘sha kuni davraga chiqib, dastlabki qo‘ldayoq bir o‘spirindan yiqildi. Buni ko‘rib hammamiz jontalvasa soydan o‘tib, o‘roq-o‘rog‘imizga yopishdik. Izimizdan yetib kelgan alamzada Doniyorov birinchi uchragan bola — Ko‘kalni tergamoqqa tushdi. Ko‘kal nimadir degan edi, muallim uning basharasiga shart-shurt tushirib “Bepadar haromi!” deya o‘shqirdi. Bu gapdan g‘alati titrab ketgan Ko‘kal, qo‘lidagi o‘roqni shiddat bilan havoga sermadi-yu so‘ng soyga uloqtirib, pastak tosh devordan bir hatlab g‘oyib bo‘ldi.

Qizlardan eshitdik: biz hammamiz kurashni tomosha qilgani ketganda bu yerda qolgan yolg‘iz bola — Ko‘kal ekan...

Shu gapdan keyin Ko‘kal qaytib maktabga oyoq bosmadi. Bog‘boloda ham ko‘rinmay qoldi. Tog‘ ichkarisidagi O‘riklida, ona jamoat bobosidan qolgan mulkni obod qilib, o‘rmonda ishlay boshladi. Onda-sonda qari bir baytalni minib Bog‘boloda paydo bo‘lib qolardi. Soqol-mo‘ylovi o‘sgan, bet-boshiga g‘ubor o‘rnashgandek, qiyofasi allaqanday so‘nik, tashvishmand. Lekin endi yelkalari to‘lishib norg‘ul, barzangi yigitga aylangan.

“Ko‘kal armiyadan qochganmish!” degan gap yurib qoldi Bog‘boloda.

Ko‘kal armiyadan qochganmish. Chimildiqdagi oyimtil-lasidan ko‘ngil uzolmay shunday qilganmish. Yangigina tushirib olgan ekan-da o‘zi. Obbo, Ko‘kal-ey! Poyezd qaysi bir bekatda to‘xtaganda qaylig‘ini eslab-qo‘msab, undan muchchi olgisi kelibdi-yu shartta vagondan tushib qolibdi. Xotin degani buncha shirin bo‘lmasa, jonivor! Ko‘ziga allanimalar ko‘ringan-da bachchag‘arning! Obbo, Ko‘kal-ey, obbo, sherimard-ey!

Bu — Bog‘bolodagi gap, bog‘bololiklarning og‘zidagi naql. Endi haqiqatni tog‘ ichkarisidagi O‘riklidan eshiting.

Ko‘kalning harbiy xizmatga chaqirilgani rost edi: axir, u ham odam, u ham yigit, otasi bo‘lmasa, onasi “o‘g‘lim” degan, belida belbog‘i mahkam bo‘zbola — burchini o‘tashi kerak. Tumandagi harbiy komissarlik hovlisida ikki kun sarg‘ayib, kechalari navnihol qaylig‘ini eslagani ham to‘g‘ri, muchchi olgisi kelib tamshanganlari ham... Axir, go‘shangaga kirganiga bir oy to‘lgan emas, Oytumanni bag‘riga bosib mehriga to‘yganicha yo‘q — ketyapti, ikki yilga, musofir yurtlarga ketyapti; Oytuman qolyapti — yolg‘iz, bag‘ri tutab, ikki yilga!.. Nima qilsin bechora Ko‘kal? Lekin qochmadi u: yon-veridagilardan ajralib hovli adog‘idagi kallaklangan tutning tagiga bordi-da, choponini ostiga to‘shab, yonboshlagancha xudo deb yotaverdi. Esi Oytumanda, xayoli Oytumanda. Bir vaqt nomini tutib chaqirib qoldilar. Chaqirib, “Sizni xizmatdan ozod qilamiz, yassitovon ekansiz”, dedilar. Ko‘kal dovdirab qoldi: suyunay desa — sen yigit emassan, xizmatga yaroqsiz ekansan, degandek qilishyapti, kuyunay desa — bu yoqda Oytuman... Nihoyat, ko‘ngli allatovur, oqshom piyodalab O‘rikliga yo‘l tortdi. Oytuman, Oytuman... Otasinikiga ketib qolmadimi? Bormidi o‘zi u?..

Bultur Somondaradan zira ortib qaytayotgan Ko‘kal jalada qolib, Umrqul merganning tosh qo‘rasida bir kecha qo‘noq bo‘ladi. Mergan bilan qo‘rchi chiqib, undan-bundan gurunglashib yotadi. Shu-shu, yo‘l o‘tganda unikiga tushib o‘ta boshlaydi. Merganning bo‘y yetgan qizi bor ekan. Ko‘kal unga qaramas, to‘g‘rirog‘i, qaragani yuragi dov bermas ekan. U bir gal O‘rikliga yetgan joyida orqasiga o‘girilsa — haligi qiz, izidan eragashi-ib kelyapti, merganning bo‘y yetgan qizi! “Yo pirim-ey!” — debdi ichida Ko‘kalboy. — Bu qiz nimaga buytib yuribdi? Tushimmi, o‘ngim? Ey sodda o‘zbek, ey bandai basir, tush-u o‘ngingga yo‘riq qidirib yoqangni ushlaguncha, orqa-oldingga bunday bir nazar tashlab yursang-chi! Izindan jonhalak yo‘l tutgan sargashta ko‘ngildan hol so‘rsang-chi! Ko‘kalboy qizarib-bo‘zarib qizni gapga solibdi. Qiz ammasinikiga ketayotganmish, adashmayin deb qorama-qora yo‘lga chiqqanmish. Ko‘kalboy ishonibdi, chippa-chin ishonibdi. “Unday bo‘lsa, toza charchabsiz, singil...” Ammo mingashmoqqa ko‘nmabdi qiz.

Ko'kalboy bunga ham darrov ko'naqolibdi. Ey bandai g'o'r, bandai g'ofil, bo'y yetgan qiz ammasinikida nima qilsin, ammasi unga deb tuttolqon tuyib o'tiribdimi?!

Bunday hol yana uch bora takrorlanganidan keyingina Ko'kalboyning yigitligi tutadi. O'sha ilk uchrashuvdan beri esxayolini jilovlab olgan bu "ammasiga mehribon jiyani"ni gap-gap bilan daraning og'zidagi xilvat yong'oqzorga boshlab kiradi. Erta kuz ekan, daraxtlarning uchi qontalash, oyoq osti qontalash... Ul yong'oqzorda ne sir, ne savdo kechgan — endi, bir-biriga tashna ikki muntazir ko'ngil-u tepada xudoga ayon.

Kuzakda bir oqshom yakka-so'qqa Ko'kalnikiga tuyqusdan Umrqul mergan mehmon bo'lib kelibdi, yo'q... sovchi bo'lib! "Ko'kalboy, sizni o'g'lim desam..." Ko'kalboy yo'q demabdi — ertasiyoq jonhalpida Bog'bologa enib borib, bir to'da mashvaratchi xotin-xalajni ergashtirib qaytibdi; ularni surdovlashtirib mergannikiga kuzatib qo'ygach, o'zi gangib o'sha — dara og'zidagi yong'oqzorga burilibdi. Shunda oyoq ostidagi — kechagina qontalash, endi qovjirab xazonlar tilga kirib "Oytuman, Oytuman..." deganmish ular. Ishonmasangiz ana, Ko'kal — guvoh...

"Ko'kal o'zini Vetnamga yozdiribdi!" degan yana bir gap tarqaldi Bog'boloda. Bu gapda endi zig'irchalik ham lof yo'q edi.

Bahorda Ko'kalni shoshilinch suratda harbiy komissarlikka chaqirib, qo'liga qog'oz tutqazdilar. "Sizni jo'natmasak bo'lmaydi", dedilar. "Avvalgi safar nega qoldirgan edilaring-uni endi nega jo'natasizlar?" deya so'rab ham o'tirmadi Ko'kal. — O'sha alami ko'nglida yotgan ekanmi, saflarni tekshirib yurgan yoshgina kapitanga qarab "Jo'natsalaring, endi to'g'ri Vetnamga jo'natinglar!" deb yubordi mardonasiga. Kulgidan butun saf, butun hovli larzaga keldi. Lekin Ko'kal kulgiga qo'shilmadi, ahdidida sobit edi: "Ketsam — ketdim-da. Bugun-erta Oytuman o'g'il tug'ib beradi. O'g'lim, o'rnimga qoladigan o'g'lim bo'ladi. Ketsam — ketdim-da!"

Ko'kal ko'p uzoqqa ketmadi — atigi Qarshida, qurilish batalonida xizmat qildi. Ikki marta ta'tilga ham keldi, kelib o'g'ilchasini ko'rib ketdi. U endi yanada to'lishib, azamat yigitga aylangan edi — tovonining taypoqligini kim ko'rib o'tiribdi?!

Ammo, uning tovonini hech kim ko'rmagan bo'lsa ham, bu ishda bir sinoat ko'rganlar bor ekan. "Hah sag'ir-a, Doniyorovning to'ng'ichi o'rnida ketding-a xizmatga! — deyishdi ular, so'ng miyiqda kulib, bosh chayqab qo'yishdi: — Hah, taqdir, ajab charxpalak o'yinlaring bor-da!"

Ko'kal xizmatdan qaytgach, bobosining makonini yana ham obod qildi, qiz ko'rdi, bog' to'ridan o'g'ilchasiga atab imorat soldi. Yashayverdi Ollo deb.

Bu orada keksa Doniyorovning ahvoli to'satdan og'irlashdi. Shiftga tikilgan ko'yi jon taslim qilolmay yotgan bemor bir oqshom kutilmaganda Ko'kalni yo'qlab qoldi. Bog'boloda ko'pchilik nomini ham unutib yuborgan Ko'kal sag'irni! Doniyorov — baobro', badavlat, basavlat Doniyorov! Joni qil ustida turgan bandaning har qanday tilagi — vojib. Ko'kalni boshlab keldilar. Ikkovini xoli qoldirdilar. O'rtada nima gap kechdi — endi yolg'iz Ko'kal biladi. ("O'g'lim, sening otingni o'zim qo'rganman, ko'klamda tug'ilgan eding, mening ham ko'klamim, besabr, bebosh ko'klamim edi..." degan bo'lsa ehtimol Doniyorov.) Har nechuk, ertasi kuni tobut yerdan uzilganda Ko'kal birdan "otam"lab yubordi; chopon kiyib, belbog' bog'lab, mozorga hassakashlar safida bordi. Boshda oriyati qo'zib, marhumning to'ng'ichi Kamol bir xezlanib keldi-yu so'ng Ko'kalning yuz-ko'ziga tikila-tikila, lom-mim deyolmay, boshi egilganicha asta unga ergashdi.

Sochini yoyib, beliga fo'ta o'rab olgan Oytuman hayot — bedapoyadagi zardolining tagida, marhumga jigargo'sha xotinxalajga qo'shilib, yuzlarini tirnay-tirnay sadr tushardi. U avvaliga tariqibroq turdi: "Ebi, sizga bir balo bo'lama, begonaning o'ligida men nima uchun sadr tepar ekanman — enaboshi xotini turganda, qo'sha-qo'sha qizlari turganda?! Ayb qilar elulus..." Ko'kal fig'on aralash zovita qildi: "Nimaga begona deysan, enag'ar, qaynatang bo'ladi, qaynatang!"

Bog'bolo ahlidan, devor-darmiyon qo'shni bo'laturib, yolg'iz Mayram tog'chi kelmadi janazaga. Temirchi erining ko'zi oldida, undan orttirgan besh bolasining ko'zi oldida sochlarini yoyganicha, hovli aylanib tanho o'zi sadr tushganmish u...

Marhumning qirqiga Ko'kal kattakon bir qo'chqorni so'yib, elga ma'raka berdi.

Shu-shu, Ko'kal yana bog'bololikka aylandi. Endi to'y-ma'raka usiz o'tmaydi, u barchasida bel bog'lab, ko'krak kerib xizmat qiladi, ko'krak kerib Bog'boloning ko'chasini to'ldirib yuradi. Ko'zdan qolgan bitta-yarimta mo'ysafid "Kimdi uli bo'lasiz, bolam?" deb so'rab qolsa, dadil javob qaytaradi:

- Doniyorovning, bobo!
- Doniyorovning bolalarini tanigich edim-ku...
- Men to'ng'ichiman, bobo, ko'zni bir qarating!
- To'ng'ichi — Kamol edi chog'i?..
- Men Ko'klamiman, bobo, Ko'klami!
- To'ng'ichi ikkita bo'lar ekan-da, tavba!
- Bitta bo'ladi, bobo, bitta!

Shunday deb javob qiladi Doniyorovning to'ng'ichi Ko'klam — Ko'kal — Ko'kaldosh...

* * *

Najmiddin anchadan beri ko'rinmay ketdi. Men shu kunlarda uning kelib qolishidan qo'rqib yuribman. Kelsa, siz eshitgan naqlni unga ham o'qib berishim kerak bo'ladi. Tinglay turib, tizzasiga shapatilab "To'g'ri, to'ppa-to'g'ri!" desa-ku, murodimga yetganim, bordi-yu "Yaxshi", deb qo'yaqolsa-chi..

Nachora, o'rtabo'yman — bo'ychanroq bo'lishni, qiziqqonman — siporoq bo'lishni, yalqovman — serg'ayrat bo'lishni orzu qilaman. Orzu qilaman...

Axir, bog'bololik Ko'kaldosh niyatiga yetdi-ku!..

1982

MUNDARIJA

<i>Gapni o'zimdanda boshlasam</i>	3
Shaytonchalar ko'chasi	7
Kechirasiz, o'rtoq muallim!	34
Anoyining jaydari olmasi	62
Muzqaymoq	82
Piyoda	101
Shahardan odam keldi	117
Soy bo'yi, chimzor	125
Ertak bilan xayrlashuv	136
Xotira	144
Ostona	150
Ko'k eshik	159
Fayzining amakisi	167
Qor bosgan dovon	177
Bog'bololik Ko'kaldosh	189

ERKIN A'ZAM

ERTAK BILAN XAYRLASHUV

Qissalar va hikoyatlar

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent – 2007
700129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

Muharrir
Rassom
Texnik muharrir
Sahifalovchi

Habib Abdiyev
Anatoliy Bobrov
Mirziyod Olimov
Azamat Jumaniyozov

2007.04.25 bosishga ruxsat etildi. Qog‘oz bichimi $84 \times 108^{1/32}$.
9,33 nashriyot-hisob tabog‘i. 10,5 shartli bosma taboq.
Adadi 4000 nusxa. Bahosi shartnoma asosida. - buyurtma.

G‘ofur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi.
700129, Toshkent, Usmon Yusupov ko‘chasi, 86-uy.